




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman

Toshkent shahri. 2025-yil 6-may





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA’NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN’ATINING O‘RNI”

**mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman
TO‘PLAMI**

2025-yil, 6-may

**GANJINA
Toshkent – 2025**

UDK 78.01
KBK 85.31
Y 96

TAHRIR HAY'ATI

Nodirbek Sayfullayev – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor

Baxtiyor Yakubov – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti prorektori, dotsent

MAS’UL MUHARRIR: Husniddin Xusanov

MUHARRIRLAR: Zulfiya Marufova, Shuxrat Qoraboyev, Asliddin Yusupov

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 6-may kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida o‘tkazilgan “Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma’naviyatini oshirishda musiqa san’atining o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

(Maqolalardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir)

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-aprelda 490-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining 2025-yil 22-yanvardagi 29-sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-8739-7-3

© GANJINA, 2025

Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti rektori, professor*

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari va tadbirimizning aziz mehmonlari! Bugungi respublika ilmiy-amaliy anjumani “Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma’naviyatini oshirishda musiqa san’atining o‘rni” mavzusida o‘tkazilayotganligi bizni juda ham quvontiradi. Sababi, yoshlar – har bir jamiyatning kelajagi, uning ma’naviy va intellektual rivojlanishining asosi bo‘lib, aynan bugungi yoshlar orasida shakllanadigan tafakkur va ma’naviyat jamiyatning kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Musiqa san’ati esa inson tafakkurini boyitish, ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish va yoshlar ongini ijobiy tarafga rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi. U o‘zining estetik go‘zalligi va ruhiy kuchi bilan nafaqat inson qalbini ilhomlantiradi, balki har bir yoshni to‘g‘ri fikrlashga, axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga va ulkan maqsadlar sari intilishga yo‘naltiradi. Bundan tashqari musiqa orqali yoshlar ma’naviy-axloqiy yuksalishga erishib, o‘z ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Bugun o‘z ishini boshlayotgan anjumanimiz ayni shunday ezgu maqsadlarimizning amaliy ifodasi ekanini ta’kidlamoqchiman.

Musiqa – nafaqat eshitish san’ati, balki inson ruhining eng chuqur qatlamlariga ta’sir etadigan bir vosita. Ushbu anjumanda ko‘tarilayotgan mavzu yoshlarimizni yuksak tafakkur va ma’naviyatga erishtirishda musiqa san’atining qanday o‘rni borligini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, zamonaviy musiqaning yoshlar ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish imkonini beradi. Shunday ekan, anjumanning maqsadi – musiqa san’ati yordamida yoshlarning estetik didini tarbiyalash bilan birga, ularga insoniy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni singdirishning ta’sirchan usullarini tahlil qilish, desak xato bo‘lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarga qarata “...xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz”, – degan edi. Yangi O‘zbekistonning milliy musiqa san’atini saqlab qolish va uni rivojlantirishda yoshlarning o‘rni nihoyatda muhimdir.

Shunday ekan, anjumanda o‘z bilimlari va tajribalari bilan o‘rtoqlashadigan barcha ishtirokchilarga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Anjuman qatnashchilariga ilmiy izlanishlarda yangi yutuqlarga erishishni tilaymiz. Bugungi konferensiyada qabul qilinayotgan qarorlarning hayotga tatbiq

etilishi yoshlar ma'naviyatini yuksaltiradigan musiqalarning yaratilishiga hissa qo'shib, ijodiy ishlarda xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yo'ldagi sharaflari va mas'uliyatli ishlaringizda sizlarga omad, kuch-g'ayrat va yangi muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilayman!

Mavrulov Abduxalil Abdulxayevich,
tarix fanlari doktori, professor

MADANIYAT, IJTIMOY HAMKORLIK VA JAMIYAT BIRDAMLIGI

Annotatsiya: *Maqolada ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida jamiyat birdamligi va milliy birlik masalasi o'ta muhim ahamiyat kasb etayotgani, mamlakat taraqqiyoti, fuqarolar tinchligi va farovonligi aynan ana shu birlik masalasi bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Milliy birlik va jamiyat birdamligini mustahkamlovchi eng ta'sirchan omillardan biri madaniyat ekanligi, uning "ijtimoiy kuchi" va "adabiy-badiiy quvvati" jamlangan sharoitda milliy birlik yanada kuchayishi, pirovard natijada davlat va millat barqarorligi ta'minlanishi mumkinligi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Jamiyat, millat, milliy birlik, birdamlik, madaniyat, xonliklar, axloq, ijtimoiy axloq, vatan, o'zbek ruhi.*

Abstract: *The article shows that at the current stage of social development, the issue of social cohesion and national unity is of paramount importance, and that the development of the country, the peace and well-being of citizens are inextricably linked with this issue of unity. It is studied that one of the most influential factors strengthening national unity and social unity is culture, and that in conditions where its "social power" and "literary and artistic power" are concentrated, national unity can be further strengthened, and ultimately the stability of the state and nation can be ensured.*

Keywords: *Society, nation, national unity, solidarity, culture, khanates, morality, social morality, homeland, Uzbek spirit.*

Ma'lumki, o'zbeklar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan kamdan-kam xalqlardan biridir. Albatta bunday katta sivilizatsiya o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, shakllanmagan. Nazarimizda, buning eng muhim omillaridan biri xalqimiz azal-azaldan inoq, hamjihat bo'lib umrguzaronlik qilganidir. Shuning uchun ham yurtimizda Birinchi va Ikkinchi Renessanslar paydo bo'ldi, ilm-fan taraqqiyoti yuksak darajada rivoj topdi. Dunyo yuzida 120 ta mustaqil davlat barpo etgan turkiy xalqlarning orasida o'zbek xalqi, uning buyuk davlatchilik tarixi ham bekorga jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmaydi. Bu yutuqlarning bari o'zbek xalqi azal-azaldan mustahkam milliy birlik, hamjihatlik sifatlariga ega ekanligi bilan mohiyatan bog'liqdir.

Milliy birlik har bir millat, elatning mavjudlik belgisi, o'sha xalq taraqqiyotining eng ustuvor omili va poydevoridir. Shuning uchun ham har doim barcha mustamlakachilar o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun avvalo o'zi

bosib olgan xalqning milliy birligini yo‘qotishga harakat qilganlar. Milliy birlik tufayli sodir etilgan ozodlik harakatlari bostirilgan, uning ishtirokchilari yo‘q qilingan.

Birgina 1899-yildan 1916-yilgacha bo‘lgan qisqa muddatda Turkistonda chorizm mustamlakachilariga qarshi 4412 marotaba isyon-u g‘alayonlar tashkil etildi. Axir milliy birlik bo‘lmaganda, ozodlik va erk uchun shuncha harakatlar tashkil etilarmidi?

Mustamlakachilar istilo qilingan xalqlar o‘rtasidagi milliy birlikni barbod qilish maqsadida turli yo‘llardan foydalandilar. Ayniqsa ular o‘zbek xalqining milliy o‘zligini yo‘qqa chiqarish, milliy tarixi, milliy madaniyati, milliy urf-odatlariga qarshi keskin choralar ko‘rdilar. Tarixiy manbalarga ko‘ra 1917-yilda Turkistonda 20 000 masjid faoliyat ko‘rsatar, xalqimizni iymon-e‘tiqodga chorlar, yoshlarimizni ulug‘ qadriyatlar asosida tarbiyalashda qatnashar edi. Sovet mafkurachilari ushbu masjidlarning xalqimiz milliy birligini saqlash va mustahkamlashdagi alohida o‘rnini e‘tiborga olgan holda ularni ommaviy ravishda yo‘q qilish, qisqartirish yo‘lidan bordi. Bunday masjidlar 1953-yilga kelib 250 tani tashkil etdi xolos. Milliy birlik, istiqlol uchun kurashga chiqqan yuz minglab vatanparvarlarning yostig‘i quritildi. Birgina 1914-1918 yillarning o‘zida Turkistonda 1 million 230 ming yurtdoshlarimiz o‘ldirildi, yana o‘n minglab vatandoshlarimiz o‘z yurtlarini tashlab, o‘zga joylarga ketishga majbur bo‘ldilar [9, 15].

Biz bugun yana bitta achchiq haqiqatni ham esdan chiqarmasligimiz lozim. Gap xalqimiz milliy birligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan subyektiv omillar xususida ketmoqda. Bekorga xalqimiz kelajakka faqat o‘tmish yo‘l ko‘rsatadi, deb aytmagan. O‘z kamchiliklari, yo‘l qo‘ygan xatolarini tan olib, ularni yashirmasdan, kelajakda bunday xatolarga yo‘l qo‘ymaslikni anglab etgan xalqgina munosib kelajak yarata oladi.

Haqiqatdan ham, biz nimaga erishgan bo‘lsak, shubhasiz, xalqimizning milliy birligi orqali erishganmiz. Shuningdek, nimani yo‘qotgan bo‘lsak ham, ana shu fenomen hodisaning ta‘sirida yo‘qotganmiz. Keling, yaxshisi, bu boradagi fikrlarimizni yaqin va uzoq tariximizdagi ayrim aniq misollar bilan asoslashga harakat qilib ko‘raylik.

Tan olaylik, o‘zbek xalqining milliy birligiga putur etkazgan eng mash‘um davr bu – xonliklar davridir. Bu haqda ko‘p gapirildi. Ammo gap u yoki bu salbiy holatning borligini qayta-qayta takrorlash, eslashdangina iborat emas. Hamma gap o‘sha salbiy holatdan ibratli saboq chiqarish ustida. Bu to‘g‘risida ulug‘ bobokalonlarimizdan bo‘lgan alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy mustamlaka zulmi ostiga tushib qolishimiz sabablarining birinchisi xonliklar vaqtida yuzaga kelgan ittifoqsizlik, deya ko‘rsatadi. Ushbu mutafakkir alloma milliy birlik uchun eng

avvalo Vatanni sevisht, milliy ruhiyatga ega bo'lish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi: "mening tubgi maqsadim o'z Vatanida turib g'arib bo'lgan Turkiston xalqini, ayniqsa, hozirgi va kelajak Vatan yoshlarini ogohlantirib, o'lim uyqusidan uyg'otishdir. Ko'nglimdagi munglik qayg'ularimni qalam tumshug'idan to'qib yozgan bu kitobimni (Gap Alixonto'ra Sog'uniyning "Turkiston qayg'usi" kitobi to'g'risida ketmoqda: M.A.) o'quvchi va ham eshituvchi vatanparvar, millatsevar qahramon bolalarimizga mening topshirig'im shulki, tilim uchidan emas, dardlik dilim ichidan chiqarib yozgan yolqinlik so'zlarimni faqat uqibgina o'tmasdan har bir og'iz so'zini tekshirib, uning ustida fikr yuritsinlar. Insoniyat taraqqiyoti emas, madaniyat taraqqiyoti bo'lmish XX asrimizdagi insonlar milliy, vataniy, diniy huquqlarini saqlash uchun qaysi narsalarni qo'lga kiritishi zarur ekanligini yaxshi tushunib, uning chorasiga kirishsinlar" [3, 14]. Ha, haqiqatdan ham, xonliklar davrida mamlakatimiz va uning aholisi juda katta zarar ko'rdi. Xon, amir va boshqa amaldorlarning shaxsiy manfaatlari milliy birlikning mustahkamlanishiga ziyon etkazdi. Boylik orttirish, manfaatlar uchun kurashlar, asosan, ikki maqsadda olib borildi. O'zaro taxt talashishlar bu davrda tinimsiz ravishda davom etdi. Bunda nafaqat o'sha davr boy-badavlat kishilari, amaldorlar, ayni paytda, bir ota va onadan dunyoga kelgan farzandlarning o'zaro taxt talashishlari, shuningdek, ota va o'g'illar o'rtasidagi qonli kurashlar milliy taraqqiyotimizga katta to'siq bo'ldi.

Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misollarni keltiramiz: 1601-yilda Buxoro xonligi Ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tadi. Avvaldan davom etib kelayotgan o'zaro urushlar bu davrda ham to'xtamadi. Garchand Imomqulixon (1611–1642) davrida xonlikda nisbatan osoyishtalik ta'minlangan bo'lsada, biroq uning ukasi Nadr Muhammadxon (1642–1645) vaqtida o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Ko'p o'tmay uning o'g'li Abdulaziz otasidan taxtni tortib oldi.

Xiva xonligiga asos solgan Elbarsxon 1558-yilda o'lganidan so'ng taxt uchun kurash juda avj oladi. Masalan, Arab Muhammadxonga (1602-1623) qarshi o'g'illari jang qilib, uning o'rnini egalladilar. Otalari ko'ziga mil tortib va ko'r qilib qamadilar. XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida tashkil topgan Qo'qon xonligida ham taxt uchun kurashlar tinmadi. Hokimiyat tepasida turgan ming sulolasi hukmdorlari ichki va tashqi dushmanlarga qarshi tinimsiz kurashishga to'g'ri keldi. Oliy hokimiyat da'vogarlari o'rtasidagi kurashlar oqibatida Olimxon, Sherali, Murodxon va Mallaxonlar qatl etildi. Taxt uchun kurashlar jarayonida Xudoyorxon hokimiyatni uch marotaba olishiga to'g'ri keldi.

Vatanimiz tarixida milliy birlikning mustahkamlanishiga xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurashlar ham juda katta ziyon-zahmat etkazdi. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida uzoq davom etgan urushlar davlatchilik tariximizdagi qora dog'lar hisoblanadi. Ayniqsa, 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullaxonning

Qo‘qonga hujumi juda dahshatli oqibatlariga olib keldi. Madalixon, Nodirabegim va boshqa nufuzli kishilar o‘ldirildi. Saroy xazinasi va xalqning boyliklari talandi. Nasrulloxon Madalixonning yosh o‘g‘lini odamlar ko‘z o‘ngida o‘ldirayotganida uning onasi kelib shunday degan: “Ey zolim, sanga osiy bo‘lgan atosi, bu murqihi begunoh nima gunoh qildi?! Ey berahm zolim, qizil qonga bo‘yading, xudoning oldida sening ila murofaa qilmay, sen ham nuri chashmingdan ajrab, xonavayron bo‘lib, qizil qoningga bo‘yal, xonadoningdan ajrab xarob bo‘l”. Amir farmoniga binoan ona ham so‘yildi.

Xonlar va amirlar mamlakatni boshqarish asnosida qonun va qoidalarga amal qilmadilar, ko‘ngilga kelgan ishni bajaraverdilar, xalqning manfaatlarini e‘tiborga olinmadi. Payti kelganda shariat bilan ham hisoblashmadilar. Ularning orasida xotinbozlik, ichkilikbozlik, zulm va adolatsizlik avj oldi. Buxoro hukmdori Abulfayzxon, Nasrullo, Muzaffar, Qo‘qon hukmdori Olimxon (laqabi zulmxon), Xudoyorxon va boshqalar shular jumlasidandir. Amir Nasrullo qonxo‘r bo‘lganligi uchun xalq orasida “Qassob amir” deb yuritilgan [10, 116-117].

Bularning bari biz uchun tarixning achchiq saboqlari bo‘lishi lozim. Xonlar, amirlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, taxt talashishlar avom xalqni adashtirdi. Qadimda buyuk sivilizatsiyalar yaratgan, butun insoniyat taraqqiyotiga beshik bo‘lgan kashfiyotlar tuzgan o‘zbek xalqi xonliklar davrida bir-biridan ajralib ketdi. Xalqimiz qaysi xonning, amirning ortidan borishni bilmasdan ovvora bo‘ldi, o‘zaro kelishmovchiliklar yanada kuchaydi. Shuning uchun ham o‘n to‘qqizinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab bizni istilo qilish imkoniyatlari juda katta bo‘ldi.

Mana, bugun mamlakatimiz o‘z milliy mustaqilligiga ega bo‘lib, Yaratganning va tarixning biz uchun in‘om etgan buyuk ne‘mati asosida Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘liga kirishdik. Uchinchi Renessansning poydevorini qurish vazifasi ham bizning avlodimiz zimmasidagi katta vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi.

Mamlakat rahbari ta’kidlagani kabi, hozirgi kunda bizning xalqimiz hayotida ham yangi tong otmoqda. Bu – yangi taraqqiyot, yuksalish tongidir. El-yurtimiz dunyodagi eng rivojlangan davlatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi. Bu borada bir fikrni alohida ta’kidlash joizki, keyingi yillarda hayotimizning barcha sohalarida keng qamrovli islohot va tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda va muhim ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Ayni paytda doimo harakatdagi va uzoq manzillarni ko‘zlab yashaydigan xalq sifatida biz erishilgan yutuqlar bilan kifoyalanib qolmasligimiz,

xotirjamlikka berilmasligimiz lozim. Bu yo‘lda ko‘zlagan marralarimizga etish va yangi jamiyatning mustahkam poydevorini yaratish, O‘zbekiston shuhratini olamga yoyish bilan bog‘liq dolzarb vazifalarimiz borligini yaxshi anglaymiz [1, 5].

Ana shu dolzarb vazifalarni bajarishda madaniyat fenomenining o‘rni benihoya katta. Bugun hech kim o‘zini va o‘zi yashab turgan jamiyatni madaniyatsiz tasavvur eta olmaydi. Madaniyat so‘zini iste’mol qilmagan, kishilarning bir-biri bilan bo‘ladigan munosabatlarda unga murojaat qilmagan biron kun yo‘q. Ammo, mazkur muhim ijtimoiy hodisa shaxs va jamiyat tomonidan qay darajada anglanishi va amaliy faoliyatda undan qay darajada samarali foydalanish – bu ham nazariy-konseptual, ham kuchli amaliy masala hisoblanadi.

Ma’lumki, bugun jahonda madaniyatning yuzlab ta’riflari bor. Haqiqatdan ham shunday. Ammo, bu borada nafaqat O‘zbekistonda, hattoki jahonda ham umum e’tirof etilgan birorta ta’rif yo‘q. Har kim o‘z nuqtai nazaridan, g‘oyaviy-mafkuraviy pozitsiyasiga suyanan holda madaniyatga ta’rif bermoqda. Bu holatni mutlaqo to‘g‘ri deyish mumkin, zero haqiqatga tortishuvlar, bahslar asosida erishiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davrida eng muhim masalalardan biri madaniyat fenomeni, undan ko‘zlangan maqsadni aniqlab olishdir. Madaniyat haqida juda ko‘plab ta’riflar bor. Masalan, Rossiyada chop etilgan “Eng yangi falsafiy lug‘at”da ta’kidlanishicha, madaniyat ijtimoiy hayotning asosiy tomonlarini qayta ishlash va o‘zgartirish uchun sharoit bo‘lib xizmat qiladigan, biologik jarayonlardan yuqori turadigan, tarixan rivojlanib boradigan insoniy faoliyat va aloqalarning dasturiy tizimidir.

Madaniyatshunos olimlardan biri M.Mojayka esa bilim, ko‘nikma, norma-me’yorlar, ideallar, faoliyat va xatti-harakat namunalari, g‘oyalar va farazlar, ishonch va e’tiqod shakllari, ijtimoiy-maqsadlarini madaniyat ko‘rinishlari, deb hisoblaydi. Uning fikricha, madaniyat faoliyat, xatti-harakat va odamlar orasidagi aloqalar dasturlarini o‘ziga jo etadigan, ularni avloddan avlodga uzatib turadigan ijtimoiy hodisadir [7, 128]. O‘zbekistonlik olimalardan SH.Qahharova esa g‘arb madaniyatshunoslarining xatosi madaniyat inson faoliyati va xatti-harakatlarining zaruriy belgisi – inson faoliyati va xatti-harakatlarini yo‘naltiruvchi vazifasi mutlaqo nazardan chetda qolganligidadir, deb yozadi [11, 54].

“Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar lug‘ati”da madaniyatga shunday ta’rif beriladi: madaniyat (arabchada shaharga doir, farovon maskan, taraqqiyot o‘chog‘i – tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha [8, 285].

Shubhasiz, madaniyat masalasida Sharq va G'arbning o'z qarashlari, nuqtai nazarlari bor. Masalan, G'arbda madaniyat deganda ko'proq insonning o'qimishliligi, bilim darajasi nazarda tutilsa, Sharqda madaniyatlik asosan shaxsning tarbiyasi, uning ma'naviyati, ma'naviy olami, tafakkur tarzi kabi omillar bilan bog'lanadi.

Olimlar tomonidan "madaniyat" to'g'risida ishlab chiqilgan turli nazariyalar asosida uning quyidagi nomlanishlarini qayd etish mumkin. Shu ma'noda madaniyat bu:

- inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar;
- insonning sun'iy, "ikkinchi" tabiati;
- inson faoliyatining umumlashgan majmuasi;
- ijodiy faoliyat;
- jamiyatning ma'naviy holati;
- jamiyatning sifati;
- insonning sifati va boshqalar.

Shu o'rinda biz ham hammualliflikda yozgan asarimizda madaniyat kabi serqirra, fenomen hodisaga quyidagicha ta'rif berganmiz: madaniyat insonning yaratuvchanlik faoliyatini tartibga soladigan, shaxs ma'naviy kamolotiga, ruhiy-aqliy hayotiga ma'no-mazmun beradigan, uning maqsad-muddaolarini jamiyat ijtimoiy mo'ljali bilan uyg'unlashtirishga yordam beradigan fenomen ijtimoiy hodisa hisoblanadi [6, 151].

Endi madaniyatning bugungi kundagi holati va uning ijtimoiy vazifalari haqida fikrlashamiz. Gap shundagi, jahonda yuz berayotgan bugungi kundagi o'zgarishlar, o'zaro manfaatlar kurashi, davlatlararo va mintaqalararo ziddiyatlar, milliy madaniyatlarning haddan ortiq darajada siyosiylashuvi, ayrim mamlakatlar siyosatidagi gegemonlik kayfiyati – bular, shubhasiz, barcha davlatlar ijtimoiy-madaniy muhitiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Buning natijasida, umuminsoniy qadriyatlar sifatida tan olingan o'zaro hamkorlik, do'stlik va vatanparvarlik, adolat, gumanizm, tinchlik, murosasozlik kabi qadriyatlarning muayyan darajada qadrsizlanish jarayoni yuz bermoqda.

Bu esa madaniyatning eng muhim funksiyalari, dolzarb vazifalarini aniqlab olishni talab qiladi. Nazarimizda, bugungi O'zbekiston sharoitida madaniyatning eng muhim funksiyalaridan biri – xalqni birlashtirish, oddiyroq qilib aytganda, milliy birlik masalasidir.

Milliy birlik har bir millat, elatning mavjudlik belgisi, o'sha xalq taraqqiyotining eng ustuvor omili va poydevoridir. Shuning uchun ham har doim barcha mustamlakachilar o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun avvalo bosib olgan xalqning milliy birligini yo'qotishga harakat qilganlar. Shu ma'noda aytish mumkinki, o'zbek xalqi nimaga erishgan bo'lsa, shubhasiz, milliy birlik tufayli

erishgan, shuningdek, milliy tariximizda nimani yo‘qotgan bo‘lsak ham, aynan shu fenomen hodisaning ta’sirida yo‘qotganmiz.

Har doim, insonning ham quvonchli, ham xursandchilik kunlarida, ham tashvishli, millat qayg‘uga tushgan paytlar ham odamlar madaniyat masalasiga e’tibor berishgan, undan ruhiy quvvat olishgan. Bunga tarixda misollar juda ko‘p. Biz bugun mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadida yashayapmiz, mehnat qilyapmiz, o‘qib-o‘rganyapmiz. Yangi jamiyatni barpo etish o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. Buning uchun esa millat birlashishi, mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar yagona maqsad sari birlashishi zarur.

Mamlakat rahbariyati ham ana shunday murakkab vazifani ado etishda madaniyat eng ta’sirchan kuch ekanligiga alohida e’tibor beryapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, “mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga etish tuyg‘ularini kuchaytirish ma’naviy-ma’rifiy sohalar vakillari, madaniyat va san’at namoyandalari hamda ijod ahlining o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Biz bunday sharaflı yo‘lda ularni o‘zimizga eng yaqin ko‘makchi va maslakdosh deb bilib, ularning yordami va qo‘llab-quvvatlashiga tayanamiz” [2, 280].

Yaqin o‘tmishda, sovet mustabid tuzumi davrida odamlar madaniyat hodisasidan chetga chiqadigan, o‘sha paytda yozilgan va milliy tariximiz, milliy qadriyatlarimizni ochiqdan-ochiq nazar-pisand etmagan “asarlar”dan begonalasha boshlagan edi. Ammo, mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi 7-8 yil davomida bu masalada holat keskin o‘zgardi. Jamiyatda to‘planib qolgan jiddiy, avvallari yoritilishi mumkin bo‘lmagan mavzularda asarlar yaratila boshlandi. Milliy tariximiz, milliy madaniyatimiz, ayniqsa, milliy ziyolilarimiz haqida turli sahna asarlari, kino mahsulotlari, adabiy-badiiy kitoblar yaratila boshlandi. Ularning bari yagona maqsad – milliy birlikni shakllantirish, jamiyatda ijtimoiy birdamlik muhitini yaratishdan iborat bo‘ldi.

Bularning bari madaniyat va san’atda ham o‘z aksini topdi. Odamlarda yana madaniyat va san’atga qiziqish boshlandi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga shiddat bilan kirib kelishi, uning ta’sir doirasining yanada kengaya borishi xalq milliy ruhiyati, milliy mentalitetiga yot bo‘lgan turli tahdidlar sonini ham oshirib yubordi. Ana shunday sharoitda tomoshabin, o‘quvchi, eshituvchi endi ijodkordan o‘z ehtiyojini qodirishga qodir bo‘ladigan asarlarni talab qila boshladi. Ijodkor esa bu talabni bir zarb bilan bajara olmas edi. Hozirgi ijtimoiy-madaniy muhitning eng muhim jihatlaridan biri ham ana shunda edi.

Shu o'rinda quyidagi uchta holatga e'tibor berish kerak, deb o'ylaymiz. *Birinchidan*, jamiyat ma'naviy-madaniy muhiti, aholi madaniy ehtiyojlarini shakllanishi, qondirilishi eng avvalo o'sha davrda yaratilgan va iste'mol qilinayotgan barcha madaniyat va san'at asarlari, ularning namunalariga bog'liq. ya'ni, mazkur asarlar aholining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy qiyofasiga, pirovard natijada millatni birlashtirishga qanchalar darajada ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsata olishi o'ta muhim.

Madaniyatning "ijtimoiy kuchi" jamiyat a'zolarining faolligini, ularning milliy birligini, butun jamiyatning birdamligini, safarbarligini ta'minlovchi ta'sirchan omil bo'lib maydonga chiqadi. Bunda o'sha madaniyat, uning ko'rinishlari, yaratilgan asarlarning adabiy-badiiy quvvati, hech shubhasiz, ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Ayni paytda mazkur ikki buyuk kuch – asarning "ijtimoiy kuchi" va "adabiy-badiiy quvvati" birlashgan makonda va zamonda madaniyatning tom ma'noda yaratuvchanlik quvvati ko'rinadi.

Ikkinchidan, madaniyat va san'atdagi "ijtimoiy kuch"ning jamiyat va millat taraqqiyotiga ta'siri tufayli aholi madaniy ehtiyojlari ortib boradi. Shuning uchun ham har qanday asarning badiiy-ruhiy quvvatini uning jamiyat a'zolarining ijtimoiy-ma'naviy faolligini oshirishda, kishilar ma'naviy olamining qay yo'sinda shakllanganligida ko'rish mumkin.

Uchinchidan, yaratilgan asarning shaxs va jamiyatga foydalilik darajasi uni iste'mol qiluvchi uchun yaratilgan shart-sharoitlarga ham bog'liq. Bunday sharoit madaniy meros iste'molchisining jamiyatda tutgan ijtimoiy o'rni, uning maqomi, madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratilgan infratuzulma kabilar bilan bog'liqdir. Bu bir-biri bilan bog'liq masalalar jamligi asosidagina aholi madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va to'laqonli qondirish mumkin [4, 180].

Xo'sh, madaniyatning jamiyatda ijtimoiy birdamlik ruhini shakllantirishda, milliy birlikni ta'minlashdagi eng muhim omil nimadan iborat? Bu o'ta muhim masala hisoblanadi. Gap shundan iboratki, jamiyatni birdamligi o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uning uchun muayyan shart-sharoit, muhit kerak. Bizning nazarimizda ana shunday muhit yangi ma'naviy makonda shakllanishi mumkin. Mamlakat rahbari qayd etgani kabi, "Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir" [1, 266].

Demak, milliy birlik va jamiyat ijtimoiy birdamligi uchun yangi ma'naviy muhit lozim ekan, unida o'sha makonning eng muhim belgilari nimalardan iborat? Mening nazarimda yangi ma'naviy makonni barpo etish uchun *birinchidan*, jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit kerak. Bunday muhit hozirgi kunda bunyod etilmoqda. *Ikkinchidan*, davlat va xalq o'rtasida ishonch ruhiga qurilgan

mustahkam ijtimoiy birlik zarur. *Uchinchidan*, jamiyatda barqaror ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilish muhitini yaratish maqsadga muvofiq.

Madaniyat sohasining eng muhim vazifasi ana shu yangi ma'naviy makonni yaratishdan iboratdir. Ammo, bugungi kunda mazkur vazifani bajarishga xalaqit qilayotgan qator obyektiv va subyektiv sabablar bor. Jamiyat hayotida, ayniqsa, katta-kichik rahbarlar orasida poraxo'rlik, korrupsiya holatlarining kuchayib borayotganligi, axloqiy buzuvchilikning turli ko'rinishlari kundan-kunga urchib, ko'payayotganligi, odamlar, ayniqsa, e'tiqodi sust, o'zini anglay olish malakasiga ega bo'lmagan yoshlar orasida mehnat qilmasdan lazzat topish dardida yurganlarning paydo bo'layotgani, beparvolik, loqaydlik "kasali"ga muhtalo bo'layotganlar sonining ortib borayotganligi ana shu sabablarning ayrimlari hisoblanadi.

Madaniyatning bugungi kundagi muhim ijtimoiy funksiyasi aslida biz yuqorida sanab o'tgan illatlarning oldini olishga qaratilishi lozim. Biroq, bugungi kunda ayrim holatlarda yaratilayotgan madaniyat va san'at asarlari, ayniqsa, teleseriallar va qo'shiqchilikdagi nuqsonlar millatni birlashtirish va jamiyatda ijtimoiy birdamlik kayfiyatini shakllantirishga xalaqit qilyapti. Juda mayda maishiy mavzular, bachkana kliplar, o'zini-o'zi boshqara olishni bilmaydigan soxta "san'atkorlar", bularning bari milliy madaniyatning rivojlanishiga, pirovard natijada millat va jamiyat rivojiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda madaniyat sohasining jamiyat ijtimoiy birdamligi, milliy birlikni rivojlantirish va takomillashtirishda e'tibor berishi lozim bo'lgan ayrim yo'nalishlarni taklif etamiz. Gap shundan iboratki, avvallari madaniyat va san'at sohasidagi faoliyati iyerarxiyasida odamgarchilik, insof-diyonat, adolat, vatanparvarlik, yuksak e'tiqod va axloq masalalari oldingi o'rinlarda turgan. Bugun esa o'sha iyerarxiyada dastlabki o'rinlarni ayrim fuqarolardagi moddiyotga qullik, "bu dunyoda faqat lazzat qidirish", "iloji boricha surib qolish", o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan yuqori qo'yish kabi illatlar egallamoqda.

Shu nuqtai nazardan, mening fikrimcha, madaniyat sohasining faoliyat iyerarxiyasida eng avvalo, *birinchidan*, vatan tuyg'usini shakllantirish turishi lozim. Milliy birlikni yagona Vatan tuyg'usi, Vatan hissiga shakllantira olishi mumkin. Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodir bo'lganligini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak. "O'zbekiston" deganda o'zbek xalqini, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni tushushni to'g'ri bo'ladi. Birisiz ikkinchisini his etib bo'lmaydi [5, 146].

Ikkinchidan, mazkur iyerarxiyada ijtimoiy axloq masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Axloqiylik har bir insonning o'zi va jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatga nisbatan munosabatida aks etadi. Axloqiylikning ayrim ko'rinishlari insonning tashqi harakatlarida namoyon bo'lsa-da, ayni paytda, uning tomonidagi axloqiy sifatleri individning ichki ruhiyatida makon topadi. Shuning uchun ham axloqiylik har birimizning ichki, botiniy hayotimizda yashaydi. Ana shunday sifatlar asosida biz tarbiya topamiz, o'zimizni isloh qilishga ehtiyoj sezamiz, pirovard natijada real hayot va axloqiy ideal o'rtasidagi chegaralarni qisqartiramiz.

Xo'sh, unda ijtimoiy axloq nima? Ijtimoiy axloq – kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolari faoliyatini sog'lom, insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini o'zida jam qilgan qadriyatlar bilan bezaydigan kuch.

Uchinchidan, madaniyatning milliy birlik va jamiyat ijtimoiy birdamligini ta'minlashdagi faoliyat iyerarxiyasidagi muhim fenomen hodisa hozirgi muayyan makonda o'zbek ruhini shakllantirishdir. O'zbek ruhi jamiyatdagi boshqa millat va elat vakillarining mavqeiga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, barcha millat va elat vakillari titul millat – bag'rikeng, umuminsoniy qadriyatlarni baland qadrlaydigan, tenglik, tinchlikni o'ziga shior qilib olgan o'zbek millati atrofida birlashib, jamiyat ijtimoiy mo'ljallarini amalga oshirishda o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadilar.

O'zbek ruhi bugun, dunyoning juda tez rivojlanib borayotgan, globalashuv avj olgan davrda barcha yutuqlarimizning poydevori bo'ladi. O'zbek ruhining ming yillar davomida shakllanib, sayqal topib kelgan jihatlarini uning fazilatleri tashkil etadi. Bizning nazarimizda, bu fazilatlar quyidagilardan iborat: iymon, sabr, savob, rahmdillik, ulug'vorlik, saxovat, samimiylik, takalluf, vazminlik, mo'tadillik, mulohazalik, mas'uliyat, ma'naviy burch, mas'uliyat, optimizm, tashabbus va boshqalar.

Biz yuqorida sanab o'tgan har uch fenomen hodisa – Vatan tuyg'usi, ijtimoiy axloq va o'zbek ruhi birlashgan zamonda va makonda mazkur millat va davlat taraqqiy etishi tayin. Biroq, ana shu narsalar milliy madaniyat va san'at vositasida ro'yobga chiqarilmas ekan, milliy taraqqiyot, milliy birlik va jamiyat birdamligi to'g'risida gapirish ortiqcha matohdan bo'lak narsa emas.

Shu ma'noda jamiyatda milliy birlik va ijtimoiy birdamlik muhitini yaratish uchun mazkur hodisalarni ijtimoiy harakatga aylantirish lozim. Xo'sh, bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida milliy birlikka erishishni ijtimoiy harakatga aylantirish uchun nima qilish lozim? *Birinchidan*, aholining muayyan qismida shakllanib qolgan, ba'zi hollarda yanada kuchayib borayotgan mayda maishiy tafakkur tarzini isloh etish lozim. Bu oson ish emas. Bunday odamlar tafakkur

tarzida ustuvorlik faqat moddiyot masalasiga qaratiladi. Ular, odatda, allomalarimiz ta'kid qilganliklaridek, o'z tanalarini ruhiyatlariga boysundira olmaydigan kishilardir. Bundaylar ko'pincha moddiy ne'matlar, ozgina iqtisodiy manfaat oldida o'z qarashlari, nuqtai nazarlarini o'zgartirishga moyil bo'ladilar. Vatan, millat, ularning tub manfaatlari ana shunday kishilar uchun o'z ustuvorligini yo'qotadi.

Ikkinchidan, har qanday milliy birlikning kushandasi mahalliychilik hisoblanadi. Mahalliychilik odatda millatning ichidagi uni eb bitiradigan qurt, desak ham xato bo'lmaydi. Mahalliychilik mayda fikrlashning mevasi, milliy taraqqiyotning mazmun-mohiyatini bilmaslik oqibati. Agar biz hayotimizda hozir ham uchrab turadigan mahalliychilikdan iborat past, mayda "tafakkur"dan xalos bo'lmas ekanmiz, tom ma'nodagi milliy birlik to'g'risida bong urish befoйда.

Uchinchidan, milliy birlik tuyg'usi va uning zarurligi u yoki bu titul millatgagina tegishli his emas. Biz milliy birlik haqida fikr yuritar ekanmiz, hech shubhasiz, gap mamlakatimizda inoq va ahil mehnat qilib, istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillarini nazarda tutamiz. Ko'pmillatli xalqimizning birdamligi, hamjihatligi va jipsligi bugungi O'zbekistonning eng katta boyligi va barcha yutuqlarimiz garovidir.

Milliy birlik deganda yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha millat vakillarini yagona maqsad – Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi asosida birlashtirish nazarda tutiladi. Milliy birlik keng qamrovli, butun jamiyat tarixiy taqdiriga tegishli tushuncha bo'lib, uning oqibati mamlakat va har bir millatning yanada rivojlanishi yoki tanazzuliga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, milliy birlikni quruq safsatabozlik bilan ta'minlash aslo mumkin emas. Vatanni ta'siri yo'q shiorlar, besamara tadbirlar orqali mustahkamlashga urinish, bu masalaga ko'r-ko'rona yondoshish soxta fanatizmni yuzaga keltirishini ham unutish mumkin emas. Bu boradagi soxta fanatizm aslida yuksak e'tiqodga aylanmagan, milliy birlik va vatanparvarlik g'oyalarini yuzaki, ta'sirsiz qabul qilish orqali shakllangan havoyi tafakkurdir.

Shuning uchun ham jamiyat birdamligi, milliy birlikka erishishda eng muhim, ta'sirchan vosita madaniyat, yaratilayotgan madaniy boyliklardir. Vatanparvarlik, yuksak e'tiqod, ijtimoiy axloq masalalarini, bu borada to'planib qolayotgan muammolarni hal etishning, yoshlarimizni to'g'ri yo'llardan adashtirayotgan illatlarga qarshi kurashishning eng samarali yo'li ham madaniyat kabi o'ta muhim fenomen hodisa orqali amalga oshirilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, "O'zbekiston", 2022. 266-bet.
2. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. -Toshkent, "O'zbekiston", 2024. 280-bet.
3. Alixonto'ra Sog'unliy. Turkiston qayg'usi. – Toshkent, 2003. 14-bet.
4. Mavrulova M. Shaxs madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish masalalari. -Toshkent, "Fan", 2024. 180-bet.
5. Vatan tuyg'usi. – Toshkent, "Sharq", 1996. 146-bet.
6. Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi. -Toshkent, "Fan", 2024. 151-bet.
7. Можейко М. Культура. Новейший философский словарь. 3-изд. – М., "Книжный Дом", 2003.128-бет.
8. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar lug'ati. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2021. 285-bet.
9. Tohir Qahhor. Hur O'zbekiston uchun. – Toshkent, 1994. 15-bet.
10. Ziyoyev Hamid. Tarixning ochilmagan sahifalari. Toshkent, 2003. 116-117-betlar.
11. Global ma'naviyat- globallashuvning g'oyaviy asosi. -Toshkent, "Tafakkur", 2009. 54-bet.

Safarov Orol Abdumannonovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Milliy qo'shiqchilik” kafedrasi professori,
O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi

YOSHLARNING RUHIY VA EMOTSIONAL SALOMATLIGIGA ERISHISHDA MUSIQA TERAPIYASINING O'RNI

Annotatsiya: *Musiqa terapiyasi bugungi kunda tinglovchiga ta'sir o'tkazishning kuchli vositasi ekanligi aniqlandi. Aynan musiqa yordamda insonning psixo emotsional holatiga ta'sir qilish mumkin. Bundan tashqari musiqaning davolovchi xususiyatini o'rganib boruvchi bir qancha guruh va tashkilotlar ham bor bo'lib, ular haqida maqolada qisqacha to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, maqolada asosan musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilish mexanizmi yoritib berilgan. Bu borada milliy musiqalarimizning ahamiyati bildirilib, dolzarb masalalarga echim keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *musiqa, terapiya, tinglovchi, ommaviy madaniyat, psixo emotsional holat.*

Annotation: *Today, music therapy is considered a powerful means of influencing the listener. It is music that can influence the psychoemotional state of a person who is being helped. In addition, there are several groups and organizations studying the healing properties of music, which are briefly mentioned in the article. In addition, the article mainly examines the mechanism by which music affects the human psyche. In this regard, the importance of our national music is emphasized and ways to solve current problems are proposed.*

Keywords: *music therapy, listener, mass culture, psychoemotional state.*

Bugungi kunda olimlar tomonidan musiqaning inson organizmi va xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'siri jihatidan o'rganila boshlandi va bu borada bir nechta ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Musiqa ohanglari tibbiyotda va psixologiyada odamning ham jismoniy, ham ruhiy salomatligini qo'llab - quvvatlash maqsadida keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda “musiqa terapiya” atamasi tobora keng qo'llanilmoqda va bu yo'nalishning chuqur ildizlarga ega ekanligi, ta'sir doirasi biz o'ylagandan ko'ra keng ekanligi ilmiy izlanishlar orqali aniqlanmoqda.

Bilamizki, musiqa terapiyasi bilan bizning yurtimizda ham qadimda keng shug'ullanilgan va bu haqda qadimiy ilmiy risolalarda yozuvlar, tasvirlar orqali dalillar keltirilgan. Bu haqda batafsil to'xtalib o'tmoqchi emasmiz, balki musiqa terapiyaning yoshlar ruhiy - emotsional holatiga ta'sirini ko'rib chiqmoqchimiz xolos. Aslida ham, musiqa terapiya psixoterapevtik uslub bo'lib, uning asosida

musiqaning inson ruhiyatiga shifobaxsh ta'siri yotadi. Musiqaterapiya 2 hil bo'ladi:


- Faol musiqa terapiya.
- Passiv musiqa terapiya.

Musiqiy asarlarni tinglash orqali inson ruhiyatiga va salomatligiga ta'sir qilish bu musiqa terapiyaning passiv turi sanaladi. Musiqiy asarlarni bevosita ijro etish orqali esa musiqa terapiyaning faol turiga erishiladi. Insonning ruhiy-emotsional holatini yaxshilash uchun esa musiqa terapiyaning ushbu ikkala turidan ham foydalaniladi.

Xarina G.V. va hammualliflarning [1] bergan ma'lumotlariga ko'ra, musiqa kuchli stress holatlarida ijtimoiy rehabilitatsiyaning usullaridan biri sifatida qo'llanilishi mumkin. Nalbandyan M.A. va hammualliflarining [2] tadqiqotlarida ma'lum bir simfonik asarlar odamning nafaqat emotsional holatiga, balki ovqat xazm qilish va qon aylanish tizimiga ham ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, musiqa terapiyasining ikki yo'nalishi farqlanib, biri uning odam psixoemotsional holatiga ta'sir etishida, biri salomatligiga ta'sir etishida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda musiqa bilan davolash jarayonini amaliyotda tadbiq etayotgan bir qancha guruhlar, tashkilotlar mavjud.

TÜMATA (Turk musiqasini tadqiq qilish va targ'ib qilish guruhi) 1976 yilda professor Dr. Rahmi Oruç Güvenç tomonidan tashkil etilgan Turkiyada musiqa terapiyasi an'analarini tadqiq etuvchi guruhlardan biri sanaladi. Ushbu guruh an'anaviy davolash usuli va musiqani birlashtirgan holda faoliyat olib boradi hamda musiqaning davolash maqsadida qo'llanilishini, qadimdan mavjud ushbu yo'nalishni davom ettirishni maqsad qilib olgan. TÜMATA guruhning olib borayotgan tadqiqotlari orasida Baxshi raqsi, arxetipik harakatlari, tasvir terapiyasi, Maqom musiqasi bilan davolash va pentatonik musiqa bilan davolash dasturlari o'rin olgan. Bu tadqiqotlardan maqsad shuki, ularning bugungi zamonaviy davolash jarayonlarida amaliyotga joriy etish va samarali natijalarni qo'lga kiritishdir[3].



TÜMATAning Rost va Xijoz maqomi bilan davolash muolajasi.

1985-yilda Italiyaning Genuya shahrida Butunjahon musiqa terapiyasi federatsiyasi rasman tashkil etildi. U bugungi kunda AQSHning Shimoliy Karolina shtati qonunlariga muvofiq tashkil etilgan notijorat korporatsiya sanaladi. Federatsiyaning maqsadi musiqa terapiyasini butun dunyo bo'ylab ommalashtirish, musiqa terapevtlarini tayyorlash va ta'lim tizimini joriy etish, musiqa terapevtlarining faoliyatini optimallashtirish, xalqaro tadqiqotlar hamkorligini qo'llab quvvatlash, ushbu yo'nalishda olinayotgan yangiliklar bilan almashinish, musiqa terapevtlarining butun dunyoda professional kasb sifatida tan olinishiga erishish, musiqa terapiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni yangi texnologiyalar va multimediya yordamida dunyo bo'ylab tarqatish va har uch yilda bir marta Butun dunyo musiqa terapiyasi kongressini boshqarish va olib borishdir[4]. Butunjahon musiqa terapiyasi federsiyasi faoliyati bir qancha davlatlarda davom ettirilmoqda. Mana shu tashkilotlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlar orqali musiqa terapiyasining inson ruhiy emotsional holatiga ta'sir mexanizmi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Musiqaterapiyaning asosida insonga ta'sir qiluvchi omil sifatida tovush tebranishi qabul qilingan. Tovush tebranishi bu fizik hodisa bo'lib, tovushning tarqalishi jarayonida yuzaga keladi. Tovush hosil bo'lganda manba havo yoki boshqa muhitda tebranishni yuzaga keltiradi va to'liqlik harakatlari orqali uzatiladi. Odam 20 Gs dan to 20 kGs gacha bo'lgan diapazonda tovush tebranishlarini qabul qiladi. Bu odamning eshitish diapazoni deyiladi[5]. Biroq odamning yoshi, salomatligi va boshqa omillar ushbu diapazonda eshitish qobiliyatiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Masalan, yosh ulg'aygani sari ko'p odamlar yuqori chastotali tovushlarni qabul qilish xususiyatlarini yo'qota boshlaydilar.

Olimlar ilmiy tadqiqotlar natijasida shunday xulosalarga keldilar, ya'ni urma cholg'ularining past chastotali tovushlari inson xotirasiga ta'sir qiladi va uning susayishiga olib keladi. Yuqori chastotali tovushlari esa intellektual rivojlanishga javob beruvchi miya markazini nobud qiladi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, musiqaning ruhiy emotsional holatga ta'sirini o'rganishda tovush tebranishining barcha parametrlarini hisobga olmaslikning iloji yo'q. Odamga ta'sir qilish vaqtida har qanday tovush parametrlari me'yoriy ko'rsatkichlardan og'ishi mumkin emas. Aks holda, nohush fiziologik o'zgarishlar, noqulayliklar yuzaga keladi.

Dam olish vaqtida musiqa terapiyasi natijasida odam bo'shashadi, tinchlanadi, ruhini xotirjamlik qamrab oladi, negativ emotsiyalardan halos bo'ladi, havotir tuyg'usini bartaraf etadi. Natijada musiqaning ta'siri natijasida odam hayotiy quvvatini tezroq to'ldirib oladi, ichki quvvat, chidamlilik, jismoniy

faollik ortadi. Aqliy faoliyat bilan shug'ullanish vaqtida musiqa tinglash miya faoliyatining tezda tiklanishiga va samarali ishlashiga olib keladi. Bundan tashqari musiqa xursandchilik, xafalik, hayajon, hotirjamlik kabi turli emotsiyalarni yuzaga keltirish mumkin. Musiqa emotsiyalarni qayta ishlash va namoyon etish, ijobiy emotsiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Go'zal musiqa tinglovchining kayfiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, stress va zo'riqish holatini pasaytiradi, stressga qarshiligini oshiradi. Musiqa uyquning sifatiga ham ijobiy ta'sir qilish kuchiga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar har qanday musiqaga ham xos emas, albatta. Qachonki musiqa asl ohanglardan iborat bo'lsa, sun'iy tovushlardan holi, inson qulog'i ilg'aydigan me'yoriy chegaradagi tovushlar tebranishidan tashkil topgan bo'lsagina yuqorida sanab o'tilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Bunday musiqalarga misol tariqasida o'zbek milliy mumtoz asarlarimizni keltirishimiz mumkin. Darvesh ali Changiyning musiqiy risolasida o'rta asrlarda yashab ijod etgan bir qancha ijodkorlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qiziq tomoni shundaki, ushbu risolada keltirilishicha, o'rta asrlarda shunday sozandalar ijod qilganki, ular uzoq vaqt kuy ijro eta olishmagan. Masalan, risolada keltirilgan Alijon G'ijjakiy g'ijjak cholg'usida kuylar bastalab ijro etar va go'zal ovozida xonandalik ham qilar edi. Uning ijrosi shu qadar ta'sirli bo'lganki, tinglovchilar ma'lum vaqtdan so'ng hushidan keta boshlar ekanlar. Ba'zilarining o'lib qolish xavfi bo'lganidan, Alijon G'ijjakiy ijrosini to'xtatishga majbur bo'lar ekan [6]. Aynan mana shu ma'lumotning o'ziyoq asl va sof musiqa inson ruhiyatiga va jismoniy holatiga juda yuqori darajada ta'sir qilishi mumkin ekanligini ko'rsatib turibdi.

Musiqaning aynan mana shu xususiyatlaridan bugungi kunda biz yoshlarimizni tarbiyalashda samarali foydalanishimiz mumkin. Ularni intellektual jihatdan yuqori salohiyatga ega, kognitiv xususiyatlari mukammal, dunyoqarashi keng, milliyligimizga mehr - muhabbatli, vatanparvar qilib tarbiyalashimiz uchun ularning qanday ohanglarni eshitayotganlaridan ogoh bo'lishimiz kerak. Ularni betakror, sof va go'zal sanalgan milliy kuylarimiz bilan tanishtirishimiz, bu asarlarga qiziqishini oshirishimiz va qulog'ini o'rgatishimiz kerak. Bu jarayon, bizningcha farzandlarimizni milliy cholg'ularimiz bilan tanishtirishdan boshlanadi. O'zbek xalqining rang barang cholg'ulari borki, har bir bola ular orasidan o'ziga yoqadigan va uning qiziqishini uyg'otadigan cholg'uni muaqqaq topadi. Cholg'uni tanlagach, asta sekinlik bilan milliy ohanglarimizga oshno bo'lib boraveradi.

Bugungi ommaviy madaniyatga mos ravishda kirib kelayotgan "musiqa"larning yoshlarimiz ongiga o'rnamshib olishi, ertaga o'zining salbiy oqibatlarini bilan namoyon bo'ladi. Bunday holatni xalqimiz tarix davomida qisman

guvohi bo'lgan. Mana shu holat yana davom etmasligi uchun asl ohanglarimizning terapevtik xususiyatini o'rganib, undan unumli foydalanishga intilishimiz lozim. Bundan ko'rinib turibdiki, bu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga ehtiyojimiz baland. Mavzu o'ta dolzarb. Turli yo'nalishdagi (san'at, psixologiya, tibbiyot, pedagogika) yosh tadqiqotchi olimlarimiz birlashgan holda musiqaning aynan terapevtik jihatlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etsalar va yangiliklarni joriy qilsalar yoshlarimizning ruhiy va emotsional jihatdan yanada sog'lom bo'lishlariga erishishimiz ehtimoli yanada ortadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Харина Г.В., Топоришев М.С. Роль музыкотерапии в поддержании комфортных условий жизнедеятельности человека // Научное обозрение. Педагогические науки. 2023. № 6. С. 53-57
2. Nalbandyan M.A., Migunova M.G. Muzikoterapiya i ee stanovleniye v nauke i praktike // Kant. –2012. -No 2. -S. 113-116
3. <https://sematradition.com/who-we-are/tumata/>
4. Muzikalnaya terapiya segodnya WFMT onlayn-jurnal Tom 18, № 1. 2023
5. William Yost. Audition // Handbook of Psychology: Experimental psychology / Alice F. Healy ; Robert W. Proctor. — John Wiley and Sons, 2003. — P. 130.
6. Семенов А.А. “Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али”, Тошкент, 1946 г.

Tajadinova Guljaxan Nizamatdinovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori

QORAQALPOQ KINO SA'NATIDA MILLIY MUSIQANING O'ZIGA XOSLIGI

Қарақалпақкино өнерінде миллий музыканың өзине тән өзгешелиги

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq kino san'atida milliy ohanglarga boy navolardan unumli foydalanishning o'ziga xos usullari va kino ta'sirchanligini orttirishda musiqaning roli haqida batafsil o'rganib tahlil qilindi. Yoshlar tafakkurini rivojlantirishda va man'aviyatini oshirishda qoraqalpoq kino sa'natidagi milliy musiqaning tutgan o'rni haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: kinodokumentalistika, film, xarakter, syujet, voqiye, milliy qahramon, janr, musiqa san'ati.

Annotation: This article examines in detail the unique methods of using rich national in Karakalpak cinema and the role of music in enhancing the impact of cinema. It also discusses the role of national music in Karakalpak cinema in developing melodies the thinking and spirituality of young people.

Key words: documentary filmmaking, film, character, plot, fact, national hero, genre, art of music.

Кинофильмлерде дәстүрий музыка өнери жанрларынан утымлы пайдаланыў арқалы жасларымыздың сана-сезимин ҳәм мәнаўиятын раўажландырыўға ҳәм миллий музыкалық шығармаларымызды кино арқалы үгит-нәсиятлаўға айрықша үлес қосамыз.

Қарақалпақ кино өнеринде миллий ырғақларға бай намалардан орынлы пайдаланып, бириншиден киноның тәсиршеңлигин арттырыўға үлес қосып атырғаны менен қунлы болса, екиншиден, миллий колоритке бай қарақалпақ намаларынан бақсы ҳәм жыраўлар атқарған қосық-сазларынан пайдаланыў арқалы өзлигимизди таныўға үлес болып хызмет етеди.

Қарақалпақстан музыка өнеринде фольклор ҳәм дәстүрий музыка өнери жанрлары (бақсы, жыраў, қыссаханлық) ҳәм жаңа атқарыў жанрлары (симфониялық музыка, балет, опера) раўажланып бармақта. Дәстүрий музыка мәдениятының басқа түрлери менен бирге жыраў ҳәм бақсы дәретиўшилиги қарақалпақ халқының негизги миллий мәдений мийрасларының көриниси сыпатында өзиниң үлкен әҳмийетине ийе [5, 8].

Көркем сүүретлеп бериү кураллары курамында музыка жүдә үлкен орын ийелейди. Дәслепки пайытта кино дауыссыз болып, фильм экран алдында пионино шертип отырған музыкaшы қатнасында тамашагөйлерге көрсетилген. Үлкен кинотеатрларда хәтте, оркесторлар хызметинен пайдаланылған. Кино өнери ушын тән болған нәрсе, ҳақыйқый кино шығармасында сүүретке алыү барлық ўақытта биринши орында турып, музыка тек ғана оны толтырыү ушын хызмет етеди.

«Қарақалпақфильм» киностудиясы тәрeпинен 2006-жылы сүүретке алынған «Сазлар сыйқыры» хұжжетли фильми Қарақалпақстан музыка өнери тарийхы ҳаққында болып, миллий нама саз әсбаплары пайда болмастан алдын халық сазларының атқарылыү усыллары бойынша мағлыүмат бериледи. Сазенде Азат Отарбаев фильмде бас қахарман етип таңланып, миллий саз ырғақларының тамақтан қырып айтылыү усыллары, ылайдан, қамыс найдан исленген саз әсбаплары жәрдеміндеги намаларды шертип көрсетиүи нәтийжесінде фильм тәсршеңлиги артады. Бул фильм қарақалпақ сазларының тарийхы ҳаққында толық мағлыүмат береди.

Кино өнериниң айырым жанрларында мәселен, музыкалы фильмлерде музыка сүүретлеү менен теңбе-тең әҳмийетке ийе. Қарақалпақ көркем фильмлеринен «Ешан бақсы» фильминде эпизодлар музыкалық көринислер менен толықтырылып, байытылып бериледи. Фильмлерде музыка тәсиршеңликти арттырып бериү менен бирге базы да сюжетлерди байланыстырып, көпир хызметин де атқарады.

Айырым фильмлерди таллап қарағанымызда көп жағдайларда актёр хәм режиссёрлардың кәтеси, итибарсызлығы музыка жәрдемінде «бекитилип» кетиүи мүмкин. «хауазсыз фильм кинематографияның жоқары көриниси» деп Альфред Хичкок өзиниң илимий мийнетлеринде келтирип өтеди. Өйткени сес хәм музыка болмаса режиссёр тек ғана сүүретлеү арқалы өз пикирин сәүлелендире алған болар еди.

Музыканың фильмлерде өз ўазыйпасы бар. Экранда унамсыз қахарман пайда болса, қәуетерли ўақыялар басланса дәрриү қорқынышлы музыка сазалары жаңлайды. «Жаңла қобыз әсирлер гүўасысаң» фильминде түс көрип атырған қобыз пири Қорқыт атаның түси қәуетерли ўақыялардан хабар бериүши музыкалар менен бериледи.

Музыка ең дәслеп фильмге кейпият бағышлауы керек. Мәселен, «Уры», «Курорт» көркем фильмлерине композитор Улбиби Абдуллаева жаратқан әжайып нама қосықлар өзгеше зауық бағышлайды. Кинодағы булл миллий гөззал ырғақларды еситкен хәр бир тамашагөйдиң қәлбинде мақтаныш хәм жүзінде жеңил күлки пайда болады.

«Қарақалпақфильм» киностудиясы тәрәпинен сүўретке алынған көркем фильмлерге нама жазыў ушын композиторлар таңлап шақыртылыў дәстүри басым болды. Өйткени, шығармаларында миллий колоритин өзгешелиги жүдә айырықша сезилетуғын, екинши тәрәпинен фильм режиссёры менен тығыз ислесетуғын композиторлар мирәт етиледі. Композиторлар Қ.Заретдинов, У.Абдуллаева жаратқан музыкалар фильм руўхыятына сол дәрежеде сай келип, сиңип кеткен, оларды бир-биринен бөлек жағдайда қыялға келтирип болмайды. Усы пикирлерди «Ешан бақсы», «Уры», «Курорт» фильмлери ҳаққында айтып өтсек болады.

Соңғы жылларда жаратылған «хәўжар», «Нама алыспақ» сыяқлы фильмлердиң музыкалық безегин айырықша еслеп өтиў мүмкин. Өйткени бул ҳужжетли фильмлер Қарақалпақстан музыка өнериндеги фольклор ҳәм дәстүрий музыка өнери жанрларына тийисли болып, миллий музыкамыздың атқарыў усыллары ҳәм формалары ҳаққында мағлыўмат берип өтеди. Жоқарыда атап өтилген фильмлерде дөретиўшилер музыка ҳәм сүўретке алыў ортасындағы нәзик шегараны бузбаслықты еплей алған. Олардағы музыка фильм руўхыяты ҳәм сюжетиңе сайтүсип, сүўретлеўден үзилип қалмаған ҳалда оны және де байытыўға ҳәр тәрәплеме хызмет етеди.

Кинофильмдеги музыка оның әҳмийетли системалы бөлимлеринен бири болып ғана қалмай, ол қаҳарманлар образын сәўлелендириўде зәрүр драматургиялық курал болып та табылады. 2023-жылы сүўретке алынған «Жаңла қобыз әсирлер гүўасысаң» ҳужжетли фильмде қобыз пири саналған Қорқыт ата образын сәўлелендириўде фильм ушын таңлап алынған музыка тамашагөй көз алдына ғайры тәбийий күшке ийе инсан келбетин елеслетип турады.

Кинода ислеўди қәлеген композитор кино музыканың әҳмийетли ҳәм нәзик тәрәплерин билиўи шәрт [1]. Композитор фильм менен танасып алса жеткиликли болады, кино ушын аңсат ғана оған музыка жазып таслай алады, деген пикир ҳақыйқатлыққа дурыс келмейди. Фильмге музыка жаратыў аңсат жумыс емес екенлигин фильмге музыка жазатуғын композиторлар жақсы биледи. Себеби, композитор өзи таңлаған еркин темаға емес, анық бир фильмге нама шығарады. Композитордың жумыс көлеми фильмнің улыўма драматургиясы ҳәм айырым эпизодлары, өзиниң жеке характери менен өзгешеликлерине ийе қаҳарманлары менен шегараланады. Олар өзиниң анық музыкалы көринисин таңлап ислеўи зәрүр болады.

Композиторлар фильм ушын нама жазыў барысында көбирек фильм режиссёрлары менен тығыз байланыста болып, олардың көзқарасын ҳәм идеясын дурыс түсинип жетиўи керек.

Белгили кинорежиссёр Т.Қәлиметов қарақалпақ кино өнеринде өзиниң қол таңбасын жаратқан белгили тулға болып, ол көбирек өзи режиссёрлық еткен фильмлерге нама жазыў үстинде ең талантлы композиторларды таңлап алар еди. Хәр қандай фильмде режиссёр сыпатында айтажақ пикирин музыкалар арқалы да жеткерип бериўди мақсет еткенликтен композиторлар менен фильм үстинде көбирек изленисте болды. Сонлықтанда кинорежиссёр Т.Қәлиметовтың режиссёрлық еткен фильмлеринде намалардағы миллий колориттиң өзгешеликлери айырықша жаңлап турады. Олардан «Танка» көркем фильмин алып қарасақ, онда қарақалпақ миллий ырғақлары менен бирге кинода жаңлаған музыкалар арқалы кең жазық далалардай пейли кең қарақалпақ халқының характери ашып көрсетиледи.

Жуўмақ орнында атап өтиў орынлы қарақалпақ кинофильмлеринде жаслар көзқарасы менен мәнәўиятын раўажландырыўда музыка өнеринен дурыс пайдаланып, бул утыслар жаслар тәрбиясы ушын хызмет етеди. Кино – ең тәсиршең өнер түри болғанлықтан, оған қанат беретугын музыка миллий колорит пенен суўғарылып, шеберлик пенен раўажландырылса ғана халқымыз руўхиятын байытып, баҳалы мийрас болып қунын жоғалтпайды. Бул мәселе кино тараўы дөретиўшилериниң алдында турған үлкен ўазыйпа болып табылады.

Пайдаланылған әдебиятлар дизими

1. Абулқасимова Х. Кино санъати асослари .– Т.: 2010.
2. Мухамедалиев Х. Сценарийнавислик маҳорати.– Тошкент. “Муסיқа”. 2009 й.
4. Tajadinova G. Monografiya. – Nokis. «Avangard-Baspa». 2024– 136-б.
5. Ходжетова Г.И. Композитор Нажимаддин Мухаммеддиновтың шығармаларында миллий колориттиң өзгешеликлери. – Т.: 2023. 8-б.
6. Ш.Нусратова. Бадий асар таҳлили”, ўқув қўлланма. –Т.: “Fan ziyosi” нашриёти. 2023.
7. “Қарақалпақфильм” архив материаллары.

Lutfullayev Xayrulla Asatullayevich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Milliy qo'shiqchilik” kafedrası professori,
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikası xalq artisti,
O'zbekiston Respublikasında xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar tafakkurini rivojlantirishda va ma'naviyatini oshirishda musiqa san'atining o'rni o'rganilgan bo'lib, bu borada Sharq allomalari va mutafakkirlarining musiqiy merosidan foydalanilgan. Yangi O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotida san'at, xususan musiqa san'atining ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *san'at, musiqa, ma'naviyat, tafakkur, milliy meros, musiqiy meros, ma'naviy tarbiya, estetik tarbiya.*

Annotation: *This article studies the role of music in the development of youth thinking and increasing their spirituality, using the musical heritage of Eastern scholars and thinkers. The importance of art, in particular music, in the spiritual development of new Uzbekistan is analyzed.*

Keywords: *art, music, spirituality, thinking, national heritage, musical heritage, spiritual education, aesthetic education.*

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlarni jismonan va ma'nan barkamol avlod etib tarbiyalash borasidagi islohotlar hayotimizning barcha sohalari bilan o'zaro chambarchas bog'langan holda, tizimli va maqsadli amalga oshirilmoqda. Uchinchi renessans poydevoriga asos solishda zamon bizning zimmamizga yangi demokratik jamiyat qurish bilan birga mustabid tuzum qoldirgan og'ir asoratlardan xalos bo'lgan, yuksak ma'rifatli, ulkan ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashdek muqaddas vazifani yukladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligida san'atga, jumladan musiqa san'atiga berilayotgan e'tibor negizida yoshlar tafakkurini va ma'naviyatini bevosita musiqa ta'sirida rivojlantirish, yoshlar ma'naviyatini san'at vositalari orqali yuksaltirish, san'atda milliylik va zamonaviylikning badiiy sinteziga erishish kabi yuksak vazifalar dolzarblik kasb etmoqda.

Jumladan, “... adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q” – deb ta'kidlagan so'zlari dolzarb ahamiyatga egadir [1, 182].

Ma'naviyatli yoshlarni voyaga etkazish uchun eng avvalo ma'rifat, madaniyat va san'at masalalariga katta e'tibor qaratish, shu asnda iste'dodli va mahoratli yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston yoshlari nihoyatda iste'dodli, aql-zakovat bobida hech kimdan qolishmaydi. Ularning tomirida insoniyat tafakkuri kamoliga ulkan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Mirzo Bobur, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabi bobolarimizning qoni jo'sh urmoqda.

O'zbek xalqi ma'naviyatida millat o'tmishi, hozirgi kuni o'z ifodasini topgan bo'lib, jahonshumul kashfiyotlarni yarata olgan minglab allomalarni etishtirib bergan o'lka hisoblanadi. Ular umumbashariy ahamiyatga ega ma'rifatning shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Shuning uchun ham o'zbek milliy-ma'naviy merosi jahon madaniyatining ajralmas qismi, uzviy bo'lagidir.

Sharq allomalari va mutafakkirlarining asarlarida ifodalangan ma'naviy-axloqiy qarashlar insonlar ruhiyati va ma'naviyati taraqqiyotida, yoshlarda ezgulik va iftixor tuyg'usining rivoj topishida muhim vosita bo'lib, bu borada musiqa san'atining ahamiyati kattadir.

Ma'lumki musiqa san'ati tarbiya borasida estetik ahamiyatga ega bo'lib, yoshlar tafakkurini, ma'naviyatini rivojlantiruvchi vosita bo'lib, ularning musiqiy qobiliyatlarini, musiqiy xotirasini, didini va eng muhimi dunyoqarashini o'stiradi.

Yoshlar tafakkuri va ularning ma'naviyatini, musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda Sharq allomalari va mutafakkirlarining musiqiy merosidan foydalanish o'z o'rnida metodologik mazmun kashf etib, talabalarning ma'naviy-estetik fikrlashlarini, nazariy bilimlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Sharq allomalarining bebaho va tengsiz asarlari jamiyatni rivojlanishida ma'naviyatimizni yuksalishida komil insonni kamol topishida muhim jarayon hisoblanadi. Ular tadqiqotlarida falsafa, tabobat, falakiyot, musiqa, axloq, ta'lim-tarbiya, mantiq, tilshunoslik, adabiyot va boshqa fan sohalarga bag'ishlab asarlar yozishgan.

Musiqa san'ati haqida ko'plab allomalar izlanishlar olib borgan bo'lib, musiqa nazariyasi, musiqaga oid qoidalar bevosita O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan.

Bu borada Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob" va boshqa asarlari, ibn Sinoning "Kitob ash-shifo", "Kitob an-najot", "Donishnoma" kabi asarlarining musiqa haqidagi bo'limlari, Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqa" kitobi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning musiqa haqidagi qarashlari muhim manbadir.

Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanib, uning 160 dan ortiq ilmiy asarlari mavjud. Abu Nasr Forobiy O'rta asr davri ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan.

Arxeologik qazilmalar va qo'lyozma manbalardan ma'lum bo'lishicha o'sha davrda musiqa va musiqashunoslik, ayniqsa keng rivoj topgan va u matematika ilmining bir qismi hisoblangan. Mazkur davrning buyuk olimi Abu Nasr Forobiy musiqaning nazariy asoslari, kuylar, asboblari, musiqa madaniyatining mezonlari, atamalari tahliliga bag'ishlangan "Katta musiqa" kitobining muallifidir. O'rta asr musulmon sharqi musiqa nazariyasiga bag'ishlangan ushbu kitob 2 qism, 3 kitobdan iborat bo'lgan. Forobiy "Katta musiqa"dan tashqari "Musiqa haqida so'z", "Ritmlar tartibi haqida kitob", "Ritmga qo'shimcha qilinadigan siljishlar haqida" asarlarining ham muallifidir.

Abu Nasr Forobiyning ta'rifiga ko'ra "ijod – bilish jarayonida shunday ulug' fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak" [2, 94-95]. Darhaqiqat, ijod qilish jarayonida inson izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi. Xulosaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi tajribada sinab boriladi.

Forobiy "Musiqa haqida katta kitob" asari bilan O'rta asrning yirik muziqashunosi sifatida ham mashhur bo'ldi. U musiqa ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi musiqa madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiy o'zining "Musiqa haqida katta kitob" asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha, bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi xil esa ehtirolarni qo'zg'ab, jo'shqin qiladi va, nihoyat, uchinchi xil musiqa borki, o'yga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi [3, 63].

Uning "Risolai musiqa" asarida "Yo alhazar, ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganingda insonning ahvoli ne kechar edi" [2, 37] – deb ta'kidlaydi. Bu davr shoirlari va musiqachilarining ijodidagi asosiy janr madhiya xarakteridagi musiqaviy she'riy-asarlar, hajviy qo'shiqlar bo'lib, xalq o'rtasida juda tez tarqalgan.

Yuqorida berilgan ma'lumotlar birgina alloma Abu Nasr Forobiyning musiqa san'ati rivojida ulkan xizmatlari bo'lib, bu jarayonni boshqa ko'plab alloma va mutafakkirlar ma'naviy merosida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, sharq allomalari va mutafakkirlarining musiqiy merosi orqali yoshlar tafakkuri va ma'naviyatini, musiqiy-ijodiy

qobiliyatlarini rivojlantirishda talabalarning mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga e'tibor qaratish lozim.

Bunda o'tilgan mavzuni Sharq allomalari va mutafakkirlarining ma'naviy merosi mazmunida boyitish va talabalarga mavzu yuzasidan referat, kurs ishi, taqdimot, krossvord tayyorlash kabi vazifalar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Sharq allomalari va mutafakkirlarining ma'naviy merosini keng o'rganish yuzasidan davra suhbatlari tashkil etish, sohada faoliyat olib borayotgan olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, teatrga borish, muzey va ko'rgazmalarga ekskursiyalar tashkil etish ham amaliy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild. – Toshkent:O'zbekiston, 2018. – 508 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Risolai musiqa. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. – 198 b.
3. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. – 131 b.

Beknazar Dustmurodov,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Milliy qo'shiqchilik” kafedrasi professori,

O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi

KATTA ASHULANI YOSHLAR ORASIDA OMMALASHTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Katta ashulaning yoshlar orasida ommalashish darajasi, unga bo'lgan qiziqish va uning zamonaviy sharoitda targ'ib etishning dolzarb masalalari ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Milliy an'analarning zamonaviy san'at bilan uyg'unlashuvi, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalarining roli hamda yoshlarning estetik didini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribalari va amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Ustoz-shogird an'analari, zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi, globalizatsiya, ijrochilik texnikalari, milliy identifikatsiya, jarayon*

Annotation: *This article discusses the level of popularity of the Great Song among young people, interest in it and current issues of its promotion in modern conditions from a scientific point of view. The issues of combining national traditions with modern art, the role of the education system and the media, and the formation of the aesthetic taste of young people are considered. The article also develops the experiences of developed countries and practical recommendations.*

Key words: *Teacher-student traditions, integration of modern technologies, globalization, performance techniques, national identity, process*

O'zbekiston madaniy merosining eng noyob unsurlaridan biri **Katta ashula** san'atidir. Ushbu an'anaviy san'at turi yillar davomida etuk ustozlar tomonidan rivojlantirilib, xalq orasida keng yoyilgan. Biroq, globallashuv va zamonaviy madaniy ta'sirlar natijasida yoshlar orasida Katta ashulaga bo'lgan qiziqish pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Ushbu maqolada Katta ashulaning yoshlar orasida ommalashishiga to'sqinlik qilayotgan omillar, mavjud muammolar va ularning echimlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Ba'zi mamlakatlarda an'anaviy musiqani yoshlar orasida ommalashtirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqilgan. Quyidagi misollar orqali xalqaro tajribalarni batafsil tahlil qilishimiz mumkin:

- **Janubiy Koreya (K-Pop va milliy an'analarning integratsiyasi)**

- o Janubiy Koreyada an'anaviy musiqani yoshlar orasida ommalashtirish uchun uni zamonaviy pop-musika bilan uyg'unlashtirish usuli qo'llaniladi. Milliy

cholg'ular va an'anaviy qo'shiqlar K-Pop musiqasida ishlatiladi, bu esa yosh avlodda milliy musiqaga qiziqish uyg'otadi.

- o O'zbekiston uchun dars: Katta ashula zamonaviy musiqa uslublari bilan uyg'unlashtirilishi mumkin (masalan, jazz yoki elektron musiqaga moslashtirish).

- **Xitoy (Ta'lim va davlat qo'llab-quvvatlovi)**

- o Xitoyda milliy musiqani saqlab qolish uchun ta'lim tizimi va davlat siyosati muhim rol o'ynaydi. Musiqa ta'limi dasturlarida milliy cholg'ular va an'anaviy qo'shiqlar majburiy ravishda o'rgatiladi.

- o O'zbekiston uchun dars: Katta ashulani musiqa ta'limi dasturlariga majburiy yoki ixtiyoriy kurs sifatida kiritish.

- **Turkiya (Folklor ansambllari va yoshlar ishtiroki)**

- o Turkiyada folklor ansambllari yoshlarni jalb qilish va ularni milliy musiqa bilan tanishtirish uchun muhim platforma sifatida ishlatiladi. Madaniy festivallar orqali yosh ijrochilarni rag'batlantirish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

- o O'zbekiston uchun dars: Yosh ijrochilar uchun Katta ashula tanlovlari va festivallar tashkil qilish. Mavjudlarini yanada ommalashtirish

- **Yevropa mamlakatlari (An'anaviy va akademik musiqa integratsiyasi)**

- o Germaniya va Fransiyada an'anaviy musiqa akademik darajada o'qitiladi va konservatoriyalarda alohida mutaxassislik sifatida mavjud.

- o O'zbekiston uchun dars: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Katta ashulaga ixtisoslashgan maxsus o'quv kurslar yaratish.

- **Maxsus o'quv dasturlari va darsliklar**

- o Katta ashulani maktab va oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha maxsus o'quv dasturlar ishlab chiqish.

- o Maktab o'quvchilari uchun milliy musiqa va an'anaviy ijrochilik bo'yicha qo'shimcha to'garaklar yaratish.

- **O'qituvchilarni tayyorlash va ustoz-shogird tizimi**

- o Musiqa o'qituvchilariga Katta ashula bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.

- o O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Katta ashula bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil qilish.

- **Inter faol ta'lim va zamonaviy texnologiyalar**

- o Katta ashulani o'rganish uchun inter faol platformalar yaratish (masalan, mobil ilovalar yoki veb-saytlar).

- o Onlayn darslar va master-klasslar tashkil qilish.

- **Yosh ijrochilarni rag'batlantirish**

- o Katta ashulani targ'ib qilish uchun yosh xonandalar o'rtasida grantlar va stipendiyalar joriy etish.

o Yosh ijrochilar uchun maxsus tanlovlar va xalqaro festival ishtiroklariga yo‘llanmalar berish.

Katta ashula nafaqat musiqiy janr, balki madaniy kod sifatida milliy identifikatsiyaning ajralmas qismidir. Bu san’at shaklining o‘ziga xosligi, murakkab ijrochilik texnikasi va uslubiy xususiyatlari, shuningdek, uning estetik va badiiy qadriyatlari yosh avlod tomonidan etarlicha anglab etilmayapti. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy musiqaning yoshlar orasida ommalashuvi ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, madaniy siyosat va ijtimoiy jarayonlarga bevosita bog‘liqdir. Quyida katta ashulani yosh avlod orasida targ‘ib qilish va ommalashtirishga oid statistik ma’lumotlar jadval shaklida taqdim etilgan. Ushbu jadvalda Katta ashulaga bo‘lgan qiziqish, targ‘ibot kanallari va yoshlar orasida uni eshitish tendensiyalari keltirilgan.

Ko‘rsatkichlar	Foiz (%) yoki miqdor	Izohlar
Yoshlarning katta ashulaga qiziqishi	35%	18-30 yosh orasidagi yoshlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasi
Internet orqali targ‘ib qilish	60%	YouTube, Instagram, TikTok orqali katta ashulalarning auditoriyaga etib borishi
An’anaviy targ‘ibot (konsert, tadbir)	25%	Milliy festivallar va madaniy tadbirlar orqali targ‘ibot darajasi
Katta ashula ijrochilariga talab	O‘sib bormoqda	Yosh xonandalar orasida katta ashulaga qiziqish oshayotganligi qayd etilgan
Katta ashulaning tinglovchilarining yoshi	30-50 yosh	Asosan yoshi kattaroq avlod orasida kengroq tarqalgan
Yosh ijrochilar ulushi	15%	Katta ashula bilan shug‘ullanayotgan yosh ijrochilar foizi
Ommaviy axborot vositalarining hissasi	40%	Televideniye va radio orqali Katta ashulani targ‘ib qilish foizi
Xalq orasida katta ashulaning bilish darajasi	50%	Aholinng katta qismi katta ashuladan xabardor, lekin barchasi tinglamaydi


Katta ashulani yoshlar orasida ommalashtirishga to‘siq bo‘layotgan ayrim omillarni quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Ta’lim tizimidagi kamchiliklar:

- Musiqa ta’limi dasturlarida milliy san’at janrlariga etarlicha e’tibor qaratilmasligi;
- Katta ashula bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarining etishmovchiligi;

- Yosh xonandalarning ushbu janrni o'rganishga motivatsiyasining pastligi;
- Zamonaviy san'at va ommaviy madaniyat ta'siri;
- Estrada va pop-musiqaning yoshlar ongida ustun mavqega ega bo'lishi;
- Ijtimoiy tarmoqlarda milliy ashulalarga nisbatan zamonaviy janrlarga bo'lgan talabning ortishi;
- Yoshlarning an'anaviy ijrochilik madaniyatidan yiroqlashuvi;
- Ommaviy axborot vositalari va reklama etishmovchiligi;
- Televideniye va radio orqali milliy san'atni targ'ib qilishning sustligi;
- Yosh ijodkorlarning milliy san'at yo'nalishida faoliyat yuritishiga rag'batning etishmasligi kabilar shular jumlasidandir.

Katta ashulani yoshlar orasida ommalashtirish strategiyalarini quyidagi diogramma orqali tahlil qilishimiz mumkin:



Katta ashulaning yoshlar orasida ommalashuvi uchun kompleks yondashuv zarur. Ta'lim tizimini isloh qilish, ommaviy axborot vositalarida milliy san'atga ko'proq e'tibor qaratish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash ushbu muammolarni hal etishning asosiy yo'llaridir. Katta ashulani nafaqat saqlab qolish, balki uni yosh avlod orasida ommaviy madaniyat bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat." – T.: O'zbekiston, 1998.
2. Mutalov S. "O'zbek xalq musiqasi tarixi." – T.: Fan, 2005.
3. Rashidov M. "Mumtoz musiqa san'ati va uning o'ziga xosligi." – T.: San'at, 2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hisobotlari, 2023.
5. Xalqaro musiqashunoslik jurnallari va internet manbalari.

Ermatov Mashrab Ergashovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Milliy qo'shiqchilik” kafedrası professori,
O'zbekiston Respublikası xalq hofizi

O'ZBEK QO'SHIQCHILIGINING XALQARO TAJRIBASI VA GLOBALIZATSIYA JARAYONLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy qo'shiqchilik san'atining xalqaro tajribasi va globalizatsiya jarayonlaridagi o'rni tahlil qilingan. Dunyo xalqlarining ashulachilik an'analari, globalizatsiyaning milliy musiqaga ta'siri va milliy ashulalarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish strategiyalari keng yoritilgan. Maqolada o'zbek ashulachiligining o'ziga xos jihatlari, global ta'sirlar va milliy musiqa merosini asrab-avaylashning samarali yo'llari chuqur o'rganilgan. Bundan tashqari, xalqaro musiqiy festival va tadbirlarda milliy ashulalarni ommalashtirish bo'yicha takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *qo'shiqchilik, globalizatsiya, milliy musiqa, xalqaro tajriba, madaniy meros, musiqiy festival, milliy ashulalarni targ'ib qilish.*

Annotation: *This article analyzes the international experience of national singing and its role in globalization processes. The singing traditions of the peoples of the world, the impact of globalization on national music, and strategies for promoting national songs internationally are widely covered. The article deeply studies the specific aspects of Uzbek singing, global influences, and effective ways to preserve the national musical heritage. In addition, proposals are made for the popularization of national songs at international music festivals and events.*

Keywords: *singing, globalization, national music, international experience, cultural heritage, music festival, promotion of national songs.*

Qo'shiqchilik san'ati har bir xalq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Tarixiy jarayonlarda u muayyan jamiyatning hayoti, urf-odatları va ma'naviy qadriyatlarini aks ettirib kelgan. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari tufayli dunyo madaniyatlari o'zaro aralashib, milliy musiqiy an'analar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayon o'zbek ashulachiligi uchun ham yangi imkoniyatlar va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada dunyo xalqlarining ashulachilik san'ati, globalizatsiyaning milliy musiqa rivojiga ta'siri va milliy ashulalarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish strategiyalari chuqur tahlil qilinadi.

Dunyo xalqlari ashulachilik san'ati va o'zbek ashulachiligi. Dunyo xalqlarining ashulachilik an'analari uzoq tarixga ega bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ohang va uslubga ega. Masalan, turkiy xalqlarning qo'shiqchilik an'analari ko'proq epik va folklor xarakteriga ega bo'lsa, arab musiqasi maqom tizimi asosida rivojlangan. G'arbiy musiqa esa turli davrlarda klassik, romantik va zamonaviy uslublarga bo'lingan.

O'zbek ashulachiligi juda boy tarixga ega. U qadimgi davrlardan buyon shakllanib kelgan bo'lib, asosan maqom san'ati va xalq ashulariga asoslangan. O'zbek ashulalari Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari kabi yirik musiqiy an'alar bilan chambarchas bog'liq. Ashulachilik o'zbek xalqining turmush tarzi, an'ana va urf-odatlarini aks ettirgan. Xususan, baxshichilik va hofizlik maktablari orqali og'zaki an'alar davom ettirilgan. XX asrda O'zbekistonda professional ashulachilik rivojlanib, O'zbekiston xalq hofizlari va estrada san'ati namoyondalari etishib chiqdi. Bugungi kunda esa ashulachilik global tendensiyalar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda.

O'zbek ashulachiligi esa maqom san'atining boy merosi bilan ajralib turadi. Shashmaqom va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari milliy qo'shiqchilikning asosiy tayanchi bo'lib, ular an'anaviy ashulachilik maktablarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. O'zbek ashularining lirikaligi, kuy va ritm uyg'unligi uni boshqa xalq musiqalaridan ajratib turadi. Bugungi kunda esa milliy ashulachilik estrada, pop va jazz yo'nalishlari bilan uyg'unlashib, yangi shakllarga kirib bormoqda.

Globalizatsiya sharoitida milliy ashulachilikni asrab-avaylash muammolari. Globalizatsiya madaniy chegara va to'siqlarni yo'q qilishi bilan birga, milliy musiqa an'alarining yo'qolish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin. G'arb musiqa industriyasining kuchayishi, texnologik innovatsiyalar va raqamli platformalarning keng tarqalishi natijasida ko'plab milliy musiqiy janrlar unutilish arafasida turibdi.

Milliy ashulachilikka ta'sir qilayotgan asosiy muammolar:

G'arb musiqiy yo'nalishlarining ommalashuvi – Mahalliy yoshlar orasida zamonaviy estrada va hip-hop janrlariga bo'lgan qiziqish oshib borayotgani tufayli an'anaviy ashulachilikning auditoriyasi toraymoqda.

Ashulachilikning tijoratlashuvi – Ko'pgina musiqachilar an'anaviy uslubdan voz kechib, bozorda talab katta bo'lgan musiqiy janrlarga o'tmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta'siri – YouTube, Spotify, Apple Music kabi platformalar orqali tezkor va tijoratga yo'naltirilgan musiqalar keng targ'ib qilinmoqda, bu esa milliy ashulachilikni cheklab qo'yishi mumkin. Shu sababli, milliy ashulachilikni asrab-avaylash uchun davlat siyosati, ta'lim va targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Milliy ashulalarni xalqaro festivallarda targ'ib qilish strategiyalari. Milliy ashulalarni xalqaro festivallarda targ'ib qilish strategiyalari muhim ahamiyatga ega, chunki ular milliy musiqaning dunyo bo'ylab tanilishiga yordam beradi va boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytiradi. Ushbu strategiyalarni batafsil yoritib o'taman:

1. Xalqaro musiqiy festivallarda ishtirok etish. Bu - milliy ashulalarni keng auditoriyaga tanitish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bunday festivallar nafaqat musiqachilar uchun, balki davlatlar va madaniyatlar o'rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytirish uchun ham juda muhimdir.

“Sharq taronalari” festivali: O'zbekistonning xalqaro musiqiy festivali bo'lib, unda o'zbek ashulalari va maqom san'ati keng targ'ib qilinadi. Bu kabi festivallarda ishtirok etish, nafaqat o'zbek san'atini tanitadi, balki xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga yordam beradi.

Eurovision, World Music Festival kabi yirik tadbirlar: Bunday tadbirlarda o'zbek ashulalarining ijro etilishi, O'zbekistonning musiqiy merosi va an'alarini dunyo miqyosida tanitishga xizmat qiladi. Ularning har biri milliy ashulalarni o'ziga xos tarzda ifodalash imkonini beradi va shu bilan milliy musiqaning global miqyosda e'tirof etilishiga turtki beradi.

Mahalliy va xalqaro auditoriyalarga chiqish: Bunday festivallarni tashkil etishda o'zbek ashulachilari, musiqachilari va ijrochilari global platformada o'z san'atini namoyish qilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, xalqaro auditoriyaga milliy ashulalarni qiziqarli va o'ziga xos tarzda taqdim etish imkonini beradi.

2. Madaniy diplomatiya va ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish. Madaniy diplomatiya — bu davlatlar o'rtasida madaniy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga yordam beruvchi strategiyadir. Xalqaro miqyosda o'zbek ashulalarini targ'ib qilish uchun bu yondashuv juda muhim.

O'zbekistonning madaniy markazlari: Chet eldagi madaniy markazlar va konsulliklar orqali o'zbek musiqasini targ'ib qilish, xorijiy san'atkorlar bilan ijodiy hamkorlik qilish, madaniy almashinuvni kuchaytiradi. Bunday markazlar o'zbek musiqa san'ati va ashulalarini tanitish va mashhur qilishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro madaniy tadbirlar va taqdimotlar: O'zbek ashulalari uchun maxsus konsertlar, musiqiy kechalar va seminarlar tashkil etish orqali xalqaro hamjamiyatga ularni tanitish mumkin. Bunday tadbirlarda o'zbek ashulalari va maqom san'ati haqidagi bilimlarni yurt tashqarisidagi auditoriyaga etkazish imkoniyati yaratiladi.

Milliy ashulalarni zamonaviy texnologiyalar orqali ommalashtirish

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalar milliy ashulalarni global miqyosda targ'ib qilishda katta rol o'ynaydi. YouTube, TikTok, Spotify va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda milliy musiqaning maxsus loyihalarini yaratish va ommalashtirish mumkin.

Raqamli platformalarda reklama va tashviqot: Milliy ashulalarni raqamli platformalarda targ'ib qilish uchun maxsus videolar, albomlar yoki musiqiy kliplar tayyorlanishi mumkin. YouTube kabi platformalar orqali xalqaro auditoriyaga o'zbek musiqasini taqdim etish, ayniqsa yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otadi.

TikTok va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar: Bu platformalarda ashulachilarning qisqa videolari, musiqiy chaqiruvlar va trendlar orqali milliy ashulalarni ommalashtirish mumkin. Misol uchun, TikTokdagi musiqa chaqiruvlar va challenge'lar orqali xalqaro auditoriya o'zbek ashulalarini tanib, ularga qiziqish bildirib boshlaydi.

Spotify va Apple Music kabi musiqiy platformalar: Bu kabi platformalarda o'zbek ashulalari va maqom musiqasini o'rnatish va ular orqali global auditoriyaga keng tanitish mumkin. Spotify'da o'zbek musiqa ro'yxatlarini yaratish va bu ro'yxatlarni global miqyosda targ'ib qilish, musiqaning ko'proq tinglovchilarga etishishini ta'minlaydi.

4. Turli davlatlar tajribasidan foydalanish. Dunyo bo'ylab turli davlatlar o'z milliy musiqasini global miqyosda qanday targ'ib qilayotganiga nazar solish va ulardan o'rganish, o'zbek ashulachiligi uchun foydali bo'lishi mumkin.

K-pop (Janubiy Koreya): Janubiy Koreyaning K-pop sanoati o'zining raqamli marketing strategiyasi va ijodiy menejmenti bilan butun dunyo bo'ylab mashhur bo'ldi. K-pop musiqasi va madaniyati nafaqat musiqiy jihatdan, balki moda, turizm va boshqa sohalarda ham global miqyosda muvaffaqiyatga erishgan. O'zbek ashulachiligi uchun bu modelni o'rganish va unga o'xshash strategiyalarni qo'llash mumkin.

Turkiyaning xalq musiqasi targ'iboti: Turkiya o'zining milliy musiqasini global miqyosda keng targ'ib qilishda muvaffaqiyat qozondi. Turkiyaning xalq musiqasi va an'anaviy uslublari turli xalqaro festivallarda va platformalarda tanitildi, bu esa ularning madaniy brendini yaratishda muhim rol o'ynadi.

5. Xalqaro aloqalarni kuchaytirish. Bundan tashqari, milliy ashulachilikni xalqaro festivallarda targ'ib qilishda xalqaro aloqalarni kuchaytirish, boshqa davlatlar bilan madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlash kerak. Buning uchun musiqiy loyihalar, xalqaro konsertlar va festivalda ishtirok etish orqali turli xalqlar orasidagi madaniy do'stlik va aloqalarni rivojlantirish muhimdir.

Milliy ashulalarni xalqaro festivallarda targʻib qilish, oʻzbek musiqasining boy merosini dunyoga tanitish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu strategiyalar, nafaqat musiqani ommalashtirish, balki global miqyosda madaniy aloqalarni kuchaytirish va oʻzbek xalqining musiqiy madaniyatini saqlab qolish uchun ham juda muhimdir. Global festivallarda, zamonaviy texnologiyalar va madaniy diplomatiya orqali bu borada muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Globalizatsiya jarayonlari milliy ashulachilik sanʼatiga yangi imkoniyatlar ochib berish bilan birga, uning yoʻqolib ketish xavfini ham kuchaytirmoqda. Milliy musiqa merosini asrab-avaylash va uni xalqaro miqyosda targʻib qilish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **Davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash** – Milliy ashulachilikni targʻib qilish boʻyicha davlat dasturlarini ishlab chiqish.
2. **Taʼlim tizimini takomillashtirish** – Musiqiy taʼlim muassasalarida milliy ashulachilik boʻyicha maxsus kurslar va dasturlarni rivojlantirish.
3. **Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish** – Oʻzbekiston ashulachilarining xalqaro musiqiy loyihalarda ishtirokini kengaytirish.
4. **Raqamli marketing va brending strategiyalaridan foydalanish** – Milliy ashulalarni ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar orqali targʻib qilish.

Xulosa qilib aytganda, milliy ashulachilikni xalqaro miqyosda rivojlantirish va uning madaniy meros sifatida saqlanishini taʼminlash uchun kompleks yondashuv zarur. Bu esa milliy sanʼatimizning barqaror ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Matyoqubov Otanazar. Shashmaqom: Oʻzbekistonning musiqiy merosi”. Oʻzbekiston Milliy Kutubxonasi. <https://www.natlib.uz>
2. John Tomlinson. “Globalizatsiya va milliy madaniyatlar”. Google Books. <https://books.google.com>
3. Lee Soo-man. “K-pop: Janubiy Koreyaning global muvaffaqiyati”. Korea Creative Content Agency. <https://www.kocca.kr>
4. Mehmet Uzun. “Turkiya xalq musiqasining dunyo miqyosidagi tarqalishi”. Turkish Cultural Foundation. <https://www.turkishculture.org>
5. Firuza Abdurahimova. “Maqom sanʼati va uning zamonaviy dunyoda saqlanib qolishi”. ResearchGate. <https://www.researchgate.net>
6. David Hesmondhalgh. “Raqamli texnologiyalar va musiqaning global tarqalishi”. JSTOR. <https://www.jstor.org>

7. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi. “Sharq taronalari festivali: O‘zbek musiqasining xalqaro ko‘rinishi”. Festival rasmiy sayti. <https://www.sharq-taronlari.uz>
8. Joseph Nye. “Madaniy diplomatiya va musiqaning roli”. Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu>
9. Liz Pelly. “Spotify va Apple Music: Musiqani global tarqatish platformalari”. The Baffler Journal. <https://www.thebaffler.com>
10. UNESCO Maqom san’ati ro‘yxati: <https://ich.unesco.org>
11. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi rasmiy sayti: <https://www.madaniyat.uz>
12. Xalqaro musiqa festivallari rasmiy saytlari (Eurovision, WOMEX): <https://www.eurovision.tv> , <https://www.womex.com>

Isroilova Huriyat Samiyevna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası dotsenti,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist

DUTOR VA OVOZ

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy qo'shiqlardagi tarixiy, axloqiy va badiiy motivlarning yosh avlod ta'limiga ta'siri tahlil qilingan. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida, tarixiy xotirani shakllantirishda va estetik fikrlashni rivojlantirishda milliy musiqa merosining tutgan roli ko'rsatiladi. Milliy musiqa ta'limining pedagogik va talabalar an'analari natijalari va tajribalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari asosida milliy musiqa ta'limini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ohang, xonanda, ijrochi, dutor, tarbiya, o'qituvchi, o'quvchi, ijod, cholg'u, ovoz.*

Annotation: *This article analyzes the influence of historical, moral and artistic motifs in national songs on the education of the younger generation. The role of the national musical heritage in the spiritual and moral development of young people, the formation of historical memory and the development of aesthetic thinking is shown. The results and experiences of pedagogical and student traditions of national music education are presented. Based on the results of the research, recommendations for the development of national music education will be developed.*

Kalit so'zlar: *tone, singer, performer, dutor, education, teacher, pupil, creativity, instrument, voice.*

Ohang – bu joziba. Sehrli mo'jiza. Inson qay holatda bo'lmasin, musiqaning mungli sadosini eshitganda bir o'yga cho'mib ketadi. Ayniqsa dutor cholg'usining ohangini eshitganda olis-olislarga, tog'u-toshlarda o'zini his qiladi. Mening ijodim ana shu dutor cholg'usi jo'rligida ustozlarim yaratgan ashulalarda namoyondir. Aslida bu cholg'uning ikkitagina tori bor. Lekin uning dardi shunchalik kuchliki, buni tushuntirib berish murakkabdir.

Shuning uchun bastakorlarimiz dutor va tanbur cholg'usi jo'raligida ko'plab go'zal va o'lmas asarlarni yaratishgan.

Akademik Yunus Rajabiy, O'zbekiston xalq artisti Fahriddin Sodiqov, Xolxo'ja To'xtasinov, O'zbekiston xalq hofizlari Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamovlar tomonidan dutor va tanbur sozlarida yaratilgan har bir asarlar ijod namunalarining eng yuqori darajadagi o'lmas durdonalarga aylangan.

Ustozlarimiz har bir yaratayotgan asarlarini asosan ovoz diapazoni keng va ko'z oldiga ijrochi xonandani keltirib go'zal asarlar yaratishar edi.

Masalan, O'zbekiston xalq artisti Faxriddin Sodiqovning "Bir go'zal" qo'shig'i aynan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Xadiya Yusupova uchun, yoki "Yorim tikur xon atlas" ashulasi aynan O'zbekiston xalq artisti Kommunaxon Ismoilova uchun yozilganday edi. Ovoz soz bilan uyg'unlashib tinglovchini o'z sehriga qamrab olar edi. Dutor va ovozning bir-biriga mutanosibligi ana shunday o'lmas asarlar yaratilishining sababidir.

Yakka soz jo'rligida asarni xonanda ijro etishi juda ham murakkabdir. Chunki ijro jarayonida ovozni sofligiga e'tibor berishi, talaffuz va ovoz yo'nalishini chalinayotgan dutorning zarbiga moslay olishi ayniqsa zarur. Chunki har bir xonandaning qalbidan chiqayotgan mungni ya'ni tovushi, dutor bilan hamnafas va jo'rnavoz bo'lishi shart.

Ko'pchilik ijrochi xonandalarimiz yakka cholg'u jo'rligida biron bir ashulani dadil aytib berishi ozgina qiyinchilik yaratadi. Chunki yakka dutor cholg'usi jo'rligida asarni ijro etish uchun, sozni eshitish ham katta ahamiyatga egadir. Ijrochini har bir nafas olishi, so'zlarni dona-dona talaffuz qilishi va ayniqsa hamohang bo'lishi muhimdir.

Bastakor O'zbekiston xalq artisti Komiljon Jabborovning Lutfiy g'azaliga bastalagan "Bu ko'nguldir bu ko'ngul" va "Etmasmidim" ashulalarini O'zbekiston xalq artisti, professor O'zbekiston bulbuli deb nom olgan ustozimiz, opera ijrochiligiga va bastakorlarimiz yaratgan go'zal asarlarni Saodatxonim Qobulova maromiga qo'yib ijro etganlar.

Ana shu asarni ijro etganlarida ustozni ustalik bilan ovozni ishlatishlari, avj pardalaridagi qochirimlari, dutor cholg'usi bilan ovozni uyg'unlashib borishi tinglovchi qalbiga bir sehrli tuyg'uni olib kirganini his qilish mumkin.

Ansambllarda ham dutor cholg'usining o'rni juda katta vazifani yani usul, boshqa sozlar qatorida to'ldiruvchi vazifasini ham bajarib boradi.

Yurtimizda ko'plab yoshlar ilk bor sahnaga chiqishganida, ayniqsa, qiz bola xonandalar, bolalar musiqa maktablarida yoki madaniyat o'choqlarida aynan dutor chalishni va shu cholg'u jo'rligida qo'shiqlar aytishib har xil tanlovlarda qatnashib san'at olamiga kirib kelishadi.

Yurtimizda ham "Dutorchi qizlar" nomini xalqimiz juda yaxshi bilishadi. Ularning har bir chiqishlarini intizorlik bilan tomosha qilishar edi. Ustoz san'atkor O'zbekiston xalq artisti G'anijon Toshmatov rahbarligidagi qizlardan iborat bu

jamo'a o'zbek xalqining durdonalari bo'lmish xalq qo'shiklari va laparlarini maromiga etkazib ijro qilishgan. Ularni ovozlaridagi joziba, sho'xlik va qizlarga xos sho'xlik har ijro qilingan asarlarida go'zallik, nafislik taralib turardi. Ular ijro etgan asarlar O'zbekiston radio fanatekasida saqlanib kelmokda.

Mana vohada ham aynan dutor cholg'usi jo'rligida baxshichilik san'ati hozirgi kunda juda ham yaxshi yo'lga qo'yilib kelinmoqda. To'g'ri ularning dutorlarida ozgina farq bo'lishi mumkin. Lekin ijro jarayonida yuqorida aytib o'tilgan fikrlar aynan ular ijrosida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ular bitta pardani chalgan holatida ohangni to'qib borishadi. Lekin yaxshi e'tibor berib eshitsangiz har gal o'zgarganini ko'rishingiz mumkin.

Men o'zim ham dutor cholg'usini yaxshi ko'rib ko'plab asarlarni shu cholg'u jo'rligida ijro etganman va hozirda ham shu cholg'u jo'rligida chiqishlar qilmoqdaman.

Qarang, bitta cholg'u dutorning sehri qanchalar mo'jizakor va kuchli. Ko'p mamlakatlarda ijod safarlarida bo'lganimizda bizning cholg'ularimizga e'tiborni ko'rib ko'z quvonadi. Chunki bunday sozlar o'zbek xalqiga mosdir.

Mana yurtboshimizning ham aytib o'tgan so'zlari: Har bir musiqa o'qituvchilari va o'quvchilari bittamas bir necha cholg'usini o'rganib chalishlari shartdir.

Hozirda har bir bolalar musiqa maktablarida ana shu aytilgan so'zlar amalga oshmoqda.

O'zbek xalqining oltin merosiga aylangan ana shu dutor cholg'usi yoshlarimiz tomonidan o'rganib an'analarimizni davom etishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston. 2016. – 13 b.
2. Rajabiy Y. O'zbek xalq musiqasi. T. 1-5. Toshkent, 1955-1975.
3. Matyoqubov O. Maqomot. "Musiq", Toshkent – 2004.
4. Xalq hofizlari. Toshkent O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.

Dadayev Ahmadjon Shokarimovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist

YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa san'atining yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ularning ma'naviyatini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Musiqa inson tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatishi, uning tarbiyaviy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida musiqa orqali yoshlarning estetik dunyoqarashi, madaniy xabardorligi va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining shakllanishi o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Musiqa san'ati, yoshlar tafakkuri, ma'naviyat, madaniy meros, neyrobiologik ta'sir, estetik tarbiya, milliy qadriyatlar.*

Annotation: *This article analyzes the role of music in developing the thinking of young people and shaping their spirituality. How music affects human thinking, its educational, social and psychological aspects are covered on the basis of scientific sources. In the process of research, the formation of the aesthetic worldview, cultural awareness and attitude of young people to spiritual values through music is studied.*

Keywords: *Music, thinking of young people, spirituality, cultural heritage, neurobiological impact, aesthetic education, national values.*

Musiqa san'ati inson tafakkurini shakllantirish, uning ma'naviy va estetik olamini boyitish jarayonida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Har bir millat o'zining tarixiy taraqqiyotida musiqa san'atidan nafaqat ko'ngilochar vosita sifatida, balki tarbiyaviy, axloqiy va ruhiy jihatdan insonni shakllantirish manbai sifatida foydalangan. Musiqa san'ati qadimdan inson tafakkurini shakllantirish, uning ruhiyatini boyitish va hissiy dunyosini kengaytirish vositasi sifatida qaralgan. Har bir millatning musiqa san'ati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u jamiyatning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, musiqa inson miyasi faoliyatiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Tadqiqotlarga ko'ra, musiqa tinglash jarayonida miyada dopamin, serotonin va oksitotsin kabi neyrottransmitterlar

ishlab chiqariladi, bu esa inson ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, musiqa stress darajasini pasaytirib, ijodiy fikrlashni kuchaytiradi. Ushbu statistik ma'lumotlarni ilmiy manbalar bilan mustahkamlashga harakat qilaman.

2019-yilda Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (APA) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, musiqa tinglash inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, stress gormonlari darajasini 65% gacha pasaytirishi kuzatilgan (Thoma et al., 2019).

2021-yilda Oksford universiteti tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan neyrobiologik tadqiqot shuni ko'rsatdiki, musiqa tinglash vaqtida dopamin darajasi 9% ga oshadi, bu esa odamning motivatsiyasini va ijobiy his-tuyg'ularini kuchaytiradi (Zatorre & Salimpoor, 2021).

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Fanlar akademiyasi tomonidan 2020-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 87% yoshlar milliy musiqa orqali o'z madaniy xabardorligini oshirishini bildirgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarida milliy musiqaga moyillik 18-25 yosh oralig'idagi talabalar orasida yuqoriligi aniqlangan (Sayfullayev, 2020).

Neyrobiologik ta'sirning ilmiy asoslanishi. Musiqaning inson miyasi va ruhiyati bilan bog'liq ta'sirini ilmiy jihatdan mustahkamlash uchun quyidagi dalillarni qo'shish mumkin:

Daniel Levitin o'zining "This Is Your Brain on Music" (2006) asarida musiqa tinglash miya faoliyatida qanday neyrokimyoviy o'zgarishlar sodir etishini ko'rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- o Musiqa miya korteksining turli qismlarini faollashtirib, diqqatni oshiradi va ijodiy fikrlashga yordam beradi.
- o Oksitotsin va serotonin ishlab chiqarilishi ortib, inson o'zini baxtli va osoyishta his qiladi.

Harvard Medical School tadqiqotlariga ko'ra, klassik va milliy musiqa stress gormonlarini kamaytirib, psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Tadqiqotda 150 nafar talaba ishtirok etib, klassik musiqa tinglaganlarning stress darajasi 42% ga pasaygani aniqlangan (Harvard Health Publishing, 2021).

Statistik ma'lumotlar jadvali

Ma'lumot manbasi	Tadqiqot natijalari	Ishtirokchilar soni
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (2020)	87% yoshlar milliy musiqa madaniy xabardorligini oshirishini aytgan	1000 kishi

Harvard Medical School (2021)	Musika tinglash stress darajasini 42% ga pasaytiradi	150 talaba
Oksford Universiteti (2021)	Musika tinglaganda dopamin darajasi 9% ga oshadi	Neyrobiologik tadqiqot

Milliy musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni bo‘yicha quyidagi ilmiy manbalar bilan tanishib chiqildi.

O‘zbekistonda milliy musika san’atining yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’sirini isbotlash uchun quyidagi tadqiqotlar keltirilishi mumkin:

Sayfullayev N. (2019) o‘zining “San’atshunoslik asoslari” kitobida musika orqali yosh avlod ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish haqida yozgan. Unda yoshlarning milliy identifikatsiya jarayoni aynan musika san’ati orqali tezlashishi ta’kidlangan.

Abdullayev A. (2015) “O‘zbek musika san’ati tarixi” asarida maqom va baxshichilik yoshlar orasida milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishni oshirishda asosiy vositalardan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi qarori asosida milliy musiqani yoshlar orasida keng targ‘ib qilish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar natijasida maktab va oliy ta’lim muassasalarida milliy musiqaga qiziqish 35% ga oshgani aniqlangan (Madaniyat vazirligi hisobot ma’lumotlari, 2019).

Musika san’atining tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir. Xalq musiqalari va milliy kuy-qo‘shiqlar yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularning estetik didini shakllantirish va milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalikdan boshlab milliy musika madaniyati bilan tanishtirish yoshlarning o‘z xalqining madaniyatiga bo‘lgan hurmatini oshiradi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy immuniteti va madaniy qadriyatlarga hurmati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, musiqaning ta’sir doirasi faqatgina badiiy-estetik qimmat bilan cheklanmay, balki inson psixologiyasiga, tafakkur jarayonlariga va shaxsiy rivojlanishiga ham bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Ma’naviy rivojlanish – bu insonning axloqiy, estetik va intellektual jihatdan takomillashuvi jarayonidir. Yoshlarning ma’naviy olamini boyitishda musika san’ati muhim omil hisoblanadi. Musika orqali nafaqat insonning hissiyotlari, balki uning dunyoqarashi ham shakllanadi.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarning aksariyati musika orqali milliy madaniyat va qadriyatlar haqida ko‘proq bilib oladi. Masalan, 78% yoshlar milliy musika ularning madaniy xabardorligini oshirishini ta’kidlagan. Bundan tashqari, musika yoshlarning psixologik barqarorligini

saqlash va stressni kamaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 82% yoshlar musiqa tinglash orqali stress darajasi pasayishini aytgan.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning musiqa tanlovi sezilarli darajada o'zgarmoqda. Turli ommaviy axborot vositalari va internet platformalarining rivojlanishi natijasida xorijiy musiqalar keng tarqalmoqda. Bu esa ba'zan milliy musiqaga bo'lgan e'tiborning pasayishiga olib keladi. Shu sababli, milliy musiqa san'atini yoshlar orasida ommalashtirish va targ'ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Musiqa nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Musiqa yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish, ularni turli madaniyat va an'analar bilan tanishtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, musiqa ijtimoiy moslashuv jarayonini osonlashtiradi, insonlar o'rtasidagi aloqa va tushunishni yaxshilaydi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda musiqa san'ati ta'lim tizimining muhim qismi hisoblanadi. Masalan, Yaponiyada bolalar bog'chalaridan boshlab musiqa ta'limi joriy etilgan bo'lib, bu orqali bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyati, tafakkur va hissiy dunyosi shakllantiriladi. Germaniya va AQSh kabi davlatlarda esa musiqa san'ati yoshlarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda o'rganilgan.

O'zbekistonda ham milliy musiqani targ'ib qilish bo'yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, "Maqom san'ati festivali" va "Baxshichilik san'ati festivali" kabi tadbirlar milliy musiqani keng ommaga etkazish va yoshlar orasida uni ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

1. Musiqa san'atining tafakkur va ma'naviyatga neyrobiologik ta'sir

Musiqa inson ongiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy neyrobiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqani tinglash vaqtida miyada dopamin, serotonin va oksitotsin kabi neyrotransmitterlar ajraladi. Bu esa insonda ijodiy fikrlashni kuchaytiradi, stress darajasini pasaytiradi va ma'naviy hislarni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar klassik va milliy musiqalarni tinglaganda ularning fikrlash jarayonlari faollashadi, estetik didi va hissiy qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

2. Musiqa san'atining tarbiyaviy va ijtimoiy jihatlari

Musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, xalq musiqalari va milliy kuy-qo'shiqlar yoshlarni milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: 78% yoshlar musiqa orqali milliy madaniyat haqida ko'proq bilib olishlarini ta'kidlagan;

65% respondentlar milliy musiqalarni tinglash ularning vatanparvarlik tuyg'usini oshirganini bildirgan;

82% yoshlar musiqa stressni kamaytirishda va ijtimoiy moslashuvda yordam berishini ta’kidlagan.

Bundan tashqari, xalqaro tajribalar shuni ko’rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Yaponiya, Germaniya, AQSh) ta’lim tizimida musiqa san’ati alohida fan sifatida o’qitilib, yoshlarning tafakkurini rivojlantirish va ularning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirishda asosiy vosita sifatida foydalaniladi.

2. Musiqa san’ati va globallashuv jarayoni

Bugungi kunda globallashuv yoshlarning musiqa tanloviga sezilarli ta’sir o’tkazmoqda. Turli xil ommaviy axborot vositalari va internet platformalarining rivojlanishi natijasida yoshlar turli madaniyatlarning musiqalarini tinglash imkoniyatiga ega bo’lishdi. Biroq, bu jarayonda milliy musiqa madaniyatini saqlab qolish va uni yosh avlodga etkazish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan shu maqsadda O‘zbekistonda milliy musiqa san’atini targ‘ib qilish bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, “Maqom san’ati festivali”, “Baxshichilik san’ati festivali” kabi tadbirlar milliy musiqani ommalashtirish va yoshlar orasida uni keng targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

Milliy musiqa va globallashuv bo‘yicha davlat dasturlari

Davlat	Musiqa ta’limi va milliy musiqani targ‘ib qilish
Yaponiya	Maktablarda musiqa darsi majburiy, milliy cholg‘ular o‘rgatiladi
Germaniya	Musiqa san’ati madaniy integratsiya vositasi sifatida targ‘ib qilinadi
O‘zbekiston	Maqom va baxshichilik festivallari orqali milliy musiqani ommalashtirish

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, musiqa san’ati yoshlarning tafakkurini rivojlantirish va ularning ma’naviyatini oshirishda quyidagi jihatlar orqali muhim rol o‘ynaydi:

Musiqaning neyrobiologik ta’siri

Gormon	Musiqa ta’siri	Natija
Dopamin	Musiqa tinglashda miya mukofot tizimi faollashadi	Motivatsiya oshadi, ijodiy fikrlash kuchayadi
Serotonin	Oramuz, maqom yoki klassik musiqa eshitishda ishlab chiqiladi	Stress kamayadi, kayfiyat yaxshilanadi

Oksitotsin	Jamoaviy kuylash yoki orkestr musiqasida ortadi	Ijtimoiy bog'liqlik mustahkamlanadi
------------	---	-------------------------------------

Neyrobiologik ta'sir – musiqa miyada ijobiy jarayonlarni rag'batlantirib, tafakkur rivojlanishiga yordam beradi.

Tarbiyaviy ahamiyat – musiqa orqali yoshlar milliy qadriyatlar va an'analar bilan tanishadi.

Ijtimoiy moslashuv – musiqa yoshlarning jamiyatga moslashishini osonlashtiradi va stress darajasini pasaytiradi.

Musiqa san'ati yoshlarning tafakkurini rivojlantirish, ma'naviyatini oshirish va ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqa inson miyasining neyrobiologik jarayonlariga ta'sir ko'rsatish bilan birga, uning tarbiyaviy va ijtimoiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy musiqa yoshlar ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, ularning vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ta'lim tizimida musiqa fanining rolini oshirish – maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy musiqa bo'yicha maxsus darslar tashkil etilishi lozim. Musiqa yoshlarning estetik didini shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.
2. Milliy va zamonaviy musiqaning uyg'unligini ta'minlash – an'anaviy va zamonaviy musiqalarni birlashtirgan yangi loyiha va platformalarni rivojlantirish zarur. Bu orqali milliy musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish va uni zamonaviy yoshlar o'rtasida ommalashtirish mumkin.
3. Xalqaro tajribalarni o'rganish – rivojlangan mamlakatlarning musiqa ta'limi tajribalaridan foydalanish orqali milliy musiqani yanada ommalashtirish maqsadga muvofiq. Bu esa yoshlarning musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning madaniy bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.
4. Musiqiy tadbirlar va festivallar sonini oshirish – milliy musiqa festivallari va xalqaro musiqiy tadbirlarni ko'paytirish orqali yoshlarning madaniy faoliyatga jalb etilishi ta'minlanadi.
5. Axborot texnologiyalari yordamida milliy musiqani targ'ib qilish – internet va raqamli platformalardan samarali foydalanish orqali milliy musiqa ommalashtirilishi lozim.

Ushbu tavsiyalar asosida musiqa san'atining yoshlar ma'naviyatini oshirishdagi o'rni yanada mustahkamlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev A. “O‘zbek musiqa san’ati tarixi”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
2. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Sayfullayev N. “San’atshunoslik asoslari”. Toshkent: Fan, 2019.
4. Sloboda J. “The Musical Mind: The Cognitive Psychology of Music”. Oxford University Press, 1985.
5. Levitin D. “This Is Your Brain on Music: The Science of a Human Obsession”. Dutton/Penguin, 2006.
6. Campbell D. “The Mozart Effect: Tapping the Power of Music to Heal the Body, Strengthen the Mind, and Unlock the Creative Spirit”. Harper Collins, 1997.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 2017.
8. UNESCO. “Music as a Tool for Education and Social Inclusion”. Paris, 2018.
9. Neuhaus H. “The Art of Piano Playing”. Kahn & Averill, 1973.
10. Tarakanov Y. “Musiqa psixologiyasi va pedagogikasi”. Moskva: Nauka, 2010.

To'rayev Qahramon Fayzullayevich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası dotsent v.b.

INSON KAMOLOTIDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

Annotatsiya: Milliy-madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan g'oyalarni jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi ahamiyati katta. Milliy qadriyatlarga munosabat esa uni yanada rivojlantirish, kelgusi avlodlarga etkazish, asrlar davomida shakllanib kelgan xalq musiga merosiga vorislik qilish tuyg'usini vujudga keltiradi. Maqolada yosh avlod tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda musiqa san'atining o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Milliylik, qadriyat, an'ana, barkamol avlod, musiqa, san'at, vatanparvarlik.

Annotation: The examples of national cultural heritage and the ideas put forward in them are of great importance in the development of society and personal development. The attitude to national values creates a sense of further development, passing it on to future generations, and inheriting the folk musical heritage that has been formed over the centuries. The article provides information about the role of musical art in developing the thinking of the younger generation and increasing its spirituality.

Keywords: nationality, value, tradition, harmonious generation, music, art, patriotism.

Markaziy Osiyoda an'anaviy qo'shiqchilik asrlar davomida rivojlanib, mintaqaning musiqiy o'ziga xosligini shakllantirgan chuqur badiiy va madaniy ifodadir. An'anaviy qo'shiqchilikni o'rganish nafaqat vokal texnikasi, balki har bir kuyning tarixiy, madaniy va hissiy chuqurligi bilan bog'liq.

Markaziy Osiyoda an'anaviy qo'shiqchilikni o'rganish mintaqaning o'ziga xos musiqiy tuzilmalari, uslublari va ijrochilik amaliyotini baholashni talab qiladi. Ruxsat etilgan nota va garmonik progressiya tizimiga asoslangan G'arb klassik musiqasidan farqli o'laroq, O'rta Osiyo musiqasi asosan og'zaki uzatish, mikrotonal nuanslar va murakkab ritmik naqshlarga tayanadi. Jumladan, maqom tizimi juda murakkab musiqiy asos bo'lib, ijrochilardan ham texnik aniqlik, ham hissiy teranlikni talab qiladi. Ushbu tizimda navigatsiya qilishni o'rganish ohang

rivojlanishi, bezak va improvizatsiyani chuqur tushunishni, shuningdek, har bir qismga kiritilgan boy madaniy rivoyatlarni etkazish qobiliyatini talab qiladi.

An'anaviy qo'shiqchilik texnik mahoratdan tashqari ma'naviy va ijtimoiy vazifani ham o'zida mujassam etadi. Maqom va xalq an'analari doirasida ijro etilgan ko'plab qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib, ko'pincha hikoya qilish, xotirlash va jamoaviy bog'lanish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Ushbu kompozitsiyalarning so'zlari ko'pincha sevgi, tabiat, sadoqat va falsafiy tafakkur mavzularini o'rganadi. Ushbu mavzular bilan shug'ullanish orqali an'anaviy qo'shiqchilik talabalari nafaqat vokal qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki ular ijro etayotgan musiqaning madaniy va hissiy jihatlarini bilan ham bog'lanadilar.

Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari, sharqshunoslar hamda san'atshunoslarning yangi tadqiqotlari va o'rta asrlardagi O'rta Osiyoda yashab ijod etgan qomusiy olimlarning musiqiy risolalari tarjimasi o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayoni haqida tasavvur qilishimizga yordam bermoqda.

O'zbek xalqining musiqa san'ati, professional ijod mahsuli bo'lgan musiqa asarlari folklor asosida shakllanib, asrlar silsilasidan o'tib, sayqallanib borishi natijasida rivojlangan. U bizgacha hofizlar, musiqachilar, baxshilar orqali etib kelgan. Keyinchalik XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Ayniqsa musiqiy ta'lim tizimi yangi bosqichga chiqdi deb ayta olamiz. Binobarin O'zbekiston musiqiy ta'lim tizimida milliy cholg'ular, maqom san'ati masalalarini an'ana va zamonaviylik kesimida o'rganishga bugungi kunda ehtiyoj sezilmoqda. Ta'lim sohasida ilmiy izlanishlar olib borilishi, o'tmish va bugungi kun misolida tahlil qilish va kelajak avlodga etkazish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. So'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish va uni tadqiq etish ustivor ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi uning ta'lim-tarbiya ishalarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi, fan, madaniyat sohalariga bo'lgan e'tibori bilan belgilanmoqda. Istiqloq yillarida milliy ma'naviy merosga bo'lgan yuksak e'tibor natijasi o'laroq yurtimizda mazkur jabhada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizning o'rganish masalalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbek xalq og'zaki an'anasidagi kasbiy san'at asarlarining xalq e'zoziga tushishi, cholg'u ijrochiligi, maqom ashulalarining, katta ashulalarining va maqom yo'llaridagi mumtoz asarlarining ijrochilik taomilidan munosib o'rin egallashi bu jarayonga o'zgacha salohiyat baxsh etdi. Bugungi kunda ularni tadqiq etish, pedagogik ta'lim tizimida ularning o'rganilishini o'tmish va bugungi kun misolida tahlil

qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Binobarin, o'zbek xalq musiqa og'zaki an'analari rivojlanib, asrlar osha avloddan – avlodga o'tib, xalq hayotining eng muhim qirralarini aks ettirish xususiyati bilan xalq hayotining badiiy ifodasi hisbolanadi.

Milliy-madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan g'oyalarni jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi ahamiyatiga yuqori baho beriladi. Shuning uchun ham barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari yoshlarda milliy-musiqiy qadriyatlarni teran anglash, sevish, qadrlash, o'rganish, rivojlantirish uni himoya qilish kabilarni shakllantirishni ham ko'zda tutadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy, ya'ni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash vazifalari mazmunida ham bu jihatlar ustuvor o'rin tutadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasida barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizga, ya'ni tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, san'atimizga nisbatan ongli munosabatni tarkib topishiga olib keladi. Milliy qadriyatlarga munosabat esa uni yanada rivojlantirish, kelgusi avlodlarga etkazish, asrlar davomida shakllanib kelgan xalq musiga merosiga vorislik qilish tuyg'usini vujudga keltiradi. Bu esa musiqa ta'limi, pedagogikasi oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Markaziy Osiyo an'anaviy qo'shiqchiligiga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, u mintaqa musiqa an'alarini shakllantirgan global ta'sir va o'zaro ta'sirlarni ham e'tirof etadi. Tarixiy Ipak yo'li savdo yo'llari Markaziy Osiyo va qo'shni mintaqalar o'rtasida madaniy almashinuvlarni yo'lga qo'ygan, o'ziga xos musiqa uslublari va gibrid shakllarining rivojlanishiga hissa qo'shgan. Ushbu madaniyatlararo ta'sirlarni tushunish Markaziy Osiyo musiqasining global musiqa landshaftidagi o'rni haqida kengroq nuqtai nazarni beradi. Tez o'zgarib borayotgan dunyoda ko'plab an'anaviy san'at turlari ahamiyatini pasaytirish yoki tijoratlashgan musiqa sohalari soyasida qolish xavfiga duch keladi. Biroq an'anaviy qo'shiq tomoshabinlarni ilhomlantirishda va rezonanslashishda davom etadigan hayotiy madaniy ifoda bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola o'quvchilarni ushbu musiqiy meros bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan qurollantirish orqali an'anaviy qo'shiqchilikni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va targ'ib qilish borasida olib borilayotgan ishlarga hissa qo'shadi.

Inson kamolotida, uning professional va axloqiy qiyofasini to'g'ri shakllanishida musiqadan foydalanish ko'zlangan natijalarga olib kelishi bugungi kunda sir emas. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarini olib bora olmaydi. "Musiqa yo'nalishi" vakillari o'z kasbiga, o'rganuvchilarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika

nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalari, musiqa o‘qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo‘lishi zarur. Shundagina u pedagog sifatida soha mutaxassisligidan bilim berishi bilan bir qatorda qo‘l ostidagi talabalarini etuk inson sifatida shakllantiradi.

Xalq musiqa ohanglari, o‘zbek kompozitorlari ijod etgan - Ona-Vatanimiz, jonajon O‘zbekistonimiz go‘zalligini ularda mehr-muhabbatni madh etishga bag‘ishlangan xilma-xil musiqiy asarlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Vatanparvarlik eng avvalo kindik qoni to‘kilgan joyga, qarindosh-urug‘, el-yurt, ona zaminga bo‘lgan hurmat va e‘tibor, mehr va muhabbatdan boshlanadi. Insonlarni kamolot sari etaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning PQ-112 sonli qarori bo‘yicha nutqidan.
2022-yil 2-fevral
2. Qodirov A. “Ma’naviyat yulduzlari” T., 1999
3. G‘afurov Z. “Ma’naviyat saboqlari”. T., 1998
4. Yusupov E. “Yoshlarning ma’naviy kamoloti” T., 1996

Alimov Abdumuxtor Odilovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi o'qituvchisi

ORIFXON HOTAMOV IJODI: YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI BEBAHO MEROS

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek hofizlarining, xususan, Orifxon Hotamovning boy va bebaho ijodi, ularning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi muhim o'rni, asarlarining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini targ'ib qilishdagi roli chuqur tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy yoshlarning o'zbek hofizlari ijodiga munosabati, ularni targ'ib qilish va yoshlar auditoriyasiga etkazishning innovatsion usullari hamda bu boradagi dolzarb muammolar va ularning echimlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Orifxon Hotamov, o'zbek hofizlari, milliy qo'shiqlar, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat, qadriyatlar, targ'ibot, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar.

Abstract: This article deeply analyzes the rich and invaluable work of Uzbek poets, in particular Orifxon Hotamov, their important role in shaping the spirituality of young people, the role of their works in promoting spiritual and moral values. It also touches the attitude of modern youth to the work of Uzbek poets, innovative methods of promoting them and bringing them to a youth audience, as well as current problems and their solutions in this regard.

Key words: Orifxon Hotamov, Uzbek poets, national songs, youth education, spirituality, values, propaganda, modern technologies, innovative approaches.

Xalqimizning asrlar mobaynida shakllangan boy madaniy merosining asosini tashkil etgan o'zbek san'atkorlarining ijodi, ayniqsa, O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamovning betakror ijodi elimizning o'tmishi, urf-odatlarini, an'analari, qadim qadriyatlarini va o'ziga xos ruhiyatini amalda aks ettirgan noyob san'at namunalari. Globallashuv jarayonlari kuchaygan bugungi davrda, yoshlarning orzu va intilishlari o'zgargan bir sharoitda xalq hofizlari ijodining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini yanada anglash, ularni yoshlarga etkazishning zamonaviy va innovatsion shakllarini joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Bugungi globallashuv va axborot oqimi sharoitida yoshlarning ma'naviy olamini boyitish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylandi. Shu jarayonda milliy san'at va adabiyot vakillarining ijodi beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, atoqli san'atkor Orifxon Hotamov ijodi yoshlarning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladigan, o'z zamonasi bilan hamnafas, chuqur falsafiy va badiiy boylikka ega asarlar namunasi sifatida ajralib turadi.

Orifxon Hotamov – o'zbek xalq musiqasining zabardast namoyandalardan biri, hofizlik san'atining nozik sir-asrorlarini o'z asarlarida mujassamlashtirgan mahoratli ijodkordir. Uning ijodidagi quyidagi xususiyatlar yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi:

Milliy qadriyatlarning tarannumi: Hotamov o'z qo'shiqlarida vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, sabr-toqat, halollik kabi qadriyatlarni yuksak saviyada madh etadi.

Ijtimoiy g'oyabardorlik: U asarlari orqali jamiyatdagi dolzarb masalalarni, yoshlarning hayotdagi o'rni va mas'uliyatini yoritadi.

Falsafiy teranlik: Orifxon Hotamov ijodi inson ruhiy olamini o'rganish, ma'naviy kamolot sari intilish mavzulariga bag'ishlangan.

Orifxon Hotamov asarlarining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Identitet shakllanishi: Uning musiqiy asarlari yosh avlodga milliy o'zlikni anglash va qadrlash hissini uyg'otadi.

Ma'naviy immunitet: Global madaniy bosim sharoitida Hotamov asarlari yoshlar qalbida mustahkam ma'naviy tayanch hosil qiladi.

Estetik tarbiya: Uning kuy va qo'shiqlari san'atning nafosatini, badiiy did va tasavvur doirasini kengaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar va ta'lim uslublari yordamida Orifxon Hotamov merosini yoshlar ongiga etkazish uchun quyidagi usullar dolzarb hisoblanadi:

- **Raqamli platformalar orqali targ'ibot:** Hotamov ijodini YouTube, Spotify kabi platformalarda keng yoritish.
- **Ta'lim dasturlariga integratsiya:** Musiqa va madaniyat darslarida Hotamov asarlarini o'rganish va tahlil qilish.
- **Musiqiy tanlov va loyihalar:** Yoshlar orasida milliy musiqa ijrochiligi bo'yicha tanlovlarda Orifxon Hotamov ijodidan namunalar ijro ettirish.
- **Multimediali loyihalar:** Hotamov hayoti va ijodi asosida videofilmlar, podkastlar va virtual ko'rgazmalar tashkil etish.

Orifxon Hotamov ijodi — nafaqat o'z zamonasining bebaho san'at namunasi, balki bugungi yoshlar ma'naviyatini boyitish va ularni milliy ruhda tarbiyalash uchun ham ishonchli manba hisoblanadi. U yaratgan asarlar, zamonaviy yondashuvlar orqali, yosh avlodni o'zlikni anglash, milliy

qadriyatlarga sodiqlik va estetik didga ega bo'lishga etaklaydi. Shunday ekan, Orifxon Hotamov ijodiy merosining zamonaviy sharoitda keng targ'ib etilishi yoshlar tarbiyasi strategiyasining muhim qismi bo'lib qolmoqda.

Orifxon Hotamovning asarlari yoshlar qalbida vatanparvarlik, milliylik va faxr-iftixor tuyg'ularini shakllantirishning asosiy vositasidir. Uning ijodida odob-axloq, yuksak ma'naviyat mavzusi alohida o'rin tutadi. Misol uchun, uning Salohiy g'azali bilan aytilgan "Ey, o'g'il" qo'shig'ida quyidagi satrlar bor:

Ey o'g'il haddingda tur, otang seni sotganda ham,
Inchinun mushfiq onangning so'zlari botganda ham.
Kechmagil farzanduzan deb keksalik holida sen,
Kechmadi sendan alar zahru zaqqum yutganda ham.

Bu satrlar yoshlar ongida ota-onaga bo'lgan mehru muhabbat, vafo va sadoqat kabi umum insoniy tuyg'ularni shakllantiradi. Farzandlarimizni milliy ruhda kamolga etkazish uchun ularni bog'cha yoshidan boshlab "Alla" misolida mumtoz ijro yo'llarini qulog'iga singdirib bormoq lozim. Orifxon Hotamov ijodida ayni shu milliylik aks etgan bo'lib, asarlari yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyo qarashiga ijobiy ta'sir qilib, ularda mehr-oqibat, sabr-qanoat, halollik, insof-diyonat kabi go'zal hislatlarni kamol toptiradi.

Orifxon hofiz ijodi yoshlarning badiiy va estetik didini o'stiradi, ularda go'zallikni idrok etish, milliy musiqa va san'atga ishtiyoqini oshiradi. O'zbek mumtoz ashulalarining sirli va sehrli jilolari yoshlarning badiiy tafakkurini shakllantirishda katta o'rin tutadi. Bugungi kunda yoshlarning aksariyati zamonaviy engil-yelpi, bachkana, saviya nuqtai nazaridan o'ta bo'sh musiqiy janrlarga qiziqmoqda, bu esa Orifxon Hotamov ijodining yoshlarga etkazib borish yo'liga g'ov bo'lmoqda.

Orifxon Hotamov ijodini yoshlar auditoriyasiga etkazishda zamonaviy texnologiyalardan bo'lmish internet ijtimoiy tarmoqlari, jumladan, Tik-tok, YouTube, Instagram, Facebook kabi global platformalardan faol foydalanish, ularni yangi zamonaviy musiqiy bezaklar, ya'ni so'nggi urfdagi saundlar yordamida ijro etib, yoshlarning qiziqishlariga mos keladigan loyihalar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunga hofizning "Sensan sevarim" ashulasini zamonaviy "Nola" guruhi talqinidagi ijroni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Orifxon Hotamov ijodining yoshlar o'rtasidagi targ'ibotini kuchaytirish, ularni ommalashtirish, yoshlarning milliy qo'shiqlarga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun turli xil tanlovlar, festivallar va konsertlar tashkil etish zarur.

Ta'lim muassasalarida Orifxon Hotamov ijodini o'rgatish, ularni darslarga integratsiya qilish, Orifxon Hotamov ijodi to'garaklarini tashkil etish.

Ommaviy axborot vositalarida Orifxon Hotamov ijodini keng targ‘ib qilish, ular haqida ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlash, Orifxon Hotamov qo‘shiqlarining zamonaviy kliplarini yaratish.

Orifxon Hotamov ijodi festivallari va tanlovlarini tashkil etish, ularda yosh ijrochilarni faol ishtirok etishga jalb qilish.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda Orifxon Hotamov ijodini targ‘ib qilish, ular haqida interaktiv kontentlar yaratish, yoshlarning milliy qo‘shiqlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun maxsus platformalar yaratish.

Xulosa o‘rnida Orifxon Hotamovning bebaho ijodi yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Milliy ijrolarni yoshlar auditoriyasiga etkazish, ularning targ‘ibotini kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali yoshlarning milliy qadriyatlarga hurmatini oshirish, ularda vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatimizning ma’naviy-madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbek milliy musiqasi tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Rajabiy Y. O‘zbek xalq musiqasi. T. 1-5. Toshkent, 1955-1975.
3. Matyoqubov O. O‘zbek musiqasi tarixidan lavhalar. Toshkent: San’at, 2005.
4. Toshmuhammedov M. O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti. Toshkent, 1997.
5. Yusupov SH. Xofizlar sardori. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
6. Xalq hofizlari. Toshkent O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
7. Sharif Yusupov. Hofizlar sardori (1990) - Ziyouz.uz
8. Orifxon Hotamov - O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi.
9. Orifxon Hotamov. Qo‘shiqlar to‘plami. Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

Xudayarova Zaynab Rajabovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası o'qituvchisi

XALQQA MANZUR "HALIMA"

Annotatsiya: *Zamonaviy musiqali drama aktyorligida badiiy an'analarga vorisiylik borasida so'z ketarkan, bo'lajak ijrochilar tarbiyasidagi yangicha izlanishlar, uslubiy yondoshuvlar muhim o'rin tutadi. Bu borada rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning "Diydor" teatr-studiyasida amalga oshirgan ijodiy eksperimentlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada 2013-yilda B.Yo'ldoshev tomonidan mazkur teatr-studiya bitiruvchi talabalari bilan sahnalashtirilgan "Halima" spektaklining tahlili haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *mizansahna, grim, dutor, xalfa, lapar, leytmotiv, dirijyor, pafos, ansambl, ariya, duet.*

Annotation: *When discussing the inheritance of artistic traditions in contemporary musical drama acting, new research and methodological approaches in the training of future performers play a crucial role. In this regard, the creative experiments conducted by director Bakhodir Yuldashev at the "Diydor" theater studio are of particular significance. This article analyzes the play "Halima", which was staged by B.Yuldashev in 2013 with graduating students of this theater studio.*

Keywords: *mizanscene, makeup, dutar, khalfa, lapar, leitmotiv, conductor, pathos, ensemble, aria, duet.*

So'nggi yillarda xalq badiiy madaniyatidan oziqlangan asarlarga murojaat etishda yangi estetik tafakkur, mantiqiy mushohadaga asoslanish tamoyili kuchaydi. "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam" singari folklor asosidagi, xalq milliy musiqasi bilan boyitilgan "Halima" kabi ilgari murojaat etilgan asarlarga yangicha rejissyorlik yondoshuvlari bilan e'tibor qaratildi.

Zamonaviy musiqali drama aktyorligida badiiy an'analarga vorisiylik borasida so'z ketarkan, bo'lajak ijrochilar tarbiyasidagi yangicha izlanishlar, uslubiy yondoshuvlar muhim o'rin tutadi. Bu borada rejissyor Bahodir

Yo‘ldoshevning “Diydor” teatr-studiyasida amalga oshirgan ijodiy eksperimentlari alohida ahamiyat kasb etadi. 2013-yilda B.Yo‘ldoshev mazkur teatr-studiya bitiruvchi talabalari bilan G‘ulom Zafariyning “Halima” asarini sahnalashtirdi. Bu teatr–studiya dunyoqarashi keng, fantaziyasi boy iqtidorli yoshlarning eksperimental ijodiy ustaxonasidir. Ayniqsa, asarlarga yangicha yondoshuv, noan’anaviy talqin, estetik vositalar topish, ilgari sahnalashtirilgan pyesalar borasida yangi tajribalar o‘tkazish bo‘lajak aktyorlarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bahodir Yo‘ldoshev “Halima” asarida barcha mizansahna, liboslarni shartlilikka qurgan. Yosh ijrochining grim qilib, yoshi, holati, tabaqalarini ko‘rsatish uchun soqol-mo‘ylov, hassa kabi ashyolar shart emas deb bilgan. Bu haqda professor M.Qodirov yozganidek, “Ijrochi aktyorlar ustida qahramonning ijtimoiy mavqeiga yarasha chopon, kamzul, ko‘ylak, oyoqlarida shippak, etik, kavush-maxsi, boshlarida do‘ppi, salla, ro‘mol bor-u, biroq xususan erkaklarda grim, soqol-mo‘ylov ishlatilmagan. Ammo tashqi ko‘rinishidan boy yoki kambag‘al ekanini ajratsa bo‘ladi. Garchi dasturda N.Halilov musiqasi deb yozilgan bo‘lsa-da, spektaklda orkestr fonogrammasi yoki bo‘lmasa, cholg‘u ansambli ishlatilmaydi” [1]. Mazkur noan’anaviy spektaklni dutorchi boshlab beradi. Bodombeka (Zaynab Xudayarova) chertgan dutorning xonishin navosida “Qo‘qoncha” kuyi yangraydi. Bu kuy olis tarix voqealarini ifoda etib, asarga muqaddima vazifasini bajargan. Ushbu shartlilikda Ortiqboyning birinchi xotini Bodombeka voqealarni kishilarga etkazuvchi boshlovchi tarzida aks etadi. Bodombeka zimmasiga qo‘yilgan yuk pyesa voqealariga hamohang bo‘lib, u o‘zi kabi ayollar o‘tmishi va og‘ir qismatidan hikoya qiladi. Bu erda rejissyor xalq badiiy madaniyatiga xos “Ichkari san’ati”ni asarga payvand qilgan. Zero, mazkur san’atga ko‘ra dutorchi, xalfa, laparchi ayollar uy ichkarisida ko‘ngil dardlarini ifoda etganlari ma’lum. Bu jihat Bodombeka libosi, holati, xatti-harakatida o‘z aksini topgan. U chertgan dutor taronalari leytmotiv tarzida butun spektakl voqealariga munosabat berib, yangrab turadi. Bodombeka – Z.Xudoyorovanning nafaqat boshlovchi, balki ashulalarga jo‘rnavor tarzida namoyon bo‘lishi orqali voqea ishtirokchilariga qismatdosh ekanligi ta’kidlanadi. Dutor Halima va Ne‘mat ariyalari va duetlariga, Roqiya xola, Xoljon xola, Bodombeka, Suxsurxon, La’lixon ashulalariga jo‘r bo‘ladi.

Butun spektakl davomida boshqa musiqa cholg‘usi qo‘llanilmagan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, birgina dutor bilan ariya va duetlarni ijro qilish aktyordan juda katta mahorat va mehnat talab qiladi. Zero, dutor sozining ovozi juda mayin va yumshoq bo‘lib, xonandaning asl tonallikni topishida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ayniqsa musiqiy savodxonlikka ega bo‘lmagan talabalar uchun bu vazifani bajarish murakkab. Nihoyatda qiyinchilik bilan o‘tgan repititsiyalar

aktyorlarni dutor sozi bilan kuylashga tayyorlagan. Bu erda yaratilgan murakkabliklardan yana biri odatiy musiqali dramalardagi dirijyorning mavjud emasligi bo'lgan. Zero, dutorchining o'zi ham sozanda, ham dirijyor vazifasini bajaradi. Ijrochi diqqatini yanada jamlab, bor vujudi bilan dutorni eshitishga va unga hamohang bo'la olishga harakat qiladi. Mazkur spektakl shu ma'noda ham musiqali teatr aktyoriga mahorat maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Dekoratsiya ham shartli tarzda bo'lib, Sergey Seduxin o'tgan asrning 20-yillari muhitini yaratib bergan. Asosiy voqealar tomosha markaziga o'rnatilgan supa ustida va uning atrofida bo'lib o'tadi. Halima bilan Ne'matning uchrashuv va visol damlari, quvonch va tashvishlari, baxti-yu baxtsizligi ana shu supa oldida yuz beradi. Asarning boshqa personajlari holatlari, vaziyatlari ham supa tevaragida kechadi. Barcha voqealarga guvoh bo'lgan supa sevgisi sarobga aylangan Ne'mat va Halima uchun finalda tobutga aylanadi. S.Seduxin dekoratsiyasidagi muhim elementlardan yana biri oq so'zanadir. Ma'lumki, so'zana azaldan to'y, oila, mehr-muhabbat timsoli. Shuning uchun ham yangi kelinchaklar xonasi so'zana bilan bezatiladi. Spektaklda so'zana dastlab yigit va qizning ko'ngil izhori chog'ida ko'tariladi. Oq rangda qizil gullar bilan bezatilgan bu so'zana orqali ikki yoshning sof muhabbati, pok kechinmalari ifoda etilgan. Ikkinchi gal so'zana to'y ramzi sifatida ishlatiladi. Bunda Ortiqboy qizga o'zi uchun sovchilikka kelganida to'yga ishora sifatida so'zana ko'tariladi. Bu galgi ko'rinishda ilgarigidan farqli o'laroq, oq so'zana chiroqlar orqali xira yoritilgan holatda berilgan. So'zananing finalda qo'llanishi ham obrazlilik kasb etgan. Ne'mat va Halimaning supada – tobutda yotgan jasi ustiga oq so'zana yopiladi. Bu erda so'zana ikkita vazifani bajaradi. Birinchisi azaldan kelin-kuyov ustiga yopilishi bo'lsa, ikkinchisi poymol bo'lgan pok tuyg'ularning ko'milishi holatini ifoda etadi. Spektaklda chiroqlardan nihoyatda o'rinli foydalanilgan bo'lib, katta oq so'zanaga qo'yilgan yuk har galgi ko'rinishda yorug'lik darajasi orqali ta'kidlab ko'rsatiladi. Qahramonlar taqdirining oydin damlarida u yorug', yorqin bo'lsa, fojeali kechmishlarda xira, baxtsizlikda nihoyatda tussiz aks etadi.

“Garchi sahna kichik, voqealar o'rni, vaqti shartli ifoda qilingan, qarama-qarshi qutbdagi kuchlarning voqealarga bo'lgan va o'zaro munosabatlari ham shartli ko'rsatilgan bo'lsa-da, tomoshabinlarga ta'siri nihoyat darajada kuchlidir. Aktyorlarning xatti-harakatlarida tragik pafos, kuchli drammatizm, iztirob etakchilik qildi. Mana shunda nutq, ovoz, qo'shiq, ariya va duet shaklidagi musiqalar katta ahamiyat kasb etdi. Faqat Halima va Ne'mat ariya va duetlari, Halimaning onasi Roqiya xola qo'shiqlari emas, hatto Ortiqboyning kundoshchilik qismatidan to'ygan xotinlarining qo'shiqlari ham yuksak dramatik ohanglarda ijro etiladiki, bundan ta'sirlanmagan odam qolmadi”[1]. Rejissyor B.Yo'ldoshev spektaklda an'anaviy teatr vositalaridan foydalangan holda

tomoshabinni ham bevosita spektakl ishtirokchisiga aylantiradi. Jumladan, sovchi Xoljon xola to'y taraddudiga tusharkan, quvonchdan tomoshabinlarga qand-qurslar ulashadi, hammani to'yga chorlaydi.

“Halima” muvaffaqiyatida bosh rol ijrochilarining mahorati alohida diqqatga molik. Halimani yosh aktrisa Shohista Pirnazarova, Ne'mat rolini Ilyos Arabov ijro qiladi. Ikkala aktyor ham ovoz hamda dramatik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda jaholat, qabohat, razillik hukmron bo'lgan zamonda ikki sevishganning murodlariga etolmay halok bo'lishi, his-xayajon va qayg'ularini mahorat bilan aks ettirganlar. Halima – Sh.Pirnazarova go'zal, sodda, beg'ubor, xatti-harakatlaridagi o'ziga xos nafislik, nazokat bilan tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Aktrisa Halimaning sevgilisi Ne'matga bo'lgan muhabbati, sadoqatini, jonidan ortiq ko'ruvchi jigargo'shalari onasi Roqiya xola, akasi Zokirjonga, otasi Muslim akaga bo'lgan mehrini ta'sirli ijro etadi. Sh.Pirnazarova dramatik talqin vositalari bilan birga ovoz imkoniyatlarini ham to'la namoyon etgan. Uning ovozidagi yoqimlilik, joziba, shirin nolalar tomoshabinni butunlay o'ziga rom qiladi. Ayniqsa aktrisa ovozidagi o'zbek milliy ohangiga mos nola-yu-qochirimlar sahnada yanada o'ziga hos jilolandi.

Asarning bosh qahramonlaridan yana biri bu Ne'mat obrazidir. Aktyor Ne'matning Halimaga bo'lgan kuchli muhabbati, sadoqatini, yomonlarga bo'lgan kuchli nafratini mahorat bilan ijro qiladi. Bu obraz rejissyor B.Yo'ldoshev tomonidan aktyor Ilyos Arabovga topshirildi. Aktyorning ovoz imkoniyati katta, diapazoni keng, u kuylagan ariyalar tomoshabin ko'ngliga etib boradi. Ovoz imkoniyatlarini dramatik holatlarga mahorat bilan bog'lashi har bir qo'shiq va so'z ta'sirchanligini oshirishga yordam bergan. Bir so'z bilan aytganda aktyor bosh qahramonning ichki dunyosi va beg'ubor qalbini mahorat bilan talqin qilgan. Ayniqsa, Ne'matning “Sayra bulbul”, “Aylading”, “Ko'rgali keldingmu yor”, “Ey gullar” ashulasi Halimadan umidini uzgan bechora yigitning qayg'u – hasratini, nola-faryodini ifoda etishda katta ahamiyat kasb etgan. Aktyor ushbu ariyani ijro qilganida his-hayajon, kechinma, dard, ovozida mung ufurib turganligi yaqqol seziladi.

Ortiqboy obrazini yaratishda Nurillo Eminov talqini alohida o'rin tutadi. Aktyor ijroda ko'proq sahna nutqiga e'tibor qaratgan. Asarning salbiy qahramoniga kiruvchi Ortiqboy obrazi birovlarini ishlatib, haqqini bermaydigan, o'zini do'st qilib ko'rsatib, butun oilani bola-chaqasi bilan o'ziga qaram qilib olmoqchi bo'lgan boydir. Ushbu obraz to'g'ri tanlangan bo'lib, aktyor so'zlashidagi shiddat, harakatlaridagi shijoatkorlik bilan Ortiqboyning qattiqqo'l, bir so'zli, qat'iyatli, ayyor, mug'ombiriligini alohida ta'kidlagan. Uning yuragiga in qurgan yovuzlik va razolatni aktyor N.Eminov ko'zlari, harakatlari, so'zlashdagi achchiq va keskir ma'nodorlik orqali ham ifodalagan. Ortiqboyning

ishqi beg'ubor, tuyg'ulari sof Halimaga tushgan. Uchta xotinini qo'yib bo'lsa-da, unga etishishni ko'ngliga tukkan. Buning boisi garchi uch xotin chiroyda bir-biridan o'tsa-da, uning fikricha har uchchalasining ko'ngli qora, niyatlari yomon. Ortiqboy halovatini yo'qotgan, xotinlari uning joniga qasd qilishlaridan hadikda yashaydi. Halima esa beg'ubor, beozor. Nimaiki qilib bo'lmasin, uni qo'lga kiritish lozim.

Rejissyor B.Yo'ldoshev Ortiqboy obrazida ko'rkam, qaddi-qomati kelishgan, hattoki Ne'matdan chiroyda o'tadigan aktyorlarni tanlagan. Bu tasodif emas. Halima Ortiqboyning na boyligi, na go'zalligiga e'tibor qilmaydi, uning ko'ngli birgina Ne'matda. Bu bilan rejissyor haqiqiy sevgi chiroy va boyluk tanlamasligiga urg'u bergan.

Ortiqboyning uch xotini Bodombeka, Suxsurxon, La'lixon qiyofasida ayollarning bir-biriga o'xshamagan tabiati aks etgan. Katta xotin Bodombeka - eshonning qizi, oilada doimo uning aytgani aytgan bo'lib kelgan. Zaynab Xudayarova ijrosida bu rol o'ziga o'ta ishongan, kalondimog', zebu-ziynatga burkangan ayol qilib talqin qilingan. Bodombekaning ichki olami va hissiyotlari "Intizor" ashulasini kuylaganida namoyon bo'ladi. Ariya-ashula shunday ijro etilganki, unda tashqi ko'rinishidan o'ziga bino qo'ygan ayolning ko'ngil olami aks etgan. Mazkur ariya o'ziga xos monolog bo'lib, qahramon portretini talqin etishga qaratilgan. Bodombeka portretida kalondimog' bu ayol, aslida ko'ngli yarim, mehrga zor, alamzada ekanligi ochib berilgan. U o'zining baxtsizligi, taqdir zarbalari uchun o'zgalardan o'ch olib yashaydi.

O'rtanchi xotin Suxsurxon o'zi va yonidagi kundoshlari fojeasini dardli kuylarida aks ettiradi. Uning timsolida qismatga ko'nmay, ko'nglida alam bilan yashayotgan ayolning butun orzu-havaslarini, maqsad va niyatlari kuy-qo'shiqlariga ko'chganligi ifoda qilingan.

Ortiqboyning uchinchi xotini La'lixon noz-karashmali, kiborli ayol. Rejissyor Maftuna To'rayevaning ovoz imkoniyatidan unumli foydalangan holda, unga o'lanchi rolini ham topshirgan. La'lixon kundoshlariga qasdma-qasd o'lanlarida o'zini hammadan baxtiyor qilib ko'rsatadi. U laparlar kuylab namoyon bo'larkan, voqealarda vaziyatlarni kuchaytirib, holatlarga ifodaviylik bag'ishlash maqsadlariga e'tibor qaratgan. Muslimboy to'yga rozilik berganida o'lanchining "Yor-yor"i eshitiladi. Ma'lumki, bu xabar Halimaning qalbini junbushga soladi. "Yor-yor" o'lanchi tomonidan xazin, mungli yangraydi. La'lixon - M.To'rayeva bu o'landa o'zining taslim bo'lgani, qismatiga ko'nganini ham ifoda etadi. Eng asosiysi o'lannig buningdek mungliligi bosh qahramon Halima ko'ksidagi oh va faryod edi.

Spektaklning muvaffaqiyatli obrazlaridan yana biri Xoljon xola bo'lib, u sovchilik qilib, boylarga xizmat qilishi orqasidan kun ko'radigan kampir. Ushbu

obrazni aktrisa Ruhshona Abdullayeva maromiga etkazib ijro qilgan. U ko‘rinish jihatidan ham rolga mos tushgan. Aktrisa nihoyatda erkin, ijroda qahramonining faqat tashqi xatti-harakatlarini emas, ichki hissiyotlarni berishga ham jiddiy e‘tibor qaratgan. R. Abdullayeva Xoljon xola timsolida o‘ziga etgan ayyor, mug‘ombir, ishini bitkazish uchun har qanday yolg‘ondan qaytmaydigan sovchi xotinni ko‘rsata bilgan. U ariyalarni kuylashda ham ovozda ayyorlik, kesatqlik holatlarini alohida ta’kid etadi.

Roqiya xola rolini o‘ynagan Nazokat Narziyeva ijrosi haqida ham to‘xtalib o‘tish joiz. Halimaning onasi mushfiq Roqiya erining yuziga tik boqa olmaydigan, mute, boriga ko‘nib yashaydigan sodda ayol obrazi. U 20-yillardagi mushtipar, o‘z so‘zi, fikri, qarashiga ega bo‘lmagan o‘zbek ayollarining umumlashma tipini yaratishga harakat qilgan. Jondan aziz ko‘rgan qizining boshiga tushayotgan balolarni ko‘ra-bila turib, isyon qilishga yoki bir og‘iz eriga qarshi borishga jur’ati ham etmaydi. Roqiyaning buningdek passiv holati garchi o‘z davrining umumlashma qiyofasini aks ettirishga yordam bersa-da, yangi spektaklda rejissyor uning inson sifatidagi ichki isyonini ariya orqali ifoda etgan. Ta’sirchan ovozga va katta diapazonga ega bo‘lgan N.Narziyeva “Topolmasman” ashulasini kuylaganida ona ko‘nglining tub-tubidan otilib kelayotgan vulqon namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, mazkur ariya o‘ziga xos monolog bo‘lib, Ona kechinmasini yuksak pardalarda ifodalagan.

“Halima” spektakli musiqali drama qonuniyatlarini o‘rganish, dramatik holatdan ariyaga o‘tilganida ichki dinamikaning o‘sib borishi, musiqa jo‘rligisiz va orkestr ishtirokisiz kuylashdek murakkab ijro yo‘llarini o‘zlashtirish borasida aktyor-talabalarga o‘ziga xos maktab bo‘ldi. Mazkur spektakl musiqali drama aktyorligi ijrochi mahoratini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos barometr ekanligiga amin qiladi. Zero ushbu turning sinkretiklik tabiati aktyorga ulkan dramatik qobiliyat bilan birga vokal imkoniyati katta bo‘lishi va plastikani puxta egallashni talab etadi. Yaxshi xonanda yoki mahoratli dramatik aktyor bo‘lishi mumkin, lekin har ikkalasini bir shaxsda uyg‘unlashuviga erishish nihoyatda murakkab.

“Halima” spektakli orqali rejissyor drama aktyoridan farqli o‘laroq, musiqali teatr aktyori zimmasidagi yuk og‘irroq ekanini ko‘rsatdi. Zero, bu janr dramatik holatni kechinma san’atida ijro etish, so‘z, nutq, kalom qudratini etkaza bilish, so‘zning kuchi kuyga, kuy esa ariyaga ulanib ketishiga erishish muhimligi aks etdi. Ko‘pincha musiqali drama aktyori sahnada organikasini shiddat bilan ishlatgan paytida ba’zan o‘zini to‘xtata olmay, ariya yoki duet ijrosida usuldan qochish, avj pardalarda falsh qilish, ya’ni notaga etib aytmaslik jarayonlarini ham boshidan kechiradi. Bular spektaklga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Aktyor notada mustahkam turishi, shu bilan birga holatni izdan chiqarib yubormaslikka mas’uliyat bilan yondoshishi lozim. Bu ma’noda “Halima”da yosh aktyorlarning

ariya va duetlari dutor jo'rligida – murakkab shart-sharoitli vaziyatda ijro etilishiga alohida e'tibor qilingan. Zero, ariya va duet eng avvalo puxta, mustaxkam chuqur nafasga e'tibor berishni talab etadi. Musiqali dramada ariya va duet qahramonlar ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini ifoda etuvchi asosiy tarkibiy qismdir. Bunda ijrochining o'ziga xosligi vokal qobiliyatini dramatik harakatga mahorat bilan bog'lashida ko'rinadi. Duet davomida har bir ijrochi nafaqat o'zi, balki duetdosh partnyori holati, ovozi, intervallar sofligini his qilib, hamnafas bo'lishi ularning organik birligini vujudga keltiradi va shu tariqa yaxlit manzara, ansambl yaratiladi. Rejissyor B.Yo'ldoshevning "Halima" musiqali dramasi shu ma'noda yosh aktyorlarning janr xususiyatlarini puxta o'zlashtirishi borasida ham o'ziga xos ijodiy maktab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov M. "Halima" "Diydor"da // "Teatr" jurnali. – Toshkent, 2014. – № 1 – B.16-17.
2. To'lqin. "Halima" / "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1925-yil, 4-mart.

Mardonov Zafar Muzaffarovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası o'qituvchisi

MILLIY MUSIQA ORQALI YOSHLAR ORASIDA IJTIMOIIY BIRDAMLIK VA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy musiqa san'atining yoshlar orasida ijtimoiy birdamlik va vatanparvarlik ruhini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada milliy musiqaning tarixiy xotira, umummilliy qadriyatlar va jamiyatdagi birlikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, vatanparvarlikni shakllantirishda milliy kuy va qo'shiqlarning ta'siri haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot natijalari statistik ma'lumotlar, ekspertlarning fikrlari va xalqaro tajribalar asosida asoslangan.*

Kalit so'zlar: *milliy musiqa, ijtimoiy birdamlik, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, madaniy meros, san'at ta'siri, milliy qadriyatlar.*

Annotation: *This article analyzes the role of national music in the formation of social solidarity and patriotism among young people. The article highlights the importance of national music in strengthening historical memory, national values, and unity in society. It also discusses the influence of national melodies and songs in the formation of patriotism. The results of the study are based on statistical data, expert opinions, and international experience.*

Keywords: *national music, social solidarity, patriotism, youth education, cultural heritage, influence of art, national values.*

Zamonaviy globallashuv jarayonlarida milliy o'ziga xoslik va ma'naviy qadriyatlarni saqlash dolzarb masalaga aylangan. Yoshlarning ijtimoiy birdamligi va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda musiqa san'ati alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqa orqali milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni qadrlash va jamiyatda ijtimoiy birlikni mustahkamlash mumkin.

Ijtimoiy birdamlik – bu jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va birlik ruhini shakllantirish jarayoni bo'lib, unda umumiy qadriyatlar va an'analar muhim o'rin tutadi. Birdamlik ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Vatanparvarlik esa o'z yurtiga sadoqat, uni sevish va rivojlanishi uchun hissa qo'shishga intilish tuyg'usidir. Vatanparvarlik faqat so'z bilan emas, balki amaliy harakatlar – ilm-fan, san'at va madaniyatga qo'shiladigan hissalar orqali ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni yoshlarning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga qaratilgan. Shuningdek, 2020-yil 3-fevral sanasidagi "2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori milliy san'at, jumladan, milliy musiqa rivojiga keng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Milliy musiqaning yoshlar ongiga ta'siri jamiyatda vatanparvarlik va birdamlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq qo'shiqlari, dostonlar va zamonaviy milliy estrada san'ati orqali yoshlarning ijtimoiy va madaniy ongini rivojlantirish mumkin.

Milliy musiqaning ijtimoiy birdamlikka ham ta'siri juda katta. Milliy musiqa – bu xalqning madaniyati, tarixi va an'analarini aks ettiruvchi muhim san'at turi hisoblanadi. Uning yoshlar orasida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdagi o'rni quyidagicha izohlanadi:

1. Tarixiy xotirani jonlantirish – Har bir milliy qo'shiq va kuyda xalqning tarixiy bosib o'tgan yo'li, kurashi va g'alabalari aks etgan bo'lib, yoshlar milliy musiqa orqali o'z tarixini anglaydi.

2. Umummilliy qadriyatlarni mustahkamlash – Milliy qo'shiqlar va dostonlar orqali mehr-oqibat, halollik, fidoyilik, do'stlik kabi ezgu qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi.

3. Jamiyatda birlik va totuvlikni mustahkamlash – Birgalikda ijro etilgan kuy va qo'shiqlar yoshlar orasida hamjihatlik, birdamlikni shakllantiradi.

Masalan, taniqli musiqa tadqiqotchisi Jon Blacking ta'kidlaganidek: *"Musika – bu ijtimoiy faoliyatning qudratli ifodasi bo'lib, u insonlarni bir maqsad atrofida birlashtira oladi."* (Blacking, 1973). Bu fikr milliy musiqa ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishda muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Vatanparvarlik ruhining shakllanishida milliy musiqaning o'rni beqiyos. Milliy musiqa nafaqat san'at turi, balki vatanparvarlik tarbiyasining muhim vositasi bo'lib, xalqning tarixiy xotirasini saqlash, madaniy merosni targ'ib qilish va yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Milliy g'ururni shakllantirish – O'zbekiston milliy qo'shiqlari va dostonlari o'zbek xalqining qahramonlari va tarixiy shaxslarini ulug'laydi. Masalan, "Alpomish" dostoni yoki Sherali Jo'rayevning vatanparvarlik haqidagi qo'shiqlari yoshlarning milliy iftixorini oshiradi. Mamlakat kelajagiga bo'lgan

ishonchni shakllantirishda ham musiqa kuchidan foydalanish mumkin. Zamonaviy milliy estrada san'ati ham vatanparvarlik tuyg'usini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonlik san'atshunos Anvar Jabborovning fikricha: *"Musiqada vatanparvarlik mavzusi doimiy yangraydi. Tarixiy davrlar o'zgarishi bilan musiqadagi shakl va uslublari o'zgarishi mumkin, lekin uning mazmuni – ona Vatanga sadoqat doimo dolzarb bo'lib qoladi"* [3, 45-57].

Ushbu maqolani yozish jarayonida quyidagi statistik ma'lumotlar bilan tanishib chiqdim. 2023-yilda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tomonidan o'tkazilgan Yoshlarni musiqa san'atiga bo'lgan munosabatini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma ko'ra, respondentlarning 76% milliy musiqa ularning vatanparvarlik tuyg'usini oshirishini qayd etgan.

UNESCO tashkilotining hisobotiga ko'ra, milliy musiqa san'ati yoshlar orasida ijtimoiy birdamlikni 40% dan ortiq oshirishga yordam beradigan eng muhim san'at turlaridan biri deb e'lon qilingan. Bundan tashqari, musiqaning psixologik va emotsional ta'siri bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Musiqa inson hissiyotlariga, xulq-atvoriga va kognitiv jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy musiqani tinglashda odamlarning emotsional holati o'zgaradi va ularning ijtimoiy o'zini anglash darajasi oshadi.

Thompson & Schlaug (2015) – Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy kuylar va madhiyalarni tinglash miya faoliyatining limbik tizimida (emotsiyalar va xotiraga javobgar bo'lgan mintaqalar) faollashuvni kuchaytiradi. Bu esa milliy g'urur va birdamlik hissini oshirishga yordam beradi.

Koelsch et al. (2010) – Tadqiqotga ko'ra, musiqa insonning "ijtimoiy bog'liqlik tizimi"ni faollashtiradi, ya'ni odamlar bir guruhga tegishli ekanligini kuchliroq his qilishadi. Milliy musiqa shu orqali jamiyatdagi birdamlikni oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi [4, 451-460].

Patel (2008) – Ushbu tadqiqot musiqaning nutq va ijtimoiy ong bilan bog'liqligini o'rgangan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, milliy musiqa odamlarning madaniy o'ziga xosligini tushunishiga yordam beradi va ularning vatanga bo'lgan bog'liqlik tuyg'usini kuchaytiradi [5].

Musiqa va vatanparvarlik bo'yicha bir qator sotsiologik tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Misol uchun: UNESCO (2021) – Tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy musiqani targ'ib qilish yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'usini oshirishga 40% ga yaqin ijobiy ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston Yoshlar ittifoqi (2023) – Yoshlar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 76% milliy qo'shiqlar ularning vatanparvarlik tuyg'usini oshirishini bildirgan. Smith et al. (2017) – 12 ta davlatda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, madaniy musiqalar va an'anaviy kuylarni targ'ib qilish orqali jamiyatda milliy

g'urur darajasini oshirish mumkin. Ushbu tadqiqotlar shuni tasdiqlaydi-ki, milliy musiqaning yoshlar ongiga ta'siri nafaqat hissiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham sezilarli darajada katta.

Milliy musiqaning ijtimoiy birdamlik va madaniy identifikatsiyaga ham ta'siri mavjud. Musiqa jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida ishlatilishi mumkin. Shu jihatdan milliy kuy va qo'shiqlar odamlarni birdamlikka chorlovchi vosita sifatida tadqiq etilgan.

Benedict Anderson (1991) – “Tasavvur qilingan jamiyatlar” konsepsiyasiga ko'ra, milliy musiqalar odamlarning o'z mamlakatini musiqiy ramzlar orqali tasavvur qilishiga yordam beradi va ular o'zlarini shu jamiyatning ajralmas qismi sifatida his qilishadi [1].

Turkiya, Koreya va Rossiya misollari – Turkiyada “Mehter” an'anaviy harbiy orkestri milliy g'ururni oshirishda ishlatilgan. Koreyada K-pop milliy musiqasi yoshlarning milliy identifikatsiyasini mustahkamlash vositasiga aylangan [6, 167-182]. Rossiyada esa xalq qo'shiqlari va harbiy kuylari ijtimoiy birlik va vatanparvarlikni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ilmiy yondashuvlar milliy musiqaning yoshlar orasida nafaqat madaniy identifikatsiyani shakllantirish, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda ham katta rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Milliy musiqa yoshlar orasida ijtimoiy birdamlik va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda kuchli omillardan biri hisoblanadi. U xalqning tarixiy xotirasini jonlantirish, umummilliy qadriyatlarni mustahkamlash va jamiyatda birlik tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy kuy va qo'shiqlar yoshlarning milliy o'zlikni anglashiga va Vatanga sadoqatini oshirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, milliy musiqani yoshlar tarbiyasiga kengroq jalb qilish zarur. Shu bois quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Ta'lim tizimida milliy musiqaga e'tiborni kuchaytirish – maktab va oliy ta'lim dasturlarida milliy qo'shiqlar, dostonlar va kuylarning vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni chuqurroq o'rganilishi kerak.

2. San'at festivallari va tanlovlarini rivojlantirish – yoshlarni milliy musiqa bilan tanishtirish va ularda milliy g'urur hissini shakllantirish uchun milliy kuy va qo'shiqlarga asoslangan madaniy tadbirlarni kengaytirish zarur.

3. Ommaviy axborot vositalarida targ'ibotni kuchaytirish – milliy musiqaning vatanparvarlikka ta'sirini ommaviy axborot vositalari orqali kengroq yoritish muhim.

4. Xalqaro tajribani o'rganish va integratsiya qilish – milliy musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish kerak.

Milliy musiqa – bu nafaqat san’at, balki yosh avlodni milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ta’sirchan vositasidir. Uni targ‘ib qilish orqali jamiytdagi birdamlikni mustahkamlash va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mumkin. Shu boisdan, milliy musiqaga asoslangan tarbiya tizimini kengaytirish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson, B. (1991). *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. London: Verso Books.
2. Blacking, J. (1973). *How Musical Is Man?* Seattle: University of Washington Press.
3. Jabborov, A. (2020). Musiqa san’atida vatanparvarlik mavzusi: Tarixiy va zamonaviy yondashuvlar. *O‘zbekiston san’ati va madaniyati jurnali*, 4(2), 45-57.
4. Koelsch, S., Offermans, K., & Franzke, P. (2010). Music in the brain: Neural correlates of music-evoked emotions. *Trends in Cognitive Sciences*, 14(8), 451-460.
5. Patel, A. D. (2008). *Music, Language, and the Brain*. Oxford: Oxford University Press.
6. Smith, J., Brown, K., & Taylor, R. (2017). The Role of Traditional Music in National Identity Formation. *Journal of Cultural Studies*, 22(3), 167-182.
7. Thompson, W. F., & Schlaug, G. (2015). The Neuroscience of Music and Emotion. *Annual Review of Psychology*, 66, 89-114.
8. UNESCO. (2021). *The Role of Music in Cultural and National Identity Development: A Global Perspective*. Paris: UNESCO Publishing.
9. O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi. (2023). Yoshlarning milliy musiqaga munosabati bo‘yicha so‘rovnoma natijalari. *O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hisobotlari*, 5(1), 23-35.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). 2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atni rivojlantirish konsepsiyasi. Respublika Qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi.

Jabborov Alisher To‘raqulovich,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası
jo‘rnavozi

MAQOMLARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maqom san‘atining yoshlar tarbiyasini, ongini yanada rivojlantirish va ona makonga bo‘lgan, vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatini yanada oshirish, millatimizning madaniy tarixiy qadriyatlari bo‘lmish maqomlarimiz, mumtoz kuy qo‘shiqlarimizni kelajak avlodga o‘rgatishdagi muhim ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *maqom san‘ati, shashmaqom, yoshlar tafakkuri, ma‘naviyat, madaniy meros.*

Annotation: *in this article, further develop the youth education, consciousness of the art of status and further increase the love of the motherland, the love of the motherland. The cultural history of our nation our statuses, our classical songs are as much as we can in teaching future generations.*

Keywords: *art of maqom, shashmaqom, youth thinking, spirituality, cultural heritage.*

“Milliy musiqa merosi har bir xalqning ulkan ma‘naviy boyligi hisoblanadi. Uning tarkibidagi eng ommaviy, tarbiyaviy ta‘sirchan xalq qo‘shiqlari o‘zining g‘oyaviy-badiy mazmuni, xalq hayotining barcha qirralarini ifoda etishi kabi xususiyatlar bilan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy, ma‘rifiy va estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, davlat siyosati darajasiga olib chiqilganligidadir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq shaxs tarbiyasiga, uning ma‘naviyatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi hamda ushbu hujjatlar mohiyatiga ko‘ra uzluksiz ta‘lim tizimining shakllanganligi ta‘lim tarbiya asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z

bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga etkazish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Madaniy va ijtimoiy sohani takomillashtirish orqali barkamol shaxsni shakllantirish va jamiyatning hamjihatligini mustahkamlash milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Quyidagilar milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy tamoyillari hisoblanadi: ijod erkinligi, madaniyatlararo munosabatlarda teng huquqlilik, inson huquqlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish va madaniyatlar xilmaxilligini saqlash; madaniyat va san'at sohasida ta'lim-tarbiyaning tizimlilik, ilmiyligi va davomiyligini ta'minlash; madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning ommaviyligi va ochiqligiga erishish".¹

Shashmaqom tarkibidagi har bir maqom badiiy asar sifatida o'ziga hos jihatlar bilan boyitilgan va bu jihatlar uning lad tizimi va tarkibotida ham o'z ifodasini topadi. Masalan, amaldagi Rost, Navo, Dugoh va Segoh maqomlarida uchtdan yordamchi lad to'zilmalari mavjud. Buzrukda ikkita, iroqda esa birgina. Aslida, ularda ham uchtdan yordamchi parda to'zilmalari bo'lganligi ehtimoldan holi emas. Navo maqomining Mushkilotida asosiy Navo va yordamchi Bayot, Husayniy va Oraz parda to'zilmalari negizidagi to'rtta Muhammad mavjud va ular parda hamda usul turiga ko'ra Muhammasi Navo, Muhammasi Bayot, Muhammasi Husayniy va Muhammasi Oraz deb nomlanadi. Dugoh maqomida ham to'rtta Muhammad bor, lekin ulardan faqat ikkitasi Muhammasi Dugoh va Muhammasi Chorgoh qat'iy tizim doirasidagi parda to'zilmalarining nomlari bilan yuritiladi. Uchinchisi Muhammasi Xoji Xo'ja, bu bastakorning ismi bo'lishi ham mumkin, va to'rtinchisi Muhammasi Chorsarxona noma'lum ijodkorning mahsuli bo'lib, unda asar shakliga ishora etilgan. Ashula yo'llarida, ayniqsa, ularning erkinlik qatlamida joylashgan bo'lim, guruh va qismlarda asosiy parda tizimidan tashqaridagi antiqa nomlar bilan yuritiladigan yordamchi parda to'zilmalari ko'p uchraydi. Masalan, ana shunday o'ziga xos shakl navlaridan biri Mustahzoddir. Aslida bu maqom tafakkuri doirasida mavjud bo'lgan unsurlardan biridir. Xususan Abdulqodir Marog'iy o'z davrida rasm etilgan to'rt qismli "Navbati murattab"ga qo'shimcha sifatida beshinchi qism "Mustahzod"ni qo'shganligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Musiqiy mantiq jihatidan har bir alohida maqom turkumi yaxlit musiqiy to'zilma sifatida amaliyotda puxtalangan barqaror parda tizimi asosida tarkib

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyayev (2018 yil 28 noyabr PQ 4038 - sonli qarori).

topadi. Har bir maqomning parda tizimi va uning negizidagi tamoyillarni bugungi tinglovchilarga tushunarli bo‘ladigan zamonaviy tilda ifodalash uchun, eng avvalo, Shashmaqomning serqirra va ko‘p qatlamli parda tizimining ayrim o‘ziga hos jihatlarini izohlab o‘tish lozim. Avvalo, odatga ko‘ra, san‘at sohasidagi ustozlar asrlar davomida maqom parda tizimini tanbur torlarining sozlanishi va dastasidagi pardabandlardan hosil bo‘ladigan tovushqator asosida sarhisob qilishni rasm etib kelganlar. Shu munosabat bilan parda tizimini ifodalashda ishlatiladigan tushuncha va atamalar yig‘indisi yuzaga kelgan. Jumladan Buzruk maqomining parda tizimi zul arba ya’ni kvarta yoki sozandalar tili bilan aytganda “ikki qo‘l” soziga sozlanadi hamda dastadagi to‘rtinchi pardadan boshlanib va yana shu joyga kelib tugallanadi. Ilmiy jihatdan bu parda birinchi oktava “re” tovushiga to‘g‘ri keladi. Sozandalar esa uni oddiy qilib “buzruk sozi”, “Buzruk pardasi” deb yuritadilar.

Boshqa maqomlarda bo‘lganidek Buzrukning ham o‘ziga hos parda ohang jihatlar mavjud. Sozandalar tilida ular “nim parda” ya’ni yarim parda va “miyon parda” ya’ni o‘rta parda deb yuritilgan. Bunday beqaror pardalarning barqaror parda birliklaridan asosiy farqi, ularning muayyan o‘lchovga ega bo‘lmaganligidadir. Shuning uchun ham ular umumiy parda tizimida ma’lum bir vazifaga ega emas. Ular faqatgina barqaror pardalar yonidagi qo‘shimcha hamda bezak o‘rnida keladi. Ammo shunga qaramasdan, nozik ohanglar maqom parda tizimining juda muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi va muayyan maqomning timsolini tasavvur etishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularni yozuvda belgilar bilan ifodalash amri mahol. Lekin amalda nozik pardalarni sozandalar his etishi yo‘li bilan tabiiy ravishda o‘zlashtirib boraveradilar. Tanburning tuzilishi ya’ni torlarning yumshoq ma’dan jezdani ishlanganligi va yo‘g‘on ichakdan yasalgan pardabandlarining dasta sathidan baland joylashganligi ham nozik pardalarga zeb berib ishlatish uchun mos keladi. Bir so‘z bilan aytganda, beqaror nozik pardalarni yozuvda ko‘rsatish va sarhisob etish qanchalik mushkul bo‘lmasin, ular maqom tafakkurining uzviy jihatlaridan birini tashkil qiladi. Bugungi kunda ijodiy jamoalar hamda o‘quv muassasalarida qo‘llanilayotgan evropacha nota yozuvi yagona mahrajdan kelib chiqadigan teng taqsimlangan o‘n ikki bosqichli tovushqatorga asoslanadi. Jumladan, maqomlarning musiqiy matnlari bitilgan to‘plamlar ham aynan shu yozuvda amalga oshirilgan. Demak, masalaning murakkab nuqtasi ham shu nozik pardalarning ifodasiga kelib taqaladi. Chunki maqom kuylarini yozishda ayrim nozik pardalarni ifodalash uchun mualliflar “diyez”, “bemol” kabi alterastiya belgilaridan foydalanganlar. Maqom parda tizimida “masofadagi xromatizm” tushunchasi mavjuddir. Yunonchada xromatizm so‘zi toblanish degan ma’noni beradi. Sharq olimlari bu o‘rinda “mulavvan” degan iborani ishlatadilar. Bu iboraning ma’nosi ham toblanish

demakdir. Sharq musiqasida, xususan maqomlarda tayanch pardalarning muntazam almashinib turishi uning parda asosining eng xususiyatli jihatlaridan biri. Mutaxassislar Yevropa musiqasining lad tizimini ikki asosiy toifaga ajratib ularni “tonal” va “modal” deb belgilaydilar. Ana shu tayanch pardalarning muntazam almashinuviga asoslangan bizning musiqamizga xos tizim, aynan shu “modal” toifasiga mos keladi. Shunga e’tiboran, maqomlarda tayanch parda o’zgarishi munosabati bilan paydo bo’ladigan haqiqiy masofadagi xromatizmga tegishli nuqtalar ham uchraydi. Ularni o’rni va vazifasiga qarab ajratib borish esa sozanda yoki tadqiqotchining diqqatiga havola etiladi.

Maqom yo’llarini notaga olish munosabati bilan muhim masala yuzaga keldi. U ham bo’lsa, maqom kuy va ashulalarini boshqa pardalarga ko’chirish bilan bog’liq. Ya’ni, muayyan barqaror kuy matnini sozanda o’z cholg’usiga, xonanda o’zining ovoz ko’lamiga moslab, bir oz pastroq yoki balandroq pardadan ijro etishi mumkinligi. Bu tabiiy va amalda mavjud bo’lgan holatdir. Shu bilan birga har bir alohida cholg’u va ovozning o’ziga yarasha tabiiy tovush ko’lami mavjud. Shuning uchun ham maqom kuylarini ijro etishda uni o’zining ovozi yoki cholg’u soziga moslashga harakat qilinadi. Maqom yo’llarini notaga olish masalasiga kelsak, ularning turli pardalardan ijro etilganligi umumiy pardani sarhisob etishda yuzaki jihatdan noto’g’ri taassurot uyg’otishi mumkin. Xorazm tanbur chiziqlarida maqom turkumlarining parda tizimlari qanday urf etilgan bo’lsa, shunday notaga tushgan. Buning bosh sababi, amalda ham, nazariyada ham tanbur sozi asarning parda tizimini belgilovchi asosiy cholg’u sifatida olinganligidadir. Tanbur notasining ilmiy va ixtisoslashgan jihatdan afzal sanalaishining sababi ham shu. Maqomlarimizning evropacha nota yozuvida ham tanbur Shashmaqom parda tizimini ifodalashda etakchi cholg’u bo’lib maydonga chiqadi. Shashmaqomni notaga olish jarayonida san’atkor ustozlar deyarli barcha maqom yo’llarini o’z pardasidan ijro etib berganlar, faqat ayrim hollardagina tanbur sozini bir oz pastroq sozlaganliklari anglashiladi. Yevropacha notaga esa kuy yo’li qanday ijro etilgan bo’lsa aynan shunday yozib olingan. Ushbu nota to’plami ba’zi kamchiliklardan holi emas. Masalan, ba’zi hollarda so’z matnlari hisobga olinmagan yoki ayrim vazn o’lchovlari boshqacharoq tarzda tushirib qoldirilgan. Lekin asosiy musiqiy mantiq mohiyatiga kelganda birinchi navbatda parda va usul tizimlari aniq ifodalanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o’z navbatida asliga yaqin qilib puxta ishlangan nota yozuvi muhim tarixiy hujjat ekanligining amaldagi isbotidir. Ushbu notada Navo maqomining cholg’u yo’llarida ikki va hattoki to’rt bemol bilan yozilgan kuylar mavjud. Bu tanbur sozining diatonik tabiati nuqtai nazaridan bir oz to’g’ri kelmaydi. Tanburning pardabandlarida fortepiano kabi diyez yoki bemollarga ishora beruvchi bosqichlar yo’q. Bu esa Shashmaqom nota tizimi asar qanday eshitilgan bo’lsa, shunday

yozilganidan darak beradi. Yana bir misol, Saraxbori Navo ijro etilganda tanbur sozi aslidan bir parda past sozlangan bo'lgan. Natijada, notada kalitga ikki bemol qo'yib yozishga to'g'ri kelgan. Xusayniy Navo ijrosida esa tanbur bir yarim parda past sozlanganligi tufayli kalitga to'rtta bemol qo'yilgan. Bu vaziyatda eng muhimi, qancha bemol qo'yilganligi yoki o'qish uchun qulay va noqulayligi emas, balki kuy matnini hamda uning parda tizimini asl holda xatga tushirilishidadir.

Parda tuzilmasi degani qiyoflanish, gavdalanish demakdir. xuddi shuningdek, musiqiy asarning shakllanishi ham muayyan jarayonni nazarda tutadi. Kuy tarkibi ham ana shunday birlamchi ohang, jumla va xonalarning to'qimasidan paydo bo'ladi. Maqom tizimiga kirgan parda to'zilmalari dastlab xujayralarining bog'lanishidan yuzaga keladi. Parda tizimi turli hil parda to'zilmalari, parda to'zilmalari esa o'z navbatida turli dastlabki parda birliklarini o'z ichiga oluvchi serqatlam tarkibni tashkil qiladi.

Shashmaqomda ayrim iboralar nafaqat ikki, balki undan ham ko'p ma'nolarda ishlatilishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Jumladan "maqom" va "Saraxbor"ga o'xshagan atamalar. Masalan, maqom deganda parda birligi sifatida darajasiga qarab uchta ma'noda va ularga mos keladigan musiqiy asarlar ham nazarada tutiladi. Bundan uning oltita ma'noga egaligi anglashiladi. Xuddi shuningdek, "Saraxbor" so'zi ham uch darajadagi parda birligi va ularning asosidagi musiqiy to'zilmalarni anglatadi. Serqatlam majmua sifatida asrlar davomida shakllanib kelayotgan Shashmaqom tarkibini mutoala qilayotganimizda so'z va iboralar tashqi sifat hamda musiqiy asarning mohiyati uning ichki ma'nosida ekanligini unutmasligimiz zarur.

Bugungi kunda maqom san'atini rivojlantirish va notaga olish birinchi navbatda Yunus Rajabiy nomi bilan bog'liq. Uning maqomshunoslik faoliyatida bir biriga uzviy bog'langan ikki yo'nalish etakchi o'rinni egallaydi. Bir tarafdin Shashmaqomning nota matnlarini, ikkinchi tomondan ularga muvofiq ovoz yozuvlarini yaratish amalga oshirildi. Nota kitoblari avvalo "O'zbek xalq musiqasi" to'plamlarida e'lon qilindi. To'plamning Yunus Rajabiy tomonidan yozilgan dastlabki besh jildi 1951- 1959 yillarda aynan shu nom bilan chop etildi. Bu kitoblarning to'rttasi umuman o'zbek xalq musiqasi namunalari, jumladan, maqom yo'llarini ham o'z ichiga oladi. "Buxoro maqomlari" deb nomlanuvchi 5-kitob esa to'laligicha "Shashmaqom"ga bag'ishlanadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiq, 2004.

3. Matyoqubov O., Boltaev R., Aminov H. Xorazm tanbur chizig'i. "Musika" nashriyoti. Toshkent, 2009.
4. Yunus Rajabiy. "Shashmaqom" Toshkent 2007.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. Toshkent, 2017.

Matyaqubov Quvandiq Matrasulovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası
jo'rnavozi

MUSIKA SAN'ATINING YOSHLAR ONGINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA VATANGA MEHRINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musika san'atining yoshlar ma'naviy ongini yanada rivojlantirish va vatanga, ona makonga bo'lgan mexr muhabbatini yanada oshirish. Millatimiz madaniy tarixiy qadriyatlari har bir voha joy qishloq urf odatlarini qadriyatlarimizni kelajak avlodlarga o'rgatish, ko'rsatish dunyoqarashi, madaniy xabardorligi va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining shakllantirishga kamgina bo'lsada harakat qildik.*

Kalit so'zlar: *musika san'ati, yoshlar tafakkuri, ma'naviyat, madaniy meros, estetik tarbiya, milliy qadriyatlar.*

Annotation: *this article will further develop the spiritual consciousness of young people of the art of music and further increase the love of mechr to the motherland, motherland. Cultural history of our nation every oasis of rural customs we have tried little to teach our values to future generations, show worldview, cultural awareness and attitude towards spiritual values.*

Keywords: *music, thinking of young people, spirituality, cultural heritage, neurobiological impact, national values.*

*"Soz bilan suhbatni yolg'on demanglar,
Odam ato bunyod bo'lganda bordur",*

degan ekan mulla G'oyib o'z she'rida. Inson tanasida ruh bor ekanki, u sozga she'riyatga muhtoj. Ruhni oziqlantirish uchun albatta "Soz va so'z"ga murojaat qilishimiz kerak.

Musika insoniyat ma'naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik

mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e‘tibor katta bo‘lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, davlat siyosati darajasiga olib chiqilganligidadir. Shuning uchun ham mustaqillikning daslabgi kunlaridanoq shaxs tarbiyasiga, uning ma‘navyatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi hamda ushbu hujjatlar mohiyatiga ko‘ra uzluksiz ta‘lim tizimining shakllanganligi ta‘lim tarbiya asoslarini yaratishda muhim ahamyat kasb etadi. Ta‘lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga etkazish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Mamlakatimizning mustaqil davlat sifatidagi taraqqiyotida barkamol avlod tarbiyasidagi e‘tibori nihoyatda katta ahamyat kasb etadi.

Har tamonlama rivojlangan, jismonan va aqlan etuk shaxsni tarbiyalash davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu jumladan madaniyat va san‘at sohasida anchagina o‘zgarishlar, rivojlanishlar bo‘lyabdi. Qadimiy milliy chog‘ularimiz, kuy-qo‘shiqlarimiz, qadryatlarimiz milliy madaniy boyligimiz qaytatdan tiklanib yangilanib bormoqda. Har bir viloyat vohaning o‘ziga xos bo‘lgan madaniyati san‘ati, kuy-qo‘shiqlari, urf-odat marosimlari va boshqa milliyligimizga xos va mos bo‘lgan ma‘naviy boyliklarimiz tiklanib xalqimiz orasida targ‘ib qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov haqli ravishda ta’kidlaganlaridek “Har qanday xalq yoki millatning ma‘navyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf odatlari, an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada tabiiyki ma‘naviy meros madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo‘lib xizmat qiladi”.

Madaniy va ijtimoiy sohani takomillashtirish orqali barkamol shaxsni shakllantirish va jamiyatning hamjihatligini mustahkamlash milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Quyidagilar milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy tamoyillari hisoblanadi: ijod erkinligi, madaniyatlararo munosabatlarda teng huquqlilik, inson huquqlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish va madaniyatlar xilma-xilligini saqlash; madaniyat va san‘at sohasida ta‘lim-tarbiyaning tizimlilik, ilmiyligi va davomiyligini ta‘minlash; madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning ommaviyligi va

ochiqligiga erishish”. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.²

“Milliy musiqa merosi har bir xalqning ulkan ma’naviy boyligi hisoblanadi. Uning tarkibidagi eng ommaviy, tarbiyaviy ta’sirchan xalq qo’shiqlari o‘zining g‘oyaviy-badiiy mazmuni, xalq hayotining barcha qirralarini ifoda etishi kabi xususyatlar bilan yosh avlodni ma’naviy-ahloqiy, ma’rifiy va estetik dunyoqarashini shakillantirishda muhim vosita hisoblanadi.”

Ajdodlarimiz yosh avlodning musiqa sohasi bo‘yicha kasb-hunar egallashi, etuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo‘lib etishishiga nihoyatda ahamiyat berishgan. Sharqning buyuk allomalari o‘z ijodlarida mehnat qilishni, kasb-hunar egallashning naqadar muhimligi va uning katta ahamiyatini ta’kidlab o‘tganlar. Al Beruniy, Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos-Hojib, Shayh Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Axmad Yugnakiy va Alishep Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnatini, kasb-hunarini ulug‘laganlar. Ular ustoz-shogird tizimini ilgari surgan bo‘lib, ushbu tizimdan oqilona foydalanganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda 30 dan ortiq musiqa cholg‘ulari bo‘lib, ulari ko‘rinishi, tuzulishi, sozlanishi, ijro uslublariga asosan, turli xil guruhlariga bo‘linadi. Bular asosan urma yani zarbli “doira, nog‘ora,” cholg‘ularidir, damli cholg‘ulari “karnay, surnay, sibiziq, nay, qo‘shnay” cholg‘ulari bo‘lib, uchinchisi esa torli mizrobli va kamonli cholg‘ular bo‘lib “dutor, tanbur, ud, tor, rubob, g‘ijjak, qobuz, do‘mbra” va boshqalaridir.

Musiqa – inson tafakkurining oliy darajadagi mahsuli, bebaho madaniy boyliklaridan biridir. Dunyoda 7000 ga yaqin tilda so‘zlovchi millat, elat bor. Ana shu millat va elatlarning barchasining o‘z musiqasi mavjud. Dunyoda biror bir millat yo‘qki, o‘zining musiqasi bo‘lmagan bo‘lsa. Insoniyat tarixida bir necha yuz yillar davomida inson ongining mahsuli sifatida yaratilgan musiqalarning ichida eng murakkabi, oliy darajada takomillashgani Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan musiqiy turkumlar desak, aslo xato bo‘lmaydi. Ajdodlarimizdan bizga bitmas-tuganmas, bebaho va takrorlanmas boylik qolganki, bular Xorazm olti yarim maqomi, tanbur maqomlari, suvoralar, Buxoro “Shashmaqomi”, Buxorcha-yu Mavrigilar, Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari va bir qancha maqom yo‘lida ijro etilgan asarlardir.

Xalq ichidan chiqqan talantli shoirlar, musiqashunos olimlar, fidoyi hofizlarning bir necha asrlik fidokorona mehnati – izlanishlarining samarasi sifatida Markaziy Osiyoda beqiyos bebaho musiqiy turkumlar yaratildi.

² 2018 yil 28 noyabr PQ 4038 - sonli qarori

Ashulachilik san'atida ijro etilgan asarlar qachon maqom bo'la oladi?! Qachonki so'z, kuy, usul va parda bir-biriga mos kelib inson qalbini zabt etadigan darajadagi yoqimli ovozda ijro etilsagina, bu maqom bo'la oladi va u asrlar davomida yashaydi. Bunday ijro uchun san'atkordan katta mehnat, tajriba, talant, yoqimli ovoz, aniqrog'i, tabiat tomonidan in'om etilgan iste'dod talab qilinadi O'zbek xalqi o'zining boy tarixi, madaniyati, san'ati va musiqa merosiga ega.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati bilan barcha sohalar kabi milliy musiqa madaniyati rivojiga etuk professional sozanda va xonandalar o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shmoqdalar. O'tgan chorak asr mobaynida birgina musiqa ijrochiligi san'atining rivoji uchun talaygina hayirli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa yosh avlodni milliy ruhda, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash borasida ma'naviy boy merosimiz hisoblanmish musiqa san'atining kuchi beqiyosdir. Insonning ana shunday milliy qadriyatlar ruhida kamol topishi jamiyatning, millatning umrboqiyligiga sabab bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmalarida bo'lmog'i zarur. Chunki bizning davrimizgacha etib kelgan ulkan musiqiy meros ustozdan shogirdga bevosita o'tishida tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tash bilan birgalikda, o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar.

Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov, Domla Halim Ibodov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, To'xtasin Jalilov, Safo Mug'anniy, Hojixon Boltayev, Fahriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Muxtorjon Murtazoyev, Doni Zokirov, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Turg'un Alimatov, Orifxon Xotamov, Fattoxxon Mamadaliyev, Rasulqori Mamadaliyev va boshqalar ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan asriy an'analarni davom ettirib, yangi mazmun, yangi g'oyalar bilan payvand qila olgan tabarruk tarixga nazar tashlar ekanmiz, albatta, har bir davrda milliy musiqa san'ati bobida o'zidan o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlar yashab o'tganliklariga amin bo'lamiz.

Yuqorida nomlari zikr etilgan, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda o'zbek milliy musiqa san'ati tarixi zarvaraqlaridan munosib o'rin egallagan ko'plab ulug' san'at namoyondalarining hayotlari, ijodlarini o'rganish, ular qoldirgan merosga e'tiqod va sadoqat bilan yondashishi qalbida milliy g'ururi bor bo'lgan har bir mutaxassisning insoniy burchi desak o'rinli bo'ladi.

Hozirgi davrda an'anaviy musiqa ijrochiligi sohasiga nazar tashlasak naqadar serqirra, serjilo va borgan sari sayqal topayotganiga guvoh bo'lamiz. Ana shunday an'anani davom ettirish hozirgi avlod vakillari bo'lmish yoshlarimiz, ijrochi bo'lishlari barobarida kelgusida mutaxassis o'qituvchi, ya'ni bilimdon ustoz sifatida kamolga etishlari lozim. Bu an'anani davom ettiruvchi yosh avlod albatta qobiliyatli bo'lishi, a'lo darajada bilim olishi, o'rganishi, o'z kasbini sevishi va uni ardoqlashi bilan birga o'z ijrochilik.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karamatov F.M. O'zbek folklor qo'shiqlari. Toshkent, 1960.
2. Matyaqubov B. Doston navolari. "KARRLO" MChJ. Toshkent, 2009.
3. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. Toshkent, 2017.

Muxtorova Mohlaroyim Aripdjanovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti fakulteti Ashula va raqs
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

MUSIQA SAN'ATI VA YOSHLARNING MA'NAVIY RIVOJLANISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa san'ati yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ta'siri, uning tarbiyaviy ahamiyati va madaniy shakllanish jarayoniga qo'shadigan hissasi tahlil qilinadi. Musiqaning shaxs kamolotidagi o'rni, uning ijtimoiy va psixologik jihatlari hamda yosh avlod tafakkurini boyitishdagi roli haqida ilmiy dalillar keltiriladi. Shuningdek, dunyo tajribasi hamda milliy musiqa merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni keng yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *musiqa san'ati, ma'naviy rivojlanish, yoshlar tarbiyasi, milliy musiqa, madaniy meros, ijtimoiy ta'sir, musiqa psixologiyasi, madaniy identifikatsiya.*

Abstract: *This article analyzes the influence of musical art on the spiritual development of young people, its educational value and contribution to the process of cultural formation. Scientific evidence is presented about the role of music in personal development, its social and psychological aspects, and its role in enriching the thinking of the younger generation. Also, the world experience and the role of national musical heritage in the education of young people are widely covered.*

Key words: *musical art, spiritual development, youth education, national music, cultural heritage, social impact, music psychology, cultural identification.*

Musiqa inson ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan san'at turlaridan biri bo'lib, uning tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati azaldan tan olingan. Yoshlarning ma'naviy rivojlanishida musiqa ularning estetik didini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiy qadriyatlarga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy va zamonaviy musiqa

uyg'unligi yoshlar tafakkurini boyitish va ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun katta imkoniyat yaratmoqda.

Musika san'ati insonning ichki olami, hissiyotlari va ongiga bevosita ta'sir etib, uning ma'naviy kamolotini oshirishga xizmat qiladi. Yoshlar hayotida musiqa nafaqat madaniy qimmatlik sifatida, balki ularning ijtimoiy o'zini anglashida, shaxsiy rivojlanishida va kelajak sari yo'nalish belgilashida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, musiqa orqali yoshlar milliy madaniyatga yaqinlashadi, o'z tarixiy ildizlarini chuqurroq anglaydi va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Davlat miqyosida ham yoshlarning ma'naviy va madaniy rivojlanishini ta'minlash borasida bir qator qaror va farmonlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3138-sonli qarori yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, 2019-yil 26-martdagi "Musika san'atini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda milliy musiqa merosini keng targ'ib qilish va yosh avlodga etkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham musiqa va san'atning inson ruhiy olamiga ta'siri haqida shunday degan: "*Musika inson qalbini poklaydi, uning ruhini yuksaltiradi*". Haqiqatan ham, musiqaning inson ongiga va tarbiyasiga ijobiy ta'siri ko'p asrlik tajribada isbotlangan bo'lib, yoshlarning ma'naviy shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Maqola doirasida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy metod – musiqa san'atining yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini o'rganish;

Taqqoslash usuli – milliy va xalqaro tajribalarni solishtirish;

Statistik tahlil – yoshlarning musiqa orqali ma'naviy shakllanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

Intervyu va so'rovnomalar – yoshlar orasida musiqa ta'sirining darajasini aniqlash.

Musika yoshlarning axloqiy me'yorlari, estetik didi va badiiy dunyoqarashining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy va an'anaviy musiqalar yosh avlodni o'z madaniy ildizlariga bog'lab, ularning tarixiy xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Musika ta'limi yoshlarning nafaqat badiiy tafakkurini o'stiradi, balki ularning milliy g'ururini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Musika san'atining psixologik va ijtimoiy ta'siri.

Psixologik jihat: Musiqa stressni kamaytirish, ijobiy hissiyotlarni oshirish va ijodiy faollikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, musiqa yoshlarning emotsional intellektini oshirib, ularning hissiyotlarini ifodalashga yordam beradi.

Ijtimoiy jihat: Musiqa yoshlarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va jamoaviy tafakkurini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Musiqa orqali yoshlar jamiyatning turli qatlamlari bilan yaqinlashadi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Xalqaro tajribalar. AQSh: Musiqa ta'limi orqali yoshlarning kognitiv qobiliyatlari va kreativ tafakkuri rivojlantirilmoqda. Harvard Universiteti tadqiqotlariga ko'ra, musiqa bilan shug'ullangan yoshlar matematika va til o'rganish bo'yicha yuqori natijalarga erishadi.

Germaniya: Musiqa maktablari va orkestrlari yoshlarni ijtimoiylashuv jarayoniga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Musiqiy ta'lim orqali bolalar va yoshlar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Janubiy Koreya: Milliy musiqa an'analari va zamonaviy texnologiyalar sintezi orqali yoshlarning madaniy ongini rivojlantirish yo'lga qo'yilgan. Virtual reallik texnologiyalari va sun'iy intellekt yordamida musiqa ta'limini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish jarayoni amalga oshirilmoqda.

Musiqaning yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan xalqaro ilmiy tadqiqotlar jadvali

Tadqiqot muallifi / Manba	Tadqiqot mavzusi	Natijalar
Harvard Universiteti (2018)	Musiqaning kognitiv rivojlanishiga ta'siri	Musiqa bilan shug'ullangan bolalar matematik va lingvistik qobiliyatlar bo'yicha 15% yuqori natijalar ko'rsatdi.
Oxford Universiteti (2020)	Musiqa terapiyasi va yoshlarning hissiy barqarorligi	Musiqa terapiyasi o'quvchilarning stress darajasini 30% kamaytirgan va ularning ijtimoiy ko'nikmalarini yaxshilagan.
Germaniya Ta'lim Instituti (2019)	Musiqaning jamiyatga	Orkestr va xor jamoalarida ishtirok etgan yoshlar muloqot va etakchilik

	integratsiya jarayoniga ta'siri	ko'nikmalarida yaxshiroq natijalarga erishgan.
Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (2021)	Musiqaning emotsional intellektga ta'siri	Musika tinglash va ijro etish yoshlarning empatiya va o'zini anglash qobiliyatlarini rivojlantirgan.
Janubiy Koreya Madaniyat Vazirligi (2022)	Milliy musiqa va yoshlarning madaniy identifikatsiyasi	An'anaviy musiqa bilan shug'ullangan yoshlar o'z milliy qadriyatlarini chuqurroq anglagan va milliy madaniyatga sodiqligi oshgan.

Milliy musiqa yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda o'zbek milliy musiqa san'ati – maqom, folklor va bastakorlik an'analari yoshlarning milliy o'zlikni anglashida muhim rol o'ynaydi. An'anaviy musiqa orqali yoshlar o'z tarixiy ildizlarini chuqurroq anglaydi va milliy qadriyatlarni e'zozlashga o'rganadi. Musika ta'limi milliy madaniyatni yosh avlodga etkazishda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musika san'ati yoshlarning ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Uning ta'sir doirasi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatda axloqiy va madaniy qadriyatlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Milliy va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, musiqani ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish yoshlarning intellektual va axloqiy rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Musika san'ati yoshlarning ma'naviy va axloqiy kamoloti, estetik didining shakllanishi hamda jamiyatga moslashish jarayonida ulkan ahamiyat kasb etadi. Musika nafaqat san'at turi, balki shaxsiyatni shakllantiruvchi, hissiy va ijtimoiy intellektni rivojlantiruvchi kuchli pedagogik vosita hamdir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, musiqiy tarbiya olgan yoshlar ijtimoiy jihatdan faollik ko'rsatib, jamiyatning turli qatlamlari bilan muloqotga kirishishda muvaffaqiyatli bo'ladi. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar musiqaning inson miyasiga, tafakkur jarayonlariga hamda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Musika san'atining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini yanada oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish lozim:

Musika ta'limini rivojlantirish – Musika ta'limi maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimlarida yanada rivojlantirilib, zamonaviy innovatsion

yondashuvlar bilan boyitilishi lozim. Maxsus musiqa maktablari va san'at akademiyalarining sonini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqaning tarbiyaviy rolini kuchaytirish – Musiqa nafaqat ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi vosita, balki yoshlarda ijtimoiy hamkorlik, milliy g'urur va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiruvchi kuchli ta'limiy element sifatida qaralishi lozim.

Xalqaro tajribalarni joriy etish – Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya kabi davlatlarda qo'llanilayotgan musiqaviy ta'lim metodlari o'rganilib, milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi lozim.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish – Musiqa ta'limida raqamli vositalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish orqali yoshlarning mustaqil o'rganish imkoniyatlari oshirilishi kerak.

Milliy musiqa merosini keng targ'ib qilish – Maqom, folklor, an'anaviy ashula va raqs san'ati yoshlar orasida keng targ'ib qilinib, milliy musiqa festivallari va tanlovlari muntazam o'tkazilishi lozim.

Musiqa va psixologiya integratsiyasi – Musiqa terapiyasi va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar rivojlantirilib, musiqaning stress, depressiya va hissiy buzilishlarni bartaraf etishdagi ijobiy ta'siri keng o'rganilishi kerak.

San'at va madaniyat markazlarini rivojlantirish – Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun musiqa va san'at markazlari ko'paytirilib, u erda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

Shunday qilib, musiqa san'ati yoshlarning ma'naviy shakllanishida nafaqat madaniy va badiiy omil, balki ijtimoiy, psixologik va ta'limiy jihatdan ham eng muhim vositalardan biri ekanligi tasdiqlanadi. Uni ta'lim jarayoniga chuqurroq integratsiya qilish, innovatsion yondashuvlar orqali boyitish va milliy meros asosida rivojlantirish orqali yosh avlodning har tomonlama etuk shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov S. (2020). Musiqa ta'limining innovatsion metodlari. Toshkent: Fan.
2. Ismoilov B. (2021). Raqamli texnologiyalar va musiqa ta'limi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Karimova N. (2019). O'zbek an'anaviy musiqasining yoshlar tarbiyasidagi o'rni. O'zbekiston san'at va madaniyat instituti ilmiy to'plami, 3(2), 45-52.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2017). O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-3138-sonli qaror, 3-avgust.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2019). Musiqa san’atini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 26-mart.

6. Raximov U. (2022). Musiqa san’ati va madaniy merosning yoshlar ongi shakllanishidagi roli. Toshkent: San’at nashriyoti.

7. Yuldashev A. (2020). O‘zbek xalq musiqasi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Ma’naviyat jurnali, 5(4), 78-85.

Xalqaro manbalar:

8. Brown, A. R. (2018). Music Technology and Education: Amplifying Musicality. Routledge.

9. Hallam, S. (2015). The Power of Music: Its Impact on the Intellectual, Social and Personal Development of Children and Young People. International Journal of Music Education, 33(3), 237-258.

10. Juslin, P. N., & Sloboda, J. A. (2010). Handbook of Music and Emotion: Theory, Research, Applications. Oxford University Press.

11. Levitin, D. J. (2006). This Is Your Brain on Music: The Science of a Human Obsession. Dutton.

12. Smith, J. (2019). Artificial Intelligence in Music Learning. Springer.

13. Thaut, M. (2008). Rhythm, Music, and the Brain: Scientific Foundations and Clinical Applications. Routledge.

14. Welch, G. F. (2019). Singing and Vocal Development in Childhood and Adolescence. The Oxford Handbook of Singing.

Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li,
Butunjahon o'qituvchilar assotsiatsiyasi loyiha menejeri
Sattorov Mirzobek Jo'rabek o'g'li,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti fakulteti Ashula va raqs
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

BOLALIK DAVRI MANAVIYATINING SHAKLLANISHIDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqola transformativ ta'lim konsepsiyasini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ongni yuksaltirish, tanqidiy fikrlash, shaxsiy rivojlanishva individuallashtirishni rag'batlantiruvchi jarayon sifatida qaraladi. Shu orqali san'at va madaniyat insonning ma'naviy hayotiga ham ta'sir ko'rsatib, shaxsda yuqori maqsadlar sari intilish hissini, yaxshilikni targ'ib qilish va insonlarga nisbatan mehr-shafqat tuyg'usini kuchaytiradi.*

Kalit so'zlar: *bolalik tajribalari, madaniyat, musiqa ta'limi, transformativ ta'lim.*

Annotation: *This article supports the concept of transformative education, which is seen as a process that promotes consciousness uplifting, critical thinking, personal development and individualization. Through this, art and culture also influence the spiritual life of a person, enhancing the feeling of striving for higher goals in a person, the promotion of good and the feeling of compassion for people.*

Keywords: *childhood experiences, culture, music education, transformative education.*

Insonning jismoniy, intellektual, hissiy va ma'naviy jihatlari bir-biriga shunchalik chambarchas bog'langanki, bir sohadagi rivojlanish boshqalariga ta'sir qiladi va shaxsning umumiy farovonligiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayoni ko'plab sohalarda to'planadi va tajribaga asoslanadi. Bir sohadagi o'rganish boshqa sohalardagi bilimlarga hissa qo'shadi, chunki inson bilimni alohida bo'laklarga ajratmaydi. Shuningdek, ko'nikmalar dastlab rivojlangan sohalardan butunlay boshqa sohalarga o'tishi mumkin. Shu sababli, bolalikdagi madaniy va

san'at tajribalari kelajakdagi hayot tarzi, dunyoqarash, e'tiqod va munosabatlarga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bu esa insonlarning o'zaro munosabatlari va atrof-muhitga bo'lgan javobiga ta'sir ko'rsatadi.

Bola o'sgan muhit uning dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bolalikdagi taassurotlar bizning fikrlarimiz, qarashlarimiz va tajribalarimizni qanday tushuntirishimizga ta'sir qiladi. Bu holat bizga foyda yoki zarar keltirishi mumkin, bu esa ushbu tajribalar bilan bog'liq muhit va munosabatlarning tabiatiga bog'liq.

Shu sababli, bola tarbiyalanadigan muhit uning kelajakdagi dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. San'at madaniy ifoda vositasi bo'lib, u o'zida ramzlar va ma'nolarni mujassam etadi. San'at bilan bog'liq tajribalar shaxsning yangi ko'nikmalarga bo'lgan munosabatini shakllantirishda katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda bolalikning katta qismi maktab muhitida o'tadi. Bu muhit esa madaniy san'at amaliyotlariga to'liq singish imkonini bermaydi, chunki u rasmiy ta'limning turli jihatlarini bilan bo'lishiladi. Bu shuni anglatadiki, bolaning ta'limi to'liq emas, lekin u madaniy-san'atga oid tayyorgarlik va ishtirok nuqtayi nazaridan qisman cheklangan bo'lishi mumkin.

Badiiy ijodiyotning ijtimoiy tomoni shunda namoyon bo'ladiki, inson o'z zamondoshlari hamda xalqi o'tmishi va odamzod bilan aloqadorligini badiiy obrazlar orqali his etadi. Haqiqiy san'at abadiy badiiy qadriyatlar ijod qilar ekan, xuddi avlodlarning uzluksiz bog'liqligini amalga oshiradi. Shunday qilib, san'at asarlari ham hayot, ham ijodning rasmidir. Ammo san'at turlari hayotning turli-tuman tomonlarini bir xil darajada tasvirlashga qodir emas. San'atning har bir turi o'ziga xos vositalar va ifodalash tamoyillari bilan ajralib turadi. Musiqa – ohang (intonatsiya) san'ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o'ziga xos tarzda aks etib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o'zgartirishda yordam beradi [7].

Bolalikda san'at bilan tanishish bolani madaniy makonga olib kiradi, bu esa uzoq vaqt davomida jamiyat a'zolarini tarbiyalash va ularni kuchaytirishda ishlatilgan elementlar bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini yaratadi. San'at tajribalarini maktabga olib kirish maktabda o'qish natijasida yuzaga kelgan madaniy ajralishni qoplashga yordam berishi va bolalarni yoshligidanoq jamiyatga moslashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarorida ham o'quvchilarga dutor, do'mbira, doira, tanbur, rubob, g'ijjak va nay kabi milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatilishi hamda bu haqda ularning ta'lim

to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritilishi, musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.

Ta'lim muhitida san'atga ta'sir qilish o'quvchilarni yangi tajribalarni qabul qilishga tayyorlaydi, ayniqsa, bu san'at amaliyotlari bilan bog'liq bo'lsa.

Qadriyatlar va e'tiqodlarda mustahkam asosga ega bo'lish insonni mustahkam ma'naviy xavfsizlik bilan ta'minlaydi. Bu esa mazkur qadriyat va e'tiqodlarni shakllantiruvchi amaliyotlardan olingan bilim va tushunchalar natijasida yuzaga keladi.

Madaniy musiqa san'at ta'limining elementi sifatida va uning ma'naviy rivojlanishni ta'minlashdagi roli haqida mahalliy adabiyotlar juda kam. Musiqaning ta'limdagi madaniy fenomen sifatida tajribasi ijtimoiy-madaniy makon nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Ta'lim ijtimoiy jarayondir va u boshqa odamlar bilan muloqotni talab qiladi[13:328]. Musiqaga jalb etilish ta'lim makoni va vositasi sifatida bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Musiqiy faoliyatda ishtirok etish tajribalar lug'atini yaratadi, bu esa boshqa tajribalarni anglash va qabul qilishni osonlashtiradi, chunki musiqa "bolalik tillaridan biri" hisoblanadi[13:329].

Musiqa bolani ijtimoiylashtirish va madaniy faoliyatga jalb qilishda muhim vositalardan biridir. Italiyaning Bolonya shahridagi "G.B. Martini" konservatoriyasida musiqa ta'limi professori, psixologiya va musiqa didaktikasi bo'yicha mutaxassis Jahonnella Tafuri [14] musiqani insoniy faoliyat sifatida ko'rib chiqib, uning maydonlarda ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Musiqa bolalarning qiziqishini oshirishi va hatto zerikarli o'quv faoliyatlarini jozibali qiladi. Bu jarayonda zavqlanish[10:229], ishtirok etish, o'yin hamda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati mustahkamlanadi. Musiqa bilan shug'ullanish shuningdek, o'ziga ishonchni shakllantirishga yordam beradi, bu esa o'zini anglash belgisidir.

Musiqa san'ati boshqa san'at turlaridan tubdan farq qiladi, u insonning xayolot dunyosiga ta'sir etadi va ongimizda turli obrazlar, fikrlar hamda tuyg'ularni uyg'otadi. Inson musiqani eshitish orqali qabul qiladi. Shu bois har bir musiqa asari kishilarda turlicha tasavvurni hosil qiladi [12:5].

Bolalikdagi madaniy tajribalar, ayniqsa musiqa bilan bog'liq bo'lganlari, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari va madaniy tushunchalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. "Bolalar musiqa jamiyatlari orqali madaniyatni o'rganadilar, talqin qiladilar va tushunadilar, ular musiqiy va madaniy ta'limda integratsiyalashgan musiqiy ko'nikmalardan foydalanadilar" [6:266]. Musiqa

ta'limi bolalarni erta yoshdan "san'atni hayotlarida integratsiyalashgan va qiziqarli asos sifatida nishonlaydigan musiqiy jamiyat" ga kiritadi [6:266]. Ushbu san'at shakllari bolalarga o'z atrof-muhitlarini anglash va ularning tajribalarida aks etgan qadriyatlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa nafaqat individual munosabatlarni shakllantiradi, balki boshqa munosabatlarni ham rivojlantirishga yordam beradi, bu esa milliy mumtoz musiqa asarlarida, folklor qo'shiqlari va baxshichilar ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Musiqa sotsiomadaniy mahsulot bo'lib, u siyosiy va axloqiy ma'noga ega[8]. Madaniyat mahsuli sifatida u an'anaviy meros saqlovchilariga – ya'ni, jamiyatdagi namunalarga tayanadi. Ushbu namuna shaxslar axloqiy ta'limda muhim rol o'ynaydi, chunki musiqa ta'limi axloqiy tarbiyani ham o'z ichiga oladi.

J. Piajening ta'lim nazariyalariga asoslanib, Roehampton universiteti professori David J Hargreaves [7] bolalarning atrof-muhitni anglash uchun faol va uzluksiz harakat qilishi haqidagi tushunchani ilgari suradi. Har bir tajriba kelajakdagi tajribalarni shakllantirish qobiliyatini oshiradi, chunki bola "yangi bilim va tajribalarni o'zlashtirish uchun foydalanadigan asosiy qolipga" ega [8:12]. Yangi bilimlar va ko'nikmalar o'zlashtirilgach, bolaning qobiliyati oshadi va yangi bilimlar eski bilimlar ustiga quriladi, natijada shaxs doimiy o'sish va rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi.

Muayyan musiqiy ko'nikmalarni egallashni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan vositalar va amaliyotlar miyaning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun musiqiy vazifalarni bajarish afzaldir. Shunga o'xshash kuzatiladigan ko'nikmalarga ega musiqachilar ularni rivojlantirishga turli xil yondashuvlarni ishlab chiqqan bo'lishi mumkin, bu boshqa vazifalarga o'tishni osonlashtirishi yoki aksi bo'lishi mumkin [15:228].

Musiqa orqali transformatsiya o'z ichiga munosabatlarning o'zgarishi, estetik didning rivojlanishi va turli masalalarni hal qilish qobiliyatining ortishini oladi.

Musiqa zamonaviy identifikatsiya shakllarini yaratishda muhim vosita hisoblanadi[9:3].

Kembrij universiteti professori Kristina Doddington [5:60] ta'kidlaganidek, "his qiluvchi inson tanasi bizni ham ongli, ham dunyoga ochiq qilish imkonini beradi". Inson sezgi orqali atrof-muhitdagi narsalarni idrok qiladi. Idrok shaxsga o'z-o'zi bilan hamda boshqalar (insonlar, narsalar, obyektlar) bilan o'zaro munosabat o'rnatish imkonini beradi, natijada u o'zini va dunyoni anglash jarayonini shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalikdagi madaniy va san'at tajribalari ma'naviy xavfsizlikni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'limiy omil sifatida aniq e'tirof etilmagan. Shu sababli, ushbu

tajribalar va ularning o'zgartiruvchi ta'limiy kuchlarini chuqurroq tahlil qilish zarurati mavjud. O'zgartiruvchi ta'lim[5] shaxsni faqat xulq-atvorda emas, balki idrok va munosabatlarda ham o'zgarishga yo'naltirishni anglatadi. Ma'naviyat shaxsning umumiy idroki uchun muhim bo'lib, bu idrok o'z navbatida shaxs tomonidan shakllantiriladigan munosabatlarning turlari va sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

G'arbda ommaviy maktablarda musiqiy ta'lim dastlab talabalar repertuarini diniy qo'shiqlar bilan boyitish va ularning qo'shiq aytish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan edi[1:24]. Ushbu jarayon mustamlakalarda ham takrorlangan bo'lib, unda asosan ingliz xalq qo'shiqlari, bolalar qo'shiqlari va yakshanba maktabi qo'shiqlari o'rgatilgan[2]. Qo'shiqlar ijrosi nafaqat musiqiy mahoratni oshirishga xizmat qiladi, balki u ma'lum bir dunyoqarash va an'anaviy madaniyatni singdirish vositasi ham hisoblanadi, bu esa diniy va ma'naviy yo'nalishni belgilab beradi.

Transformativ ta'lim madaniyat va san'at tajribasi orqali amalga oshiriladi, chunki o'quvchilar o'z muhitlari va undagi tuzilmalarning fikrlash tarziga qanday ta'sir ko'rsatishini anglaydilar. Madaniy tadbirlarda ishtirok etish, o'zaro muloqot va rollarni bo'lishish orqali nima nimaga aloqadorligini tushunish imkoniyati yaratiladi, bu esa o'quvchilarga asosli fikr-mulohaza yuritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abril, C. R and Kelly-McHale, J. (2016). Thinking about and Responding to Culture in General Music. In Carlos R. Abril and Brent M. Gault (Eds.) *Teaching General Music*. New York: OUP pp. 241-263.

2. Akuno, E. A. (2005). *Issues in Music Education in Kenya*. Nairobi: Emak Music Services.

3. Doddington, C. (2015). Embodied Arts Experience: The educational value of somaesthetics. In Mike Fleming, Liora Bresler and John O'Toole (Eds). *The Routledge International Handbook of the Arts and Education*. Londond:Routledge. Pp.60-67.

4. Emberly, A. and Davidson, J. (2011). From the *Kraal* to the Classroom: Shifting musical arts practices from the community to the school with special reference to learning *Tshigombela* in Limpopo, South Africa. *IJME Vol. 29(3)* pp 265-282.

5. Hargreaves, D. (1986). *The Developmental Psychology of Music*. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Ho, Woi-Chung (2010). Moral Education in China's Music Education: Development and challenges. *IJME Vol. 28(1)* pp 71-87.

7. Bethke, Andrew-John. (2014). Music in Kenyan Christianity: Logooli Religious Song. Jean Ngoya Kidula. 2013. Bloomington: Indiana University Press. 17 bw illus., 53 music exs, index, 312pp.. African Music: Journal of the International Library of African Music. 9. 149-151. 10.21504/amj.v9i4.1892.
8. Mackenzie, K. and Clift, S. (2008). The MusicStart Project: An evaluation of the impact of a training programme to enhance the role of music and singing in educational settings for children aged three to five ears. *IJME* Vol. 26(3) PP. 229 – 242.
9. Urmanova L., Triguloya A., Ibraximjanova G. Musiqi nazariyasi. – Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU. 251 b.
10. Alimdjanova N. Musiqi adabiyoti. – Toshkent.: TDMRXOM. 2020. 112 b.
11. Mwaniki, H. S. K. (1986). Embu Traditional Songs and Dances. Nairobi: Kenya Literature Bureau
12. Tafuri, J. (2008). Infant Musicality: New research for educators and parents.

Hasanov G‘ulomjon G‘anijon o‘g‘li,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti fakulteti “Ashula va raqs”
mutaxassisligi I-kurs magistranti

MILLIY MUSIQA SAN’ATINING QADRIYATLARNI SAQLASH VA MUSTAHKAMLASHDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy musiqa san’atining qadriyatlarini saqlash va mustahkamlashdagi o‘rni haqida atroflicha fikrlar keltirilgan va Xalqaro maqom san’ati anjumani bo‘yicha tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Milliy musiqa, qadriyat, urf-odat, jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, maqom, integratsiya, milliy madaniyat va san’at.*

Abstract: *This article presents detailed thoughts on the role of national musical art in preserving and strengthening values and analyzes it in the context of the International Conference on Maqom Art.*

Keywords: *National music, value, tradition, society, social development, Maqom, integration, national culture and art.*

Musiqa san’ati insoniyat tarixining eng qadimiy va unutilmas qismlaridan biri bo‘lib, u faqat estetik taassurotlar yaratish bilan cheklanmay, balki jamiyatning ruhiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarini saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi [2]. Har bir davrda musiqa nafaqat o‘zining estetik yuksakligi bilan ajralib turadi, balki uning orqali jamiyatning asosiy qadriyatlari, urf-odatlari, tinchlik, muhabbat va umid kabi insoniy tuyg‘ulari ifodalangan. Musiqa san’ati, o‘zining chuqur ta’siri bilan, xalqning madaniy xazinasini sifatida avlodlardan avlodga o‘tib, jamiyatning ruhiy yuzini shakllantiradi va uni kelajakka etkazadi.

Milliy musiqa orqali nafaqat milliy qadriyatlar va an’analar saqlanadi, balki u zamonaviy dunyoda yangi ijtimoiy-madaniy qiymatlarni yaratishga ham xizmat qiladi. Musiqaning ta’siri shundaki, u nafaqat individning hissiyotlarini, balki butun jamiyatning ma’naviy dunyosini ham shakllantiradi. Shu tariqa, musiqa san’ati nafaqat estetik, balki ijtimoiy va ma’naviy vazifalarni bajarishda ham ajralmas vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqqa san'ati, xususan, maqom san'ati, qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashda juda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Xalqaro maqom san'ati anjumanining o'tkazilishi, ayniqsa, O'zbekistonning boy madaniy merosini keng targ'ib qilish, mustahkamlash varivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqom san'atining jahon madaniyati bilan bog'liqligi, uning tarixiy va falsafiy ildizlari xalqimizning o'ziga xos dunyoqarashi va hayotiy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu anjuman davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan va birinchi festival 2018-yil Shahrisabzda o'tkazilgan edi. Keyinchalik pandemiya tufayli kechiktirilgan san'at qurultoyi bu yil yangicha ruh va shukuh bilan qaytdi. Milliy maqom san'ati xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. O'tgan 2024-yilning 27-iyun kuni Jizzax viloyatining Zomin tumanida II Xalqaro maqom san'ati anjumani tantanali ravishda bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanning Tantanali ochilish marosimida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab, maqom san'atining tarixi va ahamiyatini e'tirof etdi. Ya'ni, "Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqom – umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrlidir" – deb ta'kidladilar yurtboshimiz [1]. Maqom san'atining anjumanda takomillashuvi va uning zamonaviy shakllarda namoyish etilishi, san'at va madaniyatning jahon sahnasida o'z o'rnini egallashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, anjumanda TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiy madaniyat va meros fondi prezidenti Aktoti Raimkulova, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bosh kotibi o'rinbosari Nurlan Seytimov, Turkiya prezidentining bosh maslahatchisi Yalchin Topchu, Qozog'iston prezidentining maslahatchisi Malik Otarbayev, Tojikiston prezidentining ijtimoiy rivojlanish, madaniyat va jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha yordamchisi Abdullo Rahmonzoda, Qirg'iziston madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vaziri Oltinbek Maksutov, Ozarbayjon madaniyat vaziri Adil Gabil o'g'li Karimli qatnashdi. Umuman, festivalda Osiyo, Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika qit'alarining 80 dan ortiq mamlakatidan qariyb 400 nafar mehmonlar ishtirok etishdi [3]. Bu esa, nafaqat o'z xalqimiz, balki butun dunyo xalqlari uchun milliy musiqqa san'atini saqlash, mustahkamlash va rivojlantirishda o'zni beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, Xalqaro maqom san'ati anjumani kabi tadbirlar, musiqaning ma'naviy, falsafiy va estetik qadriyatlarni mustahkamlashdagi ahamiyatini namoyish etadi va bu san'at turini saqlashga qaratilgan ijtimoiy va madaniy yondashuvni mustahkamlaydi.

Milliy musiqa va madaniy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi juda chuqur va ko‘p qirrali bir munosabatni tashkil etadi. Musiqa, ayniqsa, xalq musiqasi, milliy madaniyatning ajralmas bir qismi bo‘lib, har bir millatning tarixiy, madaniy, falsafiy va ruhiy qadriyatlarini ifodalaydi va ularga shakl beradi. Milliy musiqao‘zi bilan tarixiy tajriba va qadriyatlarni olib keladi. Har bir xalqning musiqa uslubi o‘z tarixini, urf-odatlarini, an‘analarini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek maqom san‘ati yoki baxshichilik san‘ati boy tarixiy ildizlariga ega bo‘lib, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Ularning yuksalishi, saqlanishi va rivojlanishi millatning o‘ziga xosligini ifodalaydi. Milliy musiqa ko‘pinchao‘sha xalqning dunyoqarashini, falsafasini, yashash tarzini aks ettiradi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan o‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida “Maqom” nomli kitob-albom nashr etildi. O‘zbek xalqining noyob musiqiy merosini asrab-avaylash va kelgusi avlodga bezavol etkazishga xizmat qiluvchi ushbu nashr qadimgi mutafakkirlar, alloma va shoirlarning maqom san‘atiga bag‘ishlangan risolalariga oid bo‘limlarni o‘z ichiga olgan. Kitobda mazkur san‘atning falsafasi, Forobiy, Ibn Sino, Marog‘iy, Kavkabiy kabi allomalar asarlari, turli maqom yo‘llari, jumladan, Buxoro Shashmaqomi, Xorazm Olti yarim maqomi va Dutor maqomi, Farg‘ona-Toshkent maqomi tarixiga alohida e‘tibor qaratilgan. “Tanbur chizg‘ilari” deb nomlangan milliy nota yozuvining kashf etilishi hamda uning vositasida Olti yarim maqom, Dutor maqomlarining notalashtirilishi, shu bilan birga, o‘tgan asr boshlarida maqomning ilk bora perfokartalarga muhrlanishi yoritilgan. Shuningdek, maqom ijrochiligida keng qo‘llaniladigan sozlarni yasashning o‘ziga xos xususiyatlari va texnologiyasi bayon etilib, mashhur ustalarning nomlari keltirilgan [4].

Milliy musiqa san‘ati, o‘ziga xos uslubi bilan, xalqning madaniy o‘zligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Musiqa orqali millat o‘z tarixiy o‘tmishini va kelajagini bog‘lab, o‘zining madaniy merosini avloddan-avlodga etkazadi. Musiqaning turli janrlari, shu jumladan, qo‘shiqlar, raqslar, folklor, xalq maqomlari va boshqalar, milliy identifikatsiyani mustahkamlaydi va uni saqlaydi. Milliy musiqa xalqning ijtimoiy qadriyatlarini, oilaviy, do‘stlik va jamoaviy munosabatlarini ham ifodalaydi. O‘zbek xalq musiqasida oilaviy va jamiyatning ahamiyati, keksalarga hurmat, bolalarga mehr, mehnat va samimiylilik kabi qadriyatlar keng aks etgan. Musiqa aynan shu qadriyatlarni targ‘ib qilib, jamiyatning ruhiy salomatligini saqlashga hissa qo‘shadi.

Milliy musiqa va madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik global madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni kuchaytiradi. Har bir xalqning musiqaan‘analari bir-birini o‘rganishga, bir-birini hurmat qilishga va madaniyatlar aro aloqalar o‘rnatishga yordam beradi. Musiqa san‘ati jahon

madaniyatida ko‘prik vazifasini o‘taydi va turli millatlar o‘rtasidagi muloqotni yo‘lga qo‘yadi [5].

Undan tashqari mamlakatimizda yosh avlodning ma‘naviy hayotini yuksaltirish, ularning axloqiy-estetik qadriyatlar mazmun-mohiyatini anglash, milliy musiqa san‘atini madaniy hayotiga chuqurroq kirib borishi uchun keng imkoniyatlar yaratish va mustahkamlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, respublikamizda milliy musiqa san‘atimiz va madaniyatimizni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan tanlovlar, xalqaro musiqa festivali kabi qator nufuzli tadbirlarnialohida qayd etish mumkin. Masalan [6]:

- ❖ “Yangi O‘zbekistonning yangi taronalari”;
- ❖ “San‘atim senga, obod yurtim!” ijodiy ko‘rik-tanlovi;
- ❖ “Yoshlik bahori” yosh opera ijrochilari tanlovi;
- ❖ “Yilning eng faol talabalar teatr studiyasi – 2022”;
- ❖ “Xush kayfiyat” respublika tanlovi;
- ❖ “Jaloliddin Manguberdi” kelajak milliy qahramoni obrazi tanlovi;
- ❖ “Eng yaxshi spektakllar” tanlovi;
- ❖ “Debyut–2022” – yosh rejissyorlar ko‘rik-tanlovi;
- ❖ “Yosh vokal ijrochilari” tanlovi;
- ❖ “Ta’tildagi yulduzlar” onlayn tanlovi;
- ❖ “Qalb” nomli Respublika iqtidorli yosh ijrochilari onlayn tanlovi;
- ❖ “Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari” respublika tanlovi;
- ❖ “Iste’dodlar kamalagi” ko‘rik-tanlovi (imkoniyati cheklanmagan yoshlar o‘rtasida);
- ❖ “Xorazm maqomlari” V respublika televizion ko‘rik-tanlovi;
- ❖ “Ona diyor kuychisi” respublika ko‘rik-tanlovi
- ❖ Botir Zokirov nomidagi zamonaviy estrada qo‘shiqchilari ko‘rik-tanlovi;
- ❖ Nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida “Eng yaxshi kitobxon” respublika ko‘rik-tanlovi;
- ❖ “Maqom yo‘llarida yaratilgan eng yaxshi asar” ko‘rik-tanlovi va boshqalar.

Umuman olganda milliy musiqa san‘atining qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashdagi o‘rni juda katta va beqiyosdir. Shu bilan birga, milliy musiqaning saqlanishi va rivojlanishi, jamiyatda madaniy merosni qadrlash va unga nisbatan hurmatni oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda globalizatsiya jarayonlarida boshqa madaniyatlarning ta’siri ortib borayotgan bir paytda, milliy musiqaning o‘zi xalqning o‘ziga xosligini saqlashga, o‘z madaniyatini tanitishga va rivojlantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ikkinchi Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/7352>.
2. Бахтизина, Д. И. “Музыка как фактор сохранения духовной культуры народа.” *Язык и культура (Новосибирск)* 7 (2013): 174-178.
3. JonibekovZ, Avvalboyev I,A.Qayumov. Milliy maqom san'ati azaliy qadriyatlarimiz ramzi sifatida ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasining 2024-yil 28-iyun, 127-soni. 3-bet.
4. Aliyeva,M. “O'zbek milliy musiqa merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati.” *Oriental Art and Culture*. (2) 1/2020. 49-bet.
5. Shuxratjon o'g'li, Axmadjonov Bunyodbek. “Milliy musiqa va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlik.” *MASTERS* 2.12 (2024): 149-152.
6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yildagi respublika tanlovlari dayjesti. (Telegram kanali materiallari).

Shukurov Jo'raqul Tilauvovich,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Milliy qo'shiqchilik” kafedrası professori,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi*

ASHULA VA RAQS ANSAMBLARINI TASHKIL ETISH VA JAMOAGA YOSH ISHTIROKCHILARNI JALB ETISH MASALALARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada havaskorlik ashula va raqs ansabllarini qanday tashkil qilish va jamoaga ishtirokchilarni jalb etish masalalari yuzasida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ansambl, ashula, raqs, havaskorlik, to'garak, musiqa, san'at. jamoa.*

Annotation: *The article is devoted to the creation of amateur song and dance ensembles, and also attracting participants to this group.*

Keywords: *music, thinking of young people, spirituality, cultural heritage, neurobiological impact, aesthetic education, national values.*

Bugungi kunda ashula va raqs ansambllarini tashkil etib, jamoani oqilona boshqara olish uchun mamlakatimizda mavjud bo'lgan xalq ashula va raqs ansambllarining tashkiliy ishlar masalasiga doir yig'ilgan tajribasiga binoan bir qator omillarni inobatga olish lozim. Badiiy havaskorlik jamoalari – guruh, to'garak, studiya ko'rinishlarida tashkil etilishi mumkin. Bu o'ziga xos

uyushmalarda, professional san'atdan farqli ravishda ishtirokchilarning o'z asosiy ishidan bo'sh vaqtlarida shug'ullanishlari, ularning jamoa faoliyatidagi ixtiyoriylik, hamma uchun ochiqlik, ommaviylik va o'z-o'zini boshqarish jihatlari mavjud bo'ladi.

Jamoa tashkil etilishiga qatnashuvchilarning san'atni biror-bir yo'nalishi bo'yicha o'z ehtiyojlarini qondirish, bir-birlari bilan muloqotda bo'lib turish kabi xohish va istaklari turtki bo'la olishi mumkin. Jamoaning shakllanishi asta-sekinlik bilan amalga oshadigan jarayon. Uni shakllantirish – jamoa rahbarining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki, dastlabki davrdan boshlab ishtirokchilarni jipslantira olish, ularning istaklari va imkoniyatlarini o'rgangan holda o'z ehtiyojlarini qondirishlari uchun zarur bo'lgan manbalar bilan ta'minlay olish choralarini ko'rish, mashg'ulotlarning muntazam o'tkazilishiga erisha olish, har bir qatnashchi erishgan yutuqlaridan eng avvalo o'zi mamnun bo'lishiga erisha olish kabi qator vazifalar amalga oshirilgandagina bu ixtiyoriy uyushma yaxlit jamoaga aylanishi mumkin.

“Xalq ashula va raqs ansambllarini jamoaviy ijro ekanligi, uning bag'oyatda ommabopligi va ishtirokchilarning ijodga bo'lgan ma'naviy ehtiyojining mavjudligi obyektiv omillar sirasiga kirsam, ishtirokchilarning istaklari subyektiv omillar sirasiga kiradi.

Ashula va raqs jamoalari faoliyatiga ham mazkur omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, ashula va raqs ansambllariga ham ishtirokchilar aynan bir maqsadni ko'zlagan holda, ya'ni qalb ehtiyojini qondirish maqsadidagi orzu-havaslar bilan ishtirok etadilar. Aynan mana shu orzu havaslarga binoan ishtirok etishlar jamoaga qatnashuvchi insonning o'ziga xos ma'naviy ehtiyoji hisoblanadi. Agar ma'naviy ehtiyojlar inson faoliyatining asosini, mohiyatini tashkil etsa, istak-xohishlar shu mohiyatning aniq ko'rinishi sifatida gavdalanadi. Inson faoliyatidagi ta'lim va tarbiya jarayonining qaysi tomonini olmaylik, u insonlarning orzu-havaslari bilan bog'liqligini ko'ramiz³.”

Rahbarlar jamoa bilan ishlash jarayonida uchrab turadigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf qilishlari uchun, avvalo ishtirokchilarning orzu-istaklarini tushuna bilishi zarur. Chunki, jamoaga qatnashuvchilar turli tushuncha va orzu-havaslar bilan ishtirok etishadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, asosan ishtirokchilar quyidagi omillar tufayli keladilar:

- qalb ehtiyojini qondirish;
- konsert – ijrochilik faoliyatida ishtirok etish;
- sohadan bahramand bo'lish;
- zo'rma-zo'raki ishtirokchilar;

³Кустов Ю., Чебенный В. Управление самодеятельным хоровым коллективом. Л.,1984, стр.33-37*2).

- ehtirosi kuchli ishtirokchilar;
- mulohozali ishtirokchilar.

Aytish joizki, musiqa san'atiga qiziquvchilar odatda yaxshi qobiliyat egalari hisoblanadi. Shuning uchun ular asosan qalb ehtiyojlarini qondirish maqsadida ashula va raqs ansambllarida ishtirok etadilar. Ular kelajakda yaxshi xonanda, sozanda yoxud raqqosa bo'lib etishish umidida astoydil harakat qiladilar. Ba'zilar esa, ijodiy jamoalarga o'zgalar bilan muloqotda bo'lish, fikr almashish, dardlashish kabi ehtiyojlar etaklaydi. Bu istaklar o'ziga xos bo'lib, aslida uning zahirida mazkur sohaga qiziqish deyarli yo'qligi bilinib turadi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ijodiy muhit, ustozning mohirona ta'siri yuqorida aytib o'tilgan ishtirokchilarni yangi orzularga undashi mumkin. Bunday ishtirokchilarning ma'lum qismida asta-sekinlik bilan haqiqiy ijrochilik mahoratiga erishish ishtiyoqi ham paydo bo'ladi. Pirovardida, bu ishtirokchilarning maqsad va orzulari ko'p hollarda o'zgarib boradi hamda ularni kasbiy bilim olishga ham olib keladi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, mamlakatimizda ko'plab taniqli xonanda va sozandalar, raqqosalar, bastakorlarning ijodiy faoliyati ayni shunday jamoalarda boshlanganini ko'rishimiz mumkin. Bu turdagi ishtirokchilarning birinchisida yanada boshqacha o'ziga xos xususiyat ham bor. YA'ni, bunday toifadagi ishtirokchilar konsertlarga chiqishni jon-dili bilan yoqtiradigan, jamoaning ijodiy faoliyatida jonbozlik ko'rsatadigan hamda yakkaxon sifatida sahnaga chiqishga harakat qiladiganlar bo'ladi. Tabiiyki bularning bir qatori kelajakda yakka ijrochi bo'lib etishishga erishadi.

Konsert-ijrochilik faoliyatida ishtirok etish niyatida kelganlar ham, qalb ehtiyojini qondirish uchun kelganlar kabi aslida kamroq uchraydi. Ishtirokchilar ko'p hollarda konsertlarga chiqishdan tashqari, kasbiy qiziqish borligini ham ma'lum qilib turadilar va bunday ishtirokchilar sahnaga yakkaxon, yakkanavoz sifatida chiqishga ham intiladilar. Ular bu vazifani uddasidan chiqadilar ham. Shuni alohida aytib o'tish joizki, ishtirokchilar jamoada qatnashgan sari, vaqt o'tishi bilan konsert-ijrochilikka nisbatan mayllari o'zgaradiva ular xudbinlik alomatlarini ham tark eta boshlaydilar. Ularda o'zlarining ijrochilik faoliyatlariga baho berish, ijodiy faoliyatga intilish, ijrochilik mahoratini oshirish kabi ishtiyoqlar paydo bo'la boshlaydi. Mazkur sohadan bahramand bo'lish va o'zaro muloqotni oshirish maqsadida jamoaga kelgan ishtirokchilar, asosan musiqa san'atini yaxshi ko'ruvchi, mazkur sohadan ozgina bo'lsada xabardor bo'lish, ashula va raqs ansambliga xonanda yoxud sozanda sifatida ishtirok etish malakalariga ega bo'lishni istovchi insonlardir. Hatto ularning ba'zi birlarida malakaga ega bo'lishdan tashqari ijodiy intilishlar ham ro'y beradi. Bunday ishtirokchilarda o'zlarining kelgusi hayotlarida shu sohadan foydalanish rejasi va

maqsadi bo'lishi mumkin. Kelajakda san'atkor bo'laman deganlari esa, asosan oldindan biror bir ijodiy jamoada ishtirok etib, tajriba orttirgan bo'ladilar. Bunday ishtirokchilar o'zlarining iste'dodlarini yanada oshirish maqsadida mashg'ulotlarga astoydil qatnashadilar va katta sahnaviy san'atga tayyorlashga harakat qiladilar. Rahbarlar jamoa bilan ishlash jarayonida uchrab turadigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf qilishlari uchun ishtirokchilarning orzu-istaklarini ham tushuna bilishi va zarurat tug'ilganda inobatga ham olishi lozim. Shundagina bu rahbar avvalo, jamoada sog'lom va ijodiy muhitni yuzaga keltira olishi va o'zi ko'zlagan marralarga erisha olishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.O'zbekiston,2017
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.,O'zbekiston 2017
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. T., 2017
4. Ro'ziyev SH. Xorshunoslik. T.,1987
5. R.Tursunov.Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti.T.,2002
6. Shukurov J. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. T.,2019

Mirzayev Komiljon G‘ulomovich,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi professori,
O‘zbekistonda Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist

MILLIY CHOLG‘ULARNING OMMALASHUVI VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy cholg‘ularning ommalashuvi va ularning zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy musiqa asboblarning madaniy meros sifatidagi ahamiyati va ularning bugungi kunda ijodiy industriyalardagi o‘rni o‘rganiladi. Maqolada an’anaviy cholg‘ularni saqlab qolish hamda ularni zamonaviy jarayonlarga moslashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: milliy cholg‘ular, ommalashuv, zamonaviy talqin, musiqa industriyasi, an’anaviy san’at.

Annotation: This article analyzes the popularization of national musical instruments and their modern interpretations. It also examines the importance of national musical instruments as cultural heritage and their role in the creative industries today. The article discusses the possibilities of preserving traditional instruments and adapting them to modern processes.

Keywords: national instruments, popularization, modern interpretation, music industry, traditional art.

Milliy cholg‘ular har bir xalqning madaniyati, san’ati va milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ular avloddan-avlodga etib kelgan boy madaniy merosning ajralmas qismi bo‘lib, millatning san’atga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Tarixiy jihatdan milliy cholg‘ular xalq musiqasi, marosimlari va diniy tadbirlarda keng qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda ular nafaqat an’anaviy musiqada, balki zamonaviy janrlarda ham keng foydalanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida milliy cholg‘ularni asrab-avaylash va rivojlantirish bo‘yicha qator qaror va dasturlar qabul qilingan. Xususan, “Musiqa

san'ati va cholg'ularni rivojlantirish to'g'risida"gi qonun, "Musika madaniyatini rivojlantirish davlat dasturi" va "Milliy merosni saqlash va ommalashtirish bo'yicha strategiya" ushbu yo'nalishda muhim huquqiy asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Musika va san'atni rivojlantirish to'g'risida" 2019-yilda qabul qilingan farmoni milliy cholg'ularni targ'ib qilish va yosh avlodga o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni boshlab berdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda milliy cholg'ularni o'rganish bilan shug'ullanuvchi musika maktablari soni 1500 dan oshgan. Bundan tashqari, milliy cholg'ularni ishlab chiqarish va eksport qilish hajmi so'nggi besh yilda 20 foizga oshgan. Xususan, dutor, tanbur, doira va chang kabi cholg'ular AQSh, Turkiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Milliy cholg'ularning ommalashuvi va ularning zamonaviy talqinlari san'at sohasidagi muhim jarayonlardan biri bo'lib, ular global madaniyat bilan integratsiyalashuvni ta'minlash bilan birga milliy o'ziga xoslikni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada milliy cholg'ularning ommalashuviga sabab bo'luvchi omillar, zamonaviy ijodiy jarayonlardagi o'рни va kelajakdagi istiqbollari atroflicha yoritiladi.

Milliy cholg'ularning ommalashuvi. Milliy cholg'ularni keng ommaga tanishtirish va ularni kelajak avlodlarga etkazish madaniy merosni saqlashning eng muhim jihatlaridan biridir. Ushbu jarayon quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirilmoqda:

- **Ta'lim tizimi va musika maktablari** – O'zbekistonda milliy cholg'ularni o'rganish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, 2023-yil holatiga ko'ra, 1500 dan ortiq musika maktablarida an'anaviy cholg'ular bo'yicha ta'lim berilmoqda.
- **Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar** – YouTube, Spotify, Apple Music kabi platformalarda milliy cholg'ular asosida yaratilgan asarlar tobora ommalashib bormoqda. Shuningdek, Tik Tok va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda milliy cholg'ularni ijro etuvchi san'atkorlarning chiqishlari keng auditoriya tomonidan qiziqish bilan kuzatilmoqda.
- **Xalqaro festivallar va musiqiy anjumanlar** – "Sharq taronalari", "Xalqaro maqom festivali" kabi tadbirlarda milliy cholg'ular ijrochiligi keng namoyon etilmoqda.
- **Zamonaviy musika janrlarida qo'llash** – Milliy cholg'ularni pop, jazz, elektron va boshqa zamonaviy janrlarga integratsiya qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Masalan, elektron dutor va gibrid changlar yangicha ijrochilik imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

- **Musiqiy innovatsiyalar va ishlab chiqarish jarayonlari** – O‘zbekistonda milliy cholg‘ularni zamonaviy usulda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, ularning ovoz sifatini yaxshilash, ergonomikasini oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.
- **Milliy cholg‘ularni eksport qilish** – So‘nggi yillarda milliy cholg‘ular xalqaro bozorda katta talabga ega bo‘lib, Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarga eksport hajmi sezilarli darajada oshdi.

Milliy cholg‘ularni saqlash va rivojlantirish yo‘lidagi ushbu jarayonlar ular nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro maydonda ham keng ommalashishiga xizmat qilmoqda. Kelajakda milliy cholg‘ularni yangicha talqin qilish va ularning jahon miqyosidagi mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida yangi texnologiyalar va innovatsion dasturlardan keng foydalanish zarur.

Milliy cholg‘ularning zamonaviy talqinlari. Hozirgi vaqtda milliy cholg‘ularni zamonaviy uslublar bilan uyg‘unlashtirish san’atda innovatsion dastur hisoblanadi. Quyida milliy cholg‘ularning yangi talqinlari haqida so‘z yuritamiz:

- **Elektron va eksperimental musiqa** – hozirgi kunda milliy cholg‘ular elektron musiqaga moslashtirilmoqda. Masalan, elektron doira va dutorlar yaratilib, ular elektron effektlar bilan boyitilgan tarzda ijro etilmoqda.
- **Fusion janrlar** – milliy cholg‘ular jazz, rock, pop va hip-hop kabi janrlar bilan uyg‘unlashtirilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda taniqli san’atkorlar an’anaviy cholg‘ularni zamonaviy musiqiy kompozitsiyalarga qo‘shib, yangi asarlar yaratmoqda.
- **Audio visual san’at va texnologik innovatsiyalar** – zamonaviy konsertlarda interaktiv sahnalashtirish va raqamli visual effektlardan foydalanish milliy cholg‘ularni yanada jozibador qilishga xizmat qilmoqda.
- **Gibrid cholg‘ular yaratish** – an’anaviy cholg‘ularni zamonaviy talablarga moslashtirib, yangi shakl va ovoz imkoniyatlari bilan boyitish jarayonlari olib borilmoqda. Masalan, elektro-dutor yoki lazer chang kabi yangiliklar mavjud.

Milliy cholg‘ularning xalqaro miqyosdagi o‘rni. Bugungi kunda milliy cholg‘ular xalqaro bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularning dunyo miqyosida ommalashishi quyidagi yo‘nalishlarda kuzatilmoqda:

- **Xalqaro musiqiy hamkorliklar** – O‘zbekiston, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlar orasida milliy cholg‘ular asosida qo‘shma musiqiy loyihalar amalga oshirilmoqda.
- **Jahon miqyosidagi ijrochilar** – milliy cholg‘ularda ijro etuvchi san’atkorlarning xalqaro festivallarda ishtirok etishi va tan olinishi milliy musiqamizni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynamoqda.

- **Savdo va eksport imkoniyatlari** – milliy cholg‘ular xalqaro bozorda sotuvga chiqarilib, ularga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Xususan, AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlarida o‘zbek cholg‘ulariga qiziqish ortgan.

Xulosa va takliflar: Milliy cholg‘ularning ommalashuvi va ularning zamonaviy talqinlari O‘zbekiston madaniy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy cholg‘ularni asrab-avaylash, ularning ommalashuvi va zamonaviy talqinlari yuzasidan muhim jihatlar yoritib berildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, milliy cholg‘ularni yanada keng targ‘ib qilish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Ta’lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish** – Milliy cholg‘ular bo‘yicha o‘quv dasturlarini yangilash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va xalqaro tajribadan foydalanish.
2. **Musiqasi industriyasida raqamli platformalardan keng foydalanish** – Milliy cholg‘ular bilan ijro etilgan asarlarni YouTube, Spotify va Apple Music kabi platformalar orqali global auditoriyaga etkazish.
3. **Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish** – Xorijiy musiqa maktablari, konservatoriyalar va san’at akademiyalari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish.
4. **Milliy cholg‘ularni ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish** – Cholg‘u ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish, xorijiy bozorlar uchun maxsus mahsulotlar yaratish.
5. **Milliy cholg‘ularni zamonaviy janrlarga moslashtirish** – Jazz, elektron va simfonik musiqa bilan integratsiya qilish orqali milliy cholg‘ularni yosh avlod orasida ommalashtirish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi hamda xalqaro tajribadan foydalanish zarur. Shundagina milliy cholg‘ularni yanada rivojlantirish va ularning jahon madaniyatidagi mavqeini mustahkamlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov A. “O‘zbek xalq cholg‘ulari: tarixi va rivojlanish bosqichlari” – Toshkent, 2020.
2. Hasanov R. “Milliy musiqa va zamonaviy texnologiyalar sintezi” – Samarqand, 2021.
3. Yusupov S. “Xalq cholg‘ularining modernizatsiyasi” – Buxoro, 2019.
4. Xalqaro musiqa festivallari rasmiy saytlaridan olingan statistik ma’lumotlar.
5. UNESCO madaniy meros hisobotlari, 2023.

Niyozov Soyibjon Navruzovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori,
O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi

O'ZBEK MILLIY MUSIQA MEROSINING TARIXIY-SISTEMALI TAHLILI: AN'ANA VA INNOVATSIYA DIALEKTIKASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbek milliy musiqa merosining tarixiy shakllanish bosqichlari, uslubiy xususiyatlari va ularning zamonaviy innovatsion jarayonlar bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. An'ana va innovatsiya o'rtasidagi dialektik munosabatlar musiqiy amaliyotda qanday namoyon bo'lishi, bu jarayonda ijodkor, pedagog va tinglovchi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek milliy musiqa merosi, an'ana, innovatsiya, tarixiy-sistemali tahlil, maqom, folklor, modernizatsiya.*

Annotation: *This article analyzes the stages of historical formation of the Uzbek national musical heritage, its stylistic features and their interaction with modern innovative processes. How the dialectical relationship between tradition and innovation is manifested in musical practice, the role of the creator, teacher and listener in this process is analyzed.*

Keywords: *Uzbek national musical heritage, tradition, innovation, historical and systematic analysis, maqom, folklore, modernization.*

O'zbek milliy musiqasi xalqimizning tarixiy xotirasi, madaniy o'zlik va milliy identitetining ajralmas tarkibiy qismidir. U asrlar davomida shakllangan, og'zaki an'analar asosida avloddan-avlodga o'tgan holda boyib kelmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida esa ushbu merosni asrab-avaylash, uni ilmiy asosda o'rganish va yangi avlodga etkazish masalasi tobora dolzarb tus olmoqda.

XXI asrda raqamli texnologiyalar, ommaviy madaniyat va global axborot oqimining keskin kuchayishi milliy musiqiy qadriyatlarimizga ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib, O'zbek milliy musiqa merosini tarixiy-sistemali yondashuv asosida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunda an'ana va innovatsiya o'rtasidagi dialektik

munosabatlarni chuqur tahlil qilish bugungi davrning ilmiy va amaliy ehtiyojlaridan biridir.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasiga e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-maydagi “Musika san’ati va madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-265-sonli qarori asosida maqom, xalq ijodiyoti va milliy musiqiy yo‘nalishlarni rivojlantirishga 250 mlrd so‘m mablag‘ ajratilishi, hududlarda maqom markazlari, musiqiy ansambllar va bolalar musika maktablarini modernizatsiya qilish belgilab qo‘yildi. Bu esa, an’anaviy musiqiy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, ularni zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, musika san’atini rivojlantirish doirasida 400 dan ortiq festival, tanlov, ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi milliy musika merosining qayta tiklanishi va innovatsion yo‘nalishda rivojlanishiga bag‘ishlangan. Bu jarayonlar musiqiy an’analarni ilmiy tizimlashtirish, ularni zamon talablari asosida boyitish masalasini yanada dolzarb etmoqda.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil holatiga O‘zbekistonda:

- 300 dan ortiq davlatga qarashli musika ta’lim muassasalari,
- 70 dan ortiq xalq cholg‘ulari ansambllari,
- 30 dan ziyod maqom va folklor ansambllari faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, har yili maqom yo‘nalishidagi ixtisoslashgan kollej va institutlarga 1200 nafardan ortiq yoshlar qabul qilinmoqda. Bu raqamlar milliy musiqaga qiziqish va e’tiborning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, UNESCO tomonidan “Shashmaqom”, “Katta ashula”, “Baxshichilik san’ati” insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani, bu sohadagi xalqaro e’tirofni ham ifodalaydi. Demak, bugungi globallashtirish va axborot asrida O‘zbek milliy musika merosini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki strategik zaruratga aylangan. Mavzuning dolzarbligi uning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ta’limiy ahamiyati bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun mazkur maqolada ushbu musiqiy merosning tarixiy-sistemali tahlili orqali an’ana va innovatsiya dialektikasini ochib berish asosiy maqsad qilib qo‘yiladi.

O‘zbek milliy musiqasi boy tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari turli bosqichlarda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Quyida ushbu bosqichlar tarixiy davrlarga asoslangan holda tizimli tarzda tahlil qilinadi:

Qadimgi davr musiqasi (mil. avv. II mingyillik — milodiy III asr). O‘zbekiston hududida ilk musika shakllari qadimgi davrlarda shakllana

boshlagan. Arxeologik topilmalar (Surxondaryo, Qoratepa, Dalvarzintepa, Afrasiab freskalari) musiqiy madaniyatning mavjudligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, musical archeology (musiqiy arxeologiya) doirasida topilgan tasviriy san'at namunalarida qo'shiq aytayotgan, cholg'u chalayotgan insonlar obrazlari aks etgan. Bu musiqaning marosimiy va diniy vazifalarni bajarganini ko'rsatadi.

Antik va ilk o'rta asrlar (IV–IX asrlar). Bu davrda Zardushtiylik, Buddaviylik va ilk islom ta'siri ostida musiqaning diniy va estetik funksiyalari shakllanadi. Baqtriya, So'g'd, Xorazm hududlarida saroy musiqasi rivojlangan. Xalq og'zaki ijodi bilan bir qatorda professional musiqaning ilk elementlari vujudga keladi. "Avesta"da aytilishicha, ashula va musiqa inson qalbini tozalovchi vosita sifatida ko'rilgan.

Islomiy uyg'onish davri (IX–XII asrlar). Bu davr O'rta Osiyo ilm-fani, adabiyoti va san'atining yuksak rivojlangan bosqichi bo'lib, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Nasr al-Farobiy kabi allomalar tomonidan musiqaga oid nazariy asarlar yaratilgan. Al-Farobiyning "Musiqa ilmi haqida" nomli risolasi O'rta asr musiqa nazariyasining eng yuksak namunasi hisoblanadi. Bu davrda musiqa ilmi ilmiy asosda o'rganila boshlagan va musiqa – ilmlar sultoni sifatida e'tirof etilgan.

Temuriylar davri (XIV–XV asrlar). Temuriylar saltanati davrida musiqa san'ati yuksak darajada rivojlandi. Hususan, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi allomalar musiqaga katta e'tibor bergan. Samarqand va Hirotda saroy musiqasi, maqom ijrochiligi taraqqiy etdi. Bu davrda maqom san'atining Shashmaqom tizimi shakllana boshladi, hofizlik, sozandachilik an'analari mustahkamlandi.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari davri (XVIII–XIX asrlar). Bu davrda har bir xonlik hududida o'ziga xos musiqa maktablari vujudga keldi:

Buxoro maktabi — Shashmaqom markazi sifatida e'tirof etilgan.

Xiva maktabi — dutor ijrochiligi va baxshichilik an'analari bilan mashhur bo'lgan.

Qo'qon maktabi — katta ashula, maqomning xalqona variantlari rivojlangan. Shu bilan birga, xalq musiqasi – lapar, yalla, terma, do'ppi, baxshilar ijodi keng tarqaldi. Ijrochilik og'zaki an'analari asosida ustoz-shogird yo'li bilan rivojlandi.

Sovet davri (XX asr boshi – 1991-yil). Sovet davrida milliy musiqaning ilmiy-tizimli o'rganilishi yo'lga qo'yildi. 1930-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi milliy musiqa ta'limining markaziga aylandi. Shu davrda birinchi marta Shashmaqom notaga olinib, o'rganila boshlandi. Biroq ba'zida an'anaviy musiqaga "eski qolip" deb qaralib, estrada va simfonik yo'nalishlar targ'ib qilindi. Shu bilan birga, Muhammadjon Mirzayev, Turg'un Alimatov,

Munojot Yo‘lchiyevakabi hofizlar faoliyati orqali milliy musiqa xalq orasida jonlandi.

Mustaqillik yillaridan keyingi davr (1991-yildan hozirgacha). Mustaqillik davrida milliy musiqaga qayta e‘tibor kuchaydi. Maqom, baxshichilik, katta ashula, folklor yo‘nalishlari tiklandi, ularning xalqaro maydondagi nufuzi oshdi. Shashmaqom san‘ati 2003-yilda UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi.

2022–2024 yillarda esa:

Milliy cholg‘ular (doira, dutor, tanbur) asosida musiqa maktablari uchun o‘quv dasturlar yangilandi.

Maqom ijrochiligi bo‘yicha xalqaro tanlovlar doimiy asosda o‘tkazilmoqda.

Raqamlashtirish loyihalari orqali minglab xalq kuy-qo‘shiqlari arxivlashtirilib, ochiq platformalarga joylashtirildi (Masalan, O‘zMTRK, O‘zRFA fondlari).

An‘ana va innovatsiya tushunchalarining mohiyati. “An‘ana” (arabcha “taqlid”, “meros”) tushunchasi jamiyatning madaniy xotirasida muhim o‘rin egallaydi. U avlodlararo uzviylikni, o‘zlikni anglashni, qadriyatlar barqarorligini ifodalaydi. Musiqa san‘atida an‘ana – bu asrlar davomida shakllangan maqomlar, kuylar, baxshichilik, hofizlik, cholg‘ular, uslublar, ifoda shakllari, ustoz-shogird maktabi, marosimlar va o‘ziga xos estetika tizimidir.

“Innovatsiya” esa lotincha *innovatio* – yangilanish, yangicha fikrlash degan ma‘noni anglatadi. Musiqa san‘atida bu – yangi texnologiyalar, zamonaviy ifoda vositalari, eksperimentlar, multimedia yondashuvlar, xalqaro ta’sirlar va raqamli muhitdagi transformatsiyalar orqali ifodalanadi.

Dialektika – qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi haqidagi falsafiy ta’limot. Shu nuqtai nazardan qaralganda, an‘ana va innovatsiya bir-biriga zid emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi, rivojga xizmat qiluvchi kuchlar sifatida qaraladi. An‘anasiz innovatsiya ildizsiz daraxtga o‘xshasa, yangilanishsiz an‘ana muzlab qolgan, hayotiyiligini yo‘qotgan qolipga aylanadi. O‘zbek milliy musiqasi ushbu dialektikani o‘z tabiatida mujassam etgan. Quyida bir nechta muhim holatlar misolida bu holat yoritiladi:

1. Shashmaqom san‘atida uyg‘unlik. Shashmaqom asrlar davomida og‘zaki ijod sifatida saqlangan bo‘lsa-da, hozirda u notaga tushirilgan, sahnalashtirilgan, akademik ijro san‘atiga aylantirilgan. Innovatsion yondashuv sifatida:

- Shashmaqom kamer orkestrlari, teatr sahnalari, zamonaviy vizual effektlar orqali namoyish qilinmoqda;

- Multimedia vositalari yordamida virtual maqom darsliklari, audio-disklar, AR/VR formatdagi loyihalar yaratilmoqda.

2. Baxshichilikda yangi nafas

Baxshichilik an'anasini saqlagan holda, yosh ijrochilar uni rap, spoken word, elektron musiqa bilan sintez qilishmoqda. Bu orqali:

- Yoshlarda qiziqish uyg'onmoqda;
- An'anaviy she'riy formalar zamonaviy muhitda yashay boshladi.

3. Dutor va tanbur ijrochiligida zamonaviy amplifikatsiya

Milliy cholg'ular ilgari tabiiy tovushda yangragan bo'lsa, endilikda:

- Effektlar bilan boyitilgan ijro texnikalari;
- Sahnaviy yoritish, professional audio-ovozlash orqali ular yangi ohangda eshitilmoqda.

Ta'lim va ilmiy izlanishlarda dialektik yondashuv. Musiqa ta'limi tizimida ham an'ana va innovatsiya dialektikasi aniq ko'zga tashlanadi:

An'ana	Innovatsiya
Ustoz-shogird an'anasi	Raqamli platformalarda musiqa darslari (Musiqa.edu.uz)
Og'zaki yod olish	Notaga asoslangan ijro va QR-kodli darsliklar
Sinfy ansambllar	Onlayn orkestrlar, virtual konsertlar
Mahalliy maktablar	Xalqaro master-klasslar, ZOOM orqali mashg'ulotlar

Madaniyat siyosatida dialektik yondashuv. Davlat siyosatida ham an'anani asrab-avaylash va innovatsiyani targ'ib qilish birgalikda olib borilmoqda:

- "Maqom" va "Baxshichilik" xalqaro festivallarining o'tkazilishi – bu an'anaviy ifoda shakllarini saqlash;
- Raqamlashtirish, kontent yaratish, madaniy xizmatlar eksporti – bu innovatsion yondashuvlar;
- 2023-yilda Prezident tomonidan ilgari surilgan "Madaniy meros yili" doirasida 1400 dan ortiq musiqa asarlari raqamlashtirildi.

Dialektika – uyg'unlik manbai sifatida. An'ana va innovatsiya qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi ikki kuch sifatida qaralishi lozim. O'zbek milliy musiqasining bugungi taraqqiyoti aynan an'anani zamonaviy ifoda bilan uyg'unlashtirish orqali davom etmoqda. Bu uyg'unlik orqali milliy musiqa xalqaro miqyosga chiqmoqda, yangi avlod qalbida o'zlik tuyg'usi shakllanmoqda, estetik madaniyat rivojlanmoqda. O'zbek milliy musiqa merosi an'analar asosida shakllangan bo'lsa-da, u bugungi kunda innovatsion jarayonlar ta'sirida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda eng muhim omil — tarixiy xotirani saqlagan holda, yangi avlod didiga mos musiqiy shakl va uslublarni ishlab chiqishdir. Shunday ekan, an'ana va innovatsiya o'rtasidagi dialektik uyg'unlik

O‘zbek musiqa san’atining barqaror va zamonaviy rivoji uchun asosiy kalit bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Al-Farobiy. *Musiqa ilmi haqida kitob*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2013. – 248 b.
2. Beruniy A. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. – Toshkent: “Fan”, 1976. – 320 b.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch*. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 170 b.
4. Jo‘rayev N. *Maqom san’ati va milliy o‘zlik*. – Toshkent: O‘zRFA Matbuot xizmati, 2017. – 112 b.
5. Inoyatov U. *O‘zbek musiqa madaniyati tarixi*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1994. – 214 b.
6. Xakimov N. *Shashmaqom: tarix, tizim va estetik tahlil*. – Buxoro: “Buxoro”, 2020. – 160 b.
7. Rashidov M. *Musiqa va zamonaviylik: innovatsion yondashuvlar*. – Samarqand: “Zarafshon press”, 2021. – 135 b.
8. UNESCO Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatlari. – www.unesco.org
9. “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” (2022-yil 23-avgustdagi Prezident qarori PQ-366-son). – Lex.uz.
10. Bobomurodov A. *Folklor va zamon: yangilanish yo‘llari*. – Toshkent: “Akademnashr”, 2022. – 185 b.
11. Turg‘unov A. *Musiqa va ta’lim: zamonaviy metodik yondashuvlar*. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. – 143 b.

Norqo‘ziyev Murod Madaminovich,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası o‘qituvchisi

MILLIY CHOLG‘ULAR ASOSIDA YOSH MUSIQACHILARNI TARBIYALASHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy cholg‘ular asosida yosh musiqachilarni tarbiyalashda innovatsion pedagogik yondashuvlarning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilinadi. Milliy musiqa merosini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali yosh avlodda ijodiy tafakkur, milliy g‘urur, estetik did, ijtimoiy faollik va madaniy ongni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. O‘quv dasturlarining milliy cholg‘ular asosida yangilanayotgan zamonaviy modellariga, ustoz-shogird an‘analarining raqamli shakllariga, virtual ta’lim muhitining afzalliklariga ham e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Milliy cholg‘ular, musiqa ta’limi, yosh musiqachilar, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi, estetik tarbiya, xalq ijodi, pedagogik integratsiya, milliy identitet.*

Annotation: *This article comprehensively analyzes the role and importance of innovative pedagogical approaches in the modern educational process in educating young musicians based on national instruments. The possibilities of forming creative thinking, national pride, aesthetic taste, social activity and cultural awareness in the younger generation by combining national musical heritage with modern digital technologies are considered. Attention is also paid to modern models of educational programs updated based on national instruments, digital forms of teacher-student traditions, and the advantages of a virtual educational environment.*

Keywords: *National instruments, music education, young musicians, innovative pedagogy, digital technologies, STEAM approach, aesthetic education, folk art, pedagogical integration, national identity.*

Globalashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy xilma-xillik sharoitida milliy musiqiy merosimizni asrash, rivojlantirish va avlodlar ongiga chuqur singdirish jarayoni yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Xususan, musiqa ta'limida milliy cholg'ularni pedagogik faoliyatning markaziga aylantirish, ularni raqamli vositalar, innovatsion metodikalar orqali o'qitish, yoshlarning ijodiy salohiyatini, milliy o'zligini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy cholg'ular — bu o'zbek xalqining ruhiy, estetik va tarixiy xotirasi mujassam bo'lgan san'at vositasi. Har bir cholg'u o'z timsoli, badiiy mazmuni va musiqiy ohangi orqali yosh avlodni milliy g'urur va estetik zavqqa oshno etadi. Bu asboblardan orqali yosh musiqachilarni nafaqat texnik mahoratga, balki milliylik va san'atni teran anglashga yo'naltirish mumkin.

Milliy cholg'ular (dutor, rubob, gijjak, tor, doira, karnay-surnay, nay va boshqalar) xalqimizning ko'p asrlik musiqiy tafakkuri mahsulidir. Ular o'zbek xalqining madaniy arxetiplarini ifodalaydi va yoshlarning ruhiy dunyosini boyitishda alohida o'rin tutadi. Har bir cholg'u o'zining semantik ramzi, estetik xarakteri va ovoz palitrasi orqali did tarbiyasi, sabr, e'tibor, ijodiy tafakkur, ijtimoiy ong singari muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Misol uchun, dator orqali kuy chertish jarayonida yosh ijrochining nozik hissiyotlari, barmoq mosligi, ruhiy holati ohangda mujassam bo'ladi. Gijjak yoki rubob esa egiluvchanlik, ohangdoshlik, tafakkur uyg'unligini talab qiladi. Bu esa yosh musiqachining nafaqat san'at bilan shug'ullanishini, balki intellektual va ruhiy kamolotga erishishini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion metodlar asosida ishlash o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy omilga aylanmoqda. Musiqa ta'limida esa bu yondashuvlar quyidagi shakllarda namoyon bo'lmoqda:

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) modeli asosida o'qitish. Bu yondashuv orqali cholg'ular fizikasi, tovush tebranishi, raqamli yozuvlar, akustika kabi fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rgatiladi. Misol uchun, doira yoki karnay tovushlarining akustik tahlili orqali fizika o'qitilishi mumkin. Bu o'z navbatida o'quvchining analitik tafakkurini ham rivojlantiradi.

Interaktiv uslublar. "Aqliy hujum", "rolli o'yin", "mahorat darslari", "klaster", "konsert-mashg'ulot" kabi metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy ishtiroki oshiriladi. Ayniqsa, "ustoz-shogird" asosidagi interaktiv mashg'ulotlar yoshlar qalbiga musiqaning mohiyatini chuqur singdiradi.

Raqamli texnologiyalar. Bugungi kunda ko'plab raqamli platformalar, mobil ilovalar, virtual cholg'ular mavjud. "Virtual dator", "Rubob simulator" kabi dasturlar orqali o'quvchilar uydan chiqmagan holda ham cholg'u chalishni

mashq qilishi mumkin. Bu esa ta'limni shaxsiylashtirishga, mustaqil o'rganishga xizmat qiladi.

Onlayn ustoz-shogird maktablari. Ustozlar tomonidan raqamli shaklda darslar, maslahatlar, ko'rsatmalar berilishi, shogirdlar esa onlayn ijro, bahs-munozaralar, ijodiy duetlar orqali faol qatnashishi mumkin. Bu orqali an'anaviy metod raqamli makon bilan uyg'unlashadi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida milliy musiqa asboblari o'qitish innovatsion pedagogika bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilg'or tajribalarni o'rganish, O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha asosli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Xitoy – milliy cholg'ularni ta'lim tizimiga majburiy fan sifatida kiritish

Xitoyda milliy cholg'ular – erhu (ikki torli skripka), guzheng (ko'p torli sitora), pipa (to'rt torli torli cholg'u) ta'lim tizimining barcha bosqichlarida majburiy o'rgatiladi. Xitoy Musiqa Akademiyasi bu cholg'ular uchun virtual darsxona, onlayn master-klasslar, 3D modelda cholg'u tuzilmasini o'rganish kabi texnologik echimlar ishlab chiqqan. Bu esa yoshlar orasida milliy musiqa asboblari qiziqishni sezilarli oshirgan.

Turkiya – maktabgacha ta'limdan boshlab musiqiy milliylikni shakllantirish. Turkiyada bag'rikancha (baglama) nomli milliy cholg'u asbobi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan miniatyura modellar orqali o'rgatiladi. Interaktiv darsliklar, audio-disklar va animatsion videodarslar asosida o'quvchilarning cholg'u bilan tanishuvi erta yoshdan boshlanadi. Bu model Turkiya Milliy Ta'lim vazirligi tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi.

Janubiy Koreya – raqamli platformalarga asoslangan "Milliy cholg'ular kutubxonasi". Koreyada gayageum, janggu, daegeum kabi an'anaviy cholg'ularni o'rganish uchun onlayn platformalar mavjud. Masalan, *Korea Traditional Music Learning Center* virtual kutubxona, video-darslar, 3D animatsiyalar orqali darslarni taqdim etadi. Bundan tashqari, har yili "Milliy cholg'ular festivali" orqali yosh ijrochilar rag'batlantiriladi [4].

Vengriya – Kodaly metodikasi orqali milliy cholg'ularni tizimli o'rgatish. Zoltan Kodaly nomi bilan ataluvchi mashhur metodikada xalq kuylariga asoslangan xor, cholg'u va harakatli musiqa mashg'ulotlari maktab darslariga integratsiya qilingan. Bu yondashuvda bolalar avval xalq kuylari orqali ritm va intonatsiyani o'rganib, keyin cholg'ularga o'tishadi. Bu metod ko'plab Yevropa davlatlarida ham qo'llanmoqda [5].

Hindiston – guruhli o'qitish orqali milliy cholg'ularni estetik va diniy tarbiyada qo'llash. Hindistonning an'anaviy cholg'ulari – sitar, tabla, bansuri, veena va boshqalar diniy marosimlar va madaniy bayramlar orqali yoshlar ongiga singdiriladi. *Gurukul* usulida, ya'ni ustoz va shogirdlar birgalikda yashab,

musiqani amaliy va nazariy jihatdan o'rganadilar. Hind musiqa universitetlarida esa har bir talaba kamida ikki xil milliy cholg'uni mukammal o'zlashtirishga majburdir [6].

Xorij tajribasini tahlil qilib, quyidagi muhim takliflarni ilgari surish mumkin:

Xorij tajribasi	O'zbekiston ta'limiga integratsiya bo'yicha taklif
Xitoyda virtual cholg'ular laboratoriyasi	“Virtual dutor akademiyasi” dasturini yaratish
Turkiyada maktabgacha yoshdan cholg'u	Bog'cha uchun oddiy doira, dutor maketlari ishlab chiqish
Koreyada milliy cholg'ular kutubxonasi	“O'zbek cholg'ulari online” portalini ishga tushirish
Vengriyada xalq kuylariga asoslangan metodika	O'zbek xalq kuylari asosidagi bosqichli metodikani ishlab chiqish
Hindistonda gurukul modeli	Onlayn ustoz-shogird “Ijro maktabi” loyihasini yo'lga qo'yish

Quyidagilar milliy cholg'ular asosida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi:

1. Milliy cholg'ularni ta'lim standartlariga asosiy modul sifatida kiritish;
2. “Virtual cholg'ular laboratoriyasi” tashkil etish – interaktiv dasturlar, mobil ilovalar orqali;
3. STEAM va CLIL yondashuvlarini musiqa ta'limiga moslashtirish;
4. Mahalliy cholg'u maktablarini hujjatlashtirish, raqamlashtirish va ommalashtirish;
5. Maktablarda “Cholg'ular klubi” asosida ixtisoslashgan mashg'ulotlar tashkil etish;
6. Raqamli ustoz-shogird maktablari: onlayn darslar, tanlovlar, ijodiy loyihalar asosida tashkil etish [7, 24].

Milliy cholg'ular asosida yosh musiqachilarni tarbiyalash — bu nafaqat san'at, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik didi, ma'naviy qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish demakdir. O'zbekiston musiqa ta'limi tizimida milliy cholg'ularni o'rgatish borasida an'anaviy tajriba etarlicha bo'lsada, zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa:

- raqamli texnologiyalarni musiqa ta'limiga tatbiq etish,

- virtual va interaktiv vositalar orqali cholg'ularni o'rganish tizimini shakllantirish,
- ustoz-shogird an'analarini zamonaviy shakllarda davom ettirish,
- xorijiy ilg'or tajribalarni o'z milliy kontekstimizga moslashtirish orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish mumkin.

Xususan, Xitoy, Turkiya, Koreya, Vengriya va Hindiston kabi davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, milliy cholg'ularni o'qitishda innovatsion texnologiyalar, metodik yondashuvlar va madaniy-milliy omillarni uyg'unlashtirish yosh avlodda san'atga daxldorlik tuyg'usini kuchaytiradi. Shu bois, O'zbekiston sharoitida ham:

- "Virtual dutor", "Onlayn doira maktabi", "O'zbek cholg'ulari multimedia platformasi" kabi tashabbuslar amalga oshirilishi,
- pedagoglar uchun maxsus o'quv-uslubiy qo'llanmalar va raqamli resurslar yaratilishi,
- xalq ijodi va an'anaviy cholg'ular bo'yicha festival va tanlovlar tashkil qilinishi lozim.

Bu yondashuvlar nafaqat musiqiy savodxonlikni oshiradi, balki yosh avlodda milliy g'urur, estetik dunyoqarash va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. (2023). *Safeguarding Traditional Music Instruments: Cultural Heritage and Education*. URL: <https://ich.unesco.org/en/what-we-do>
2. China Conservatory of Music. *Traditional Chinese Instruments and Digital Learning Platforms*. URL: <http://en.ccmusic.edu.cn/>
3. Turkish Ministry of National Education. *Baglama in Preschool Curriculum: Pedagogical Strategy*. URL: <https://mufredat.meb.gov.tr>
4. Korea National Gugak Center. *Online Traditional Music Archive and Virtual Lessons*. URL: <https://www.gugak.go.kr>
5. Kodály Institute of the Liszt Ferenc Academy of Music. *Kodaly Concept in Music Education*. URL: <https://kodaly.hu>
6. Indian Ministry of Culture. *Gurukul Pedagogy and Sitar Learning Systems in India*. URL: <https://indianculture.gov.in>
7. Axmedova, M. (2020). *Milliy musiqa madaniyati va raqamli ta'lim integratsiyasi*. // Pedagogika va san'at jurnali, №3, 24–29-6.
8. Xayrulla Lutfullayev. (2024). *Ijod va xotira uyg'unligi: o'zbek cholg'ularining estetik mohiyati*. – T.: "San'at" nashriyoti.

Tojiboyeva Sharofat Ergashovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Milliy qo'shiqchilik” kafedrası dotsenti,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsangan artist

MUSIQA YOSHLARNI IJTIMOIIY FAOLLIKKA UNDOVCHI KUCH SIFATIDA: MILLIIY VA GLOBAL TAJRIBALAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqaning yoshlarni ijtimoiy faollikka undovchi vosita sifatida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Musiqaning ijtimoiy ongini shakllantirish, dolzarb muammolarga e'tibor qaratish va yoshlarni ijtimoiy harakatlarga jalb etishdagi roli milliy va global tajribalar asosida yoritiladi. Xususan, O'zbekistonda milliy va zamonaviy musiqa janrlari orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish tendensiyalari hamda xalqaro miqyosdagi ilg'or musiqiy tashabbuslar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada statistika va tadqiqotlar asosida musiqaning yoshlar ongiga ta'siri yoritilib, bu borada samarali strategiyalar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *musiqa, yoshlar, ijtimoiy faollik, milliy musiqa, global tajriba, musiqiy ta'sir, ijtimoiy ong.*

Abstract: *This article analyzes the role of music as a means of motivating young people to social activism. The role of music in forming social consciousness, drawing attention to current problems, and involving young people in social movements is highlighted on the basis of national and global experiences. In particular, the trends in increasing the social activism of young people through national and modern musical genres in Uzbekistan and advanced musical initiatives at the international level are analyzed. The article also highlights the impact of music on the consciousness of young people based on statistics and research, and proposes effective strategies in this regard.*

Key words: *music, youth, social activism, national music, global experience, musical influence, social consciousness.*

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Musiqa esa nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi san'at turi, balki ijtimoiy ongini shakllantirish va faollikni oshirish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo'ylab o'tkazilgan

tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning taxminan 70% musiqa orqali ijtimoiy mavzularga qiziqish bildiradi va ularning 45% ijtimoiy faollik bilan shug'ullanishga musiqaning bevosita ta'sir qilganini tan oladi. O'zbekistonda ham milliy va zamonaviy musiqiy yo'nalishlar yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etishda muhim vosita sifatida foydalanilmoqda. Ushbu maqolada musiqaning yoshlar ijtimoiy faolligiga ta'siri, milliy va global tajribalar misolida tahlil qilinadi. Bunda ijtimoiy masalalarni yorituvchi qo'shiqlar, musiqiy festival va tadbirlar, xayriya konsertlari, shuningdek, internet va ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan musiqiy harakatlarning yoshlar orasidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Musiqa va yoshlarning ijtimoiy faolligi o'rtasidagi bog'liqlik. Musiqa inson his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, yoshlar orasida musiqa turli ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratish va faollikni oshirish vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Musiqa orqali jamiyatdagi dolzarb muammolar yoritiladi va bu yoshlarni o'z pozitsiyasini shakllantirishga undaydi.

- **Ijtimoiy muammolarni yoritish:** Ko'plab san'atkorlar o'z qo'shiqlarida korrupsiya, ekologiya, gender tengligi, inson huquqlari kabi mavzularni yoritib, yoshlarning ushbu masalalarga bo'lgan e'tiborini oshirishga xizmat qilmoqda.
- **Yoshlarning faolligini oshirish:** Musiqa ijtimoiy harakatlarga jalb qilish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Misol uchun, dunyo bo'ylab "We Are the World" kabi loyihalar yoshlarni xayriya ishlari va ijtimoiy tashabbuslarda faol ishtirok etishga undaydi.
- **Musiqaning jamiyatdagi o'zgarishlarga ta'siri:** Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, musiqa madaniy va siyosiy o'zgarishlarni rag'batlantirgan. Masalan, 1960-yillardagi AQShda fuqarolik huquqlari harakatida qo'shiqchilar va musiqiy jamoalar muhim rol o'ynagan.
- **Musiqa orqali yoshlarning fikrini ifodalashi:** Bugungi kunda hip-hop, rep va estrada janrlarida ko'plab yosh ijodkorlar o'zlari duch kelayotgan muammolarni aks ettiradi. O'zbekiston misolida aytganda, ba'zi rep ijrochilari yoshlarning hayot tarzi, ta'lim, ish topish va ijtimoiy adolat masalalariga e'tibor qaratmoqda.
- **Virtual dunyo va musiqa:** Internet platformalari, jumladan, YouTube, TikTok va Instagram orqali ijtimoiy mavzulardagi qo'shiqlar juda tez tarqalmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida musiqa orqali muhim mavzular bo'yicha muhokamalar olib borishga turtki beradi.

Musiqa orqali ijtimoiy faollikka chorlovchi milliy tajribalar O'zbekistonda musiqa yoshlarning milliy ongini shakllantirish va ularni ijtimoiy masalalarga jalb etish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Milliy musiqa janrlari va

zamonaviy musiqiy yo‘nalishlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

- Milliy va folklor musiqalar orqali yoshlarning milliy qadriyatlarni anglashiga ko‘maklashish;
- Zamonaviy estrada va rep janrida ijtimoiy muammolarni yorituvchi qo‘shiqlar;
- Musiqiy festival va tadbirlar orqali yoshlarni birlashtirish va ularning faolligini oshirish.

Global miqyosdagi ilg‘or tajribalar: Jahon tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, ko‘plab mamlakatlarda musiqa yoshlarni ijtimoiy faollikka undovchi asosiy vositalardan biri sifatida foydalanilmoqda. Xususan:

- AQSh va Yevropada musiqa ijtimoiy va siyosiy harakatlarning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Hip-hop, rock, reggae janrlarida yaratilgan qo‘shiqlar irqiy tenglik, atrof-muhit muhofazasi va tinchlik kabi masalalarga e‘tibor qaratadi.
- Global miqyosda “Live Aid”, “Global Citizen” va “Playing for Change” kabi loyihalar millionlab yoshlarni ijtimoiy faollikka chorlab, muhim global muammolar bo‘yicha xabardorlikni oshirmoqda.
- Janubiy Koreyada K-pop ijodkorlari atrof-muhit muhofazasi, ruhiy salomatlik va ta‘lim masalalarida ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surib, yoshlarni ushbu harakatlarga jalb qilmoqda.
- Afrikadagi musiqiy dasturlar orqali qashshoqlik, gender tengligi va ta‘lim muammolari yoritilib, xalqaro miqyosda hamkorlik va o‘zgarishlarga turtki berilmoqda.

Xulosa. Musiqa yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda muhim vosita bo‘lib, u jamiyatdagi dolzarb masalalarga e‘tibor qaratish, ijtimoiy ongni shakllantirish va o‘zgarishlarga undashda katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston va jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, musiqa orqali yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undash imkoniyatlari keng. Shu bois, milliy va xalqaro musiqiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodning faolligini oshirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qo‘shiqov A. “Musiqa san‘ati va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni”. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2015.
2. Hasanov B. “Musiqaning yoshlar tafakkuriga ta‘siri”. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2018.
3. Rajabov H. “Zamonaviy estrada va yoshlar: O‘zbekistondagi tendensiyalar”. – Toshkent: Fan, 2020.

4. Toshpulatov U. “Madaniyat va san’atning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri”. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
5. Yoqubov I. “Folklor va yoshlar: An’analar va zamonaviylik uyg’unligi”. – Toshkent: Sharq, 2016.
6. Karimova D. “Milliy musiqiy meros va uning yoshlar ongida aks etishi”. – Toshkent: O‘zR FA Nashriyoti, 2019.
7. Xolmirzayev A. “Musiqiy ta’lim va ijtimoiy ong shakllanishi”. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
8. Raximov F. “Globallashuv va milliy musiqa: Yoshlar dunyoqarashida aks etishi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
9. Abdullayev O. “Musiqa va tarbiya: Yosh avlodga ta’siri”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
10. Ismoilov Sh. “Zamonaviy axborot maydonida musiqaning o‘rni”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

Matyakubov Shavkat Botirovich,

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

"An'anaviy xonandalik" kafedrası professori v.v.b.

MAQOMLARNI O'RGATISHDA USTOZ-SHOGIRD

AN'ANALARINING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maqom xonandalarini qadimiy usul bo'lmish ustoz-shogird an'analari orqali o'qitishning ilg'or tajribalari haqida so'z boradi. Shuningdek, bu an'anani davom ettirish uchun ustoz va shogirdlarga qo'yilgan talablar hamda o'quv jarayoniga biriktirish muhim vazifalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *hunarmand, ustoz-shogird an'analari, maqom, xonandalik, hamnafaslik, jo'rovozlik, ansambl, turkum, qobiliyat.*

Abstract: *This article discusses the best practices for training maqom singers using the ancient method of the teacher-student tradition. Also, in order to continue this tradition, requirements for teachers and students and important tasks that should be attached to the educational process are given.*

Key words: *craftsman, traditions of the master-pupil, status, singing, harmony, jazz, ensemble, category, abilities*

Hunarmandchilikda, kosiblikda inson o'z qo'li bilan yaratgan mahsulotini ko'paytirgani sari ishlanadigan ashyo takomillashib, tobora yaxshilanib boradi. Hunarmandlar erishgan bilim va malakalarini davom ettirish maqsadida o'z hunarini farzandiga yoki shogirdiga o'rgatgan kunidan boshlab ustozdir. O'rganayotgan farzand yoki tarbiyalanuvchi shogird bo'ladi, shu yo'sinda ustoz-shogirdlik an'anasi rivojlandi. Musiqa sohasidagi ustoz-shogirdlik an'anasining tarixiy takomili aynan ustoz bilimlarini yosh avlodga qoldirish maqsadida, hunarini, ijro uslubini davom etishini xohlagan xonanda ta'lim-tarbiya jarayoni bo'lmish ustoz-shogirdlik an'anasini o'ziga xos tarzda yaratadi va har bir ustoz mazkur an'anani takomillashtirib boradi. Maqom xonandaligida ustoz-shogird an'anasi qachon va qayerda paydo bo'lgani mavhum, ammo ustozlarimizning fikriga ko'ra saroyda maqom san'ati paydo bo'lishi, taxminan IX-XI asrlar davriga to'g'ri keladi. Maqom san'ati muhtasham saroy faoliyati bilan bog'liq bo'lganligi uchun ustoz-shogird an'analari ham shu davrlarga to'g'ri keladi degan, taxminlar bor. Saroy muhitida paydo bo'lgan musiqiy nag'malar asta-

sekin turkumlashadi, ularda lad birliklari jinslar orqali o'lganib, navbati murattab – turkumlashish jarayoni vujudga keladi. Bora-bora bu musiqiy birlik ilm darajasiga etadi. Saroy sozandalari shu bilim va ko'nikmalarni yosh avlodga qoldirish uchun iqtidorli yoshlarni o'zlariga shogird qilib, maqomlarni o'rgata boshlaydilar. Asrlar davomida ustozlarda ashula o'rgatish uslubi paydo bo'ladi, shogirdni kamolga etguniga qadar uzluksiz ta'lim jarayoni vujudga keladi va ustoz-shogird silsilasi shu yo'sinda paydo bo'ladi.

Musiqqa san'ati haqida Amir Unsurul maoliy Kaykovusning farzand tarbiyasiga bag'ishlangan "Qobusnoma" risolasining o'ttiz oltinchi – "Hofiz va sozandalik zikrida" nomli bobida bayon etilishicha, musiqqa ilmining ustodlari ushbu muallif yashagan davrda xalqning har bir tabaqasi tabiatiga mos ravishda kuylar tuzishgan ekan. Bunday tabaqalardan biri esa yosh bolalar va nozikta'b kishilar, ya'ni ayollar bo'lishgan. "Bu qavm uchun – deb uqtiriladi asarda, – taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar. Chunki hamma vaznlarning orasida taronadin yoqimli vazn yo'qdur"⁴.

Allomalarimiz ustoz odobining sakkiz shartini sanab o'tganlar.

1. O'quvchilarga nisbatan shafqatli bo'lishi va ularga o'z bolalari kabi muomalada bo'lishi;

2. Ustoz ilm o'rgatish va tarbiya berish uchun haq talab etmaslik;

3. O'quvchiga qilinishi lozim bo'lgan nasihatlardan hech birini qoldirmasligi;

4. Ta'lim san'atining nozik jihatlaridan biri, muallim o'quvchining yomon axloqini oshkora emas, balki imkoni boricha o'ziga ko'rsatish yo'li bilan tuzatishi;

5. Ilmlardan ba'zilarini o'rganayotgan o'quvchiga boshqa ilmlarni yomon ko'rsatmasligi;

6. O'quvchiga ilmni fahm-farosati va qobiliyatiga yarasha ilm o'rgatishi;

7. Zehni past o'quvchiga o'ziga xos tarzda yondashib, imkoniyati aqli etmagan narsalarga undamaslik;

8. Ustoz o'z ilmiga amal qilishi lozimligiga urg'u berilgan.

"Forobiy ustoz qiyofasida quyidagi fazilatlar mujassam bo'lmog'i lozim"⁵deb hisoblaydi:

- o'tkir va uzoqni ko'ra oladigan aql sohibi;
- o'z bilimlarini o'quvchilarga bera olishi va bu faoliyat hamrohi bo'lgan mashaqqatli mehnatdan xormasligi va tolmasligi;
- haqiqat va unga intiluvchilarni sevishi;
- yolg'on va uni shior qilib olganlardan g'azablanishi;

⁴ Dolimov S. Kaykovus. Qobusnoma. Fors tilidan Ogahiy tarjimasi, Toshkent, 2006.– 54 bet.

⁵ Xayrullayev M. M., Abu Nasr Forobiy, Toshkent, 1966. – 46 bet.

- magʻrur ruhga ega boʻlishi va oʻz shaʼnini yuksak tutishi;
- oʻz shogirdlariga adolatli munosabatda boʻlishi;
- qoʻyilgan maqsadga erishishda qatʼiylilik koʻrsata olishi va boshqalar.

Ustoz-shogird anʼanalari barcha kasbda boʻlgani kabi maʼlum bir ilmni, amaliyotni, sanʼatni, kelajak avlodga etkazuvchi pedagogik jarayonlardir. Mazkur anʼananing mazmun mohiyati – qoʻlga kiritilgan kerakli bir tajribani kelgusi avlodlarga jonli ravishda etkazishdan iborat. Asrlar davomida ustoz-shogird anʼanalari takomillashib, bugungi kunda ham zamonga moslashib, hatto oʻquv jarayonida oʻz oʻrnini topdi. Maqom xonandaligida ustoz-shogird anʼanalari yakka xolda dars oʻtishi va har bir shogirdga oʻziga xos yondashilishi bilan oʻziga xosdir. Ustoz uchun har bir shogird farzandidek qadrli boʻladi. Oʻz oʻrnida shogirdlar ham ustozini otasidek hurmat qilib eʼzozlaydi. Sozandalik yoki xonandalikni oʻrganish maqsadida kelgan talabaga har bir ustoz oʻziga xos yoʻnalishda va uslubda dars bergan. Biror murakkab asar ijrosini oʻrganmoqchi boʻlgan shogirdga darhol shu asarni ijro ettirmaganlar. Avvalo bu asar ijrosiga talabani bir nechta dars mobaynida tayyorlab borganlar. Shogird ham ijro jihatdan, ham ruhan ana shu murakkab asarga tayyor boʻlgandagina ustoz oʻrgata boshlagan. Ustoz-shogird anʼanalari shakllanib, maʼlum mahorat maktablariga aylangan, hozirgi kungacha taʼlim sifatida qoʻllanilib kelinmoqda. Ularning har biri oʻziga xos boʻlib, oʻrni va ahamiyati juda beqiyos boʻlgan. Mazkur anʼanalarni zamonaviy shaklga olib kelish uchun yana qoʻshimcha chora-tadbirlar qoʻllash muhim omillardan biriga aylandi. Ustoz-shogird anʼanalarining bugungi kundagi maʼlum mezonlari:

1. Maqomlarning ijrosini yangilash, yaʼni talabalarning oʻzlariga hatosiz ravishda oʻrgatib zamonaviy texnika orqali yozdirib talabalarga dars sifatida koʻrsatish;

2. Bunda Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Fargʻona – Toshkent maqomlarini yosh ovozlardagi ijrosini shakllantirish zaruriyati shundaki: xonanda-talabalarga Yunus Rajabiy maqom ansambli ijrosidagi yoshi katta xonandalar ovozlari murakkab boʻlib tuyuladi, maqomlarni oʻzlashtirishdagi dastlabki bosqichda ashulalarni yosh ovozlar ijrosida eshitib oʻz ovozini shakllatirishi muhim oʻrin tutadi.

3. Xonandalik ovozlari sozlash orqali musiqiy bezaklarni bir meyyorga keltirib, maqomlarning ijrosi mukammallashadi. (Bu ish allaqachon boshlab yuborilgan va “Maʼnaviyat va maʼrifat” telekanalidagi “Maqom saboqlari” va “Navo” telekanalidagi “Zebo pari” koʻrsatuvlarida qisman oʻz aksini topgan.)



4. Maqomlarning ijrosida dastlabki pardada ovoz muqim o'rnashishi muhim omil sanaladi. Shunga ko'ra boshlang'ich pardadan yuqorilab borishi hamda qaytib tushishdagi ovoz qaltirashi, aniq pardadan chetlashishi kabi nosozliklarni to'g'rilash, ovoz ishlatishdagi mahoratini oshirish ham ko'zda tutiladi. Ayni xolatda ustoz talaba bilan har bir tovush borasida ish olib borishi muhim vazifa hisoblanadi.

5. Harflar talaffuziga bag'ishlangan ovoz sozlash mashqlarini ishlab chiqilishi zarur. Har bir ovoz registrda harflar turlicha talaffuz etiladi. Pastki registrda oddiy gapirgadek burro talaffuz etilsa, o'rta va yuqori registrlarda unli tovushlar orqali undosh tovushlar ham jaranglashi hamda avj qismida so'z aytish garchi qiyin bo'lsa ham og'izni kerakli darajada ochib, artikulyatsiyani xolatga moslab, har bir so'zni tushunarli ijro etish yo'llarini har bir xonanda individual tarzda yondashishi kerak.

6. Ashulalarni ijro etishda soʻzlarni toʻgʻri boʻlinishlarga eʼtibor qaratish kerak. Unda musiqiy jummalarda kamchilik boʻlmasligi, soʻzlar oʻrtasidan boʻlinib qolgan yarmi boshqa soʻz bilan birikib, soʻz matni tushunarsiz boʻlishini oldini olish zarur. Ustoz-shogird anʼanalarida soʻzlar oʻrtasidan boʻlingan ammo oʻsha davrdagi tinglovchi aruzni tushungan, kerak boʻlsa ashula soʻzlarini yoddan bilgan. Zamonaviy tinglovchiga milliy anʼanalarimizni etkazish uchun musiqiy matn bilan birga soʻzni ham toʻliq tushuntirish muhimdir.

7. Ustoz-shogird anʼanalariga asoslangan holda maqomlar ijrosining maʼlum bir mezonini, yaʼni ideal namunasini oʻquv dargohlarida joriy etish kerak. Talabalar mazkur ijrochilik maktabi orqali maqomlarni oʻzlashtirsa, har bir talaba oʻqishni tamomlagach mustaqil xonanda sifatida ijod qilganida oʻz yoʻli, ijro uslubini yaratishda ijrochilik maktabi haqidagi tasavvurni shakllatirishda yordam beradi.

8. Guruhli ijrolar, yaʼni xonandalar ansambllari ijrolaridagi talaffuz, artikulyatsiya va musiqiy bezaklarni bir meyyorga keltirish uchun ovoz sozlashning guruhli shaklini ishlab chiqish lozim. Bu mashqlar asosan xonandalar ansambli darsi boshlanishidan oldin ovoz sozlash mashqlari sifatida bajarilishi zarur.

9. Ovoz sozlash darslarini talaba qaysi maqom ijro etsa shu maqom pardalaridagi mashqlar orqali bajarish tavsiya etiladi. Bundan tashqari oʻsha maqomda uchraydigan namudlarni turli pardalarda kuylatish ham foydadan xoli boʻlmaydi.

10. Asarlarni ovozlarga ajratish, ashulalarning oʻgʻil bolalar, qizlar va yuqori ovozlarga ajratib kuylatishda maʼlum bir uslub shakllangan. Mazkur uslubni yanada takomillashtirish, zamonaviy eshituvchiga moslashtirish yoʻllarini topish muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Dolimov S. Kaykovus. “Qobusnoma” Fors tilidan Ogahiy tarjimasi, Toshkent, 2006 y.
2. Xayrullayev M. M., “Abu Nasr Forobiy” Toshkent, 1966 y.
3. Matyakubov Sh. “Maqom xonandaligida ustoz-shogird anʼanalari” Toshkent, 2025 y.

Arzimurodova Nigora Samarovna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası o‘qituvchisi

MILLIY MAQOM SAN’ATINI YOSHLAR QALBIGA SINGDIRISH HAMDA BU BORADA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bizning bebaho boyligimiz bo‘lmish milliy maqom san’atini yoshlar qalbiga chuqur singdirish hamda bu borada olib borilayotgan samarali ishlar haqida so‘z boradi. Shu bilan birgalikda maqom san’atining tarixiy ildizlari, kelib chiqishi hamda mustaqillikdan so‘ng maqom san’atiga berilayotgan e’tibor, maqom san’atini yanada ravnaq toptirish chora-tadbirlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Maqom, musiqa, mustaqillik, san’at, madaniyat, asar, ashula, qo‘shiq.*

Annotation: *This article discusses the efforts to instill our invaluable national maqom art, which is deeply rooted in the hearts of young people, and the effective work being done in this regard. At the same time, it discusses the historical roots and origins of maqom art, the attention paid to maqom art after independence, and measures to further develop maqom art.*

Keywords: *Maqom, music, independence, art, culture, work, song, chant.*

O‘zbekiston mustaqillikga erishgach, boshqa sohalarni rivojlantirish bilan birga, madaniy me’rosimiz bo‘lmish maqomlarni yanada rivojlantirish, ijrochilik san’ati va ayniqsa, maqom san’atiga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, maqom san’atining gulto’ji bo‘lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy me’rosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir.

Shuni ham aytib o‘tishimiz lozimki, ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo yosh avlodni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan etarlicha foydalanilmayapti. Mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio va televidenie, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, maqom ustalari, soha olimlari va mutaxassislarning, iqtidorli yoshlarni, yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Shu sababli ham ushbu muammolarni bartaraf etish, o‘zbek maqom san’atini chuqur o‘rganib, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, xalqaro nufuzini

oshirish va keng targ'ib qilish maqsadida mamlakatimiz prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi qarori tasdiqlandi. Qarorga ko'ra, O'zbekistonda maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijod maktablari, an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar me'rosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash, yosh avlodni maqom san'ati bilan tanishtirish, ularda milliy o'zlikni kamol toptirish, maqom san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlikda maqom san'atini chuqur o'rganish, maqom ijro yo'llarini puxta o'zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, maqomlarni yosh avlodga o'rgatib kelayotgan maqomshunos pedagog-xodimlar faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash va 2018-yildan boshlab har 2 yilda 1 marta Shaxrisabz shahrida xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish va boshqalar qarorda belgilab qo'yildi.[4,B. 5;]

Shu bilan birgalikda madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi qarorining tasdiqlanishi ham maqsadga muvofiq ish bo'ldi deyishimiz mumkin. Unga ko'ra yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan: O'zbek xalqining ko'hna va betakror san'ati namunasi bo'lgan "Xorazm lazgisi" YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritildi; Xalq cholg'ulari, milliy raqs, maqom yo'nalishlarida respublika ko'rik-tanlovlari qayta tiklandi; Mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkaziladigan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor san'ati festivali hamda "Raqs sehri" xalqaro festivali tashkil etilib, o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'alarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi:

"Barchamizga ayonki, O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz, bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda, qadrli va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va

yuksak qadrlaymiz. Ana shu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tamonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni biz o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor".

Bugun biz dunyodagi rivojlangan davlatlar bilan mustahkam aloqa o'rnatib, yurtimizda erkin va farovon jamiyat barpo etayotgan ekanmiz, san'atni, musiqani o'zimizning ma'naviy hamrohimizga aylantirmasdan turib, ana shu yuksak marralarga erishishimiz mumkin emas, albatta. Bu ma'naviy ehtiyojni anglash, ota-bobolarimiz yaratgan badiiy boyliklarni umuminsoniy mulkka aylanishiga hissa qo'shish har bir insonning muqaddas burchi hamda sharaflı vazifasidir.

Musıqa o'zining betakror tabiati bilan o'quvchılarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta'sirida o'quvchılarda hissiyot olamining o'sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilishi, go'zallikni sevish, tabiatni asrash, oila, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Musıqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. "Musıqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatish quvvatiga ega, hamonki, musıqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo'yilmog'i lozim", – deb aytgan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Arastu. Shunday ekan musiqiy ta'lim orqali o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi. Sharq olimlarining nazariy qarashlari musıqa tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musıqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Abu Nasr Muhammad Farobiyning (873-950) "Musıqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musıqa al-kabir"), Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitob ash-shifo") qomusidagi "Musıqa haqida risola", Al Xorazmiyning X asr "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216- 1294) "Oliy janoblik haqida kitob" yoki "Sharafiy kitobi", Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Musıqa haqida risola" kitoblarida musıqa ijrochiligi va xalq cholg'u asboblari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Ma'lumki maqom ta'limotini o'rganish mazkur muhtasham san'at paydo bo'lishidan boshlab vujudga kelgan. Qolaversa maqom san'atini o'rgatilishi, ta'lim shakllari uzoq o'tmishdan shakllanib bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda. Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda alohida muhim o'rin egallaydi.

Maqomlar insonning musıqa haqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan.

Barchamizga ma'lumki, Sharq xalqlari madaniyatida qadim zamonlardan beri mavjud va bizgacha etib kelayotgan maqomlar xalqning bebaho mulki sanaladi. Maqomlar bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari bo'lib, ustoz sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida sayqallanib mustaqil janr sifatida yuzaga kelgan va O'rta Osiyo musiqa madaniyatining muhim manbasidir. Maqomlarning Sharq xalqlari musiqa merosida o'rni nihoyatda beqiyos. Shu sababli ham maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etib, Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

IX-XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar va tarixiy-adabiy manbalarning ko'pchiligida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Maqomlar Sharq xalqlari musiqasining asosini tashkil etadi. Maqomlarning amaliy hamda nazariy tomonlari bor. Ularning nazariy jihatlari IX-XVII asrlarda yashab ijod etgan al-Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, ibn Sino, Urmaviy, Sheroziy, Marog'iy, Jomiy, Husayniy, Kavkabi, Darveshali Changiy singari buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan.[3, B.11;]Maqomlarning amaliy tomonlarini esa, ustoz sozanda va xonandadan shogirdga og'zaki o'tib, bizgacha etib kelgan. Maqomlarning yuzaga kelishi inson tafakkurining juda uzoq davrlarda olib borgan izlanishlarining samarasidir deyish mumkin.

Bebaho maqom san'atini yoshlar qalbiga singdirish, qalbida ushbu san'atga mehr uyg'otish barchamizning oliy maqsadimiz hisoblanadi. Maqom namunalari, bastakorlik va xalq ijodiyotining go'zal talqinlarini yosh avlodga etkazish uchun, buni avvalo maktabgacha ta'lim muassasalarida, o'rta maktablarda betakror ashula va qo'shiqlarimizni bolajonlarga yoshidan, imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'rgatish, ular bilan birgalikda kuylash amaliyotini tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda maktablarning bitiruv imtihonlarida bebaho boyligimiz sanalmish maqom asarlarini, jumladan, kichik hajmdagi ashula va maqom namunalari ijro etish, ushbu ijrolarni munosib baholash amaliyotini qo'llash kelajak avlodning milliy musiqamizga bo'lgan muhabbatini oshiradi, musiqa san'atining qalbiga jo bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda Yangi O'zbekiston muhitida ulkan tarixiy jarayonlar san'at sohasida ham o'z in'ikosini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula

yoʻnalishlari boʻyicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy taʼlim muassasasi — Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti tashkil etilganligi ham olamshumul voqea sifatida eʼtirofga loyiqdir. Mazkur institut yurtimizda maqom, xalq musiqasi, baxshichilik va katta ashula ijrochiligini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va anʼanalarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda oʻrganish va qayta tiklash bilan shugʻullanadi. Shuningdek, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish kabi qator vazifalarni bajaradi. Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti oʻz taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha “ustoz-shogird” maktablarini tashkil etib, rivojlantirishi, shuningdek, bu sohaga kirib kelayotgan yoshlar uchun muntazam ravishda mahorat darslarini oʻtkazib borishi ham muhtasham maqom sanʼatimizning taraqqiy etishida muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Matyoqubov O. Maqomot. “Musiq”, Toshkent – 2004.
2. Mirziyoyev Sh.M.—Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: Oʻzbekiston. – 2016. – 13 b.
3. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: Sanʼat, 2006.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr—Oʻzbek milliy maqom sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi PQ-3391-son qarori. Xalq soʻzi gazetasi. 2017-yil 18-noyabr soni.

Xayrullayev Nodirbek Xayrullayevich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası dotsent v.b.

MUSIQA: YOSHLAR RUHIYATINI BOYITISHNING KUCHLI VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa san'atining yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ularning ma'naviy dunyosini boyitishdagi o'rni tahlil etiladi. Musiqa inson qalbiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turi sifatida yoshlarda estetik did, milliy g'urur, vatanparvarlik, go'zallikni anglash va qadrlash kabi his-tuyg'ularni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada ayniqsa milliy musiqa asarlarining yoshlar ma'naviyatini mustahkamlashdagi ahamiyati, ta'lim va tarbiya jarayonida musiqiy madaniyatdan foydalanishning uslubiy jihatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *musiqa san'ati, yoshlar tafakkuri, ma'naviy tarbiya, estetik did, milliy qadriyatlar, musiqiy madaniyat, tarbiyaviy omil.*

Annotation: *This article analyzes the role of music in developing the thinking of young people and enriching their spiritual world. Music, as an art form that directly affects the human soul, is an important tool in forming such feelings as aesthetic taste, national pride, patriotism, understanding and appreciation of beauty in young people. The article especially highlights the importance of national musical works in strengthening the spirituality of young people, and the methodological aspects of using musical culture in the process of education and upbringing.*

Keywords: *music, thinking of young people, spiritual upbringing, aesthetic taste, national values, musical culture, educational factor.*

Inson qalbining eng nozik torlariga etib boradigan, his-tuyg'ularni uyg'otadigan va ma'naviyatni yuksaltiradigan san'at turlari ichida musiqa san'ati alohida o'rin tutadi. Musiqa bu – yurak tilidir, ruhning ovunchisi, tafakkurning jo'shqin aksidir. Ayniqsa, yosh avlod qalbida ezgulik, go'zallik va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishda musiqa eng ta'sirchan vositalardan biridir. U nafaqat estetik tarbiyaning, balki ma'naviy etuklikning ham asosiy omilidir.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli g'oyalar, madaniy oqimlar, axborotlar oqimi ta'sir ko'rsatayotgan bir vaqtda, ularni milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy boyliklar asosida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Zero, yoshlarning tafakkuri shakllanishi, hayotga va

jamiyatga bo'lgan qarashlari musiqiy tarbiya orqali ham yo'naltiriladi. O'zbek xalqining boy musiqa merosi – maqomlar, xalq qo'shiqlari, milliy cholg'ular ohangi – bu beqiyos xazina yoshlar qalbiga ma'naviy mustahkamlik, or-nomus va milliy iftixor singdirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham mazkur maqolada musiqaning yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlashdagi o'rni xolis tahlil qilinadi. Musiqa vositasida ijtimoiy ongni uyg'otish, estetik zavq berish, axloqiy etuklikka erishish imkoniyatlari zamonaviy pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi.

Metodologiya. Mazkur maqolaning ilmiy asoslanishi, avvalo, musiqa san'atining yoshlar tafakkuri va ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etdi. Zero, musiqa kabi nozik va hissiy san'at turi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nafaqat dalil va faktlarga, balki inson ichki kechinmalari, tuyg'ulari va estetik qabul qilish darajasiga ham tayanadi. Tahlil jarayonida muallif asosan musiqashunoslik, pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro kesishgan nuqtalariga e'tibor qaratdi. Yoshlar ongini shakllantirishda musiqa vositasining o'rni, ularning axloqiy-estetik didini rivojlantirishdagi ta'siri nazariy manbalar, ilg'or tajribalar, milliy musiqiy meros namunalari asosida o'rganildi.

Tadqiqot davomida kontent tahlil, kuzatish, suhbat va so'rovnoma kabi metodlar qo'llanildi. Xususan, o'quvchi-yoshlar orasida musiqa bilan shug'ullanish darajasi, milliy kuy va qo'shiqlarga bo'lgan munosabat, ularning hayotiy qarashlari va ruhiy holatidagi o'zgarishlar kuzatildi. Bularning barchasi musiqaning nafaqat estetik zavq bag'ishlash, balki ma'naviy-ruhiy holatni mustahkamlashdagi kuchini ilmiy jihatdan isbotlashga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda innovatsion yondashuvlar, jumladan, zamonaviy musiqa texnologiyalaridan foydalanish, raqamli musiqiy ta'lim platformalarining yoshlar ongiga ko'rsatadigan ta'siri ham nazardan chetda qolmadi. Shu tariqa, metodologik yondashuvlar musiqaning yoshlar hayotidagi tutgan o'rnini har tomonlama tahlil etishga imkon yaratdi.

Tadqiqot davomida asosiy diqqat e'tibor yoshlar bilan bevosita ishlashga yo'naltirildi. Shu bois, material sifatida umumta'lim maktablari, ixtisoslashgan musiqa va san'at maktablari, kollej hamda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi va talaba yoshlar faoliyati tahlil qilindi. Ayniqsa, musiqiy ta'lim olgan hamda musiqa bilan faol shug'ullanayotgan yoshlarning tafakkuri va ma'naviy qarashlaridagi ijobiy o'zgarishlar kuzatuv metodi orqali aniqlab borildi.

Material sifatida milliy musiqa merosiga oid namunalari, xususan, maqom ashulalari, xalq kuy-qo'shiqlari, milliy cholg'u asboblari ansambllari hamda

zamonaviy estrada musiqasining ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlari o'rganildi. Shuningdek, dars jarayonlari, to'garak mashg'ulotlari, musiqiy chiqishlar, konsert dasturlari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar kuzatildi va ularning yoshlar ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri baholandi.

Ilmiy manbalar sifatida esa, musiqa ta'limiga oid o'zbek va xorijiy adabiyotlar, san'atshunoslik, pedagogika hamda psixologiyaga doir nazariy ishlanmalar asos qilib olindi. Ayniqsa, *A. Fitrat*[3; 128], *Qori-Niyoziy*[9; 96], *Komiljon Otaniyozov*, *Mutal Burhonov*[1; 204] kabi san'at arboblarning ijodiy faoliyati yoshlar ongiga qanday ta'sir qilgani tahlil markazida bo'ldi. Shu bilan birga, bugungi kunda raqamli musiqiy kontent va internetdagi musiqiy platformalarning yoshlar estetik qiziqishlariga ta'siri ham dolzarb masala sifatida yoritildi. Shunday qilib, tanlangan materiallar tadqiqot mavzusini chuqur yoritish, musiqaning yoshlar tafakkuridagi va ma'naviy kamolotidagi o'rnini har tomonlama ochib berish imkonini berdi.

Adabiyotlar tahlili (sharhi). Yoshlar ma'naviy tarbiyasida san'at, xususan, musiqa san'atining o'rni haqida yozilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar mazmunan boy va rang-barangdir. Tadqiqot doirasida o'rganilgan manbalar orasida musiqa tarbiyasi, estetik didni shakllantirish, ma'naviy ong va ijtimoiy g'oyalarni musiqiy vositalar orqali singdirish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Avvalo, A. Fitratning "*Musiqa ilmi*"[3; 128] asari o'zbek musiqashunosligining ilk ilmiy manbasi sifatida katta ahamiyatga ega. U o'z asarida nafaqat musiqaning texnik tomonlarini, balki uning tarbiyaviy, axloqiy va estetik ahamiyatini ham chuqur tahlil qilgan. Fitrat musiqa inson ruhiy dunyosining tarbiyachisi ekanini ta'kidlab, uni yoshlar tarbiyasida faol qo'llash g'oyasini ilgari surgan.

Qori-Niyoziy[9; 96] va *M. Burhonovning*[1; 204] asarlarida esa milliy kuylar, xalq musiqa merosi, maqom san'atining pedagogik imkoniyatlari o'rganilgan. Ular musiqaning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi kuchini ilmiy asosda bayon etib, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida xalq musiqasining o'rni haqida boy ma'lumotlar keltirgan.

Zamonaviy adabiyotlar orasida musiqa pedagogikasi va san'atshunoslik sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Masalan, *E. Raxmatullayev*[7; 156] va *G. Jo'rayevning*[4; 132] ishlanmalarida musiqa vositasida yoshlarning axloqiy va estetik qarashlarini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, musiqa orqali vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish yo'llari tahlil qilingan.

Xorijiy adabiyotlar ichida G. Howardning[5; 440] ko'p intellekt nazariyasida musiqa tafakkur turi sifatida e'tirof etilishi musiqaning ta'limdagi

integrativ rolini ilmiy jihatdan asoslaydi. Suzanne Langer[8; 313] va D. John[2; 358]/kabi g'arb olimlari esa san'atning, xususan, musiqa san'atining inson tafakkuriga ko'rsatadigan emotsional va ijtimoiy ta'sirini chuqur tahlil qilganlar.

Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari – “Yoshlar – kelajagimiz”, “Ma'naviyat oyligi”, “Mening yurtim musiqasi” kabi loyihalar doirasida tayyorlangan uslubiy qo'llanmalar, maqolalar va konferensiya materiallari ham dolzarb adabiyotlar qatoridan o'rin oladi. O'rganilgan adabiyotlar musiqaning nafaqat estetik, balki pedagogik, psixologik va ma'naviy jihatlaridan kelib chiqqan holda, yoshlar ongini shakllantirishdagi salohiyatini har tomonlama asoslab beradi. Tadqiqotda ushbu manbalar tahlili muhim ilmiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

Muhokama. Musiqa san'ati – bu shunchaki ohanglar yig'indisi emas, balki inson qalbiga eng yaqin, yurak bilan anglanadigan va tafakkur bilan baholanadigan buyuk hodisadir. Yoshlar hayotida esa u ayni damda ilhom, tarbiya va ma'naviy yuksalish manbaiga aylanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, musiqa san'ati yoshlarning nafaqat estetik didini shakllantiradi, balki ularning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, vatanparvarlik ruhiyati va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamon bilan hamnafas bo'lib ulg'ayayotgan bugungi yosh avlod tezkor tafakkur, ijodiy yondashuv, madaniy ong va shaxsiy pozitsiyaga ega bo'lishi kerak. Shu jihatdan qaralganda, musiqaning yoshlar ongini shakllantirishdagi roli ayni dolzarb masalalardan biridir. Xalqimizning asrlar davomida sayqal topgan musiqa merosi – maqom, xalq kuy-qo'shiqlari, marosim ohanglari – yoshlar qalbiga o'zligimizni, milliy o'z-o'zini anglash tuyg'usini singdiradi. Muhokama davomida bir muhim haqiqat yaqqol namoyon bo'ldi: musiqa faqat tomosha yoki ko'ngilxushlik emas, balki teran ijtimoiy-tarbiyaviy vositadir. Masalan, o'quvchilar va talabalar ishtirokidagi musiqiy to'garaklar, milliy bayramlarga bag'ishlangan konsertlar, xalq ijodiga asoslangan musiqa darslari – bularning barchasi yoshlarni faollikka, badiiy zavqqa va ma'naviy boylikka etaklovchi vositalardir. Ayniqsa, milliy cholg'ular asosidagi jamoaviy ijrochilikda qatnashgan yoshlar o'zini jamiyat bir bo'lagi sifatida his qilishi, o'z madaniyatiga mehr qo'yishi kuzatildi.

G’ijjak cholg’usi Sharq va Kavkaz xalqlarida Oshiqlar va baxshilar ansambliga jo’r bo’luvchi etakchi cholg’u sifatida ham ardoqlidir. Bizning davrimizda g’ijjakning qator etuk ijrochilari etishib chiqqan. Ayniqsa Andijon kamonchilik maktabidan Oxunjon g’ijjakchi To’xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G’anijon Toshmatov va ularning izdoshi G’ulomjon Hojiqulov, Xorazmdan Ollanazar Hasanov, ayniqsa O’lmas Rasulovlarning har birini o’ziga xos ijrochilik yo’nalishi mavjud bo’lib, g’ijjak ijrochiligini yuksak darajaga etkazdilar desak mubolag’a bo’lmaydi.

Ayniqsa, hozirgi kunda mumtoz yo’lda ijod qiluvchi barcha xonandalarga jo’rnavoz bo’ladigan ushbu cholg’u o’zining jilokor nolalari bilan tinglovchini o’ziga jalb etadi.

Insonni nay cholg’usi ohanglari madrasaga, xonaqohga etaklasa, g’ijjak sozining ohanglari mayxonaga etaklar ekan. Bu so’zni shunday izohlash mumkin: nay cholg’usidan taralayotgan ohang cholg’uchining nafasi orqali sadolanishi va undagi tovushning dardu – fig’onlari inson ruhiyatini tartibga, hushyorlikka chaqiradi. G’ijjak tovushining sadolari esa odamzodni qalbining tub – tubida joylashgan dardu hasratlarini, dunyo tashvishlarini unutib, dam olish va ko’ngil ochishga undaydi.

1956-yillarda milliy cholg’ularimizning takomillashtirilganligi sababli musiqiy sozlar oilasi paydo bo’la boshladi. Masalan, dutor sozi oilasi dutor prima,

dutor sekunda, dator alt, dator bas, dator kontrobas yoki rubob sozi oilasidan rubob prima, rubob sekunda, qashqar rubobi kabi cholg'ular yaratildi. G'ijjak sozida ham takomillashtirish ro'y berib uning oilasi yaratildi. Ya'ni u skripka sozi kabi to'rt torliga aylantirilib, kvinta intervalida sozlandi. Bu cholg'u jahon musiqiy asarlarini ijro qilishga qulay bo'lib, orkestr jo'rligida ham ijro ko'lami kengaytirilganligi ijrochilarga qulay bo'ldi. Qadimda g'ijjak sozida asosan xonandaga jo'rnavozlik qilish uchun milliy ijrochiligimizda kvarta va tertsiya intervalida sozlangan. Bunday sozda esa dunyoviy asarlar va Yevropa klassik asarlarini ijro etish noqulay bo'lgan. G'ijjakning hozirgi ko'rinishi, kosasi tut daraxtidan, dastasi o'rik yoki yong'oq daraxtidan bo'lib, simlari po'latdandir. Lekin kamon oldingiga nisbatan o'zgargan, ya'ni g'ijjakda asarlar skripkani chaladigan kamon bilan ijro qilina boshlandi.

1972-yili Toshkent davlat konservatoriyasida "Sharq musiqasi" fakulteti qoshida "An'anaviy ijrochilik" kafedrasini tashkil etildi. Bu kafedraga milliy san'atimizning bilimdon ustozlari, etuk ijrochilari ishga taklif etilib, mumtoz asarlar va maqomlarni kelajak avlodga meros qoldirish hamda o'rgatish jarayoni rivojlana boshladi. Bundan tashqari Respublika miqiyosida "Maqom" ko'rik tanlovi tashkil etildi. Shulardan birinchisi 1983-yilda boshlanib, har to'rt yilda o'tkaziladigan bo'ldi. Bu ko'rik tanlovlarda bir nechta ustoz san'atkorlar kashf etildi. Jumladan g'ijjakchi sozandalardan O'zbekiston xalq artistlari O'lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ahmadjon Dadayev, tanlov g'oliblari Muhammadjon Marahimov, Murodjon Norqo'ziyev, O'tkir Qodirov, Salohiddin Azizboyev, Nabijon Qodirov kabi etuk sozandalar etishib chiqdi.

G'ijjakchi sozandalar ansambllarda doimo etakchi sozandalar bo'lgan, ya'ni ansambldagi boshqa sozlarni ergashtirib yurgan. Ayniqsa, Andijon kamonchilik maktabidan Oxunjon g'ijjakchi, To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov va ularning izdoshi G'ulomjon Hojiqulov, Qo'qon kamonchilik maktabidan Muxtorjon Murtazoyev, Xorazm kamonchilik maktabidan Ollanazar Hasanov va uning shogirdi Otanazar Ibodullayev, Buxoro kamonchilik maktabidan O'lmas Rasulov, Erkin Ro'zimov kabi sozandalarning har birini o'ziga xos ijrochilik yo'nalishi mavjud bo'lib, g'ijjak ijrochiligini yuksak darajaga etkazdilar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarov A., Bekmurodov M. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2015.
2. Abdullayev A. "O'zbek musiqa san'ati tarixi". Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

3. Begmatov S., Matyoqubov M. "O'zbek milliy cholg'ulari", Toshkent: Yoshlik nashriyoti, 2008.

To'raboyeva Bashorat Raxmatjanovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası o'qituvchisi

DUTOR SOZINING AN'ANAVIY CHOLG'UCHILIKDAGI AHAMIYATI, TARIXI HAMDA IJRO MAKTABLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek milliy an'anaviy musiqasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan dutor cholg'u sozining ahamiyati, tarixi,*

Kalit so'zlar: *Dutor, cholg'u, ijro, maktab, ijodkor, sozanda, musiqa, kuy, ohang.*

Annotation: *This article discusses the importance, history, and development of the dutor instrument, which has a unique place in Uzbek national traditional music, as well as the performance schools that have formed in Uzbekistan.*

Keywords: *Dutar, instrument, performance, school, creator, musician, music, melody, tone.*

Musiqa bu – inson ma'naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg'usiga ta'sir etish bilan kishini ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san'ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko'tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo'naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab – quvvatlash va rag'batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada musiqa san'ati orqali shu soha bo'yicha ta'lim – tarbiya bilan shug'ullanuvchi ustoz- o'qituvchilar yosh iste'dodlarga g'oyaviy etuklik va ijro mahoratlarini o'stirish bilan birga ularni yuksak ma'naviyatli shaxs etib tarbiyalash masalalariga jiddiy e'tibor berishlari talab etiladi.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan – O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga egadirlar. O'zbekiston hududida keng tarqalgan cholg'ular xususida to'xtaladigan bo'lsak, shulardan biri dutordir.

Dutor sozining juda qadimiyligidan darak beruvchi, Tuproqqal'a (miloddan avvalgi IV-III asrlar)dan topilgan ikki torli cholg'ularning keyinchalik dutor, do'mbra va qo'biz shaklida takomillashganligini ko'rsatadi. Bu cholg'ular tut yoki o'rik yog'ochidan yasaladi. Ularqovurg'ali o'yma dutor va o'yib ishlangandutor bo'lgan. Qopqog'i esa tutyog'ochidan yupqa qilibishlangan.

Dutor - o'zbek xalqi ma'naviyatining in'ikosidir. Shu bois uzoq o'tmishdan nola-yu sadolari bilan qalblarimizni to'lqinlantirib, inson ruhiga madad berib keladi.

Dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidinal-Husayniyning "Musiqaning ilmiy va amaliy qoidolari" nomli risolasi (16-bobi) da uchratamiz. XVI-XVII asrlarda "Dutoriy" taxallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, mashhadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Risolada tasvirlangan cholg'u sozi zamonaviy dutordan unchalik farq qilmaydi. Mavjud farqlarni esa, asosan dutorlarning shakillanishida ko'rish mumkin. Xususan, cholg'uni dasta qismi qisqaroq bo'lib, kosasi zamonaviy dutorga nisbatan kattaroq (ud sozining kosasidan kichikroq) bo'lganligi qayd etilgan.

XIX asrda O'rta Osiyoga ekspeditsiya uchun kelgan olimlar, tadqiqotchilar, o'lkashunos va etnograflar musiqa mahalliy aholining qon-qoniga singib ketganligini qayd qilib o'tadilar. Deyarli har bir o'zbek xonadonida dutor sozini ko'rish mumkinligi va u O'rta Osiyo xalqlarining eng sevimli cholg'u sozi ekanligini yozib, o'z kundaliklarida hamda ilmiy risolalarida bayon etganlar.

Dutor - fors tilidan olingan bo'lib, ikki tor degan ma'noni anglatadi. Dutor yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sozi bo'lib, sozandadan katta ijro mahoratini talabetadi. Dutorda yakka zarb, qo'shzarb, bilakzarb, bidratma (terma), teskari zarb kabi ijro usullari mavjud. Ushbu cholg'u o'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek dutori mayin, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi.

O'lkamizning musiqa sozlari orasida dutor o'zining mayin, xonaki tovushi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda bizning Respublikamizda dutor ijrochiligi to'rt asosiy local uslubga bo'linadi. Bular: Xorazm, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo va Farg'ona-Toshkent uslublaridir. Bu uslublar ichida Xorazm va Farg'ona-Toshkent mahalliy yo'llari alohida ajralib turadi. Nafaqat folklor va klassik san'atida, balki ijrochilikda shu vohalar cholg'u sozining tuzilishi va ijro etilishida o'ziga xos xususiyatlar bilan bir-biridan farqqiladi. Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarining o'ziga xos an'analari, shevalari va urf-odatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Bu avvalo cholg'u sozi ko'rinishida gavdalanadi.

Dutor turlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tarixiy rivojlanish jarayonida turkman, tojik, uyg'ur, xorazm, o'zbek dutorlari shakllangan. Bular tuzilish jihatidan unchalik farqlanmasa-da, har holda ko'rinishi, torlari bilan bir-biridan biroz ajralib turadi. Masalan, uyg'ur va tojik dutorlarining bir-biriga o'xshashlik tomonlari shundaki, ularning kosasi turkman va xorazm

dutoriga nisbatan birmuncha kattaroq bo'ladi. Odatda turkman dutoriga metallardan yasalgan sim taqiladi.

Tojik dutorlarini ayrimlari o'zbek dutoriga o'xshaydi. Ularning kosasining o'rtacha hajmi bilan bir- biriga yaqin turadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonning o'zida ham dutorlar azaldan 2 xil yasalgan, ya'ni erkaklar dutori va ayollar uchun mo'ljallangan dutorlar. Erkaklar dutorining kosasi kattaroq, dastasi esa uzunroq bo'ladi. Ayollar dutorlari aksincha, kosasi kichikroq va dastasi ham nisbatan qisqa, ayollarga yarashadigan va nozikroq qilib mohir soz ustalari tomonidan yasaladi. Vohalar va turli xalqlarga xos dutorlarning ko'rinishi ijro an'analari ham ta'sir etishi muqarrardir.

Shu nuqtai nazardan biz o'zbek, turkman, xorazm dutor ijrochiligi maktablari shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Dutor xatto yirik asarlarni yaratilishiga ham asos bo'lganligini qayd etish joizdir. Bunga Xorazm dutor maqomlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Dutorlar tori sozlanishi bo'yicha kichik oktava "re" notasidan, katta oktava "sol" yoki "lya", ba'zan esa qo'shtor qilib ham sozlanadi. Bu cholg'u o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, u yakka tarzda, jo'rsozlikda, jo'rnovozlikda va ansambllarda o'z o'rniga ega. Og'ir kuylar yakka tarzda ijro qilinganda dutor shunday bir mungli va sehrli ovozga egaki, insonni ruhini tinchlantiradi va ma'naviy oziqlantiradi. Agar, sho'xchan va tez quvnoq kuylar ijro qilinsa, tinglovchining qalbini quvontiradi va zavq bag'ishlaydi. Dutor cholg'usi boshqa cholg'ularimizga qaraganda zarblar jihatidan ham keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham xalq kuylari, maqomlarning qashqarcha, soqinoma, ufor kabi sho'xchan taronalari bu cholg'uda o'zgacha jarang topadi.

XX asrga kelib dutor ijrochiligi professional darajada rivoj topdi. Xorazm dutor ijrochilik maktabida yuqorida eslatib o'tilgan barcha prinsplar amaliyotda shakllanganining guvohi bo'lamiz.

Amaliyotda yuzaga kelgan dutor maqomlari esa, "Shashmaqom" yoki "Xorazm olti yarim maqomlari" kabi ichki murakkab funksional tartiblardan farqliroq, sodda va maqomlar yo'liga mansub holda shakllanganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi.

Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodalar o'zlarining "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitoblarida "Dutor maqomlari deganda bir tarafdin mumtoz musiqa, ikkinchi tomondan el kuylari deyiladigan amaldagi butun boshli asarlar tushuniladi" deya ta'kidlaydilar [3, B.47]. Bundan adabiyotlarda xalq orasida mashhurlikka erishgan va mumtoz

yoʻlda yaratilgan alohida musiqiy namunalar dutor maqomlari deyilgan degan fikrga kelish mumkin.

Dutor sozi quyidagicha taʼriflangan oʻrinlar mavjud: – “Dutor sozi Xorazm oʻlkasida xalq orasida tanburdan ortiqmoch suratda tarqalgan boʻlsada, tanbur qadar tartibda intizom ostina olinmagandur. Garchi dutor nagʻmalari tanbur nagʻmalari qadar boʻlsada, tanburga berilgan ahamiyatni dutor nagʻmalarina bera olmaganlar. Chunki, chertilish yoqidan qaraganda tanburdan qiyinroqdir” [1,B.29]. Bu fikr esa dutor maqom ijrochiligida tanburchalik mohir boʻlmasada, murakkab va oʻziga xos uslubga ega boʻlganini bayon etadi. Shu bois boʻlsa kerak, Xorazm dutor ijrochilik uslubi zarblarga boy, rang-barang va eng muhimi Xorazm vohasiga xos “shovqinli” ijro uslubi sifatida alohida qayd etiladi. Bu ijro oʻng qoʻl harakatlarini cholgʻu qopqogʻiga ishqalab chalish bilan xarakterlanadi.

Shuni ham aytib oʻtishimiz lozimki, Xorazm dutor ijrochilik uslubiga nisbatan Samarqand ijro yoʻli oʻzgacha ekanligi Abdurauf Fitrat tomonidan ham qayd etilgan. U “Bu kunlarda bizning eng mashhur dutorchimiz Samarqandlik Hoji Abdulaziz qoʻlini taxtaga urmay chalgʻoni uchun uning dutori havas bilan tinglanadir” [1, B.28-29], – deb u samarqandlik Hiji Abdulaziz Abdurasulovning dutor ijrochiligida mohir ekanligi va nozik bir uslub egasi ekanligiga eʼtibor berib oʻtadi.

Yuqorida keltirib oʻtilgan maktablar bilan birgalikda Fargʻona – Toshkent vohasining dutor ijrochilik uslublari ham juda rang-barangligini aytib oʻtishimiz lozim. Chunki, bu vohada ijro uslublari koʻp. Faqat Qoʻqon dutor ijrochilik maktabining oʻzigina, oʻziga xos anʼanalar bilan sugʻorilgan. Ijrochilik maktablari yuzaga kelishida alohida ijro uslublarning ahamiyati katta. Shuning uchun Fargʻona – Toshkent vohasida biz koʻpgina shaxsiy dutor ijrochilik uslublari shakllanganligining guvohi boʻlamiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dutor oʻzbek xalqining qadimiy qadimiy va hamisha zamonasi bilan hamohang yashab kelgan sevimli sozlaridan biridir. Dutor azal – azaldan Oʻrta Osiyoning turli vohalarida oʻz shevasi va anʼanasi asosida isteʼmolda boʻlib kelgan. Xalq ommaviy ijro yoʻllari, daydi yoki yovvoyi ijro yoʻllari hamda anʼanaviy mumtoz ijro yoʻllari doimo dutor ijrochilik amaliyotini bezab kelgan. Dutor aslida, xalqona uslubga moyillligi bilan mumtozlik darajasigacha rivojlangan. Dutor xalq cholgʻu ijrochilik amaliyotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan va turli cholgʻular bilan joʻrnavozlikda, davr madaniyati rivojida munosib oʻrin tutgan hamda kerakli cholgʻu sifatida qadrlangan. Shu bois boʻlsa kerak, bizning zamonamizga kelib dutorning xilma – xil tarkibiy ansambllari, yakkanavozlikda uslublari yanada koʻpaydi. Yoshlarning bunga

ijobiy munosabatda bo‘lib, uni qabul qilishi quvonarli holdir. Yoshlarni dutor ijrochiligi sirlarini o‘rganishga intilishi esa uning kelgusi taraqqiyotidan darakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi (Ikkinchi nashr). “Fan”, Toshkent – 1993.
2. Arabov I. An‘anaviy dutor. “Tafakkur avlodi”, Toshkent – 2022.
3. Mulla Bekjon Raxmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi (Ikkinchi nashr). “Yozuvchi”, Toshkent – 1998.
4. Toshpo‘latova I. An‘anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor). “Musiq”, Toshkent – 2018.
5. Ziyayeva M. Dutor. “Ijod nashr”, Toshkent – 2024.

Turatov Javohir G'anisherovich,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O'ZBEK MILLIY CHOLG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONI

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish ishlari ijrochilik amaliyotida ulkan ijobiy burulish yasagani, cholg'ular oilasi yaratilib ko'p ovozli ansambl va orkestrlarda ijobiy o'zgarishlar bo'lganligi, takomillashuv jarayonidagi xato va kamchiliklar ham etarlicha bo'lganligi, ijrochilikning zamonaviy talab darajasigacha moslashtirishga ya'ni modernizatsiyalashtirishga kirishilgani to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Takomillashtirish, soz, xalq cholg'ulari, kompozitor, qo'shiq.

Annotation: The article presents information that the work on improving Uzbek folk instruments has made a huge positive turn in the practice of performance, that a family of instruments has been created and positive changes have occurred in multi-voice ensembles and orchestras, that there have been enough mistakes and shortcomings in the improvement process, and that the performance has begun to be adapted to modern requirements, that is, to be modernized.

Keywords: Improvisation, word, folk instruments, composer, song.

O'zbek milliy cholg'ulari – bu xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy-ma'naviy boyligidir. Doira, dutor, tanbur, gijjak, sato, nay, karnay, surnay kabi cholg'ular o'zbek xalqining musiqiy tafakkuri, hayot tarzi va urf-odatlarini ifodalaydi. Ularni takomillashtirish bu nafaqat ularning texnik imkoniyatlarini kengaytirish, balki yosh avlodga etkazish va zamonaviy sahnaga moslashtirish jarayonidir.

Ushbu talablarni hayotning o'zi yangi ijtimoiy badiiy vazifalar bilan birga olg'a surgan. Bu jarayon ma'lum darajada davrning o'zgarib borayotgan talablariga javob bergan holda, evolutsion tarzda rivojlangan. O'zbek xalq cholg'ularining takomillashtirilishi to'g'risida ilk bor V.M.Belyayevning "Узбекские народные инструменты" ("o'zbek xalqi cholg'u asboblari", 1933-yil) kitobida eslatib o'tilgan. So'ng boshqa ayrim asarlarda ham bu masalaga to'xtab o'tilgan. Mualliflar ushbu cholg'ularning sadosi sifatini yaxshilash, tovushini kuchaytirish, sozini tartibga solish, ya'ni mavjud cholg'ular negizida ularning birmuncha mukammal namunalarini yaratish, tarkibini kengaytirish zarurligi to'g'risidagi fikrlarni bayon etishgan. Shu bilan birga, respublikada

umuminsoniy tajribaga tayanib, o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini hamda turli ansamblarni tashkil qilish uchun bir turdagi cholg'ular oilasi tayyorlana boshladi. Shuning qatorida an'anaviy cholg'ular an'anaviy musiqiy amaliyotda davom etdi va hozir ham ular amaliyotda.

Har bir cholg'u o'z tembriga va boshqa farqli xususiyatlariga ega.

Torli cholg'u sozlari. Chertma cholg'ular dutor cholg'usi – 1920- yillar oxiri – 1930- yillar boshida dutor cholg'usini takomillashtirishga kirishildi. Dutorni takomillashtirish va bu cholg'u oilasini yaratish ishlari 1930- yillarning oxirida A.I.Petrosyan va S.Y.Didenko tomonidan boshlandi. Birinchi navbatda cholg'u tovushini yanada kuchaytirish haqida o'ylay boshlashdi, ayni mahalda dutorning parda bog'lamlari, uzun dastasi, sozlanishi va torlar tovushqatori o'zgarishsiz qoldirildi. Dutorda xromatik tovushqatorli konstruksiyada bog'lama pardalar doimiy, o'yma pardalar bilan almashtirildi, tashqi jihatdan xalq cholg'usidan birmuncha boshqacha ko'rinish kasb etdi. Keyinchalik tipik namuna asosida prima, sekunda, alt, bas va kontrabas dutorlar yaratildi. Bas va kontrabas dutorlar qattiq charm noxun bilan chalinadi. Dutorlar oilasidan hozirgi o'zbek xalq cholg'u ansamlari va orkestrlarida foydalaniladi. A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko orkestr dutorlardan tashqari xalq dutori kabi sozlanadigan va diapazonga ega kamer dutorni konstruksiyalashdi. Bu dutor xalq musiqa amaliyotida yakkanavoz va ansambl cholg'usi sifatida tarqaldi.

Tanbur. Tanbur ko'pmarta takomillashtirilgan. Nim parda (xromatik) tovushqatorli so'ngi ancha yaxshi chiqqan namunasining konstruksiyasi A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko tomonidan yaratilgan, biroq torlari qisqartirilgani va dastasiga yaqinlashtirilgani bois u o'z xususiyatidan birmuncha mahrum bo'lgan.

Rubob. O'zbekistonda professional va havaskor xalq sozandalarida ikki tipdagi afg'on va qashqar rubobi uchraydi. Afg'on rubobi, qashqar rubobi 40-yillarda A.I.Petrosyans va Didenko tomonidan takomillashtirilib, o'zbek xalq cholg'u orkestri tarkibiga kiritildi. Afg'on rubobida yordamchi torlar olib tashlangan kosaxonasi ancha kichraytirilib, uslublashtirilgan. Bog'lama 4 parda o'rniga listaga 17 metall yoki yog'och o'yma parda o'rnatilgan. Qashqar rubobi 1940- yillarda A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko tomonidan takomillashtirildi. Qashqar ruboblari uch turli qilib konstruksiyalandi. Bular prima, alt (bir tipdagi) va tenor. Ruboblarda xalq sozlarining umumiy shakli va teri qopqoq saqlab qolingan. Afg'on rubobi bir qadar ko'p o'zgardi: unda rezonans [torlari olib tashlandi](#), kosaxonasi bir muncha kichraytirilib, uslublashtirildi.

G'ijjak. Gijjak haqida ko'plab afsonalar mavjud bo'lib, ularda g'ijjakning yaratilishi [turli buyuk olimlarga](#), shu jumladan al-Forobiyga nisbat beriladi. G'ijjak to'g'risida tasnif etilgan vaqti ko'rsatilgan qo'lyozmalar Temuriylar

davridan buyon saqlanib qolgan. 1920- va 1930-yillarda sadosini kuchaytirish va past registrdagi soz yaratish maqsadida g'ijjak bir necha bor takomillashtirildi. A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko 1940- yillarda g'ijjakni ancha muvaffaqiyatli takomillashtirishdi, ular g'ijjakning butun bir oilasini: prima, alt, bas va kontrabas turlarini yaratishdi. Bu sozlar yuqori pozitsiyalarda chalish imkonini beruvchi tekis grifga hamda skripka oilasiga oid sozlar menzurasiga muvofiq keluvchi qat'iy o'rnatilgan menzuraga ega.

Ushbu milliy cholg'ularimiz bizning davrimizga etib kelgunga qadar juda ham ko'p marotaba o'zgarishlarga yuz tutgan. Bunga sabab o'zbek xalq cholg'ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish bo'lgan va bu takomillashuv o'tgan asrning 20-yillari va 30-yillarining boshlariga to'g'ri kelgan. Bu ishlar birinchilardan bo'lib, hofiz Shorahim Shoumarov, ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, sozgar usta Usmon Zufarovlar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning asosiy maqsadi - musiqiy cholg'ularning ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yordamida cholg'u diapazonini kengaytishdan iborat edi. Sh.Shoumarov O'zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg'ulari ansamblida ishlagan kezlari g'ijjak, dutor, tanbur kabi cholg'ularning tovushi hamda tembrini yaxshilashga doir ishlarni boshlab yubordi. Laboratoriyada o'zbek xalq cholg'ularini modernizatsiyalashtirish jarayonida u aynan g'ijjaklarning kosasini har xil xomashyodan, ya'ni kokos yong'og'i, qovoq, mis va yog'ochdan turli shakllarda yasadi. Tajriba natijasida aynan kosasi yog'ochdan yasalgan cholg'u maqsadga muvofiq deb topildi.

O'sha paytlarda amalda bo'lgan chang cholg'usi, diapazoni kichik va diatonik tovushqatorga ega bo'lib, unda professional kompozitorlar asarlarini ijro etish ancha qiyinchiliklar tug'dirgan. Aynan shu diatonik chang cholg'usini takomillashtirish ustida M.Xarratov bosh qotiradi. Tajribalar orqali changning yuqori registrini qo'shimcha torlar bilan boyitish evaziga kengaytiradi. Chang cholg'usining takomillashuvi jarayonlarida yana bir jonkuyar sozanda va sozgar Usta R.Isaboyev ham o'zining ulkan hissasini qo'shgan.

A.Tashmatovanning "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligida yozilishicha "1902-yillarda Qashqardan kelgan sozanda Ramazonoxunning choyxonalarda chang chalishidan ilhomlanib, uning bu cholg'uga qiziqishi uyg'onadi. O'sha paytda bu cholg'uning hajmi ham, shakli ham boshqacharoq bo'lgan. Qashqarlik sozanda o'z cholg'usining tuzilishini sir ushlashiga qaramay, uddaburon Usta Ro'zimat aka bu cholg'uni yaqindan ko'rishga muyassar bo'ladi va o'ziga chang yasab oladi. Usta yasagan changning hajmi kattaroq bo'lib, u har bir tovush balandroq eshutilishi uchun to'rtadan tor taqadi bu urinish aynan cholg'uning ovoz jarangdorligini oshirish maqsadida qilingan. R.Isaboyev bir necha yarim xromatik changlar yasab, birinchi bo'lib Namanganda bu cholg'uni ansambl jamoasiga

qo'shgan inson edi. "Usta Usmon Zufarov esa birinchilardan bo'lib, Y.Rajabiyning buyurtmasiga asosan ansambl jamoasining ovoz diapazonini kengaytirish maqsadida past registrli cholg'ular, ya'ni "Katta dutor, "Katta tanbur" va "Katta g'ijjak"larning bir necha turlarini yasaydi.

Xulosa qilib aytganda o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish ishlari ijrochilik amaliyotida ulkan ijobiy burulish yasadi. Cholg'ular oilasi yaratilib ko'p ovoqli ansambl va orkestrlarga asos solindi. Takomillashgan cholg'ularda ham milliy ham evropa kuylarini bemalol ijro etishimiz mumkin. Bu albatta yaxshi, ammo takomillashtirish jarayonidagi xato va kamchiliklar ham etarlicha bo'lganligini hozirgi kundagi ijrochilik amaliyotlaridan kuzatishimiz mumkin.

– O'n ikki bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan xromatik tovushqatorga ega cholg'ularimiz kosasiga hayvon terisidan parda tortilganligi sababli ob-havo sharoitini o'zgarishi oqibatida cholg'u sozlari ham o'zgarib ketadi. Ya'ni issiq ob-havo sharoitida cholg'u kosasiga tortilgan parda taranglashadi va cholg'u sozi ko'tariladi. Yoki aksincha sovuq ob-havo sharoitida cholg'u kosasiga tortilgan teri boshashib qoladi va oqibatda cholg'uning sozi tushib ketadi;

– Cholg'ularni takomillashtirishda ularning oilalari yaratildi lekin ushbu oiladagi cholg'ularning ayrimlaridan hozirgi kundagi orkestr va ansamblalarda foydalanilmaydi. Umuman olganda yakka ijrochilikda ham metsosoprano rubobi, kichik rubob, alt rubobi, dutor sekunda, chang bas, chang alt, chang pikkolo, chang tenor kabi cholg'ular o'z o'rnini yo'qotib, cholg'u muzeylaridan qo'nim topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boboramazonovich, K. O. (2022). Characteristics of the performance of people in allan,lapars, speech in the surkhan volume. Ta'lim varivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 95-102.

2. A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligi "Musiqqa" nashriyoti Toshkent - 2017y. 82-85-betlar.

3. Vizgo T. Muzikalniye instrumenti Sredney Azii. - M., 1980, 15-bet.

4. Sadokov R. Muzikalniye instrumenti drevnego Xorezma v pamyatnikax izobrazitelnogo iskusstva//Muzika narodov Azii i Afriki. - M., 1969, 21-bet.

5. Javohir G. Cholg'u ijrochiligi fanini o'qitishda innovatsion yondashuv //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 180-184.

6. Turatov J. Musiqiy ta'lim jarayonlarida innavatsion va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 143-146.

Abduazimova Dilorom Hasanboyevna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi o'qituvchisi

SAN'ATIMIZ GULTOJI BO'LMISH MILLIY MAQOM SAN'ATINI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH HAMDA TARG'IB QILISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek musiqa san'ati, xususan san'atimizning gultoji bo'lmish milliy maqom san'atini yoshlar qalb-u tafakkuriga singdirish, yoshlarni milliy musiqamizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash hamda ushbu sohada olib borilayotgan samarali ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Musiqa, maqom, xazina, san'at, qaror, madaniyat, meros, ansambl, institut.

Annotation: This article discusses the inculcation of Uzbek musical art, in particular the national maqom art, which is the crown jewel of our art, into the hearts and minds of young people in a spirit of respect for our national music, and the fruitful work being carried out in this area.

Keywords: Music, maqom, treasure, art, decision, culture, heritage, ensemble, institute.

O'zbek xalqining ko'hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma'naviyat manbai bo'lganligi o'tmish tarix zarvaraqlaridan ma'lum. Binobarin, milliy qadriyatlarni ajoyib an'analari ila o'zida mujassam etgan an'anaviy musiqamiz xazinasi hanuzgacha badiiy-estetik qiymatini yo'qotmasdan kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish kerak" [2, B.26].

Bugungi kunda milliy musiqa san'atimiz dadil qadamlar bilan jahon madaniyatidan o'rin olishi tarixiy haqiqat. Zero, dunyo ahli beqiyos xonanda, baxshi – shoir va sozandalar tomonidan ijro etilgan an'anaviy musiqa namunalaridan bahramand bo'lmoqdalar. Ana shu xazinani chuqur idrok etish, uning negizidagi tub qonuniyatlarini aniqlash, jonli musiqa me'rosimizni harakatga keltirishda tayanch bo'lib xizmat qilayotgan marosim qo'shiq-kuylari, doston – u maqomlarni eng zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ilg'or texnologiyalar vositasida atroflicha tahlil etilishi hamda o'zlashtirilishi bugungi kun talabidir. Ajdodlarimizdan qolgan urf-odatlar, an'analarga ko'ra, xalqimizning musiqa merosi doyim e'zozlanib, iftixor ramzi bo'lib kelgan.

Mamlakatimizda milliy musiqa madaniyati va san'atimizni izchil o'rganish; tarixiy, ma'naviy – ma'rifiy va madaniy-axloqiy qadriyatlarimizni

atroflicha tadqiq etish uchun shart – sharoitlar yuzaga keldi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqining milliy musiqiy merosi va jahon musiqa madaniyati durdonalari negizida musiqa san’atini rivojlantirish, musiqiy ta’lim tizimini sifat jihatidan yanada ko‘tarish kabi muhim vazifalar belgilanib, Respublikamizda musiqa san’atini rivojlantirishga doir O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori va Farmonlari, Davlat dasturlari qabul qilindi.

Xususan, O‘zbekiston mustaqillikga erishgach, boshqa sohalarni rivojlantirish bilan birga, madaniy me’rosimiz bo‘lmish maqomlarni yanada rivojlantirish, ijrochilik san’ati va ayniqsa, maqom san’atiga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, maqom san’atining gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy me’rosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir.

Shuni ham aytib o‘tishimiz lozimki, ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo yosh avlodni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan etarlicha foydalanmoq kerak. Mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio va televidenie, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, maqom ustalari, soha olimlari va mutaxassislarining, iqtidorli yoshlarni, yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari e’tibordan chetda qolib kelmoqda edi. Shu sababli ham ushbu muammolarni bartaraf etish, o‘zbek maqom san’atini chuqur o‘rganib, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ‘ib qilish maqsadida mamalakatimiz prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi qarori tasdiqlandi. Qarorga ko‘ra, O‘zbekistonda maqom san’atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijod maktablari, an’analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar me’rosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash, yosh avlodni maqom san’ati bilan tanishtirish, ularda milliy o‘zlikni kamol toptirish, maqom san’ati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlikda maqom san’atini chuqur o‘rganish, maqom ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, maqomlarni yosh avlodga o‘rgatib kelayotgan maqomshunos pedagog-xodimlar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab quvvatlash va 2018-yildan boshlab har 2 yilda 1 marta Shaxrisabz shahrida xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish va boshqalar qarorda belgilab qo‘yildi [4].

Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **"Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"** da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

2022-2023-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi.

Umum ta'lim maktablarini notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash, san'at va musiqa to'garaklari tashkil etish, O'zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan boshqa madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda konsertlar o'tkazish, o'quvchi va talabalarning musiqiy savodxonligini oshirish; Madaniyat vazirligi hay'ati qarori bilan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida madaniyat va san'at sohasidagi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ijodkorlar rahbarligida ularning "mahorat maktablari" tashkil etish; har yili madaniyat va san'at sohasida respublika ko'rik-tanlovlari tashkil etish; 2022-yilda Madaniyat vazirligi tomonidan "Madaniyat karvoni" shaklida hududlarda konsert-tomosha tadbirlarini o'tkazish; O'zbekiston milliy va davlat simfonik orkestrlari, O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli va "O'zbek davlat sirki" davlat muassasasi ijodiy (badiiy) jamoalarining hududlarga gastrol safarlarini tashkil etish; Madaniyat va san'at sohasidagi ijodkorlarni har yili bir marotaba taqdirlash maqsadida "Madaniyat va san'at milliy mukofoti"ni ta'sis etish; O'zbek milliy maqom san'ati markazining hududiy bo'limlarini tashkil etish belgilab qo'yildi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, ushbu farmonga muvofiq Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining tashkil etilishi yosh ijodkorlar uchun quvonarli voqea bo'ldi.

Ushbu institut O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 2-sentabrdagi 536-sonli qarori asosida O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining "O'zbek maqom san'ati fakulteti" va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining tegishli ta'lim yo'nalishlari negizida tashkil etildi. Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida 2 ta "O'zbek milliy musiqa san'ati" va "Professional ta'lim" fakulteti mavjud bo'lib, ularning ichida "Maqom cholg'u ijrochiligi", "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi", "Doston ijrochiligi", "Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano", "Maqom xonandaligi", "Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash", "O'zbek adabiyoti, tillar va gumanitar fanlar" kabi kafedralar faoliyat yuritadi. Mazkur institut yurtimizda maqom, xalq musiqasi, baxshichilik va katta ashula ijrochiligini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an'analarni,

buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish kabi qator vazifalarni bajaradi.

Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik hamda milliy an'alarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, zamonaviy bilim va tajriba, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazish bilan bir qatorda ularni madaniyat va san'at sohasiga qamrab olish borasida izchil chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda yoshlarni madaniyat va san'atga keng jalb qilish, ular bilan tizimli ishlash, madaniyat va san'at muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish borasida qo'shimcha shart – sharoitlar yaratilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 27-iyun kuni Namangan viloyati faollari bilan o'tkazgan yig'ilishida gapirgan so'zlari tahsinga loyiqdir.

“Madaniyat sohasi bo'yicha juda katta qaror qabul qildik. Attestat olishda hammamiz o'rganganmiz – fizika, matematika bo'yicha baho bo'ladi. Topshiriq berdimki, endi attestatda har bir maktabda 11-sinfni bitirgan bolalarimiz bitta cholg'u asbobini o'rgangan degan bahosi bo'ladi! Bu nima uchun kerak? Iqtisodiyotni tiklaymiz, lekin shuning barobarida madaniyatimizni tiklab bormasak, ertaga ma'naviy ozuqa bo'lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo'lmaydi”. Prezident Sh.Mirziyoyev Namangandagi nutqida davom etarkan, korxona va tashkilotlarda shanba kunini “ashula kuni” sifatida belgilashni taklif qildi.

“Nimaga korxonalarda, oliygohlarda tanaffuslarda maqom ansamblining ashulalarini, Ma'murjon Uzoqovni qo'yib qo'ymaymiz? Namanganning xalq artistlari bor. Nega ularni qo'yib qo'ymaymiz? Biz tashvishlar bilan bo'lib, maqom eshitmay qo'ydik.

Bilasizlarmi, madaniyat bilan yaqin bo'lgan insonning dunyo qarashi madaniyatli bo'ladi. Uning umri uzoq bo'ladi. Har bir katta korxonada ham mana 10 million investitsiya olib kelyapti. Lekin, 10 million investitsiya olib kelganda bitta cholg'u ansambli qilsa bo'ladimi? Shanba kuni ashula eshitadigan kun qilib qo'ygin, o'sha erda. Ashula bilan seni ishingda 10 baravar baraka bo'ladi. Madaniyat bilan seni o'sha korxonangda 10 baravar yangi – yangi rejalarga kirishadi. Odamning chehrasida mehr paydo bo'ladi”, deydi Prezident.

Darhaqiqat, o'zbek xalqi an'analari juda qadimiydir. Ularda ajdodlarimizning kurashi, mehnati hamda turli ma'naviy-madaniy yutuqlari o'z ifodasini topgandir.

Respublikamiz miqyosida muntazam ravishda uyushtirilayotgan maqom kechalari, ko‘rik-tanlovlar, bir tomondan esa, buyuk ajdodlarimizning musiqa madaniyatimizga qo‘shgan hissasini, ularning o‘ziga xos mahorat va iste’dod qirralarini aniqlashga, ommalashtirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan xalq orasida mumtoz san’atimiz namunalarining keng tarqalishi va kelajakda yanada davom ettirib, rivojlanishiga olib keladi degan umiddamiz. Bu nodir ma’naviy xazinani yoshlar ongi, faoliyatiga zamonaviy vosita va uslublar asosida singdira olish zarur. Ana shunda avlodlar va qadriyatlar vorisligi, an’analarning umr boqiyliigi, musiqa san’atimiz istiqboli, ravnaqini ta’minlagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev R. An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari. “MIRON – ART – DESIGN”, Toshkent – 2023.
2. I.A.Karimov. Milliy an’ana ma’naviy yuksalish yo‘lida xizmat qilsin.// Ma’naviy yuksalish yo‘lida. Toshkent – 1998.
3. Mirziyoyev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston. – 2016.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabr—O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3391-son qarori. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 18-noyabr soni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevral – Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risidagi PQ – 112-sonli qarori.

Sayidov Bahodir Qodir o'g'li,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası katta o'qituvchisi

ASHULA VA QO'SHIQ JANRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI VA FARQLARI

Annotatsiya: *Maqolada ashula va qo'shiq janrlarining o'ziga xos xususiyatlari va farqli jihatlari haqida so'z boradi. Ushbu maqolani yozishimga milliy musiqamizning ikki yirik janri bo'lgan ashula va qo'shiq janrlarining o'rnini qo'pol ravishda almashtirib ifodalash odat tusiga aylanayotganligi turtki bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *ashula, qo'shiq, maqom, bastakor, aruz.*

Annotation: *This article discusses the distinctive characteristics and differences between the genres of lyrical singing (ashula) and qoshiq. The reason for writing this article was the increasing tendency to inaccurately interchange these two major genres of our national music.*

Keywords: *lyrical singing (ashula), qoshiq, maqom, composer, aruz.*

O'zbek mumtoz musiqasini tashkil etuvchi aytim-ashula janrlar tarkibiga mumtoz ashula va qo'shiq kiradi. Har biri o'ziga xos mavqei, mazmuni, kuyohang tizmi, shakli va ijro uslublari bilan ajralib turadi. O'zbek mumtoz ashula yo'llari o'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammalligi, ko'plab badiiy vositalarga boyligi bilan o'ziga xos musiqaiyrochilik san'ati turiga aylangan. Katta badiiy-estetik imkoniyatlatga ega bo'lgan mumtoz ashula yo'llari milliy ruh, milliy qiyofani shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash, boyitish va keying avlodga etkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ashula – lirik xarakteridagi rivojlangan kuy shakliga ega bo'lgan yirik aytim-ashula yo'li. Ashula mumtoz musiqaning etakchi janrlaridan bo'lib, o'zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og'ir xakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turdi. Sharq mumtoz (Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Haziniy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Ogahiy, Munis va b.) va o'zbek (Chustiy, Sobir Abdulla, Po'lat Mo'min, Erkin Vohidov, Kamtar, Normurod Narzullayev va b.) shoirlarning aruz vaznida yozilgan g'azal, ruboiy, muxammaslar ashula janrida keng qo'llanib kelingan.

Falsafiy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik va ayrim nasihatgo'y mazmun ko'proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so'z va kuy uzviy bog'liqdir, bu holat asarning butun

mazmunini, mohiyatini tashkil etadi. Chunki undagi umumiy mantiqiy bog‘liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchiga zavq-shavq uyg‘otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi.

Ashula janr sifatida folklor va mumtoz musiqa ijodiyoti keng tarqalgan, ammo she‘r matnlari (folklor namunalarida xalq so‘zlari), kuy rivoji va ijro uslublari bilan ajralib turadi, masalan, “Tanovar” – folklor yo‘nalishida “Qora soch”, “Sumbula”, “Endi sendek”, mumtoz ashula namunalari “Adolat tanovari”, “Yovvoyi tanovar” va b. (bular bir ohang asosida shakllangan).

Mumtoz ashulalar musiqiy matnining rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi va kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashulalaridan sezilarli darajada farqlanadi. Ularning rivojlanish jarayoni daromaddan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng o‘rin olgan, uning lokal variantlari mavjud, jumladan, Buxoroda xalq ashula va muxammas, Xorazmda suvora va naqsh, Farg‘ona vodiysida ashula yo‘llari, katta ashula, yovvoyi ashula deb yuritiladi. Diniy va pand-nasihati mavzusidagi (Mashrab, Ahmad Yassaviy, Ogahiy, Haziniy, Furqat, Huvaydo, Maxtumdul) mumtoz ashula yo‘llari – munajat, na‘t, qalandar, xonakoi, hamd, manzuma deb yuritiladi. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo‘lib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi.

O‘zbek bastakorlari ham mumtoz ashula janri asosida asarlar yaratganlar. Bu ashulalar yakkanavoz ijrosida, cholg‘u ansambli jo‘rligida aytilib kelingan. “Tanovar”, “Munajat”, “Girya”, “Adashkanman”, “Yolg‘iz”, “Qomating”, “Kurd”, “Ol xabar” kabi mumtoz yo‘lidagi ashulalar, “Kuygay” (Y.Rajabiy), “Sensan sevarim” (O.Hotamov), “Naylayin” (J.Sultonov), “Ey, chehrasi tobonim” (F.Sodiqov), “Diyorimsan” (K.Jabborov), “Bir ishva bilan” (M.Murtazoyev), “Guluzorim” va “Bebokcha” (A.Abdurasulov), “Qachon bo‘lg‘ay” (M.Mirzayev) va b. Bastakorlarning ashulalari xonanda (professional va havaskor)lar repertuaridan mustahkam o‘rin olgan. Yirik namoyondalar – K.Otaniyozov, J.Sultonov, M.Uzoqov, F.Mamadaliyev, R.Mamadaliyev, O.Xudoysheurov, H.Boltayev, B.Dovidova, M.Tojiboyev va b.

O‘zbek ijrochilik amaliyotida ashula turkumlari ham mavjud, jumladan, “Tanovar I-V”, “Qalandar I-V”, “Eshvoy-Eshvoy kurd-Eshvoy turkman”, “Qalandari-Samandari”, “Dilxiroj-Sinaxiroj” va b.

Qo‘shiq – keng ma‘noda she‘riy-musiqiy janrdir. Vokal musiqasining eng ommalashgan, ko‘proq band shakliga asoslangan turi, shuningdek, kuylashga mo‘ljallab to‘qilgan she‘riy asarlarning umumiy ifodasi. Xalq ijodiga mansub, bastakor va kompozitorlar yaratgan, ommabop musiqa yo‘nalishidagi qo‘shiqlar farqlanadi.

Kelib chiqishi, janri va mazmuniga qarab marosim qo‘shiqlari, ommaviy qo‘shiq, shahar, dehqon, bolalar, maishiy, harbiy, lirik, raqs va boshqa qo‘shiqlar ajratiladi. Qo‘shiq kuyi diapazoni ixchamligi, musiqa rivoji band (yoki band-naqarot) shakliga asoslanganligi, ohanglar tizimida so‘z va kuy intonatsiyalari mushtarakligi, she‘riy matndagi g‘oyaviy-emotsional mazmun rivojining umumiy tarzda (badiiy yakuni sifatida) ifodalanishi bilan ajralib turadi. Qo‘shiqning yana o‘ziga xos tomoni – she‘riy matn va kuy shakllarining o‘zaro mutanosibligi, bir xil hajmdagi tuzilmalar (she‘rda – band, kuyda – davr)ga asoslanganligidan iborat.

Qo‘shiqning she‘riy matnlari aniq kompozitsiyasi, har bir bandida muayyan tugal fikr ifodalanligi bilan ajralib turadi. Sharqda xalq qo‘shiqlari o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lib, O‘rta Osiyoda ir (jir), terma, o‘lan, lapar, yalla kabi nomlar bilan ataladi. Bular negizida bastakorlar ijodi, XX asrda zamonaviy qo‘shiq shakllari rivoj topgan. Yevropa professional musiqa san‘atida O‘rta asrdagi shoir-xonandalar (Fransiyada truver va trubadurlar, Germaniyada minnezingerlar va boshqalar)ning asarlari, meysterzingerlar san‘ati namunalari, Uyg‘onish davri yaratilgan ko‘p ovozli italyan sapgopepa, nemischa les1, fransuzcha spapzop, XVII-XVIII asrlardan ommaviy tus olgan gomofoniya uslubidagi qo‘shiqlar, romantizm davridagi kompozitorlar ijodidagi qo‘shiq, XX asrda keng rivoj topgan ommaviy qo‘shiq, estrada qo‘shiqlari va boshqa professional qo‘shiqning rivojlanish bosqichlaridir.

Shoirlardan P.Beranje, R.Byorns, R.Hamzatov, V.Visotskiy va boshqa, O‘zbekistonda – Hamza, Habibiy, Sobir Abdulla, Mirtemir, Chustiy, T.To‘la, P.Mo‘min, N.Narzullayev, Muhammad Yusuf, E.Vohidov, J.Jabborov va boshqalarning qo‘shiq she‘riyati rivojidagi xizmatlari katta.

Tor ma’noda qo‘shiq – o‘zbek xalq ijodidagi janr; qo‘sh qofiya bilan boshlanuvchi, asosan, 7-8 hijoli barmoq vaznidagi to‘rtliklar bilan kuylanadigan, band shaklli aytim turi. Birinchi she‘r to‘rtligi qofiyalari a-a-a-a, a-a-v-a, a-a-v-v yoki a-a-v-s nisbatida bo‘lishi mumkin. O‘zbek qo‘shiqlarida birinchi bandi odatda 4 she‘riy misra va ularni kuylashga asos bo‘lgan nisbiy tugal ohang tuzilmalari uyg‘unligidan tashkil topadi. Kuy tuzilmalari soni 2-4 bo‘lib, ularning o‘zaro nisbatlari esa asosiy jumlaning takrorlash, o‘zgartirish yoki ma’lum darajada rivojlangan yangi jumla bilan yakunlash kabi vositalardan iborat.

O‘zbek qo‘shiqlari, ashuladan farqli o‘laroq, kichik ovoz doirasida (asosan, kvinta - seksta diapazonida) bo‘lib, ba’zan doira jo‘rligida ijro etiladi. Kuychan ohangli qo‘shiqlar, asosan, lirik mavzudagi namunalarda uchraydi. Boshqa qo‘shiqlarda kuychanlik xususiyatiga ega cho‘zimli ohanglar uchrasada, ular ko‘proq qo‘shiqning yakunlanishi arafasida namoyon bo‘ladi. Qo‘shiqlarda maxsus (alohida) naqarotlar deyarli qo‘llanmasada, ba’zan kichik naqarot

vazifasini kasb etuvchi takror soʻzlar kelishi, shuningdek, “jon”, “yor”, “dodey” kabi undov-undalma iboralar ishlatilishi kuzatiladi.

XX asr oʻzbek bastakorlari va, ayniqsa, kompozitorlari ijodiga mansub qoʻshiqlar janr nuqtai nazaridan oʻzida boshqa janrlar (lapar, yalla, ashula, terma) xususiyatlarini mujassam qilib, maʼlum oʻzgarishlarga yuz tutgan. Jumladan, ularda band-naqarot tuzilmalari, joʻrnavoz cholgʻular, raqs unsurlarini ham koʻrish mumkin. Oʻzbek bastakorlaridan Y.Rajabiy, K.Jabborov, F.Sodiqov, T.Jalilov, Gʻ.Toshmatov, N.Hasanov, M.Mirzayev, B.Aliyev, R.Tursunov va boshqa, kompozitorlardan T.Sodiqov, M.Burhonov, M.Leviyev, S.Yudakov, A.Otajonov, F.Nazarov, A.Nazarov, F.Alimov, Q.Komilov, bolalar uchun A.Muhamedov, Y.Shvars, Il.Akbarov, N.Norxoʻjayev, A.Ergashev, A.Mansurov, estrada yoʻnalishida Sh.Ramazonov, Ik.Akbarov, E.Solihov, D.Omonullayeva, A.Rasulov va boshqalar qoʻshiq janrida salmoqli ijod qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. “Ashula”, “Qoʻshiq”. “Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi” (Davlat ilmiy nashriyoti) – Toshkent, 2000-2006.
2. Akbarov I. “Musiqalugʻati” – Toshkent, 1997.
3. Alaviya M. “Oʻzbek xalq qoʻshiqlari” – Toshkent, 1959.
4. Karomatov F. “Oʻzbek xalqi musiqa merosi”, 1-kitob (qoʻshiq) – Toshkent, 1978.

Abdusalimova Nigina Vositxonovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti fakulteti "Ashula va raqs"
mutaxassisligi I-kurs magistranti

MUSIQA TA'LIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning o'rni, ularning o'quv jarayoniga ta'siri hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy dasturlar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali musiqa ta'limini takomillashtirish imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ilg'or pedagogik yondashuvlar va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari haqida xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, innovatsion pedagogika, onlayn platformalar, ta'lim metodologiyasi.

Annotation: This article analyzes the role of digital technologies and artificial intelligence in music education, their impact on the learning process and their effectiveness. The possibilities of improving music education through the use of modern programs, online platforms and artificial intelligence technologies are studied. Based on the results of the research, conclusions are drawn about advanced pedagogical approaches and future development directions.

Key words: music education, digital technologies, artificial intelligence, innovative pedagogy, online platforms, educational methodology.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar ta'lim sohasining barcha jabhalariga chuqur kirib kelmoqda. Musiqa ta'limi ham bundan mustasno emas. An'anaviy o'qitish uslublari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirilmoqda. Sun'iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalar musiqa ta'limining sifatini oshirish, o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkoniyatini taqdim etmoqda.

Musiqa ta'limining rivojlanishi, ayniqsa, zamonaviy dasturlar va onlayn platformalar orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Musiqiy ko'nikmalarni o'rgatishda raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishi, individual yondashuv asosida bilim olishi mumkin bo'lib qoldi. Shu sababli, ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida musiqa ta'limini takomillashtirish masalasi atroflicha ko'rib chiqiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, ilg'or yondashuvlarni aniqlash hamda ularning istiqbollari baholashdan iborat. Raqamli texnologiyalarning musiqa ta'limiga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Musiqqa o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonini soddalashtirish va yanada interaktiv qilish imkonini beradi. Quyida raqamli texnologiyalarning musiqqa ta'limiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlari keltiriladi:

Virtual va aralash ta'lim usullari. Raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy va aralash ta'lim shakllari rivojlanib bormoqda. Onlayn kurslar, vebinarlar va interaktiv darslar orqali o'quvchilar istalgan joydan musiqqa ta'limini olishi mumkin. Virtual ta'lim platformalari o'qituvchilarga shaxsiy yondashuvni amalga oshirish va o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beradi.

Musiqqa dasturlari va ularning o'qitish jarayonidagi roli. Musiqqa o'qitishda turli raqamli dasturlar va ilovalardan foydalanish o'quvchilarga nazariy va amaliy bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, GarageBand, FL Studio, Sibelius, Finale kabi dasturlar musiqqa yaratish, notalar yozish va ovozlarni tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu vositalar musiqqa ta'limini interaktiv va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi.

Interaktiv platformalar va onlayn resurslar. Bugungi kunda Coursera, Udemy, Berklee Online kabi platformalar orqali musiqqa ta'limiga oid turli kurslar taklif qilinmoqda. Ushbu resurslar orqali talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirishlari, yangi texnikalarni o'rganishlari va xalqaro tajribaga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, interaktiv veb-ilovalar, masalan, Yousician va Simply Piano, o'quvchilarga real vaqtda mashg'ulotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida musiqqa ta'limining yanada rivojlanishi va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish istiqbollari mavjud.

GarageBand – O'quvchilar uchun qulay interfeysga ega bo'lib, musiqqa yaratishni yangi boshlaganlar uchun mo'ljallangan. U orqali notalar, ritmlar va ovozlalar bilan ishlash osonlashadi.

FL Studio – Professional darajadagi ovoz yozish va tahrirlash dasturi bo'lib, kompozitsiya va ovoz muhandisligi bilan shug'ullanuvchilar uchun foydalidir. O'quvchilar bunda turli tovush effektlari bilan tajriba o'tkazishlari mumkin.

Sibelius va Finale – Asosan notalar bilan ishlashga mo'ljallangan bo'lib, musiqani yozib olish va tahrirlash imkonini beradi. Ustozlar va talabalar ushbu dasturlar orqali musiqqa yozish jarayonini tezlashtirishlari mumkin.

Yousician va Simply Piano – Ushbu ilovalar sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning musiqqa chalish qobiliyatini real vaqtda baholaydi va ularning xatolarini aniqlab, darhol tavsiyalar beradi.

Sun'iy intellekt (SI) bugungi kunda musiqqa ta'limida keng qo'llanilayotgan innovatsion vositalardan biri hisoblanadi. Uning yordamida o'quvchilarga

individual yondashuv asosida ta'lim berish, o'quv jarayonini optimallashtirish va musiqiy ko'nikmalarni samarali shakllantirish mumkin. Quyida sun'iy intellektning musiqa ta'limiga ta'sir etuvchi asosiy jihatlari keltiriladi:

Personalizatsiyalangan o'qitish. Sun'iy intellekt algoritmлари o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos keluvchi ta'lim dasturlarini taklif etadi. Bu esa har bir o'quvchi uchun individual yondashuvni ta'minlab, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Musiqa yaratish va kompozitsiya. Sun'iy intellektdan foydalanish musiqani avtomatik ravishda yaratish va tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, AIVA, Amper Music, Magentakabi SI asosidagi platformalar yordamida o'quvchilar o'z musiqalarini yaratishlari va ijodiy jarayonga jalb etilishlari mumkin.

Ovoz va nota tahlili. SI texnologiyalari yordamida o'quvchilarning ijrosini tahlil qilish, ularning xatolarini aniqlash va to'g'rilash mumkin. Misol uchun, SmartMusic va Melodics kabi dasturlar o'quvchilarning ijrosini real vaqt rejimida baholab, ularga kerakli tavsiyalar beradi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida musiqa ta'limining istiqbollari. Kelajakda musiqa ta'limida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yanada keng qo'llanilishi kutilmoqda. Quyida istiqbolli yo'nalishlar keltiriladi:

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR): Musiqa mashg'ulotlarini yanada interaktiv qilish orqali o'quvchilarga real tajriba berish.

Blokcheyn texnologiyalari: Sertifikatlash va mualliflik huquqlarini himoya qilishda qo'llash.

Himoyalangan onlayn ta'lim tizimlari: O'qitish jarayonini yanada samarali va xavfsiz qilish.

Aqlli musiqa o'rganish tizimlari: O'quvchilarning qobiliyatlarini oldindan tahlil qilib, ularga mos kurslarni tavsiya qilish.

Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish o'quv jarayonini innovatsion va samarali qilish imkonini beradi. Musiqiy bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish, shaxsiy yondashuvni kuchaytirish va o'qituvchilarning yuklamasini kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, bu texnologiyalar musiqa ijodkorligi va kompozitsiyasini rivojlantirish, o'quvchilarning iste'dodini aniqlash hamda yangi musiqiy texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini beradi. Shu boisdan, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni yanada chuqurroq joriy etish, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish va xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ushbu jarayon yanada takomillashib, musiqa ta'limining rivojlanishiga katta hissa qo'shishi kutilmoqda.

Takliflarim:

Musiqqa ta'limida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish – Raqamli texnologiyalarni ta'lim dasturlariga integratsiya qilish bo'yicha aniq takliflar kiritish mumkin. Masalan, musiqqa maktablarida FL Studio yoki Sibelius bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish.

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlarni rivojlantirish – Hozirda mavjud sun'iy intellekt dasturlarining qaysi yo'nalishlari kamroq rivojlangan va ularni qanday takomillashtirish mumkinligi haqida fikr yuritish. Masalan, musiqani o'rgatuvchi sun'iy intellekt dasturlarida interaktiv baholash tizimini yanada rivojlantirish.

Xalqaro tajribalarni o'rganish va ta'lim tizimiga integratsiya qilish – Aniq bir mamlakat tajribasiga murojaat qilinishi mumkin. Dunyo bo'ylab ko'plab rivojlangan mamlakatlar musiqqa ta'limida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan faol foydalanmoqda. Quyida AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlarning tajribalari ko'rib chiqiladi.

AQShda musiqqa ta'limi uchun maxsus raqamli platformalar ishlab chiqilgan. Masalan: Berklee College of Music va Juilliard School kabi nufuzli ta'lim muassasalari onlayn ta'lim dasturlari orqali talabalariga GarageBand, Ableton Live va Logic Pro kabi texnologiyalarni o'rgatmoqda.

Coursera, UdeMy va Berklee Online kabi platformalar orqali musiqqa kompozitsiyasi va ovoq yozish bo'yicha kurslar taqdim etilmoqda.

AQShda Soundtrap for Education va Flat.io kabi sun'iy intellekt asosidagi dasturlar o'quvchilarga notalarni yozish va musiqiy kompozitsiyalar yaratish imkonini beradi.

Germaniya musiqqa ta'limida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha etakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Max Planck Institute tadqiqotchilari sun'iy intellekt asosida musiqqa yaratish texnologiyalarini ishlab chiqmoqda.

Hochschule für Musik und Theater München musiqqa kompozitsiyasi bo'yicha AI yordamida interaktiv kurslar taqdim etmoqda.

Steinberg Cubase dasturi Germaniyada ishlab chiqilgan bo'lib, u musiqqa ta'limida keng foydalaniladi va o'quvchilarga professional darajada aralash va mastering qilishni o'rgatadi.

Janubiy Koreya raqamli texnologiyalarni musiqqa ta'limida qo'llashda katta yutuqlarga erishgan:

Seoul National University va Korea Advanced Institute of Science & Technology (KAIST) musiqqa ta'limida virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarini faol qo'llamoqda.

Melon AI Music Studio Koreyada o'quvchilarga sun'iy intellekt yordamida musiqqa yaratishni o'rgatadigan ilg'or platformalardan biri hisoblanadi.

Yousician va Simply Piano kabi ilovalar Janubiy Koreyada juda ommalashgan bo'lib, o'quvchilarga real vaqtda musiqa chalishni o'rgatadi va ularning ijrosini tahlil qiladi.

Buyuk Britaniya musiqa ta'limida onlayn platformalar va sun'iy intellekt dasturlaridan keng foydalanadi:

Royal College of Music va Guildhall School of Music & Drama musiqa ta'limida AI texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqot olib bormoqda.

BBC Music Education loyihasi o'quvchilarga turli raqamli dasturlar orqali musiqa o'rganish imkoniyatini yaratmoqda.

Music First kabi sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan platformalar Buyuk Britaniyada musiqa ta'limini raqamlashtirishga katta hissa qo'shmoqda.

Yuqoridagi xalqaro tajribalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Musiqa ta'limida xalqaro standartlarga mos texnologiyalarni joriy etish – Masalan, Koreya va AQSh tajribasidan kelib chiqib, VR va AI asosida interaktiv kurslar yaratish;

Onlayn ta'lim platformalarini rivojlantirish – Germaniya va Buyuk Britaniyada bo'lgani kabi musiqa ta'limi bo'yicha maxsus raqamli kurslarni yo'lga qo'yish.

Sun'iy intellekt asosida personalizatsiyalangan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish – AQSh va Koreyada ishlatilayotgan Yousician, Simply Piano kabi ilovalarga o'xshash dasturlarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish.

Milliy musiqa ta'limiga moslashgan raqamli dasturlarni ishlab chiqish – Mahalliy kompozitorlar va o'qituvchilar uchun raqamli musiqa o'qitish bo'yicha maxsus AI asosida dasturlar yaratish.

Shunday qilib, musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, o'quv jarayonining sifatini oshirish va yangi avlod musiqachilarini tayyorlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalarning imkoniyatlarini to'liq ishga solish orqali biz kelajakda yanada samarali va innovatsion musiqa ta'limi tizimini yaratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov, S. (2020). Musiqa ta'limining innovatsion metodlari. Toshkent: Fan.
2. Ismoilov, B. (2021). Raqamli texnologiyalar va ta'lim. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Brown, A. R. (2018). Music Technology and Education. Routledge.
4. Smith, J. (2019). Artificial Intelligence in Music Learning. Springer.
5. Jones, M. (2022). Digital Learning in Music Education. Cambridge University Press.

Yusupov Asliddin Baxodirovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi jo'rnavozi

MILLIY MUMTOZ MUSIQA TARG'IBOTINING PROFESSIONAL TA'LIM VA O'RTA TA'LIMDAGI O'RNI

Annotatsiya: Maqolada professional ta'lim va o'rta maktablar, musiqa san'at maktablari hamkorlikda mumtoz musiqamizni targ'ib qilish va tinglash samaradorligini oshirish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar yoritilgan. Musiqa fani o'qituvchilarning salohiyati va kadrlar masalasida qilinishi kerak ishlar tahlilqilingan.

Kalit so'zlar: milliy musiqa, ta'lim tarbiya, online tizim, intellektual, psixologik ixtiyoj, estetik extiyoj.

Annotation: The article covers the work that must be done to promote our classical music in cooperation with professional education and high schools, schools of Music Arts and to improve the efficiency of listening. Music should be done in the matter of the potential of teachers and personnel works analyzed.

Keywords: National Music, Education Education, online system, intellectual, psychological discretion, aesthetic extensibility.

Musiqa vositasida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatari va ularning ahamiyati juda ham muhim o'rin kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.11.2024 yildagi PQ-391- sonqarori "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda bolalarni vatanparvarlik hamda milliy an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, zamonaviy bilim va tajriba, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazish bilan bir qatorda ularni madaniyat va san'at sohasiga qamrab olish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bolalarni madaniyat va san'atga keng jalb qilish, ular bilan tizimli ishlash, madaniyat va san'at muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish borasida qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.⁶Musiqa vositasida milliy ruhda tarbiyalashning yana bir muhim metodlaridan biri bu o'rta-ta'lim maktablarida radio eshittirgichlarning ko'paytirilishi. Chunki estrada san'atining har xil yo'nalishlari qaysidir ma'noda o'quvchilarning psixologik ongiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Milliy musiqamizda bastakorlik san'ati asarlari bilan

⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.11.2024 yildagi PQ-391-sonqarori. Lex.uz

yoshlar psixologiyasiga yaxshi ta'sir o'tkazish va ularni milliy ruhda ulg'ayishida yordam beradi.

Biz bilamiz Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida "Nazm va Navo" konsertlari bo'ladi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida, Turkiston san'at saroylarida bo'layotgan milliy musiqamiz to'g'risidagi konsertlarga o'rta ta'lim maktablari va bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari va o'qituvchilar jalb qilinishi kerak deb o'ylayman chunki bu narsa kelajakda albatta o'z ta'sir kuchini ko'rsatadi. O'rta maktablar va musiqa maktablari bir birlari bilan ijodiy hamkorlikda musiqiy ijodiy kechalar tashkil qilishsa ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'rta ta'lim maktablarida kadrlar masalasi ham dolzarbligicha turibdi. Chunki o'zi yaxshi bilmagan o'qituvchi hech qachon talaba yoki o'quvchiga etarli darajada bilim bera olmaydi. Buni ta'kidlashimning sababi shundaki, izlanishlar natijasida 2020-2021 yillarda mamlakatimizda karantin e'lon qilinganligi sababli darslarimiz va har qanday ta'lim beruvchi bilim yurtlari oflayn tizimdan online tizimga o'tkazilgan. Shunda vazifalar, darslar video xabarlar orqali tashkil qilingan edi. Shu davrmobaynidaaminbo'ldikki, hozirgikunda ham pedagog kadrlarning ham musiqiy salohiyati biz o'ylagan darajada yaxshi emasligiga guvoh bo'ldik. Bunday holatlar, maqsadlarimizga erishishimizga to'sqinlik bo'lib qolishi mumkin. Milliy musiqamiz orqali yoshlarning dunyo qarashini keng ma'noda rivojlantirmoqchi bo'lsak, bu jarayonga yanada mukammalroq yondashish lozim. Ya'ni o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanidan dars beruvchi kadrlarni ishga olishda ularning musiqiy salohiyatiga katta e'tibor qaratilishi lozim. Kadrning o'quvchiga ma'lumotni nima ekanligini etkazib berishi muhim masaladir.

Xalq musiqasi orqali yoshlar ta'lim-tarbiyasi erkin, mustaqil fikrlash imkoniyatlarini chuqurlashtirish, intellektul zukkolik, ehtiyotkorlik, mulohazakorlik bilan fikrlashga o'rgatishdir. Yoshlarni mustaqil fikrlashga, imkon yaratish va uni tarbiyalashda yoshlarning taffakuri, salohiyati shakllanishining fiziologik, biologik, psixologik jihatlarini hisobga olmay yondashib bo'lmaydi.⁷Fikrlash imkoniyati endigina shakllana yotgan yoshlar bu faoliyatni o'z aqli bilan mustaqil hal etishga harakat qilishlari lozim. Shu bois yoshlar ta'lim- tarbiyasining vositalaridan biri xalq musiqasi mazmunidagi do'stlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, zukkolik, tadbirkorlik, ozodalik, xushfellik, mardlik, samamiylik, ziyraklik, lutfqarashlilik, shinavandlik, tashabbuskorlik, ona yurt va xalqiga muhabbat, diyonatlilik, rostgo'ylik, xalollik, or-nomuslilik, vazminlik, xojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat

⁷Qurbonov, A. (2023). O'zbek musiqa merosining yoshlar ongida shakllanishi. <https://tilvaadabiyot.uz/musiqa-tarbiya>

qilish, mehnatsevarlik, millat parvarlik singari fazilatlar ularning mustaqil fikrlash faoliyatini o'zagini tashkil etmog'I lozim. Bu milliy ahloqiy qadriyatlarni yoshlarga chuqur singdirish ularning kamolotiga asos bo'ladi.

Milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri kishilarda yuksak ahloqiy fazilatlarini shakllantirishdir. O'zbeklar hamma vaqt, ahloq, odob, tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat berib kelishgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, ahloqiy kamolot inson hayotida burch va g'oyalar, yaxshilik, e'tiqodni shakllanishiga asos bo'ladi

Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka etaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Inson hayotini musiqa san'ati siz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvida ham muhim o'rin o'ynaydi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.⁸

Musiqa go'zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug'ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta'sirida paydo bo'lgan. Tashqi olamni o'zgartirish bilan insonning o'zi ham o'zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma'naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib bordi. Musiqa san'ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog'liqdir. Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo'lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko'rsatishdir. Shu ma'noda uning o'rnini hech bir narsa bosaolmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o'rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo'lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

Hozirgi kunda milliy musiqamizni o'rgatishdagi pedagogika-psixologiyani galdagi vazifasidan yana biri bu milliy musiqamizning boshqa ijro yo'llari haqida to'g'ri tushuncha berib ularning farqlari va imkoniyatlarini to'g'ri tushuntirishdir. Harbir san'at turi singari musiqa san'ati ham juda qadim zamonlarda, odamlar g'orlarda yashab, tosh qurollaridan foydalanib, hayvon terilarini yopinib yurgan o'tmish davrlarida paydo bo'lgan. O'quvchilarning

⁸Yuldashev, A. (2020). Milliy musiqa va yoshlar tarbiyasi. <https://ziyonet.uz/uz/news/view/3907>

umumiy rivojlanish, uning kelajakdagi mashg'ulotlari, kasbi to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan intellektual ehtiyoj va qiziqishlarining kengayishi, musiqiy estetik va emotsional rivojlanishi mustaqil hamda sinfdan tashqari musiqiy tarbiya bilan bog'liq. Sinfdan tashqari ishlarda maktab o'quvchisining har qanday faoliyatini tashkil etishning umumiy tamoyillari mavjud. Ular sinfdan tashqari musiqaga ham bevosita aloqador. Sinfdan tashqari musiqiy tarbiya qiziqarli, foydali bo'lishi va bolani rivojlantirish uchun sinfdan tashqari musiqa tizimi tavsiya etilayotgan repertuar ijrochining yoshiga xos, psixologik-pedagogik imkoniyatlariga uning aqliy rivojlanish darajasiga, g'oyaviy-badiiy ahamiyati to'g'risidagi hozirgi mezonlarga, umum ta'lim maktabining o'qitish-tarbiyalash jarayonida mavjud bo'lgan umumiy rivojlanish tamoyillariga muvofiq kelishi borasidagi asosiy talablarga zid bo'lmasligi kerak. Maktab o'quvchisining musiqiy iste'dod sifatida rivojlanishida izchillik tamoyilini to'g'ri tushunish va ta'minlash katta ahamiyata egadir. Sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarida qalbga yangicha his tuyg'ular olib kirgan, hayotdagi yangi xodisalarga qiziqish uyg'otgan musiqa asari to'g'risida jonli va samimiy suhbatda dunyo qarash karakteridagi savollar tug'iladi. Musiqa asarlari xozirgi davrning eng jiddiy hayotiy muammolariga insonning munosabatini ko'rsatuvchi asarlarni shu qadar ko'p beradiki, sinfdan tashqari musiqa saboqlari bevosita musiqiy va estetik tuyg'ular maktabiga aylanib qoladi.⁹

Yoshlarni musiqa orqali ma'naviy va axloqiy tarbiyalashning muhim pedagogik tamoyillaridan biri tarbiya usullariga ma'naviy va ijodiy yondashish zaruriyatidir. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarining musiqa madaniyatini shakllantirishda, o'quv jarayonini innavatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligiga erishishning muhim pedagogik omillaridan biridir. Musiqa o'qituvchisi kasbiy faoliyatida innavatsion texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga kuchayib bormoqda. Albatta musiqa madaniyati darslarini ham zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilish hozirgi kun talabidir. Bunday ishlarni kerak bo'lsa dastlabki bugun hisoblangan maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash davr talabidir. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Darslar davomida har bir musiqiy

⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-391-son qarori (2024). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini takomillashtirish to'g'risida. <https://lex.uz/docs/7528372>

asarda muayyan voqelik, his-tuyg‘u va mazmun bo‘lishi haqida o‘quvchilarga dunyoqarashiga mos tarzda tushuntiriladi. Shu orqali bolalarda musiqiy taassurot va tinglash ko‘nikmasi shakllanadi. Tinglash faoliyatini butun dars davomida olib borish o‘quvchining asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida muayyan bilimlarga ega bo‘lishiga yordam beradi, tinglash madaniyatini shakllantiradi.

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an‘anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma‘naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda.¹⁰

Musiqa darslarida o‘quvchilarni o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda musiqa tinglash faoliyat turining ham salmog‘i katta. Uning nazariy va amaliy asoslari mazmunini quyidagicha yoritish maqsadga muvofiq. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko‘ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo‘liga yo‘naltirilgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qurbonov, A. (2023). O‘zbek musiqa merosining yoshlar ongida shakllanishi.<https://tilvaadabiyot.uz/musiqa-tarbiya>
2. Schmidt, P. (2009). Democratizing Music Education: The Role of Culture and Context.<https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/14613800903151575>
3. Turaev, B. (2021). Musiqa fanining ta‘limdagi o‘rni va estetik tarbiyada tutgan o‘rni. O‘zDJTU ilmiy jurnali.<https://journal.tsul.uz/index.php/musicedu>
4. UNESCO. (2010). The Importance of Music Education.<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000187392>
5. Yuldashev A. (2020). Milliy musiqa va yoshlar tarbiyasi.<https://ziyonet.uz/uz/news/view/3907>

¹⁰Turaev, B. (2021). Musiqa fanining ta‘limdagi o‘rni va estetik tarbiyada tutgan o‘rni. O‘zDJTUilmiyjurnali.<https://journal.tsul.uz/index.php/musicedu>

Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT O'RTASIDAGI INTEGRATSIYA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa va tasviriy san'at fanlarini o'zaro integratsiyalash va shu asosida o'qitishning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *fanlararo integratsiya, musiqa, tasviriy san'at, estetik did, obrazli tafakkur, tovush va rang, ijodiy o'qitish, badiiy idrok.*

Abstract: *This article analyzes the integration of music and fine arts subjects and, based on this, the role and importance of teaching in the educational process. Practical recommendations for the practical implementation of this approach are also given.*

Keywords: *interdisciplinary integration, music, fine arts, aesthetic taste, figurative thinking, sound and color, creative learning, artistic perception.*

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya konsepsiyasi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, san'at yo'nalishidagi fanlarni — xususan, musiqa va tasviriy san'atni integratsiyalashgan holda o'qitish, yoshlarning badiiy-estetik didini shakllantirish, ularning emotsional-intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa va tasviriy san'at – bu ikki san'at turi har xil ifoda vositalariga ega bo'lsa-da, ularning asosiy vazifasi inson qalbiga estetik zavq bag'ishlash, hayot hodisalarini badiiy obrazlar orqali ifodalashdan iboratdir. Ushbu fanlarning uyg'unlashtirilgan o'qitilishi o'quvchilarga san'atni ko'p qirrali va chuqurroq anglash imkonini beradi. Musiqa tinglab chizish, kompozitsiyada ritm va rang uyg'unligini izlash, emotsional holatlarni tovush va tasvir orqali ifodalash kabi mashg'ulotlar orqali talabalarning tasavvuri, hissiyoti va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Fanlararo integratsiya – bu turli o'quv fanlari o'rtasida uzviy aloqadorlikni yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni yaxlit holda shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ta'limiy yondashuvdir. Ayniqsa, musiqa va tasviriy san'at fanlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonini badiiy-estetik yo'nalishda boyitish imkoniyati tug'iladi. Bu integratsion yondashuv boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning estetik

didi, badiiy tafakkuri hamda san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Mazkur ikki fan uyg'unligida rang, tovush, ritm, shakl, kompozitsiya kabi san'atga xos asosiy tushunchalar bir-birini to'ldirgan holda chuqurroq anglanadi. Masalan, dars davomida musiqa asarini tinglab, undagi ohang, ritm va kayfiyatni rasm orqali ifodalash mashqlari o'quvchilarda nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini, balki tasviriy san'at bilan obraz yaratish va estetik idrokni ham kompleks rivojlantiradi. Aksincha, rasm chizish jarayonida musiqa fonidan foydalanish esa o'quvchilarning emotsional holatini faollashtirib, ular yaratgan badiiy obrazlarni chuqurroq his qilishlariga ko'maklashadi.

Integratsiyalashgan yondashuvning o'ziga xos afzalligi shundaki, u o'quvchilarda ijodiy tafakkurni, estetik qarashlarni va madaniy merosga bo'lgan hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Musiqa va tasviriy san'atfanlarini yagona badiiy-estetik makon sifatida ko'rib chiqish, ularni tematik, emotsional va didaktik jihatdan uyg'unlashtirish zamonaviy ta'lim konsepsiyasining dolzarb talabi hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'plab umum ta'lim maktablari va san'atga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida bu integratsion model muvaffaqiyatli amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Tasviriy san'at va musiqaning uyg'unligi qadim zamonlardan boshlab mavjud. Sharq miniatyuralarida musiqachilar va musiqiy cholg'u asboblarning tasviri madaniy hayotning ajralmas qismi bo'lgan. Masalan, Kamoliddin Behzodning miniatyuralarida musiqiy cholg'u asboblari tasvirlanib, ularning marosimlar va bayramlardagi ahamiyati ko'rsatilgan. G'arb san'atida esa, masalan, Leonardo da Vinchi, Karavadjo, P.P.Rubens, Diego Velaskes, Yan Vermeer, Antuan Vatto, Edvard Mone va Pablo Pikasso kabi rassomlar musiqiy asboblarni insonning emotsional holatini ko'rsatish vositasi sifatida tasvirlashdi.¹¹

Musiqa va tasviriy san'at kabi emotsional ifodaga boy fanlar o'zaro uyg'unlashganida, inson qalbida o'chmas taassurot qoldiradi. Har bir musiqiy ohang yoki rasm muallifining ichki kechinmalarini, dunyoqarashini, hissiyotini ifoda etadi. Bu borada taniqli rus bastakori Dmitriy Kabalevskiy quyidagicha ta'kidlaydi:

“Mana, Chaykovskiy musiqasi. Albatta, rus musiqasida tabiatga bag'ishlangan sahifalar undan oldin ham yangragan, ammo rus kompozitorlarining hech biri Chaykovskiy kabi rus manzarasining ohangini topa olmadi. Ayniqsa, yilning 12 oyiga bag'ishlangan o'n ikki qismli “Fasllar”

¹¹Axmedova, N. (2024). San'atdagi simfoniya: musiqa va tasviriy san'atning cheksiz uyg'unligi. *Nordic_Press*, 3 (0003).

kompozitsiyasida o'zining beqiyos soddaligi va birdek aql bovar qilmaydigan ichki manzarasi bilan hayratga soladi. Biz bu pyesani tinglagan fursat, ularni ko'ra olamiz".¹²

Bu so'zlar musiqaning obrazli kuchini, tasvir yaratishdagi imkoniyatlarini ifodalabgina qolmay, uning tasviriy san'at bilan qanday uyg'unlashishini ham ko'rsatadi. Haqiqatan ham, musiqa go'yoki ranglar bilan chizilgan bir asardek tuyulsa, tasviriy san'at esa go'yoki tovushlardan iborat kuyga o'xshaydi. Ikkala yo'nalish ham inson hissiyotlariga bevosita ta'sir etadi, ularni uyg'otadi, rivojlantiradi va boyitadi.

Musiqa va tasviriy san'at o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ritm, ohang, garmoniya kabi musiqiy elementlar bilan rang, shakl, kompozitsiya kabi tasviriy san'at vositalarining uyg'unlashuvi talabalarga badiiy va estetik mazmunni yaratishning yangi usullarini taqdim etadi. Musiqa va tasviriy san'atning badiiy mazmunini uyg'unlashtirishda turli amaliy usullar, texnikalar va metodlar ishlab chiqiladi.¹³

Mazkur yondashuvni amalda sinab ko'rgan bir qator ta'lim muassasalari tajribasi buni yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "San'atshunoslik" fakulteti, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasida tashkil etilgan "Art studio" ijodiy markazida musiqa va tasviriy san'at fanlari o'rtasidagi integratsion yondashuv asosida "Tovush va rang sintezi" deb nomlangan maxsus loyiha amalga oshirildi. Bu loyiha davomida o'quvchilarga mashhur bastakorlarning asarlari tinglatilib, ular shu asarlarda aks etgan kayfiyat, dinamika va ritmga mos rang, shakl va kompozitsiyalar yaratish bilan shug'ullanishdi. Tajriba natijalariga ko'ra, bu integratsion mashg'ulotlarda qatnashgan o'quvchilarning 78 foizi o'z estetik idroklari va obrazli tafakkurining rivojlanganini bildirgan. Bu ikki san'at fanlarini integratsiyalash orqali nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi, balki ularning qalbida san'atga bo'lgan muhabbat, milliy va jahon madaniyatiga nisbatan hurmat tuyg'usi shakllanadi. Ayniqsa, bunday yondashuv yosh avlodda estetik qadriyatlarni anglash, san'at orqali o'z ichki dunyosini ifodalashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga chiqaradi.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda musiqa va tasviriy san'at fanlari o'rtasidagi integratsiyani ta'lim jarayoniga yanada samarali joriy etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Fanlararo integratsiyalashgan dars ishlanmalarini yaratish va ularni amaliyotda keng qo'llash;

¹²Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. PEDAGOGS Jurnal, 31(1), 142–148.

¹³ Sultanov X.E. Baynazarova N.X. Integratsiya asosida tasviriy san'at va musiqa darslarini tashkil etish. (2025). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 40(2), 25-32.

- Musiqa va tasviriy san'at o'qituvchilari uchun qo'shma seminar-treninglar tashkil etish orqali ular o'rtasida tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish;

- Umumiy o'rta ta'lim hamda musiqa va san'at maktablarida "Tovushva rang sintezi" loyihalarini amalga oshirish (Bunda o'quvchilarning estetik didini rivojlantiruvchi interaktiv mashg'ulotlar tashkil etiladi);

- O'quvchilarning ijodiy ishlari asosida ko'rgazmalar va musiqali badiiy chiqishlar uyushtirib, ularning estetik-intellektual rivojiga ko'maklashish.

Xulosa qilib aytganda, musiqa va tasviriy san'at fanlarini integratsiyalashga asoslangan ta'lim asosida o'quvchilarda badiiy-estetik dunyo qarashni shakllanadi, obrazli fikrlash rivojlanadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchi nafaqat musiqiy va tasviriy tasavvurini boyitadi, balki o'z ichki dunyosini, hissiyotlarini badiiy vositalar orqali ifoda etishga intiladi. Integratsiyalashgan ta'lim modeli zamonaviy pedagogikaning dolzarb talabi bo'lib, u orqali estetik tarbiya samaradorligini oshirish, madaniy merosga hurmatni shakllantirish va ijodiy shaxs etishtirish imkoniyati tug'iladi. Shu bois, bu boradagi ilmiy-amaliy izlanishlar davom ettirilib, o'qituvchilar faoliyatida keng qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Axmedova, N. (2024). San'atdagi simfoniya: musiqa va tasviriy san'atning cheksiz uyg'unligi. *Nordic_Press*, 3(0003).
2. Abduvoitovich, B. D. (2024). Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida badiiy studiyalarni tashkil etishning ahamiyati. *Iqro indexing*, 10 (1), 177-181.
3. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. *Pedagogs Jurnal*, 31(1), 142–148.
4. Sultanov X.E. Baynazarova N.X. Integratsiya asosida tasviriy san'at va musiqa darslarini tashkil etish. (2025). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 40(2), 25-32.

DO'MBIRA VA DUTOR: TURKIY XALQLARNING MILLIY MUSIQIY ASBOBLARINI TAQQOSLASH

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy xalqlarning milliy musiqiy asboblari bo'lgan do'mbira va dutor o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar tahlil qilinadi. Ushbu asboblarning nafaqat musiqiy vositalar, balki xalqning ma'naviy merosi, tarixiy xotirasi va madaniy identifikatsiyasining ramzidir. Dombra va dutorning kelib chiqish tarixi, tuzilishi, ijro uslubi, va ular o'ynaydigan roli haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada har ikki asbobning bugungi holati va kelajagi hamda ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqola turkiy xalqlar madaniyati va musiqiy san'ati sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Do'mbira, dutor, milliy cholg'u asboblari, turkiy xalqlar, madaniy meros, musiqa san'ati, ijrochilik, yosh avlod tarbiyasi, an'ana, zamonaviylik.

Annotation: This section analyzes the cultural significance and spiritual value of the dombra and dutar in the lives of their respective peoples. For the Kazakh people, the dombra is more than a musical instrument; it is a symbol of national identity, independence, and spirit. The dutar, in turn, is considered a lyrical and emotional companion for Uzbek and Turkmen cultures. Both instruments play a key role in preserving the historical memory, traditions, and worldview of their nations.

Keywords: Dombra, dutor, national musical instruments, Turkic peoples, cultural heritage, musical art, performance, youth education, tradition, modernity.

Musiqiy asboblarning – xalqning ma'naviy qiyofasi, milliy fe'l-atvori va dunyoqarashining ifodasidir. Har bir xalqning yuragidan chiqqan ohang, o'sha xalqning turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq. Qozog'iston xalqi uchun dombra qanday muqaddas bo'lsa, o'zbek, turkman va tojik xalqlari uchun dutor ham shunday muqaddasdir. Bu ikki asbob turkiy xalqlarning umumiy madaniy ildizlaridan oziqlangan, torli cholg'u asboblari turkumiga kiradi. Dombra va dutor – asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, bugungi kunga etib kelgan, xalq hayoti va san'atining guvohi bo'lgan asboblardir. Ular orqali xalqning tarixi, dardi, quvonchi va orzusi kuy bo'lib chalangan. Bu asboblarning ohangida xalqning ichki sirlari, milliy ruhi va ulug' orzusi mujassam. Shuning uchun dombra va

dutorga faqat torli cholgʻu asbobi sifatida emas, balki xalqning ichki olamini ifodalovchi maʼnaviy vosita sifatida qarash kerak.

Mazkur maqolada ushbu ikki asbobning kelib chiqish tarixi, tuzilishi, musiqiy xususiyatlari hamda eng muhimi – madaniy va maʼnaviy ahamiyati taqqoslab tahlil qilinadi. Dombra va dutor ohangida har bir xalqning qalbi soʻzlashishini koʻrsatish – ushbu ishning asosiy maqsadidir.

Asosiy boʻlim

1. Kelib chiqishi va tarixiy asoslari.

Doʻmbra va dutor – qadimgi turkiy xalqlarning musiqiy madaniyatida alohida oʻrin egallagan asboblardir. Dombaning tarixi qadimgi sak va hun davrlariga borib taqaladi, degan ilmiy fikrlar mavjud. Arxeologik topilmalar va qadimiy toshdagi tasvirlar bu asbobning juda qadimdan mavjud boʻlganini isbotlaydi. Qozogʻiston xalqi uchun dombra – nafaqat musiqiy asbob, balki koʻchmanchi hayotning doʻsti, maʼnaviy meros tashuvchisidir.

Dutor ham qadimiy tarixga ega. Bu asbob asosan oʻzbek, turkman va tojik xalqlariga xos boʻlib, uning nomi fors tilida "ikki tor" degan maʼnoni bildiradi. Dutor Sharq madaniyatining gullagan davrlarida keng tarqalgan va poeziya, lirika bilan birga rivojlangan. Har ikkala asbob xalqning asrlar davomida toʻplagan musiqiy tajribasining mevasi hisoblanadi.

2. Tashqi tuzilishi va texnik xususiyatlari

Dombra va dutor tashqi koʻrinishda oʻxshash boʻlsa-da, ularning ayrim texnik jihatlari farqlanadi. Dombra odatda ikki torli va 19–21 pardali boʻladi. Tuzilishi ixcham, boʻyni ingichka, korpusi bir butun yogʻochdan yasalgan boʻlishi mumkin. Parda tizimi aniq musiqiy tovushlarni chalishga imkon beradi hamda shertpe va tokpe kuy uslublariga moslashgan.

Dutor ham ikki torli, biroq boʻyni uzoqroq va pardalari koʻpincha harakatlanadigan (koʻchma) boʻladi. Korpusi oval shaklda, torlari ipak yoki neylon materialdan tayyorlanadi. Dutorning tovushi yumshoq, chuqur va lirik xarakterga ega. Bu asbob asosan qoʻshiq kuylashga va sekin, hisli ohanglarni chalishga moʻljallangan. Bu farqlar har bir asbobga xos ijrochilik maktabini shakllantirgan.

3. Ijro uslubi va repertuari

Dombra – kuy sanʼatining asosiy cholgʻu asbobi. Qozogʻiston xalqining kuy anʼanasi ikki katta yoʻnalishga boʻlinadi: shertpe va tokpe. Shertpe kuylar nafis, falsafiy mazmunda boʻlsa, tokpe kuylar tezkor, harakatchan boʻladi. Dombra ijrochilari turli barmoq bosish, torni chertish va urish uslublaridan mahorat bilan foydalanadi. Kuylar asosan soʻzsiz ijro etiladi, yaʼni faqat musiqiy ohang orqali xalq fikri va tuygʻulari etkaziladi.

Dutor esa asosan qo'shiqlarni jo'r qilish uchun ishlatiladi. U orqali lirik, muhabbat mavzuidagi qo'shiqlar ijro etiladi. Dutorchilarning ijro uslubi cho'zilgan, sekin ohanglarga moslashtirilgan va ko'pincha she'rlar bilan uyg'un holda bo'ladi. Bu asbob ijrochidan nozik sezgirlik va chuqur lirizm talab qiladi.

4. Madaniy roli va ma'naviy ahamiyati

Dombra va dator – o'z xalqlarining milliy timsoliga aylangan, madaniy hayotining oynasi bo'lgan asboblardir. Dombra – qozog'iston xalqining mustaqillik, erkinlik va ruh timsolidir. U oilaviy, ijtimoiy va rasmiy tadbirlarda keng qo'llaniladi.

Dombra kuni, kuy bayramlari, maktab dasturlariga kiritilishi – bu asbobning bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'rsatadi.

Dutor ham o'zbek va turkman xalqlarining yurak torlarini chertadigan, ma'naviy hamrohi bo'lgan asbobdir. U ko'pincha muhabbat, sog'inch, dard kabi nozik his-tuyg'ularni ifodalaydi. Shoirlar va hofizlar dutorni jo'r asbobi sifatida ishlatib, chuqur poetik asarlar yaratgan.

Har ikki asbobning asosiy vazifasi – xalqning ichki olamini, ma'naviy hayotini ohang orqali etkazishdir. Bu asboblarning ohangida millatning ruhi, orzusi, maqsadi bor. Shu sababli dombra va dator – har bir xalqning madaniy merosini saqlab qolishda va ma'naviy qiyofasini kelajak avlodga etkazishda bebaho vositalardir.

5. Buguni va kelajagi

Hozirgi davrda dombra va dator kabi an'anaviy asboblarning yangi hayot topib, zamonaviy madaniyatning bir qismiga aylanmoqda. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlab qolish va uni yosh avlodga etkazish — asosiy vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan dombra va dator o'z o'rnini yo'qotgani yo'q, aksincha, yangicha sur'at bilan rivojlanmoqda.

Dombraning bugungi holati — Qozog'istonda juda obro'li. Maktablarda dombra darsi joriy etilgan, musiqiy maktablarda maxsus sinflar ochilgan. "Milliy dombra kuni" rasmiy ravishda tasdiqlangan va har yili keng nishonlanadi. Dombrada kuylaydigan yoshlarning soni oshib bormoqda, ijtimoiy tarmoqlarda turli loyihalar va chaqiriqlar orqali ommalashmoqda. Shuningdek, zamonaviy bastakorlar va ijrochilar dombrani jazz, rok, etno-fyujn yo'nalishlarida qo'llab, uning imkoniyatlarini kengaytirishmoqda.

Dutor esa bugungi kunda O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda musiqiy ta'lim tizimida saqlanib, rivojlanmoqda. O'zbek musiqa san'atida dator hanuzgacha an'anaviy qo'shiqlarni jo'r qilishda asosiy asbob sifatida ishlatiladi. Turkmanistonda esa milliy asboblarning orkestrlari tuzilmoqda, an'anaviy meroslar sahnaga moslashtirilmoqda.

Kelajakda bu ikki asbobning barqaror rivoji – yoshlarning qiziqishi va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. Bugungi kunda ular xalqaro festivallarda, turli san‘at loyihalarida keng targ‘ib qilinmoqda. Endi esa ular nafaqat an‘anaviy meros, balki zamonaviy musiqaga mos, ko‘p qirrali asbob sifatida tanitilishi lozim. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali bu asboblarning notaviy fondini tizimlashtirish, onlayn o‘qitish platformalarini yaratish, ustaxonalar va virtual konsertlar tashkil etish – ularning kelajagini mustahkamlovchi muhim qadamlardir.

Milliy cholg‘u asboblari nima uchun kerak?

Milliy cholg‘u asboblari – har bir xalqning yuragidan chiqqan ovoz, tarix va taqdir, urf-odat va ongning ifodasidir. Ular – shunchaki musiqiy vosita emas, balki millatning ma‘naviy kodi, asrlar davomida shakllangan dunyoqarashining oynasi.

Birinchidan, ular xalqning tarixiy xotirasini saqlab qoladi. Masalan, dombra va qobiz kuylarida qahramonlik dostonlari, xalq dardi, quvonchi va orzusi ifodalanadi. Ular orqali biz ajdodlarimizning nimalardan quvonganini, nimalarga qayg‘urganini his qilamiz. Bu – avlodlar orasidagi bog‘liqlik belgisi.

Ikkinchidan, milliy asboblari – madaniy identifikatsiyaning ramzi. Dunyo qanchalik xalqning “musiqiy globalashmasin, har bir xalq o‘z musiqasini saqlashi lozim. Milliy asbob – o‘sha asporti”. U orqali xalqlar bir-birini taniydi, qadrlaydi.

Uchinchidan, milliy cholg‘u asboblari – tarbiya vositasi. Ular orqali yosh avlod milliy san‘atga, urf-odatlariga o‘rgatiladi. Maktabdagi dombra saboqlari – bu faqat musiqa emas, balki ruh va tarbiyaning maktabidir.

To‘rtinchidan, bugungi kunda milliy asboblari – ijod manbai. Bastakorlar va ijrochilar ularni zamonaviy yo‘nalishlarga moslab, dunyo sahnasiga olib chiqmoqda. Bu – madaniyatning rivoji va yangilanishi belgisi.

Shuning uchun milliy cholg‘u asboblari – o‘tmishning yodgorligi emas, balki bugunning ruhi, kelajakning umididir. Ularni saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish – har bir avlodning muqaddas vazifasidir.

Dombra va dutor – turkiy xalqlarning ma‘naviy olamini, estetik didini va hayot tarzini ifodalovchi bebaho merosdir. Bu asboblari faqat musiqiy vosita emas, balki millatning ichki olamini so‘zlovchi muqaddas ramzdir. Ularning har bir ohangida xalq yuragidan chiqqan chinakam tuyg‘u, tarix va ma‘naviyat mujassam. Vaqt o‘tishi bilan bu asboblari o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, yangi shaklga kirib, zamonaviy sahnada ham o‘z o‘rnini topmoqda. Yoshlarning qiziqishi, davlat yordami va raqamli imkoniyatlar – dombra va dutorning kelajagiga ishonch bilan qarashga asos beradi.

Milliy cholgʻu asboblari asrash – bu faqat sanʼatni emas, balki xalqning ruhini, tilini va madaniyatini asrashdir. Dombra va dutor ohangida asrlar nafasi bor. Shu sababli ularning ovozi hech qachon soʻnmasligi kerak. Bu – bugungi va kelajak avlodning umumiy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Jumayev, S. Qozogʻiston xalq cholgʻulari. – Ostona: "Madeniet", 2018.
2. Yuldoshev, A. Oʻzbek milliy cholgʻu asboblari tarixi. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Orazbekova, G. Dombraning musiqiy xususiyatlari va ijrochilik sanʼati. – Almati: Sanʼat, 2020.
4. UNESCO. Traditional musical instruments of Central Asia. – Paris: UNESCO Publishing, 2016.
5. Toʻraqulov, M. Sharq xalqlari musiqasi tarixidan. – Samarqand: Sanʼat nuri, 2018.

Usmonov Farrux Qaxramon o'g'li,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Xalq ijodiyoti” fakulteti Ashula va raqs”
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

ZAMONAVIY IJTIMOIIY TARMOQLAR VA MUSIQA MADANIYATI: TIKTOK MISOLIDA SAN'ATNING RAQAMLI ISTE'MOLI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tik Tok platformasi orqali shakllanayotgan musiqa madaniyati va uning yoshlar tafakkuriga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. Musiqaning qisqa formatda iste'mol qilinishi natijasida uning badiiy va estetik qiymatining pasayishi masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlarning san'at iste'molidagi roli va uning yuzaki qabul qilinishining oqibatlarini baholanadi.*

Kalit so'zlar: *TikTok, musiqa madaniyati, yoshlar tafakkuri, ijtimoiy tarmoqlar, musiqa iste'moli, an'anaviy musiqa, O'zbekiston san'ati, musiqiy savodxonlik, ommaviy madaniyat, san'atning tijoratlashuvi.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the musical culture being formed through the TikTok platform and its impact on the thinking of young people. The issue of the decline in the artistic and aesthetic value of music as a result of its short-form consumption is considered. The study assesses the role of social networks in the consumption of art and the consequences of its superficial acceptance.*

Key words: *TikTok, musical culture, youth thinking, social networks, music consumption, traditional music, Uzbek art, musical literacy, mass culture, commercialization of art.*

So'nggi yillarda TikTok ijtimoiy tarmog'i global miqyosda musiqa sanoatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy platformalardan biriga aylandi. 2016-yilda ByteDance kompaniyasi tomonidan ishga tushirilgan TikTok dastlab Xitoyda “Douyin” nomi bilan ommalashdi va keyinchalik xalqaro bozorda katta auditoriyani o'ziga jalb qildi. Bugungi kunda TikTok 150 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritib, 1 milliarddan ortiq foydalanuvchiga ega.

TikTok foydalanuvchilarning qisqa video kontent yaratish va tarqatish imkoniyatini kengaytirdi, ayniqsa musiqa sanoati bilan chambarchas bog'liq trendlar shakllandi. Ushbu platformada turli musiqiy janrlar mashhurlik darajasiga ko'tarildi yoki unutildi. 2023-yilgi statistikaga ko'ra, TikTok foydalanuvchilarining 75%dan ko'prog'i musiqani platforma orqali kashf etganini bildirgan bo'lsa, 67% dan ortiqrog'i esa TikTokda eshitgan qo'shig'ini keyinchalik boshqa platformalarda tinglashga qaror qilganliklari ma'lum

bo'lgan.¹⁴Shu bilan birga, TikTok musiqa sanoatining tijoratlashuvini tezlashtirdi va san'atning estetik yondashuviga ta'sir qildi. Maqolada TikTok musiqa madaniyatining xususiyatlari, uning yoshlar tafakkuriga ta'siri hamda san'atni yuzaki iste'mol qilish fenomeni tahlil qilinadi.

TikTok musiqa madaniyatining xususiyatlari. TikTok platformasi orqali musiqaning mashhurligi tez o'sib borishi kuzatilmoqda.¹⁵Platforma foydalanuvchilari qisqa musiqiy parchalar asosida videolar yaratadilar, natijada to'liq musiqiy asarning o'rniga faqatgina trendga aylangan qismlar iste'mol qilinadi. Bu esa musiqaning umumiy badiiy yuki va kontekstining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. TikTok musiqa madaniyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- **Qisqa format** – musiqalar 15-60 soniya ichida tarqatiladi;
- **Viral omil** – trendlar orqali tarqalish tezligi yuqori;
- **Kontekstdan uzilish** – musiqaning mazmuni ko'pincha vizual effektlar bilan bog'liq bo'lib, uni mustaqil san'at namunasi sifatida qabul qilish qiyinlashadi.

Yoshlar tafakkuriga ta'siri. TikTok orqali iste'mol qilinayotgan musiqalar yoshlar tafakkuriga turlicha ta'sir qiladi. Ushbu platformada tezkor axborot almashinuvi natijasida diqqatni jamlash qobiliyati pasayishi va badiiy-estetik tahlil qilish ko'nikmalarining zaiflashishi mumkin.¹⁶Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- Yoshlar musiqiy asarlarni chuqur tushunish va baholash o'rniga ularning yuzaki trend jihatlariga e'tibor qaratadi;
- TikTok trendlari tufayli ayrim musiqiy janrlar haddan tashqari ommaviylashib, chuqur mazmunli asarlar e'tiborsiz qolishi mumkin;
- Foydalanuvchilar kontentni passiv iste'mol qilishi natijasida ijodiy tafakkur rivojlanishi sekinlashadi.

Bundan tashqari, yoshlar tafakkurining shakllanishida quyidagi jihatlar ham ahamiyat kasb etadi:

Diqqatni jamlash qobiliyatining qisqarishi: TikTok formatida berilayotgan kontent qisqa bo'lgani uchun yoshlarning uzoq davom etuvchi, murakkab tafakkur jarayonlariga bo'lgan qiziqishi kamayadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning o'qish yoki ilmiy-tahliliy fikrlash ko'nikmalari TikTok kabi platformalarning ta'siri ostida zaiflashishi mumkin.

Ommaviy madaniyatning kuchayishi: TikTok orqali tarqaladigan musiqalar ko'pincha vaqtinchalik trendlar bo'lib, yoshlar ularni chuqur tahlil

¹⁴Music Consumer Insight Report, IFPI, 2023

¹⁵ M. Mulligan, TikTok's Impact on the Music Industry, 2022

¹⁶A. Collins, The Psychology of Short-form Media Consumption, 2021

qilishdan ko'ra, ommaviy oqimga ergashishni afzal ko'radilar. Bu esa mustaqil musiqiy did va estetik qarashlarning shakllanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Tanqidiy fikrlashning sustlashuvi: Yoshlar TikTok orqali iste'mol qilayotgan musiqa va boshqa kontentlarni chuqur tahlil qilishga ehtiyoj sezmaydi. Buning natijasida ular o'zlari eshitayotgan musiqaning tarixiy, madaniy yoki badiiy ahamiyatini baholay olmay, faqatgina mashhurligi yoki trendga aylangani uchun uni qabul qiladilar.

Ijodkorlikning pasayishi: Musiqiy san'atga yuzaki yondashish yoshlar orasida ijodiy tafakkurning sustlashuviga olib kelishi mumkin. Ular yangi musiqalarni yaratish yoki o'zlarining estetik qarashlarini shakllantirish o'rniga tayyor trendlarga moslashishga moyillik bildiradilar.

TikTok platformasi nafaqat musiqa, balki san'atning boshqa turlarini ham iste'mol qilishda yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Biroq bu jarayon ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin:

Musiqaning qisqa parchalarini iste'mol qilish natijasida to'liq asar baholash imkoniyati yo'qoladi;

TikTok trendlari san'atni tijoratlashtirish va iste'molni haddan tashqari soddalashtirishga olib keladi;

Yoshlarning musiqiy savodxonligi pasayib, faqatgina ommabop janrlarga e'tibor qaratiladi.¹⁷

Ushbu yuqoridagi jarayonlar O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. So'nggi yillarda TikTok platformasining yoshlar orasida keng tarqalishi natijasida an'anaviy musiqa va madaniyatga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada kamaymoqda. O'zbekiston Statistika agentligining eng so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 18-30 yosh oralig'idagi yoshlarning 65 foizi TikTok platformasidan faol foydalanadi.¹⁸ Ulardan 45 foizi musiqa asarlarini aynan TikTok orqali tanishlari va iste'mol qilishlari ma'lum bo'lgan.

Agar ushbu jarayon shu jadallikda davom etsa, kelajakda quyidagi natijalar yuzaga kelishi mumkin:

- An'anaviy musiqaning o'z ahamiyatini yo'qotishi: Yoshlar orasida xalq va akademik musiqa turlariga bo'lgan e'tibor kamayishi mumkin.
- Ijodiy faoliyatning pasayishi: San'atning chuqur tushunilishi o'rniga yuzaki iste'mol shakllanishi natijasida yangi avlod san'atkorlari kreativlikni kamroq namoyon qilishi mumkin.

¹⁷ J. Peterson, Social Media and Cultural Identity, 2020

¹⁸ O'zbekiston Statistika agentligi hisoboti, 2024

- Madaniy identifikatsiyaning yo‘qolishi: Yoshlar mahalliy san‘at va musiqa madaniyatini emas, global trendlarga asoslangan qisqa formatdagi musiqalarni afzal ko‘rishi mumkin.¹⁹
- Diqqatni jamlash qobiliyatining zaiflashishi: TikTok kontenti qisqa muddatli bo‘lgani sababli, yoshlar uzun va chuqur ma‘naviy mazmunga ega asarlarni tinglashga qiynalishlari mumkin.

TikTok va O‘zbekistondagi san‘at industriyasi: milliy musiqa hamda zamonaviy tendensiyalar haqida so‘z ketganda, O‘zbek musiqa san‘atining tarixan boy an‘analar va o‘ziga xos ijodiy uslublarga ega ekanligini e‘tirof etmaslikni iloji yo‘q. Boisi, ushbu boy madaniy merosni bugungi kunda zamonaviy janrlar bilan ham uyg‘unlashtirish keng kuzatilmoqda. Ammo, TikTok platformasi orqali shakllanayotgan musiqa madaniyati ushbu jarayonga o‘zining muayyan o‘zgarishlarini kiritmoqda. O‘zbekistonda TikTok orqali ommalashayotgan musiqiy janrlar asosan quyidagilar:

Estrada va pop musiqa – TikTokda eng ko‘p foydalanilayotgan janrlardan biri bo‘lib, asosan engil, tez yodda qoladigan va ritmik qo‘shiqlar trendga chiqmoqda.

Yoshlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu janrni ijro etuvchi mahalliy xonandalar ham TikTok orqali mashhurlikka erishmoqda.

TikTok foydalanuvchilari milliy musiqani zamonaviy interpretatsiyada qayta yaratmoqda, ammo ayrim hollarda an‘anaviy ijrochilik qoidalari buzilmoqda.

Mahalliy ijodkorlarimizning TikTok strategiyasi qanday? Mahalliy ijodkorlar o‘z auditoriyasini kengaytirish, ommabop bo‘lish va tijoriy daromad olish maqsadida TikTokdan faol foydalanmoqda. Ularning strategiyalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda shakllanmoqda:

TikTok uchun maxsus kontent yaratish. Ko‘plab o‘zbek xonandalari va musiqachilari TikTok foydalanuvchilari ehtiyojlariga moslab maxsus kontent yaratmoqda. Ushbu strategiyaning asosiy jihatlari:

- Qisqa va esda qoladigan qo‘shiqlar yaratish – TikTok trendlarining asosi qisqa (15-60 soniyali) kontent ekanligi sababli, xonandalar qo‘shiqlarining eng ta’sirli qismlarini alohida targ‘ib qilmoqda va bu yaxshi natija bermoqda.

- Qo‘shiqlarni maxsus TikTok trendlariga moslashtirish – Masalan, ba’zi xonandalar raqs trendlari, challenge’lar yoki vizual effektlarga mos keladigan musiqa yaratishga harakat qilmoqda. TikTok uchun eksklyuziv treklardan foydalanish – Ayrim san‘atkorlar yangi qo‘shig‘ining muayyan qismini TikTok uchun oldindan chiqarib, uning ommalashishini kutmoqda.

¹⁹ Z. Mamatqulov (2022). O‘zbekiston san‘ati va global ommaviy madaniyat. Toshkent: Fan nashriyoti.

- Hashtag challendjlar yaratish – Masalan, xonandalar o‘z qo‘shiqlariga maxsus hashtag challendj e‘lon qilib, foydalanuvchilardan mazkur qo‘shiq ostida videolar yaratishni so‘ramoqda.

- Mashhurlikka erishgan TikTok tarmoq yulduzlari bilan hamkorlik – Ayrim ijodkorlar TikTokdagi ta’sirchan blogerlar bilan hamkorlik qilib, ularning kontenti orqali qo‘shiqlarini targ‘ib qilmoqda.

- TikTokda trend ya’ni mashhurbo‘lgan harakat yoki qo‘shiq qismini tanlash – Qo‘shiq matni yoki musiqiy ritmi TikTok trendlariga moslashtirilmoqda.

Ko‘plab o‘zbek san’atkorlari TikTokdan foydalanishni boshlagan bo‘lsa-da, ularning strategiyasi turlicha:

- Ba’zi xonandalar TikTok uchun maxsus qisqa qo‘shiqlar yaratmoqda.
- Ayrimlari TikTokda mashhurlik orttirish uchun yangi taronalarini qisqa formatda targ‘ib qilmoqda.

- O‘zbek estradasining etakchi vakillari esa TikTok orqali o‘z muxlislariga yaqinlashish va konsertlarini reklama qilishda foydalanmoqda.

Biroq, bu jarayon tijorat maqsadlari kuchayib borishi va san’atning chuqur mohiyati kamayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Xo‘p, yuqoridagi salbiy xolatlar kuzatilmasligi uchun qanday ishlarni tizimli amalga oshirish zarur? San’atning yuzaki iste’molga aylanishini kamaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. San’at va madaniyatga oid ta’lim dasturlarini rivojlantirish
 - o Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida musiqa savodxonligi bo‘yicha maxsus kurslar joriy etish.
 - o Yoshlarni san’atning chuqur mohiyatini anglashga yo‘naltiruvchi ma’ruzalar, seminar va interaktiv darslarni tashkil etish.
2. Yoshlar orasida milliy musiqa va san’atni ommalashtirish
 - o Mahalliy va milliy musiqani targ‘ib qiluvchi onlayn va oflayn tadbirlarni ko‘paytirish.
 - o An’anaviy musiqachilar va zamonaviy ijodkorlar o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish, ularning ijodiy loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.
3. TikTok va boshqa raqamli platformalar orqali chuqur mazmunli san’at asarlarini targ‘ib qilish
 - o Milliy va akademik musiqani targ‘ib qilish maqsadida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan kontent yaratish.
 - o Yosh ijodkorlarni sifatli va mazmunli musiqa yaratishga undash uchun grant va stipendiyalar ajratish.
4. Ijtimoiy tarmoqlar va media orqali axborot-ma’rifiy ko‘rsatuvlar tashkil etish

o Yoshlar orasida san'atni chuqur anglash va qadrlash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalari va blogerlar bilan hamkorlik qilish.

o San'atning yuksak namunalarini targ'ib qilish uchun televideniye, radio va raqamli media orqali maxsus dasturlarni ishlab chiqish. Qolaversa, milliy maqomlarimizni ham ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibotini keng yo'lga qo'ysak, o'ylaymanki, bu ham o'zining samarali natijasini beradi.

Bugungi kunda TikTok musiqa madaniyati yoshlarning san'atni iste'mol qilish tamoyillarini tubdan o'zgartirmoqda. Platformaning algoritmik tabiati sababli ommalashayotgan musiqalar ko'pincha qisqa, oddiy va tez yodda qoladigan bo'lib, natijada chuqur mazmunli hamda san'at nuqtayi nazaridan yuksak namunalar e'tibordan chetda qolmoqda. Bu esa yoshlarning musiqaga bo'lgan didi va qiziqishlarining yuzaki shakllanishiga olib kelmoqda.

San'atning yuzaki iste'mol qilinishi natijasida yosh avlodning musiqiy tafakkuri o'zgarib, estetik va badiiy tahlil qilish qobiliyati pasayishi kuzatilmoqda. Yoshlar ko'proq vizual va qisqa musiqiy parchalar orqali musiqani qabul qilayotganligi sababli, to'laqonli asarlarni anglash va baholash qiyinlashmoqda. Bu esa kelajakda an'anaviy va akademik musiqaga bo'lgan qiziqishning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu jarayonning oldini olish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Ta'lim muassasalarida san'at va musiqa madaniyatini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirish, milliy musiqani ommalashtirishga qaratilgan madaniy loyihalarni ko'paytirish hamda TikTok va boshqa raqamli platformalar orqali chuqur mazmunli kontentni targ'ib qilish muhimdir. Shuningdek, san'atshunoslar, musiqashunoslar va ijodiy mutaxassislar zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yosh avlodga sifatli musiqani etkazish yo'llarini izlab topishlari lozim.

Maqolada asosan TikTokning yoshlar tafakkuriga salbiy ta'siri yoritilgan bo'lsa-da, platformaning ijobiy jihatlari ham mavjud. TikTok musiqa iste'mol madaniyatiga yangi yo'nalishlar olib kirdi va san'atning ommalashishiga ko'maklashmoqda. Quyida TikTokning musiqaga ijobiy ta'siri bir necha asosiy jihatlar orqali ko'rishimiz mumkin.

TikTok yosh musiqachilar va bastakorlar uchun ommaviy auditoriyaga chiqish va ijodiy faoliyatini targ'ib qilish uchun qulay platformaga aylandi.

Katta prodyuserlar yoki musiqiy agentliklarsiz ham yosh iste'dodlar TikTok orqali auditoriya topmoqda.

Masalan, xalqaro miqyosda Olivia Rodrigo, Lil Nas X kabi ijodkorlar TikTok orqali tanilgan. O'zbekistonda ham ba'zi ijodkorlar shu yo'l bilan ommalashmoqda.

Yosh musiqachilar yangi uslub va janrlarni sinab ko‘rish imkoniga ega.
Eksperimental musiqa ham TikTok orqali auditoriya topishi mumkin.

TikTok yosh musiqachilar va bastakorlar uchun mustaqil tarzda o‘z iste’dodini namoyish qilish imkoniyatini beradi.

Musiqiy kolaboratsiyalar va kreativ hamkorlikni rag‘batlantirishi ya’ni TikTok turli musiqachilar va ijodkorlar uchun hamkorlik qilish imkoniyatini oshirdi. Garchi TikTok musiqa iste’molining yuzaki bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u yosh iste’dodlar uchun imkoniyat yaratishi, milliy musiqani ommalashtirishi, musiqiy savodxonlikni oshirishi va kreativ hamkorliklarni rag‘batlantirishi bilan ham foydali bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Tik Tok musiqa madaniyati zamonaviy yoshlarning san’atni iste’mol qilish odatlariga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Agar bu jarayonni nazorat qilinmasa, san’atning chuqur mazmuni o‘rnini tijoratlashgan, qisqa muddatli trendlar egallashi mumkin. Shu boisdan, ijtimoiy, ta’lim va madaniy muassasalar ushbu tendensiyaning tahlilqilib, yoshlarning san’atga bo‘lgan qiziqishini yanada rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. IFPI (2023). Music Consumer Insight Report. International Federation of the Phonographic Industry.
2. Mulligan, M. (2022). TikTok’s Impact on the Music Industry. Midia Research.
3. Collins, A. (2021). The Psychology of Short-form Media Consumption. Journal of Digital Media, 18(2), 45-60.
4. O‘zbekiston Statistika agentligi (2024). O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi. Rasmiy hisobot.
5. Peterson, J. (2020). Social Media and Cultural Identity. Oxford University Press.
6. Karimov A. (2023). O‘zbek musiqasi va raqamli platformalar. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
7. UNESCO (2022). Digital Media and Traditional Music Preservation. UNESCO Research Report.
8. Boyd, D. (2019). It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press.
9. Z. Mamatqulov (2022). O‘zbekiston san’ati va global ommaviy madaniyat. Toshkent: Fan nashriyoti.
10. Statista (2023). Global TikTok User Statistics and Music Trends. Statista Research Report.

Baratov Bahodir Salim o'g'li,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Milliy qo'shiqchilik” kafedrası jo'rnávozi

MUSIQA VA ILM-FANNING BIRLIGI: YOSHLAR YARATGAN YANGI YONDASHUVLAR

Anotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarning ilm-fan va musiqa sohalarini rivojlantirishdagi o'rni va ularga bog'liq imkoniyatlar muhokama qilinadi. Yoshlar ilm-fanni rivojlantiruvchi kuch sifatida, musiqa orqali yangi g'oyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Maqola yoshlarning ilm-fan va musiqadagi integratsiyasining jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, musiqa, , innovatsiya, ilm-fan, tadqiqot, ijod.*

Annotation: *This article discusses the role of youth in the development of science and music and the opportunities associated with them. As a force for the development of science, youth play an important role in creating new ideas, innovations and technologies through music. The article emphasizes the importance of integrating youth in science and music in the development of society.*

Keywords: *young, music, innovation, science, research, creativity.*

“Yoshlar — har bir jamiyatning kelajagi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy poydevori hisoblanadi. Ular nafaqat kelajakni yaratishda, balki jamiyatdagi o'zgarishlarni tezlashtirishda ham katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, ilm-fan sohasida yoshlarning ishtiroki jamiyatni yangi bosqichlarga olib chiqish imkonini beradi²⁰. Bugungi kunda yoshlar ilm-fanni rivojlantiruvchi kuch sifatida tan olinib, yangi g'oyalar, innovatsiyalar va texnologik yutuqlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada yoshlarning ilm-fanni rivojlantirishdagi o'rni, imkoniyatlari va bu yo'ldagi erishgan muvaffaqiyatlari haqida so'z yuritamiz.

Yoshlarni ilm-fan sohasida muvaffaqiyatli qilish uchun ular uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratish muhimdir. Buning uchun ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar sohasida islohotlar amalga oshirilishi kerak. O'zining ilmiy ishini davom ettirgan yoshlarni rag'batlantirish uchun grantlar, ilmiy laboratoriyalar va zamonaviy texnologiyalarni taqdim etish zarur. Shu bilan birga,

1. ²⁰ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

yoshlar uchun ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va tadbirlar tashkil etilishi kerak.

Yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun, ularni ta'limda va ilmiy ishlarida qo'llab-quvvatlash kerak. Yoshlar orasida ilmiy izlanishlarga qiziqishni rivojlantirish uchun ilmiy konferensiyalar, tadqiqotlar va tajriba almashish imkoniyatlari yaratish muhimdir. Shu tarzda, yoshlar o'zlarining ilmiy bilimlarini oshirib, global miqyosdagi yutuqlarga erishish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Musiq va ilm-fan — ikki soha, biri ruhni parvarish etadi, ikkinchisi esa aqlni rivojlantiradi. Ammo ular bir-birini to'ldirganida, haqiqatan ham ajoyib sinergiya hosil qiladi. Yoshlar ilm-fanni rivojlantirishda, ayniqsa musiqa orqali yangi g'oyalar va innovatsiyalar yaratishda katta ahamiyatga ega. Musiq — ilhomning manbai, ilmiy kashfiyotlarning tug'ilish joyi va ijtimoiy inqiloblarning katalizatori. Shunday qilib, musiqa yoshlarning ilm-fan sohasida rivojlanishidagi muhim omilga aylanishi mumkin.

Musiq va ilm-fanning birligi: yoshlar yaratgan yangi yondashuvlar:

Yoshlar musiqa va ilm-fanni birlashtirish orqali yangi ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar yaratishda muvaffaqiyatga erishmoqdalar. Musiq, nafaqat odamning ruhiy holatini yaxshilash, balki ilmiy izlanishlar uchun ham motivatsiya beruvchi kuchdir. Musiqaning matematikasi, ritmi va tuzilishi ko'plab ilmiy sohalarida, xususan, fizika, akustika va neyrologiyada yangi izlanishlar olib borishga turtki bo'lgan. Yoshlar musiqa orqali ilmiy kashfiyotlarni, yangi texnologiyalarni yaratishning ilhomini olishadi.

Misol uchun, bir nechta yosh musiqachilar akustika ilmiga oid tadqiqotlar olib borganlar, bu orqali yangi akustik texnologiyalarni yaratganlar. Ular musiqa va ilm-fan o'rtasidagi o'zaro aloqani ko'rsatish orqali yangi ilg'or yondashuvlarni ishlab chiqishdi. Musiq orqali o'rganilgan ritm va to'garaklar, matematik modellar va ilmiy formulalar bilan uyg'unlashib, ilgari kutilmagan yangi texnologik echimlarni taklif qilmoqda.

Musiqaning yoshlar ilmiga ta'siri

Yoshlar uchun ilm-fan va musiqa bir-birini to'ldiruvchi kuch sifatida ishlaydi. Musiq nafaqat ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki aql-idrokni ham o'stiradi. Musiqaning yuqori intellektual talabga ega bo'lishi ilmiy fikrlashni yanada mustahkamlaydi. Yoshlar musiqa orqali analitik fikrlash, ijodkorlik va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Buning natijasida, ular ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishda muvaffaqiyatlarga erishishadi.

Musiq ham ilmiy tadqiqotlarda yordam beradi, chunki u odamning miyasi va uning samarali ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, musiqa tinglash miyadagi asab tizimini faol holatga keltiradi, bu esa ilmiy izlanishlar va ixtirolarga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Yoshlar, musiqa va ilm-fan orqali o'zlarini yuksaltirishni, yangi g'oyalar yaratishni va jamiyatga foydali bo'lishni maqsad qiladilar.

Musiqaning innovatsion ekotizimdagi o'rni

Yoshlar ilm-fan va musiqani birlashtirgan innovatsion ekotizimlar yaratmoqda. Musiqa va ilm-fan sohalarining o'zaro aloqasi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ular musiqa va texnologiyalarni birlashtirish orqali yangi elektron musiqa asboblari, ovozli texnologiyalar yoki musiqa uchun sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqmoqdalar. Bu kabi texnologiyalar ilm-fan va musiqa sohalarini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Yoshlar o'rtasida musiqa va ilm-fanning integratsiyasi nafaqat yangi texnologiyalar yaratish, balki san'at va ilmiy tadqiqotlarni birlashtirishga ham turtki bo'ladi. Innovatsion ekotizimlar yoshlarning musiqaga bo'lgan qiziqishini ilmiy izlanishlarga yo'naltiradi va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishning yangi usullarini topishga yordam beradi.

Yoshlar ilm-fan va musiqa sohalarini birlashtirish orqali yangi g'oyalar, texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratishda katta ahamiyatga ega. Musiqa ilm-fanning rivojlanishida nafaqat ilhom manbai, balki aqliy faoliyatni kuchaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Musiqa va ilm-fan o'rtasidagi bog'liqlik yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa jamiyatni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Musiqaning ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasi yoshlarni yangi yutuqlarga erishishga, ilmiy izlanishlarda muvaffaqiyat qozonishga va yangi texnologiyalar yaratishga undaydi.

Shu tariqa, yoshlarning ilm-fan va musiqa sohasidagi integratsiyasi jamiyatni rivojlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Musiqaning ilmiy yutuqlarga ta'siri va yoshlarning yangi texnologiyalarni yaratishdagi roli jamiyatni yanada ilg'or qilishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'raev N. Madaniyat va kreativ industriyalar. – Toshkent: Fan, 2022.
3. Abdullayev B. O'zbekistonda kreativ iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2021.
4. Xasanov M. Raqamli transformatsiya va kreativ industriyalar. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-100-sonli qarori. 2022-yil 15-mart.
6. UNESCO. Kreativ industriyalar rivojlanishi bo‘yicha xalqaro hisobot. – Parij: UNESCO, 2021.
7. Statistika agentligi. O‘zbekistonda xizmatlar sektori va kreativ iqtisodiyot ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2023.

Madiyev Sobir Xayitqulovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dotsent

YOSH IJODKORLAR ISTE'DODINI RAG'BATLANTIRISHDA MUSIQIY TANLOV VA FESTIVALLARNING O'RNI

Annonatsiya: *Maqolada bugungi kunda o'tkazilayotgan festival va tanlovlarning iste'dodli yoshlarni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati, uning hamda yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashda amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi yoritishga qaratiladi. Mamlakatimizda respublika va xalqaro miqyosida o'tkazilayotgan ayrim tanlova va festivallarning ahamiyati ochib berilgan.*

Kalitli so'zlar: *xalqaro festivallar, ijodkor yoshlar, milliy musiqa san'ati, ustoz-shogird an'anasi, professionallik, maxsus san'at ta'lim maktablari.*

Annotation: *The article discusses the significance of festivals and competitions currently being held, their role in identifying talented youth, as well as the importance and effectiveness of initiatives aimed at supporting young musicians. It highlights the importance of certain competitions and festivals conducted at the national and international levels in our country.*

Keywords: *international festivals, creative youth, national musical art, teacher-student tradition, professionalism, specialized artistic educational institutions.*

Jamiyatni yoshlarini birlashtirish va ularning qalbida milliy g'urur tuyg'usini oshirishda musiqiy festival va tanlovlarning o'ri beqiyosdir. Yorqin madaniy xodisa sifatida tanlov va festivallar turli mintaqqa, mamlakat, hududlardan bo'lgan ijodkorlarni bir joyga jamlab, nafaqat ishtirokchilar balki butun jamiyatni madaniy voqeyliklarga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Ular orqali jamiyatning turli qatlamlari san'at atrofida birlashadi va milliy qadriyatlar mustahkamlanadi.

Bugungi kunda yurtimizda bir qancha festivallar tashkillashtirib o'tkazilib kelinmoqda. Mana shu o'tkazilayotgan tanlov va festivallar milliy musiqa san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni kashf etish, milliy merosni asrab-avaylash va xalqaro miqyosda targ'ib qilish uchun eng samarali vositalardan biridir. Ular nafaqat ijodkorlarga motivatsiya berish, balki milliy madaniyatni keng jamoatchilikka etkazish, yangi avlod musiqachilarini tayyorlash va an'anaviy musiqa janrlarini saqlashga ham xizmat qiladi. Tanlov va festivallar musiqaga qiziqadigan yoshlarni aniqlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular yosh san'atkorlarga o'z mahoratlarini

namoyish etish, tajriba orttirish va xalqaro miqyosda tanilish imkoniyatini yaratadi.

2018-2023-yillar oralig'ida O'zbekistonda o'tkazilgan milliy musiqa tanlovlari natijasida 5000 dan ortiq yosh musiqachilar professional ta'lim olish uchun grant yutib olganli uning samarali natijasi hisoblanadi.

Milliy musiqa san'atini saqlab qolish va rivojlantirish jarayonida yosh iste'dodlarni kashf etish va ularni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. [1] Iqtidorli yoshlar milliy san'atning kelajagini belgilaydi va uning xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qiladi. Bu jarayon davlat, jamiyat va madaniy tashkilotlarning hamkorlikdagi harakatlari bilan amalga oshiriladi. Yosh iste'dodlar milliy musiqaning davomiyligi va rivojlanishiga asosiy ta'sir qiluvchi omildir. Agar ularni yoshligidan kashf etib, to'g'ri yo'naltirilsa, ular nafaqat mahalliy balki xalqaro sahnada ham milliy san'atimizni munosib namoyish eta oladilar.

Yosh iste'dodlarni kashf etishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lib:

- yosh musiqachilar va xonandalarni professional sahnaga olib chiqish;
- xalqaro miqyosda milliy san'atni targ'ib qilish;
- madaniy merosni kelgusi avlodlarga yetkazish.

Yosh musiqiy iste'dodlarni aniqlash va rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi.

Musiqiy ta'lim muassasalari yosh iste'dodlarni kashf etish va ularga professional ta'lim berishning eng muhim vositalaridan biridir. O'zbekistonda musiqa va san'at maktablari – bolalar musiqa va san'at bilimlarini olishi uchun asosiy muassasalar hisoblanadi. Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktablari – iste'dodli yoshlarni erta yoshdan aniqlab, ularni etuk san'atkor sifatida tayyorlaydi. Undan so'ng bo'lajak malakali kadrlar keyingi ta'lim muassasasida yanada ijodiy qobiliyatini shakllantiradi. O'zbekiston davlat konservatoriyasi – milliy va klassik musiqa bo'yicha professional kadrlarni etishtirib chiqaradi.

Tanlov va festivallar yosh musiqachilar uchun ijodiy imkoniyatlarni kengaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Ular orqali yoshlar o'z mahoratlarini namoyish etish bilan birga, xalqaro miqyosda tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. **Misol uchun “Respublika yosh maqom ijrochilari tanlovi”** – yosh maqomchilarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan. **“Sharq taronalari” festivali** – yosh xonandalar uchun milliy va xalqaro miqyosda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. **“Yosh dutorchilar va rubobchilar tanlovi”** – milliy cholg'u asboblari ijrochilik san'atini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tanlov va festivallar natijasida 2018-2023-yillar davomida O'zbekistonda o'tkazilgan tanlovlar orqali **5000 dan ortiq yosh iste'dod kashf**

etiladi. Ulardan **300 nafari xalqaro tanlov va festivallarda** ishtirok etib, mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Yosh musiqachilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ularning kelajakda san'at sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradi. Bu jarayonda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Iqtidorli yosh musiqachilar uchun davlat va xususiy homiylik jamg'armalari tomonidan grant va stipendiyalar ajratilishi lozim. Shuni aytib o'tish joizki, ayni damda yoshlar uchun bir qancha keng imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Masalan,

O'zbekiston Madaniyat vazirligi tomonidan iste'dodli yoshlar uchun **"Nihol" mukofoti** joriy etilganligi, **O'zbekiston Yoshlar ittifoqi** tomonidan san'at sohasi bo'yicha grant va stipendiyalar ajratilganligi, Xalqaro san'at tashkilotlari yosh musiqachilar uchun maxsus dasturlar va stipendiyalar taqdim etilganligi yosh ijodkorlarga qaratilayotgan e'tibor nishonasidir. Shuning natijasida, 2022-yilda **1000 dan ortiq yosh musiqachi grant va stipendiyalarga ega bo'ldi.** "Nihol" mukofoti g'oliblarining 80% kelajakda professional sahnada faoliyat yuritishni davom ettirdi.

"Maqom ijrochilari tanlovi" orqali yoshlar maqom san'atiga qizish yanada tus oldi. "Yosh dutorchilar va rubobchilar tanlovi" orqali esa yoshlar milliy cholg'u asboblari o'rganib, o'zlarini ijrochilik san'atini rivojlantirmoqda. Bolalar folklor ansambllari uchun o'tkaziladigan tanlovlar milliy qadriyatlarni yosh avlod orasida keng targ'ib qilmoqda. 2018-2023-yillarda 5000 dan ortiq yosh ijodkor milliy musiqa tanlovlarida ishtirok etgan va ularning 80% san'at yo'nalishida o'qishni davom ettirishga qaror qilgan.

"Ustoz-shogird" an'anasi yosh musiqachilar uchun san'at sirlarini o'rganishning eng samarali usullaridan biridir. O'zbekiston san'atida bu an'ana juda rivojlangan bo'lib, yosh iste'dodlar mashhur ustozlar tomonidan tarbiyalanadi. Bugungi kunda ushbu an'anadan uzoqlashish holatlari kuzatiladi. Ustoz-shogird an'analari har bir yo'nalishda mavjud bo'lib, milliy o'zbek maqom san'atida maqom ustalarimiz tomonidan etishib chiqayotgan yosh maqomchilarimizga musiqa nimaligini to'liq tushuntirish, milliylikimizni anglash, uni asrab-avaylash shu bilan birgalikda to'g'ri hamda mahoratli ijro etish san'atini ham o'rgatib borishmoqda. Ustoz-shogird an'anasi xalq musiqasi va cholg'u ijrochiligi sohalarida ham rivojlangan. So'nggi yillarda **500 dan ortiq yosh musiqachi** professional ustozlar qo'lida ta'lim olib, san'at sohasi bo'yicha o'z faoliyatini boshlagan.

Shu yaqinda ham Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichi o'tkazildi. O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, Maktabgacha va maktab

ta'limi vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan festival yosh iste'dodlarni kashf etish, ularning madaniyat, adabiyot va san'at sohasidagi iqtidorini namoyish qilish, qo'llab-quvvatlash maqsadiga qaratilgan. Festivalda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan ijodkor bolalar klassika, vokal, milliy cholg'ular, raqs va badiiy gimnastika, tasviriy va amaliy san'at, nasr va nazm yo'nalishi bo'yicha yakka va jamoaviy tarzda o'z iqtidorini namoyish etdi. Bir necha kun davom etgan "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalining shahar va tumanlar bosqichida jami 7 mingga yaqin o'g'il-qiz ishtirok etdi. G'oliblar esa keying bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

Mana shunday festivallar o'tkazilishi natijasida bir qancha yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, Bundan tashqari motivatsiya, milliylikka qiziqish, bo'sh vaqtini unumli o'tkazish, maqsadlar sari ildam qadam tashlash, vatanparvarlik kabi bir qancha ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Yaqinda "Xalqlar do'stligi" san'at saroyi maydonida ham "Yosh iste'dodlar" xayriya festivali bo'lib o'tdi.

Yoshlar va festivallar, odatda, yoshlar orasidagi ijodkorlikni va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi[2]. Ular turli madaniy, san'at va musiqiy faoliyatlarni o'z ichiga olgan tadbirlar bo'lib, yoshlarning o'z fikrlarini va iste'dodlarini namoyish etishlari uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Festivallar yoshlarning ijtimoiylashuvi, yangi do'stlar orttirishi va turli madaniyatlarni o'rganishi uchun ham muhimdir. Bu tadbirlar, shuningdek, yoshlarni jamoaviy ishlashga, o'z fikrlarini erkin ifoda etishga va global masalalar haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Yosh ijodkorlarni kashf etishda festivallarning o'rni juda katta. Bunday tadbirlar nafaqat yoshlarning iste'dodini namoyish etish, balki ularga o'z san'atini keng auditoriyaga tanitish imkonini yaratadi[3]. Festivallar yosh ijodkorlar uchun quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

1. Iste'dodlarni tan olish: Festivallar yoshlarning san'at va madaniyat sohasidagi iste'dodlarini keng jamoatchilikka tanitish uchun ideal platformadir. Musiqa, teatr, rasm, raqs va boshqa san'at shakllari orqali yoshlar o'zlarini namoyon qilishlari mumkin.

2. Mentorlik va yo'naltirish: Festivallarda professional ijodkorlar, san'atshunoslar yoki sanoat vakillari ishtirok etishi mumkin. Yosh ijodkorlar bu tadbirlarda o'z ishlarini namoyish qilib, ustozlardan yoki boshqa tajribali shaxslar bilan maslahatlar olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

3. Ilhom olish va tarmoq yaratish. Yosh ijodkorlar festivallarda boshqa san'atkorlar bilan tanishib, tajriba almashish va hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu tarmoq yaratishga, yangi g'oyalar va ilhom olishga yordam beradi.

4. Motivatsiya va o'ziga bo'lgan ishonch. Festivallarda ishtirok etish yoshlar uchun o'z ishlari bilan faxrlanishga va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Yaxshi natijalarga erishish motivatsiya va yangi qadamlar qo'yishga turtki bo'ladi.

5. Ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar. Yosh ijodkorlar festivallarda o'z asarlari orqali ijtimoiy masalalar, madaniy farqlar yoki muhim jamiyat masalalariga diqqatni qaratishlari mumkin. Bu esa ularning ishlari orqali ijtimoiy o'zgarishlarga turtki berishga imkon yaratadi.

O'zbekistonda turli san'at qatlamlarini o'z bag'riga olgan festivallar qatorida "Barkamol avlod" yoshlar festivalini keltirish mumkin. Mazkur festival O'zbekistonda yosh ijodkorlarni qo'vvatlashda ko'lamli keng bo'lib musiqiy, teatr, raqs, tasviriy san'at va boshqa sohalarda yoshlarning ijodini birlashtirdi. Festivalda qatnashish yosh ijodkorlarga o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini yanada sinab ko'rish va rivojlantirish imkoniyati yuzaga keldi

Toshkent shahrida o'tkaziladigan Halqaro Jazz festivali musiqachilar uchun keng imkoniyatlar yaratadigan festival bo'lib, yosh san'atkuorlarni o'z kompozitsiyalari va ijrolarini ko'rsatishlari uchun keng maydon ochib beradi. Bu festival yosh jazz musiqachilari uchun juda muhimdir. Bundan tashqari yana bir qancha festivallar iste'dodli yoshlarimizni kashf qilish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, Jahon va O'zbekistondagi festivallar yosh ijodkorlar uchun o'z ishlarini keng auditoriyaga tanitish, boshqa soha vakillari bilan tajriba almashish va professional tarmoq yaratish uchun juda muhim. Bu tadbirlar san'at va madaniyatni rivojlantirishga, yoshlarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, festivallar yosh ijodkorlarning o'sishiga yordam beradigan muhim maydon bo'lib, ularning san'ati va g'oyalari kengroq auditoriya tomonidan qabul qilinishiga va qimmatli tajriba olishlariga olib keladi.

Yosh iste'dodlarni xalqaro maydonga olib chiqish ularning professional rivojlanishiga katta turtki beradi.[4] O'zbekiston Yoshlar ittifoqi va Madaniyat vazirligi yosh musiqachilar uchun xalqaro tanlovlarga qatnashish imkoniyatini yaratib bermoqda; "Sharq taronalari" esa festivali yosh iste'dodlarning xalqaro musiqachilar bilan tajriba almashishiga xizmat qilmoqda; xalqaro "Maqom san'ati festivali" orqali yosh maqomchilar dunyoga tanitilmoqda.

O'zbekiston yosh musiqachilari so'nggi 5 yil ichida 30 dan ortiq xalqaro tanlov va festivallarda ishtirok etgan. Ulardan 70% xorijiy san'at institutlarida o'qish yoki amaliyot o'tash imkoniyatiga ega bo'lgan.

Milliy musiqa san'atini yanada rivojlantirish va tanlov hamda festivallarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

Tanlov va festivallarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish – hukumat va xususiy homiylar tomonidan tanlovlarni moliyalashtirish orqali ularning sifatini oshirish lozim.

Yoshlar orasida milliy musiqa qiziqishni oshirish – maktab va oliy o'quv yurtlarida milliy musiqa bo'yicha tanlov va festivallarni kengaytirish lozim.

Tanlovlarni raqamli maydonga olib chiqish – internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy musiqa tanlovlari va festivallarni keng targ'ib qilish zarur.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – boshqa davlatlarning madaniyat va san'at tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan festival va tanlovlarni ko'paytirish lozim.

O'tkazilayotgan festivallar yoshlarimizni vatanparvarlikka, milliylikka va millatlararo totuvlikka undaydi. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy urfodat va an'alarimizni yanada mukammalroq o'rganishga ham katta turtki bo'ladi. 2021-yilda O'zbekistonda tashkil etilgan maqom festivali 30 dan ortiq mamlakat vakillarini birlashtirdi va xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamladi. 2018-2023-yillar oralig'ida 1000 dan ortiq folklor va milliy musiqa ijrochilari festivallar orqali o'z san'atini keng ommaga tanitdi.

Navro'z bayramida o'tkaziladigan musiqa festivallari nafaqat yoshlarni balki turli yoshdagi va kasbdagi insonlarni birlashtirib, ijtimoiy birdamlikni oshiradi. Milliy musiqa tanlovlari mintaqalardagi yoshlarni san'at bilan shug'ullanishga undaydi va milliy o'ziga xoslikni saqlashga xizmat qiladi.

Festivallarning yoshlar ma'naviy tarbiyasiga ta'siri ham beqiyos. Tanlov va festivallar yoshlarning milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini oshiradi, ularni san'at orqali ma'naviy etuklik sari yo'naltiradi. Yoshlar uchun bunday tadbirlar nafaqat madaniy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bu sohani rivojlantirish uchun tashkilotchilar, soha mutaxassislari oldida muhim va katta vazifalar turibdi. Madaniyat markazlarida o'tkazilayotgan hisobot konsertlarini bosqichma-bosqich kichik festivallarga aylantirish lozim. Qilinayotgan ishlar amalga tatbiq qilinsa, hududlararo yosh iste'dodlarni kashf qilish yanada osonlashadi hamda badiiy kengash a'zolari ijobiy baholagan ijod namunalari keyingi turga yo'l oladi. So'nggi bosqichda g'olib bo'lgan yosh ijrochi faoliyatidan kelib chiqib, professional o'qituvchiga biriktiriladi, bundan tashqari oliy o'quv yurtlariga kirishda ham g'oliblarga bir qancha engilliklar yaratilishi lozim. O'tkazilib kelinayotgan musiqa festivallari yosh avlodning san'at sohasiga qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Qosimov R., “An’anaviy ijrochilik” – Toshkent: “FAN”, 2007 (o‘quv qo‘llanma).
3. Rahimov H., Nabiyeu N., “Nazira Ahmedova” – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016 (monografiya).
4. Shaxnazarova B., “Talabalar kuylaydi” – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2012.

Internet web-saytlari

1. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/yosh-istedodlar-xayriya-festivali-bolib-otdi>
2. https://uza.uz/oz/posts/festival-yosh-istedodlarni-kashf-etdi_543632
3. <https://kun.uz/news/2016/03/17/%E2%80%9Cistedod-yosh-istedodlarni-kashf-etdi>.

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedrası dotsenti

MUSIQANING FILM DRAMATURGIYASIGA TA'SIRI

Annotatsiya: *Filmlarning mazmun mohiyatini etkazishda rejissyor musiqa va ohanglardan o'rinli foydalanishga harakat qiladi. Chunki kinoning musiqa yaratilgan ekran maxsulotining mazmun mohiyatini tomoshabinga teranroq etkazishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolada rejissyorlarning filmlarda foydalanadigan musiqaning ahamiyati borasida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ssenariy, syomka, dramaturgiya, musiqa, ohang, rejissyor, janr, bastakor.*

Annotation. *In conveying the content essence of films, the director tries to convey music and tonality, and it is appropriate to use the criteria of art. Because the means of artistic expression of cinema play an important role in conveying to the viewer the content basis of the created screen product in a deeper way. This article examines the importance of the means of visual expression used by directors in films.*

Keywords: *script, filming, dramaturgy, music cameraman, director, chronicle, key camera, genre.*

Musiqa kinoda badiiy ahamiyatga ega bo'lib filmning muhim elementi hisoblanadi. Ayrim film syujeti yoki qahramon bilan bog'langan kuy va qo'shiq o'sha kinoni eslatuvchi ishoraga aylanadi. Kinoda yangragan musiqa film epizodi, obraz va vaziyatlarni ta'riflashning asosiy vositasi bo'lib, uning yordamida rejissyorga vaziyatni yoritishga, tomoshabin esa xolatni teranroq anglashiga yordam beradi. Shuningdek musiqa milliy, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarni ifodalashning eng ishonchli vositasidir. “Kino musiqasida partitura kompozitor tomonidan yaratiladi, u odatda har bir sahna uchun kerak bo'lganda musiqa yozadi.”²¹ Kinodagi musiqa filmda syujetni bog'lashga yordam berish uchun kerak. Kino musiqasining eng asosiy vazifasi filmda atmosferani yaratishdir. Atmosferani yaratish kinoda muhim ahamiyatga ega, chunki u tomoshabinlarga filmning umumiy g'oyasi haqida tasavvur beradi. Masalan, qahramonning yuz ifodasi, ruhiy kechinmasi, atrofida sodir boshlayotgan voqealarga mutanosib tarzda yangrashi mumkin. Buning uchun film bastakori ham filmning g'oyasi, dramaturgiyasini yaxshi anglashi maqsadga muvofiq. “Bastakor film musiqasi nimani anglatishini bilishi, mavzuni tadqiq

²¹thecomposerclass.com – Is Film Music A Genre? мақоласи.

qilgan holda va manbaa materiallarini ishlab chiqishga vaqt ajratishi lozim.”²². Chunki film fabulasi ba’zan kompozitorning individual uslubiga yot bo’lgan musiqiy janrlarni stilizatsiya qilishga majbur qiladi. Bir xil oxang, temp, cholg’u asboblari murojaat qilish tufayli “individual uslub” yaralmagan. Avvalo, kinoda musiqa va ovoz, shu bilan birga qo’shiq nima uchun, qachon va qay tarzda ishlatilishiga oydinlik kiritish lozim. Rejissyor o’zining maqsadi, suratga olayotganini filmining g’oyasini o’zi to’liq anglagan bo’lsa, u kino tilining turli komponentlaridan o’rinli foydalana oladi. Musiqa yoki qo’shiqsiz ham filmni tomoshabopligini ta’minlash va voqealar ketma-ketligini tushunish mumkin. Lekin musiqa bilan tomosha zavqi yanada ortadi. Kinoda musiqaning asosiy maqsadi ham tomoshabin hissiyotini yanada oshirishdan iborat. Masalan, rejissyor A.Hamroyevning “Yor-yor” filmida ota-bola behosdan qo’zg’alib yurib ketib qolgan mashina ortidan yugurgan epizodini esga olaylik. Sahnada musiqiy temp kadrda harakat tezligiga to’liq moslashtirilgan: mashina yurib o’tib ketadi, ortidan ota va o’g’il yuguradi. Tomoshabin ularning tezligini his qiladi. Yoki E.Ryazanovning “avtomobildan saqlaning” badiiy filmidagi Detochkinning ortidan yo’l patrul nozirining quvishi sahnasida valsdan foydalangan. “Ishdagi ishq” filmidagi kuy va qo’shiqlar esa tomoshabinga qahramonlar bilan kechgan voqealarni yodga soladi. Ba’zan musiqiy ritm va temp kadrda harakat ritmi va maromini belgilovchi omilga aylanadi. Bunday muvofiqlashtirishning ta’siri juda kuchli. Bunga misol qilib, "Qaroqchi chollar" filmini keltirish mumkin, inkassator ularni tunagan o’g’rining orqasidan quvadi. Musiqa qochayotgan o’g’ri va uni quvayotgan inkassatorning harakatini tezlashtirishga va uni kadr bilan mutanosib qilish uchun ishlatilgan. O’zbek kinosida R.Vildanov, M.Leviyev, M.Mahmudov kabi bastakorlar kino uchun maxsus musiqa yozishgan. Har bir mashhur filmda osongina tanib olinadigan ohanglar mavjud. Mahallada duv-duv gap”, “Maftuningman”, “Nafosat” kabi filmlarning musiqalari bastakorning ma’lum bir uslubidan foydalanilgan holda yozilgan. Masalan, “Mahallada duv-duv gap” filmidagi Sayyoraning so’zsiz qo’shig’i, yoki Umida va Umarjonning sayr qilib yurganidagi musiqa filmning tashrif qog’ozi ingari yangraydi. Yaratilganiga 60 yildan ziyod vaqt bo’lgan “Yor-yor” badiiy filmi eng yaxshi o’zbek filmlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Undagi “Qo’chalar” qo’shig’ini eng ko’p ijtimoiy reklama va roliklar uchun ishlatilgan saundtrek bo’lib qolmoqda. Qo’shiqning birinchi taktni tinglaboq, darhol ko’z oldimizga S.Xo’jayev va B.Ixtiyorovning Zulfiya ismli qizni qidirib yo’lga chiqqan paytidagi ajabtovur sarguzashtlari keladi. Chunki musiqa kayfiyatni yaratishi, qahramonning his-tuyg’ularini aks

²²www.filmIndependent.org- The Fi Hall of Fame: The Composing Process, How Does it Work? by OLAJIDE PARIS

ettirishi hamda illyustratsiya yoki hikoya tuzilmasini yaratishi muhim ahamiyatga ega.

Tomoshabin filmdagi musiqaga emas, asosan, ekrandagi tasvirga qo‘proq e’tibor qaratadi. Har bir filmning o‘ziga xos vizual konsepsiyasi mavjud. Kino musiqasi har doim yaxlit element sifatida ishlaydi va musiqa uslubining xarakteri filmning mavzu, janriga qarab turlicha bo‘lishi kerak.

Eng katta to‘siq shundaki, kino musiqasi hozirda asosan o‘rtamiyona bastakorlar tomonidan yoziladi. Ularda aniq individual uslub yo‘qligi, sohani ortda qolishiga sabab bo‘lmoqda. Har bir film o‘ziga xos estetikani yaratishi va bastakorga ham o‘ziga xos musiqiy tilni yuklashi lozim. Buning uchun bastakorlarning o‘z shaxsiy kinematografik usullari bo‘lishi hamda kinematografik usul shakllanishi uchun dramaturgiya bilan tanishish lozim. Ana shunda bastakor musiqani kino elementi sifatida ko‘ra oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vulis A. Poslesloviye k romanu «Master i Margarita» // Moskva. – 1966. – № 11. S. 127–130.
2. Karetnikov N. Temi s variatsiyami: rasskazi. M.: Astrel; CORPUS, 2011 g. 272 s.
3. Paataxvili L. Polveka u steni Leonardo. M.: Izdatelstvo 625, 2006.-272 s.
4. Yegorova T.K. Muzika sovetkogo filma :Dissertatsiya doktora iskusstvovedeniya: Moskva, 1998 463 s. RGB OD, 20-6
5. thecomposerclass.com – Is Film Music A Genre maqolasi.
6. www.filmindependent.org - The Fi Hall of Fame: The Composing Process, How Does it Work? by OLAJIDE PARIS.

Axmedova Mavluda Toshpo'latovna,
Toshkent ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi
Oliy toifali o'qituvchisi

XX ASR BOSHLARIDA MILLIY MUSIQA MADANIYATI

Annotatsiya: *Maqolada XX asr boshlarida nota yozuviga asoslangan musiqiy janrlar, uslublar va G'arb davlatlari cholg'ulari kirib kelishi, takomillashtirilgan cholg'ular ko'p ovoqli ansambl va orkestrlarning tashkil etilishi va ularga milliy kuylardan tashkil topgan dasturlarni shakllanishiga olib kelinishi kabi ma'lumotlar o'rin olgan.*

Kalit so'z: *cholg'u ijrochiligi, musiqa madaniyati, nota yozuvi, ma'naviy, milliy cholg'ular.*

Abstract: *The article contains information about the introduction of musical genres, styles, and instruments from Western countries based on musical notation at the beginning of the 20th century, the organization of improved instruments, the formation of multi-voice ensembles and orchestras, and the formation of programs consisting of national melodies for them.*

Keywords: *instrumental performance, musical culture, musical notation, spiritual, national instruments.*

O'zbek xalqi musiqa san'atining badiiy-ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarda, ularning turfa ko'rinishlarida o'zining ajoyib, betakror ifodasini topgan. Milliy musiqa ijodiyoti asrlar davomida ajdodlarimiz boy madaniyati, tafakkuri, ruhiyatining sadolardagi jonli in'ikosi bo'lgan holda hanuz kishilarning jon ozig'i bo'lib hizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston musiqa san'ati qadimiy va rang-barang, yangicha ijodiy an'analarni o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Ularni avvalo xalq musiqasi janrlari - kuy, qo'shiq, ashula, yalla, lapar, adabiy-musiqiy doston, mumtoz musiqa merosimizning muxtasham turkumlari: Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, ko'p asrli bastakorlik ijodi tashkil etadi. Bu o'lmas asarlar hamon sozandalar, xonandalar ijrolarida muntazam yangrab, takomillashib, qayta ishlanib, bizning davrimizgacha yashab keldi va xalqning bebaho mulkiga aylandi. Badiiy jihatdan barkamol bu asarlar bir-biridan kelib chiqishi, shakl qonuniyatlari, ifoda vositalari, ijodiy uslubi, ijroviy xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin.

O'zbek musiqa ijodiyotining durdona namunalaridan "Tanovar", "Nasrullovi", "Cho'li Iroq", "Surnay Navosi", "Girya" va boshqalar qatorida "Munojot" nomida yuritiluvchi ajoyib va mashhur kuylar ham bor. Ularning

yuzaga kelgan ijodiy va ijroviy talqinlarini to‘plash va o‘rganish, qiyoslab tahlil etish hozirgi zamon musiqashunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O‘tgan asrning 20-30 yillarida taniqli olim-u ijodkorlardan N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy va V.M.Belyaev qalamiga mansub “Munojot” kuylarining nota yozuvlari mavjud.

Kompozitorlik ijodiyotida ham “Munojot” kuyidan foydalanib bir qancha asarlar tayyorlangan. Bulardan, masalan, Frantisek Vaslav Leysekning damli cholg‘ular orkestri uchun moslashtirilgan “Munojot” kuyida, Dadaali Soatkulovning “Farg‘onacha kvarteti”da kompozitorlarning o‘ziga yarasha moxirona yondashuvi amalga oshganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek simfonik musiqa ijodiyoti rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan atoqli kompozitor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Mirsodik Tojiev o‘zining O‘n birinchi simfoniyasini “Munojot” asariga bag‘ishlagan va noyob badiiy natijaga erishgan. Ma‘lum bo‘lishicha, taniqli kompozitor Abdusaid Nabiev mumtoz o‘zbek kuylaridan bir nechtasini yakka fortepiano, fortepiano va kamer orkestri uchun moslagan. Shular jumlasidan o‘rganilayotgan “Munojot” kuyi ham munosib o‘rin egallaydi.

O‘tgan asr va hozirgi zamon o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari xalq kuy va qo‘shiqlaridan, mumtoz musiqa namunalaridan, shu jumladan “Munojot”dan ham o‘z asarlarida har xil janr, shakl va uslublarda foydalanib kelmoqdalar.

Ma‘lumki, O‘rta Osiyoda XIX asr oxiri - XX asr boshlaridan musiqiy folklor namunalarini yozib olish, to‘plash, ijodiy qayta ishlash va saqlab qolish ustida muayyan ishlar olib borilgan. Bu sohada A.F.Eyxgorn, F.V.Leysek, N.N.Mironov, E.E.Romanovskaya kabi jonkuyar etnograf musiqachilarning ishlari e‘tiborga loyiqdir.²³ Bulardan asli Chexiyalik kompozitor Frantisek Vaslav Leysek xalq qo‘shiq va kuylarini yozib olish, ularni turli xalq cholg‘ulariga hamda orkestrga moslashtirish bilan shug‘ullanadi. Mumtoz o‘zbek xalq kuylaridan “Rajabiy” va “Munojot” bunga yorqin misol bo‘la oladi.

1937-yilda O‘zbekiston davlat nashriyoti tomonidan “V.V.Leysek. Ozbek kujlaridan MUNAÇAT (duxovoy orkestr ucun)”²⁴ nomi bilan nashr qilingan.

O‘zbekiston hududida asosan ikki xildagi cholg‘u ansambllari keng tarqalgan bo‘lib, bulardan birisi damli va zarbli cholg‘ular (surnay, karnay, nog‘ora, doyra)lardan tashkil topgan va ikkinchisi torli cholg‘ular hamda nay, qo‘shnay, bulamon kabi damli cholg‘ular va doyra ishtirokidagi ansambllardir. Harbiy damli cholg‘ular orkestrlari tarkibida xizmatdagi askarlar farzandlari va etim bolalar orkestr tarbiyalanuvchilari sifatida xizmat qilganlar. Ularni etakchi

²³ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 jild. “²³O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2006 y.

²⁴ V.V.Leysek. Ozbek kujlaridan MUNAÇAT (duxovoy orkestr ucun) “OzSSR Davlat nasriyati” Taskent, 1937

sozandalar turli cholg‘u sozlarda chalishga o‘rgatganlar. Ba’zi orkestrlarda damli cholg‘ulardan tashqari torli sozlar ham o‘rgatilgan. Bu bilan, sozandalar ham damli, ham simfonik, orkestrlarda ijrochi sifatda qatnashishlari mumkin bo‘lgan. Turkiston o‘lkasida damlicholg‘ular ijrochiligi rivojiga katta hissa qo‘shgan ma’lumotli sozandalar ichida A.F.Eyxgorn, F.V.Leysek, N.N.Mironovlar bor edi. A.F.Eyxgorn O‘zbek musiqa san’ati targ‘ibotining boshlovchilaridan hisoblanadi.

Turkistonda damli cholg‘ular ijrochiligini rivojlantirishda Chex sozandasi va etnografi, harbiy kapelmeyster V.V.Leysek faoliyatining ahamiyati kattadir. XIX asr oxirida Rus-Chex munosabatlarining yaxshilanishi natijasida, ko‘pgina chex sozandalari Rossiyaga keladi. Bular qatorida V.V.Leysek ham bor edi. Bu sozanda Turkistonda ma’rifiy jamoat va ijodiy faoliyat yurgizgan arboblardan hisoblanib, Xo‘jayli batalioni harbiy orkestri kapelmeysteri bo‘lgan. Bundan tashqari u «Lira» deb nomlangan xor jamoasini boshqarar, gimnaziyada musiqa va ashuladan dars berar, O‘rta Osiyo xalqlari musiqa folklorini o‘rganishga harakat qilar va asarlar yaratar edi. Toshkent musiqa jamiyati konsertlarida u o‘zini ijrochi sifatida namayon qilgan.

V.V.Leysek ko‘pgina harbiy marshlar yozib, harbiy orkestrlar bilan ishlash davomida ularning repertuarini milliy kuylarga asoslangan yangi asarlar bilan boyitishga harakat qildi. “Leysek o‘zbek kuylarini yig‘ish va orkestr cholg‘u asboblariqa moslab qayta ishlash bilan ham, shug‘ullanardi” deb eslaydi, uning shogirdi sozanda va pedagog F.I.Negovlov Bunday kuylardan ko‘pchiligi orkestr yakkaxonlari tomonidan konsertlarda ijro etilar va nafaqat Ovro‘palik tinglovchilar balki, mahalliy aholi tomonidan ham, qizg‘in kutib olinar edi.

V.V.Leysek (1857-1935) ko‘zga ko‘ringan Chex sozandasi. 1878 yilda Praga konservatoriyasini tamomlagandan keyin Rossiyaga keladi va Turkiston saper brigadasi harbiy orkestrining kapelmeysteri sifatida ish boshlaydi. Oktabr to‘ntarishidan keyin O‘zbekistonda yashab ijod qiladi va o‘zbek musiqa madaniyatini rivojlantirish ishida faol qatnashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki o‘zbek milliy kuylari har qanday cholg‘u ansambllarida va orkestrlarida o‘z qadr qimmatini yo‘qotmagan holda bugungi kunga qadar etib kelmoqda. O‘tgan asrning birinchi yarmida yaratilgan yuqoridagi kabi asarlarni toppish, tahlil va targ‘ib qilish zamonamizning yosh musiqashunoslarining etakchi maqsad va vazifalari bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, Toshkent, 1987
2. Veksler C. Ocherk istorii uzbekskoy muzikalnoy kul’turi. “O‘qituvchi”, Tashkent, 1965

3. Vizgo T. Simfonicheskaya muzika Uzbekistana// Muzika narodov Aziii Afriki. vipusk 3. “Sov kompozitor”, Moskva, 1980
4. Gafurbekov T. Folklornie istoki uzbekskogo professionalnogo muzikalnogo tvorchestva. “O‘kituvchi”, Tashkent, 1984
5. Munojot. // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6 jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2003
6. Yunusov R. O‘zbek xalk musika ijodi. 2 kism Toshkent, 2000
7. Turatov J. et al. Musiqiy ta’lim jarayonlarida innavatsion va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish // Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 143-146.
8. Turatov J. et al. Musiqiy ta’lim jarayonlarida innavatsion va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish // Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 143-146.

Dadayev Shomurod Shokarimovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası dotsent v.b.

MILLIY QO'SHIQLARDAGI TARIXIY, AXLOQIY VA BADIY MOTIVLARNING YOSH AVLODGA TARBIYAVIY TA'SIRI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy qo'shiqlardagi tarixiy, axloqiy va badiiy motivlarning yosh avlod tarbiyasiga ta'siri ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi. Milliy musiqiy merosning yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, tarixiy xotirani shakllantirish va estetik tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning milliy musiqa orqali tarbiya berish tajribasi va tadqiqot natijalari keltiriladi. Tadqiqot natijalari milliy musiqa ta'limini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar: *milliy musiqa, xalq qo'shiqlari, tarbiya, tarixiy motivlar, axloqiy qadriyatlar, estetik tafakkur, yoshlar ma'naviyati, musiqa ta'limi.*

Annotation: *This article analyzes the impact of historical, moral and artistic motifs in national songs on the education of the younger generation on a scientific basis. The role of national musical heritage in the spiritual and moral development of young people, the formation of historical memory and the development of aesthetic thinking is revealed. The experience and research results of foreign countries in educating through national music are also presented. The results of the research are concluded with recommendations for the development of national music education.*

Key words: *national music, folk songs, education, historical motifs, moral values, aesthetic thinking, youth spirituality, music education.*

Milliy musiqa va qo'shiqchilik har bir xalqning madaniy merosi bo'lib, uning tarixiy, axloqiy va badiiy qadriyatlarini ifoda etuvchi muhim omildir. Musiqa nafaqat madaniy o'zlikni anglash vositasi, balki yosh avlodning ma'naviy kamol topishida, ularning estetik didi, vatanparvarlik tuyg'usi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ham katta rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi qarori yoshlar tarbiyasida milliy musiqa va madaniyatni rivojlantirishning muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Davlat dasturlariga ko'ra, yoshlar orasida milliy qadriyatlarni ommalashtirish, madaniy merosni asrab-avaylash hamda ularni san'at orqali tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunday yondashuv xalq qo'shiqlarining yoshlarning tafakkuriga,

tarixiy xotirasiga va axloqiy ongiga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. Xususan, xalq musiqasi va dostonlari insoniylik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, odob-axloq, sadoqat va jasorat kabi qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, milliy musiqiy merosni targ'ib qilish nafaqat yoshlarning tarbiyasiga, balki jamiyatning umuman madaniy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Masalan, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida xalq musiqasi orqali ta'lim berish tizimi keng joriy qilingan bo'lib, bu yosh avlodda madaniy ong va milliy g'ururni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.


Qo'shiqlarda tarixiy motivlarning ta'siri. Har bir millatning madaniyatida xalq qo'shiqlari muhim o'rin tutadi. Xususan, tarixiy voqealarni aks ettiruvchi qo'shiqlar yosh avlodga o'tmishni anglash, milliy qahramonlarni hurmat qilish va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, O'zbekiston xalq qo'shiqlarida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar madh etiladi. Bu esa yoshlar tafakkurida milliy g'urur va o'zlikni anglashni mustahkamlaydi. Jahon tajribasiga nazar solsak, Irlandiya xalq qo'shiqlari yoki afro-amerikaliklarning blues musiqasi ham tarixiy jarayonlarni aks ettirib, yosh avlodning tarixiy xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, milliy musiqiy merosga ega bo'lgan jamiyatlarda yoshlarning tarixiy tafakkuri ancha rivojlangan bo'lib, ular o'z madaniyatiga ko'proq sodiqlik bildiradilar.

Axloqiy motivlarning tarbiyaviy roli. Axloqiy qadriyatlar har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari va dostonlarda insoniylik, mehr-oqibat, rostgo'ylik, halollik, sadoqat kabi axloqiy tushunchalar keng yoritilgan. Masalan, "Guli" yoki "Munojot" kabi qo'shiqlarda insoniylik va vafodorlik mavzulari yuksak badiiy vositalar bilan tasvirlanadi. Bunday asarlar yoshlarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yevropada bolalar tarbiyasida milliy qo'shiqlarning axloqiy o'rni yuqori baholanadi. Masalan, Finlyandiya va Shvetsiya ta'lim tizimida milliy musiqa darslari orqali bolalarga axloqiy qadriyatlar singdiriladi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, bunday usullar bolalar tafakkurini rivojlantirish va ularni ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli qilishda muhim omil hisoblanadi.

Mamlakat	Milliy musiqa ta'limda qanday qo'llanadi?	Natijalar
Shvetsiya	Xalq qo'shiqlari maktab dasturiga kiritilgan	Yoshlarning ijodiy va axloqiy rivojlanishi
Germaniya	Folklor va ta'lim integratsiyalangan	Tarixiy xotira va madaniy o'zlik mustahkamlanadi
AQSh	Musiqa terapiyasi keng qo'llaniladi	Intellectual va ijodiy tafakkur rivojlanadi

Badiiy motivlarning estetik did va tafakkurga ta'siri. Musiqa san'ati inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qiluvchi kuchli omildir. Qo'shiqlardagi badiiy tasvir, poetik ifoda va kuy ohanglari yoshlarning estetik didini shakllantiradi, ularda san'atga muhabbat uyg'otadi. Shu bilan birga, qo'shiqlarning poetik matnlari yoshlarning til boyligini oshiradi va badiiy tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, Alisher Navoiyning g'azallariga bastalangan qo'shiqlar yosh avlodni nafaqat san'atga, balki mumtoz adabiyotga ham oshno qiladi.

Tarixiy, axloqiy va badiiy motivlarning yosh avlodga ta'siri



AQSh va Yevropa davlatlarida badiiy tafakkurni rivojlantirish maqsadida musiqa terapiyasi keng qo'llaniladi. Tadqiqotlarga ko'ra, musiqiy ta'lim olgan yoshlarning mantiqiy fikrlash qobiliyati va ijodiy tafakkuri boshqalarga nisbatan 30% yuqori bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa yoshlarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, milliy musiqiy merosni ta'lim jarayoniga kiritgan mamlakatlarda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati 25-30% yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, AQShning Harvard

universitetida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, xalq musiqasi bilan shug'ullangan yoshlar orasida ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy ishga moyillik darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

Musiqashunoslar va pedagoglarning fikricha, milliy musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. O'zbekistonlik taniqli musiqashunos olimlar milliy qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyatini qayd etib, ularning nafaqat estetik, balki axloqiy-ma'naviy omil sifatida ham muhimligini ta'kidlaydilar. Misol uchun, professor A.Yo'ldoshevning tadqiqotlarida xalq qo'shiqlari yoshlar ongida mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirish vositasi sifatida ko'rib chiqilgan.

O'zbek xalq qo'shiqlari bilan boshqa mamlakatlarning milliy qo'shiqlari o'rtasida ma'lum o'xshashlik va farqlar mavjud. Masalan, yapon xalq musiqasida ham ma'naviy qadriyatlarni yosh avlodga etkazish maqsad qilingan bo'lsa, Germaniyada milliy folklor tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qo'llaniladi. Shvetsiya va Norvegiya singari davlatlarda esa xalq musiqasi maktab dasturlariga majburiy fan sifatida kiritilgan bo'lib, bu yoshlarning tarbiyasida ijobiy natijalar bergan.

O'zbekistonda milliy musiqaning ta'lim va tarbiyada keng qo'llanilishi amaliy tajriba sifatida juda ahamiyatlidir. Masalan, "San'at va madaniyat" dasturi doirasida milliy musiqani maktab va kollej o'quv dasturlariga integratsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, Respublika bolalar musiqa va san'at maktablari orqali yosh avlodga milliy musiqa va cholg'u asboblari o'rgatilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda bir qator loyihalar doirasida milliy qo'shiqlarning yoshlar orasida keng targ'ib etilishi milliy musiqiy merosni asrab-avaylash va yosh avlodga etkazish bo'yicha muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalq qo'shiqlari milliy tarbiyaning muhim vositasi sifatida yosh avlodga tarixiy xotirani singdirish, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va estetik tafakkurni rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu maqolada keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, milliy musiqiy merosni yoshlar orasida targ'ib qilish nafaqat ma'naviy kamolotga, balki jamiyatning madaniy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar esa milliy musiqa ta'limi va tarbiyasining dolzarbligini yana bir bor isbotlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2018-yil 3-avgust, "O'zbekiston Respublikasi yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida".

2. UNESCO. (2022). "The Role of Traditional Music in Education: A Global Perspective".

3. Yoʻldoshev A. (2021). “Milliy musiqa va tarbiya: Yosh avlod maʼnaviy kamoloti uchun ilmiy yondashuv”. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Harvard University Research on Music and Social Behavior. (2020). “Effects of Traditional Music on Youth Development”.
5. Shvetsiya taʼlim vazirligi. (2019). “National Folk Music in Modern Education”.
6. Musiqa sanʼati akademiyasi ilmiy tadqiqot markazi (2021). “Milliy musiqaning yoshlar maʼnaviy dunyo qarashiga taʼsiri”.
7. Germaniya madaniyat instituti. (2018). “Folklor va taʼlim integratsiyasi”.

MILLIY MUSIQA NAMUNALARINING TURIZM VA MADANIYAT INDUSTRIYASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy musiqaning turizm va madaniyat industriyasidagi o‘rni keng tahlil etiladi. Milliy musiqa nafaqat xalq madaniy merosining ajralmas qismi, balki turistik mahsulot sifatida iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli sanaladi. Turistlarni jalb etishda milliy musiqaning roli, madaniy tadbirlar va festivallarning ahamiyati, mehmonxonalar, restoranlar va sayyohlik yo‘nalishlarida milliy musiqadan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, milliy musiqa mahsulotlarining tijoratlashuvi, madaniyat industriyasidagi roli va jahon tajribasi misollar asosida tahlil qilinadi. Milliy musiqaning raqamlashtirilishi, xalqaro loyihalar orqali targ‘ib qilinishi va iqtisodiy foyda manbai sifatida rivojlanish istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Milliy musiqa, turizm industriyasi, madaniyat industriyasi, festivallar, raqamlashtirish, madaniy meros, xalqaro tajriba, tijoratlashuv, innovatsiya.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the role of national music in the tourism and cultural industry. National music is not only an integral part of the national cultural heritage, but also economically significant as a tourist product. The role of national music in attracting tourists, the importance of cultural events and festivals, and the use of national music in hotels, restaurants, and tourist destinations are considered. The commercialization of national music products, their role in the cultural industry, and world experience are also analyzed based on examples. The digitalization of national music, its promotion through international projects, and its development prospects as a source of economic profit are discussed.

Keywords: National music, tourism industry, cultural industry, festivals, digitalization, cultural heritage, international experience, commercialization, innovation.

Zamonaviy globallashuv jarayonida har bir mamlakat o‘zining milliy o‘ziga xosligini saqlab qolish va uni keng targ‘ib etish orqali turizm hamda madaniyat industriyasini rivojlantirishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy musiqa mahsulotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy musiqa – bu nafaqat xalq an‘analarining bir qismi, balki turistik mahsulot sifatida iqtisodiy jihatdan samarali manba hamdir. Musiqa madaniy turizmning ajralmas elementi bo‘lib, u

sayyohlarga xalqning o'ziga xos urf-odatlar va san'ati bilan tanishish imkonini beradi.

O'zbekiston singari boy madaniy merosga ega mamlakatlarda milliy musiqa turizmni rivojlantirishning muhim vositasiga aylanishi mumkin. Mamlakatimizning boy tarixiy obidalar, madaniy festivallari va milliy musiqasi jahon sayyohlarini jalb etish imkoniyatiga ega bo'lgan kuchli omillardir. Xususan, "Sharq taronalari" festivali, xalqaro etno-musiqa anjumanlari, milliy qo'shiqlar va raqs ansambllari sayyohlar uchun o'ziga xos maftunkor tajribani taqdim etadi.

Bundan tashqari, turizm sohasi tobora innovatsion echimlarni talab qilmoqda. Milliy musiqani raqamlashtirish, interaktiv audiogidlar yaratish, mobil ilovalar orqali targ'ib qilish kabi zamonaviy yondashuvlar milliy musiqani ommalashtirish va tijoratlashtirish imkonini beradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa festivallari va musiqali shoular nafaqat turistik oqimni oshirishga, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham sezilarli foyda keltirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada milliy musiqaning turizm va madaniyat industriyasidagi o'rnini, uning rivojlanish yo'nalishlari, tijoratlashuvi va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston uchun istiqbolli strategiyalar, milliy musiqa mahsulotlarini turizmga integratsiya qilish va raqamlashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Milliy musiqa va turizm industriyasi. Turizm industriyasi ko'p jihatdan milliy an'analar va madaniyatning noyobligi bilan bog'liq bo'lib, milliy musiqaning turistik mahsulot sifatida shakllanishi mamlakatning jozibadorligini oshiradi. Turistlar uchun milliy musiqa yangi tajriba bo'lib, ular madaniyat bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Turistlarni jalb etishda milliy musiqaning roli

- **Madaniy tadbirlar va festivallar** – xalqaro va mahalliy sayyohlarni jalb etish maqsadida milliy musiqaga asoslangan festivallar tashkil qilish zarur. Masalan, "Sharq taronalari" festivali xalqaro miqyosda O'zbekiston madaniyatini tanitishda muhim o'rin tutadi.

- **Mehmonxonalar va restoranlarda milliy musiqa** – turistlar mahalliy madaniyat bilan yanada yaqinroq tanishishlari uchun mehmonxona va ovqatlanish joylarida jonli milliy musiqa ijrosi tashkil etilishi mumkin.

- **Sayyohlik yo'nalishlarida musiqa shoulari** – O'zbekistonning tarixiy shaharlarida (Samarqand, Buxoro, Xiva) milliy musiqa shoulari tashkil qilish turistlar uchun katta qiziqish uyg'otishi mumkin.

Milliy musiqa mahsulotlarining tijoratlashuvi

• **Milliy musiqa albomlari va suvenir mahsulotlari** – milliy cholgʻu asboblari, CD va raqamli platformalar orqali milliy musiqani sotish orqali iqtisodiy foyda olish mumkin.

• **Interaktiv audiogidlar va ilovalar** – milliy musiqa asosida audiogidlar va mobil ilovalar ishlab chiqish orqali sayyohlarga innovatsion xizmatlar taqdim etish mumkin.

• **Mahorat darslari va jonli tajribalar** – turistlarga anʼanaviy cholgʻu asboblari chalish boʻyicha mahorat darslari oʻtkazish milliy musiqa mahsulotlarini tijoratlashishda yangi yoʻnalish boʻlishi mumkin.

Madaniyat industriyasi va milliy musiqa mahsulotlari. Milliy musiqa sanʼati madaniyat industriyasining ajralmas qismi boʻlib, u teatr, kino, reklama va boshqa madaniy mahsulotlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Kino va teatrdagi milliy musiqaning ahamiyati:

• **Filmlarda milliy musiqa** – tarixiy va zamonaviy filmlarda milliy musiqaning ishlatilishi madaniyatni ommalashtirishga xizmat qiladi. Masalan, "Abdullajon", "Maftuningman" kabi filmlarda milliy musiqaning ishlatilishi ularning xalq orasida mashhurligini oshirgan.

• **Teatrlarda milliy musiqa** – Oʻzbek milliy teatrlari (masalan, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri) spektakllari orqali milliy musiqa targʻib etiladi.

Reklama va brendingda milliy musiqa

• **Turizm sohasidagi reklama kampaniyalari** – milliy kuylar turizmni targʻib qiluvchi videoroliklarda ishlatilsa, xalqaro auditoriyaning eʼtiborini jalb etish osonlashadi.

• **Mahsulot va xizmatlar brendida milliy musiqadan foydalanish** – milliy kuylar kompaniyalar tomonidan brend imidjini yaratishda ishlatilishi mumkin (masalan, milliy musiqali jingleʼlar).

Jahon tajribasi va Oʻzbekiston imkoniyatlari. Dunyoning turli mamlakatlari milliy musiqani turizm va madaniyat industriyasida samarali qoʻllamoqda. Quyida bir nechta misollar keltirilgan:

• **Turkiya** – anʼanaviy turk musiqasi va madaniy festivallar orqali turizm rivojlantirilmoqda. Istanbuldagi Sufi musiqa kechalari bunga misol boʻla oladi.

• **Janubiy Koreya** – K-pop musiqasi global turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Koreyaning "Hallyu" (Korean Wave) strategiyasi milliy musiqani iqtisodiy vositaga aylantirishga muvaffaq boʻlgan.

• **Ispaniya** – Flamenco musiqasi orqali millionlab sayyohlar mamlakatga jalb qilinmoqda.

O'zbekiston ham milliy musiqani global miqyosda targ'ib qilish orqali turizmni rivojlantirish va madaniy merosni kengroq namoyish etish imkoniyatlariga ega.

O'zbekiston uchun istiqbollar:

- Milliy musiqa festivallarini kengaytirish va global reklama kampaniyalarida foydalanish.
- Zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy musiqani raqamlashtirish va turizm platformalarida targ'ib qilish.
- Xalqaro musiqiy loyihalar orqali o'zbek milliy musiqasini dunyoga tanitish.

Milliy musiqa san'ati turizm va madaniyat industriyasining ajralmas qismi sifatida milliy o'zlikni saqlash, sayyohlik oqimini oshirish va iqtisodiy daromad manbalarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning boy madaniy merosi va milliy musiqa an'analari xalqaro turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga ega bo'lib, uni to'g'ri boshqarish va strategik jihatdan targ'ib etish milliy iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maqolada ko'rib chiqilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy musiqani turistik mahsulot sifatida shakllantirish va tijoratlashtirish orqali turizm sohasi yanada rivojlantirilishi mumkin. Festival va anjumanlar tashkil qilish, mehmonxonalar va restoranlarda milliy musiqadan foydalanish, sayyohlik yo'nalishlarida musiqiy dasturlarni joriy etish turistlar uchun noyob madaniy tajriba yaratadi. Bundan tashqari, milliy musiqa mahsulotlarini raqamlashtirish va ularni global bozorda targ'ib qilish O'zbekiston madaniyatining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm va madaniyat industriyasida milliy musiqadan samarali foydalanish nafaqat madaniy merosni asrab-avaylashga, balki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga ham hissa qo'shadi. Koreyaning K-pop fenomeni, Turkiyaning an'anaviy musiqa festivallari va Ispaniyaning Flamenco madaniyatini tijoratlashtirish kabi tajribalar milliy musiqani ommalashtirish va undan foyda olishning turli strategiyalarini namoyon etmoqda.

O'zbekiston ham o'z milliy musiqasini keng targ'ib qilish, uni xalqaro darajada brendlash va turizm sanoati bilan bog'lash orqali katta natijalarga erishishi mumkin. Shu sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligida milliy musiqani tijoratlashtirish, zamonaviy texnologiyalar orqali raqamlashtirish va xorijiy bozorga olib chiqish muhim vazifalardan biridir. Buning uchun milliy musiqani xalqaro festivallar, raqamli platformalar, turistik marketing strategiyalari va ta'lim dasturlari orqali keng targ'ib qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa turizm va madaniyat industriyasida ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Uni samarali rivojlantirish orqali O‘zbekistonning turistik jozibadorligini oshirish, madaniy merosni saqlash va iqtisodiy foyda olish mumkin. Shu bois, milliy musiqaga asoslangan innovatsion loyihalar va strategik tashabbuslar kelajakdagi turizm rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hisobotlari, 2023.
2. UNESCO madaniy meros va musiqa san’ati bo‘yicha xalqaro tadqiqotlari, 2022.
3. K-pop va global musiqa industriyasining turizmga ta’siri. Seoul National University Press, 2021.
4. Milliy musiqa va turizm: iqtisodiy va madaniy tahlil. Cambridge University Press, 2020.
5. O‘zbekiston xalq musiqa san’ati va uning rivojlanish istiqbollari. O‘zbekiston san’at instituti monografiyasi, 2019.

Shonazarova Mahbuba Abdunabi qizi,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası o'qituvchisi

MUSIQA TERAPIYASI HAMDA MUSIQA PSIXOLOGIYASINING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa terapiyasi hamda psixologiyasi haqida so'z boradi. Musiqa terapiyasining inson ruhiyatiga ta'siri, hasta bemorlarni musiqa terapiyasi yordamida davolash, rehabilitatsiya markazlarida, maktablarda, kasalxonalarda musiqa terapiyasidan foydalanish, ushbu san'at turning inson hayoti bilan nechog'lik bog'liqligi hamda uning muhimligi haqida fikr yuritilgan, ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqa terapiyasi, psixologiya, ruhiyat, ong, san'at, ohang, emotsiya.*

Annotation: *This article discusses music therapy and its psychology. It discusses the impact of music therapy on the human psyche, the treatment of sick patients with music therapy, the use of music therapy in rehabilitation centers, schools, and hospitals, and the importance of this art form in human life.*

Keywords: *Music therapy, psychology, psyche, consciousness, art, melody, emotion.*

Musiqa inson dunyoga kelish bilanoq hamroh bo'ladigan san'at, desak mubolag'a bo'lmaydi. E'tibor bergan bo'lsangiz, yangi tug'ilgan chaqaloq ma'lum davriga qadar ona allasining kuyga solingan xonishi bilan tinchlanib, uyquga ketadi. Kattalar esa asosan bo'sh qolganida, biror jismoniy mehnat bilan shug'ullanayotganda yoki shunchaki biror manzilga yo'l olganida musiqa va quloqchin bilan do'st tutinadi. Yana kayfiyatga ko'ra, sho'x yoki sokin qo'shiq tinglab, engil tortadigan, o'zini boshqa bir olamga tushib qolgandek his qiladigan vaziyatlar ham hech kimga begona bo'lmasa kerak.

Turli manbalarda keltirilishicha, musiqa ijtimoiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yoq paydo bo'lgan. O'sha davr musiqasi haqida aniq dalillar mavjud bo'lmasa-da, bu borada turli ilmiy farazlarga tayaniladi. Masalan, qushlarning sayrashi, hayvonlar sherigini chaqirishi, emotsional ohang, ibtidoiyo damlarning mehnat tovushlari va chaqirish usullari — musiqaning ilk manbalari sanaladi. Demakki, musiqa insoniyat bilan qadim davrlardan buyon birga.

Musiqaning inson organizmiga samarali ta'siri ham avvaldan ma'lum. Qadimgi yunon shifokorlari bemorlarni davolashda puflab chalinadigan asboblardan foydalangan. Faylasuf Demokrit nay nafaqat tinglash, balki, inson salomatligi uchun ham foydali ohang taratishini aytgan bo'lsa, o'rta asr odamlari

musiqaning asl maqsadi “Xudoni ulug‘lash, shaytonlarni quvib chiqarish, bemorlarni davolash va sevgini paydo qilish”dan iborat, deb bilgan.

1950-yillarda musiqava tibbiyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar bo‘yicha “Musiqiy terapiya” fani paydo bo‘lgan. Ko‘plab olimlar uni psixoterapiyaning yordamchi vositasi va bemorlarning murakkab terapevtik usullardan foydalanishga maxsus tayyorlash muolajasi, deb biladi.

Musika terapiyasi atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib “musika bilan davolayman” degan ma‘noni anglatadi. Musika terapiyasi psixologiyaning yordamchi turiga kirib bemorlarni ruhiy holatlarini musika yordamida davolashda foydalaniladi.

Musika psixologiyasi hamda terapiyasi juda qadim davrlardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Musika psixologiyasi bo‘yicha ilk izlanishlar kurtaklarini antic davr faylasuflari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Pifagor (er. avv. VI asr) asarlarida, uning *evritmiya* ta‘limotida shuhaqda gap boradi. Evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Ijtimoiy hayotni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan. Bu orkestrda har bir ijrochi ma‘lum bir cholg‘uni chalganidek, hayotda har bir insonning o‘z vazifasi bor degan fikrni ilgari surgan. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta‘sir ko‘rsatishini ham aniqlagan. Umidsizlik, ruhiy iztiroblar, asabiylashish, g‘azab va boshqa noxushliklarga qarshi musika yaxshi ta‘sir qilgan.

Boshqa bir Yunon faylasufi Platonning (er. avv. V asr) fikricha, davlatning kuch-qudratiunda qanday musika, qaysi ohang va qay ritmda yangra yotganligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir degan fikrni ilgari surgan. Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni yuksaklikka ko‘tarishga yordam beruvchi musika kerak deb hisoblaganlar.

Aristotel (er. avv. IV asr) ham musiqani individning ijtimoiy hayot bilan uyg‘unlashish vositasi deb hisoblagan. Aristotel insonning ichki olami va unga san‘at yordamida ta‘sir o‘tkazish usullarini ochib bergan *mimesis* ta‘lim otini ishlab chiqdi. Mimesis nazariyasida «*katarsis*» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, qadim Yunon tragediyalari tomoshabin ko‘nglini xastalik jazavalaridan tozalagan. Chuqur kechinmalar jarayonida inson ruhan poklanadi, uning qalbi o‘zining xususiyligi, yagonaligidan umumiylikka ko‘tariladi.

Aristotel psixikani o‘zgartiradigan musiqiy lادلarni batafsil tasvirlab bergan. Bir laddagi musika kishini rahm dil va muloyim qilib qo‘yadi, boshqa biri esa asabiylashish yoki hayajonlanishga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, *doriy*, *frigiy*, *lidiy* ladlaridagi musika kishining ruhi va sog‘lig‘i ga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan, boshqa lادلarda yozilgan musiqani esa yosh avlod qulog‘iga

etkazmaslik tavsiya etilgan. Shunday tavsiyalar musiqa cholg'ulari bo'yicha ham ishlab chiqilgan.[3, B.6;]

Hindistonda ham Raga (hind klassik musiqasi) nazariyasiga asosan, musiqiy terapiyadan keng miqyosda foydalanilgan. Hind shifokorlari fikriga ko'ra, har bir raga ma'lum kayfiyat turiga mos kelib, inson holatining o'zgarishiga sabab bo'la olgan. Ushbu o'zgarish, o'z o'rnida bemorlardagi depressiya va boshqa ruhiy buzilish holatlarini davolashda yaxshi samara bergan.

Musiqa terapiyasi – musiqa terapevtik yoki tuzatuvchi maqsadlar uchun ishlatiladigan san'at terapiyasining bir turidir. Hozirgi kunda musiqa terapiya psixo yo'nalish (tibbiyot va psixologiya) bo'lib, u ta'sir etishning ikki jihatiga asoslanadi.

1 – psixomatik (tana funksiyalariga terapevtik ta'sir etuvchi)

2 – psixoterapiya (musiqa bilan shaxs rivojlanishidagi og'ishlarni tuzatish, psixo – emotsional holat). Bu musiqaning katartik (tozalash) ta'siri bo'lib, uni rivojlanish muammolari bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarda ishlatish imkonini beradi.[2,B.10;]

Musiqa terapiyaning maqsadi: bemorning his – tuyg'ularini ifodalashga, bemorning stressini yoki havotirini bartaraf etishga yordam berish, bemorning kayfiyatini yaxshilashga yordam berish, bemorning kasallik bilan shug'ullanishi, hayot sifatini yaxshilash uchun bo'lishi mumkin. Musiqa terapiyasi orqali quyidagilardan forig' bo'lish isbotlangan: depressiya, stress, otizm, saraton. [orifjonova]

Jismoniy va ruhiy salomatlikka musiqaning ijobiy ta'sirini ilmiy tomonlama o'rgangan ilk mutaxassislardan biri faylasuf Pifagor bo'lsa, Sharqda esa tibbiyotning etuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino o'zining “Tib qonunlari” asarida ushbu san'at turini davolovchi vosita sifatida qayd etib, “Kitab Ash-shifa — Davolash kitobi” nomli qomusiy asarida to'liq bir bo'limni musiqa va puls o'rtasidagi o'zaro aloqalarga bag'ishlaydi. Ibn Sino (980-1037) musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtai nazardan o'rgangan.

Abu Ali Ibn Sino tarixda birinchi bo'lib musiqaga faqat matematik fan emas, balki jamiyatshunoslik, psixologiya, poetika, etikava fiziologiya nuqtai nazaridan ham qarab, musiqa tarixiga puxta ilmiy tayanchni asoslaydi.

Ibn Sino musiqa bobida Forobiyni ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglari rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo'lganligi haqidagi nazariyasi hozirgi zamonaviy musiqa nazariyalariga mos keladi. O'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan.

Buyuk Mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning serqirra ilmiy merosida musiqa muhim va salmoqli o'rintutadi.

O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda musiqa psixologiyasi Ibn Sino bilan bir qatorda Farobiy, Jomiy, Marog'iy, Kavkabiy kabi buyuk mutaffakirlar ijodida o'z rivojini topdi. Masalan, Farobiy (873-950) «Musiqa haqida katta kitob»ida musiqaning inson psixologiyasi va ruhiy olamidagi ulkan ahamiyati haqida yozgan. Musiqa kishilarni xursand qilishi, quvontirishi, tinchlantirishi, o'ylantirib qo'yishi, xotirjamlik baxsh etishi, sergaklantirishi va bir vaqtning o'zida uxlatib qo'yishi ham mumkinligini aytib o'tgan.

Yana bir allomamiz Abdurahmon Jomiy (1414-1492) «Risolai musiqa»sida, shuningdek, interval oraliqlarining his etilishi, ularning melodic va garmonik tuzilishlari konsonans (yoqimli) va dissonans (yoqimsiz) bo'lishlari haqida fikr yuritgan.

Nazariy nuqtai nazardan Ibn Sino o'rta asr an'alariga ko'ra musiqani matematik bilimlar toifasiga kiritgan. U musiqaga tovushlarni o'rganuvchi, ularning mutanosib jo'rliги natijasida kuy hosil bo'luvchi fan deb qaragan. Pifagor ta'limotidan kelib chiqqan holda, u musiqa sonlarga tegishli va ular bilan uzviy bog'liqdir, deb bilgan.

Turli eksperimentlarga ko'ra, musiqa odamning faqatgina kayfiyatiga emas, nafas olishi, pulsi, qon bosimi hamda ichki va tashqi energiyasiga ham ta'sir qiladi. U kishini stress holatidan olib chiqib, immunitetini oshiradigan, ruhiyatiga ijobiy ta'sir qilib, ijod qilishga unday oladigan ajoyib kuchga ega.

Ma'lumotlarga ko'ra, tovush tebranishi hujayralarning "aks-sado" qaytarishiga olib kelib, tanadagi fiziologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zi ritm va ma'lum chastotalar organizmdagi moddalar almashinuvining tezlashishiga yoki aksincha, sekinlashuviga ham ta'sir qiladi. Bixevioralfiziologiya bo'yicha mutaxassis Jorj Daymond, musiqa xususiyatiga qarab, tinglovchi mushaklaridagi kuch ham o'zgarishini [aniqlagan](#).

Musiqa tinglovchini ma'lum ritmga "tushiradi". Ong osti, eshitish va harakat tizimi birlashadi. Shu tariqa, musiqa yangrashi bemorning ritm ostida harakatlanishini osonlashtiradi.

Musiqiy terapiya chuqur ta'sir ko'rsatishi uchun, avstriyalik shifokor, davolovchi pedagog Karl Kyonig [yondashuviga ko'ra](#), bemorning o'zi ham musiqa bilan parallel harakatda bo'lishi ya'ni kuylashi, biror asbob chalishi yoki musiqani o'z harakatlarida namoyon eta bilishi lozim. Musiqa ohangiga qarab bemordagi og'riq susayishi yoki tezlashishi mumkinligi haqida bir necha tajriba va tasdiqlangan ilmiy izlanishlar mavjud. Masalan, 2011-yilda Salimpur rahbarligidagi guruh a'zolari, yoqimli musiqa miyada dofamin garmonini ishlab chiqarishini ko'rsatdi. Dofamin — og'riq qoldiruvchi ta'sir xususiyatiga ega.

Musika terapiyasining ahamiyati musiqa sanoatining o'zidan tashqariga chiqadi. Sog'liqni saqlash sohasida musiqa terapevtlari bemorlarga og'riqni boshqarish, stressni kamaytirish va umumiy farovonligini yaxshilash uchun ushbu mahoratdan foydalanadilar.

Ta'lim muassasalarida musiqa terapiyasi o'rganishni kuchaytirish, ijtimoiy o'zaro ta'sirni rivojlantirish va hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, u ruhiy salomatlikni davolashda, reabilitatsiya markazlarida va hatto korporativ sog'lomlashtirish dasturlarida qo'llaniladi.

Ushbu mahoratni o'zlashtirish martaba o'sishi va muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kasalxonalar, maktablar, qariyalar uylari va boshqa sog'liqni saqlash muassasalarida musiqa terapevtlariga talab katta. Shuningdek, ular xususiy amaliyot, jamoat tashkilotlari va tadqiqot muassasalarida imkoniyatlarni topishlari mumkin. Musika terapiyasi usullarini tushunish va qo'llash orqali odamlar foydali martaba eshiklarini ochishlari va boshqalarning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

- Kasalxona sharoitida musiqa terapevti saraton kasalligiga chalingan bemorlarga kimyo terapiya mashg'ulotlari paytida og'riq va xavotirni boshqarishda yordam berish uchun turli usullardan foydalanadi.
- Maktabda musiqa terapevti kasallangan bolalar bilan ishlaydi. Autizmlarning muloqot qobiliyatlarini yaxshilash va umumiy ijtimoiy o'zaro munosabatlarini yaxshilash uchun.
- Reabilitatsiya markazida musiqa terapevti insult bilan og'rikan bemorlarning tiklanishiga yordam berish va ularning motorli ko'nikmalarini yaxshilash uchun ritmik mashqlar va qo'shiqlardan foydalanadi.
- Korporativ salomatlik dasturida musiqiy terapevt xodimlarning stressini kamaytirish va dam olishni rag'batlantirish uchun guruh musiqa seanslarini o'tkazadi.

Musiqiy terapiya – bu jismoniy, hissiy, kognitiv va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun musiqadan foydalanishni o'z ichiga olgan mahorat. Bu turli xil sozlamalar va sohalardagi odamlarning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kuchli vositadir. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, san'atning o'z ishi shifobaxsh ta'sirga ega. Inson onasining qornidaligidanoq ohanglarni his qila boshlaydi, tug'ilganida esa ona allasidan zavq oladi, tinchlanadi. Musika insonni ezgulikka etaklaydi, ruhiyatini tozalaydi. San'at, musiqa insonning ruhida, yuragida yashaydi. Shunday ekan o'sib kelayotgan yosh avlodni musiqaga qiziqtirish, qalbida musiqaga nisbatan mehr uyg'otish barchamizning oily burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarov.A, Bekov.O. O'zME. Birinchi jild. Toshkent – 2000.
2. Orifjonova G. Art Terapiya. “Lesson – press”, Toshkent – 2020.
3. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. “Musiqa”, Toshkent – 2005.
4. www.Oyina.uz
5. www.avitsenna.uz

Turg'unova Nasiba Mamatovna,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası dotsenti, Falsafa doktori
(PhD)

MAHAMMADJON MASHSHOQ

Annotatsiya: *Namangan musiqiy madaniy hayoti ham o'zining uzoq o'tmish tarixiga egadir. Bu o'lkada mumtoz musiqa san'ati bardavom yangrashi va tobora yuksalishida, yosh san'at ixlosmandlari qo'liga soz tutgan, mohir sozanda va xonandalar kamol topishlariga katta hissa qo'shgan ustoz san'atkorlar – O'zbekiston san'at arbobi Usta Ro'zimatxon Isaboyev, Berkinboy Fayziyev, Abdulla Fayzullayev, Burxonjon Yusupov, Karimjon Mansurov, Nabijon Muhammedov, Mahammadjon Dadaboyev, Jamolqori G'iyosov, Hasan Sultonov, Boydada Olimovlarning xizmatlari beqiyosdir. Ushbu maqolada Mahammadjon Dadaboyev (1904-1995) ijodi haqida so'z yuritamiz.*

Kalit so'zlar: *ko'hna, sozanda, hofiz, usta, mashshoq, kuy, ohang.*

Annotation: *The musical and cultural life of Namangan also has a long history. Teachers have made a great contribution to the flourishing and development of classical music in our country, to the emergence of talented musicians and singers, to the education of young art lovers holding musical instruments in their hands - Honored Artist of Uzbekistan Usta Ruzimatkhon Isaboyev, Berkinboy Fayziyev, Abdulla Faizullayev, Burkhonjon Yusupov, Karimjon Mansurov, Nabijon Muhammedov, Mahamajona Dadabayev (1904-1995) are immeasurable.*

Keywords: *ancient, performer, hafiz, master, mashshak, melody.*

Mahammadjon Dadaboyev 1908-yilda Namangan shahrida, hunarmand, ziyoli Mirdadaboy oilasida tavallud topgan. U 11-12 yoshlarida otasidan erta etim qoladi. Ma'lumki, 1916-yili Chorrossiyasi voyaga etgan o'zbek o'g'lonlarini majburan Rossiya front orti xizmati uchun mardikorlikka ola boshlagan paytlarda xalq noroziligi kuchayib turli hududlarda qo'zg'alonlar ko'tarila boshlangan edi.

Namanganlik keksa ota-onalar ham yosh farzandlarini mardikorlikka yubormaslik maqsadida to'planib, norozilik bildiradilar. Xususan, "11-iyulda Namanganda ko'tarilgan qo'zg'alon ham jiddiy tus oldi. Labbaytog'a dahasida yig'ilgan 1500dan ortiq kishilarga qarshi kuchli qurollangan rota tashlandi va qo'zg'olonchilar tarqatib yuborildi. Mustamlakachi hukumat politsiyasi va harbiy kuchlar bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida ayovsiz janglar natijasida qurolsiz namoyishchilardan ko'pchiligi o'ldirildi va yarador qilindi" [1.]. Anashu

mardikorlik ro'yxatiga Mirdadaboy otaning ham endigina voyaga etgan Ahmadali (20 yosh) va Abdug'ani (18 yosh) o'g'illari kiritilgan edi. Ular ham barcha qatori qo'zg'olonda ishtirok etgan ekanlar. Chorrossiyasining xalqqa qaratib otgan zambaraklari natijasida ko'plab insonlar yaradorlanadilar, ayrimlar esa shu erda o'q tegib vafot etadilar. Mana shu kundagi yarador bo'lganlar qatorida Mirdadaboy ota ham qattiq yaralanganlardan edilar. Qariyb oradan bir oy o'tgach, 55 yoshda uylarida vafot etadilar.

Mirdadaboy ota mahallaning eng obro'li, etakchi diniy ulamolaridan ham biri bo'lganlar. Mahalla aholisi bu fayzli, o'qimishli otaxondan maslahatlar olib turar, barcha tadbirlar shu kishining yo'l-yo'riqlari bilan amalga oshirilgan ekan. Ularning fanrzandlari – Ahmadali, Abdug'ani, Zebixon, Mahammadjon, Abduvali, Abdurazzoqlar ham ota kabi ziyoli bo'lib kamol topadilar. Otadan erta etim qolgan farzandlar tarbiyasi, uy-ro'zg'or tashvishi onalari Ra'noxon aya va o'g'illari Ahmadali hamda Abdug'anilarning zimmasiga tushadi.

Ahmadali juda iste'dodli "zikrchi" hofiz, Abdug'ani esa iste'dodli shoir va kalxozda xisobchi bo'lgan. Shoir va san'atsevar akalardan ta'sirlangan Mahammadjonda ham hofizlik san'atiga qiziqish paydo bo'ladi.

Mahammadjon Dadaboyev bolalik chog'larida choyxonada bo'lib o'tadigan san'atkorlarning chiqishlarini qunt bilan tomosha qilar, sekin-asta bu dargohda ustoz san'atkorlardan eshitgan kuy-ashulalarni o'zicha mashq qila boshlaydi. U o'sha davrning nomdor g'ijjakchilaridan bo'lgan Sharifjon hojining ijro mahoratiga mahliyo bo'lib, soz chalishini butun vujudi bilan kuzatar edi. Bu haqida farzandlari Tolibjon Dadaboyev shunday xotirlaydi; - "Dadam bir kuni g'ijjakda "Nasrullovi" kuyini chaldilar. Men dadamdan g'ijjakni qayerdan olganliklari haqida so'radim. Dadam buning tarixi uzun o'g'lim dedilarda bu haqida so'zlab berdilar. "Men musiqaga qiziqibmi yoki mohir sozanda Sharifjon hojining g'ijjagidan chiqayotgan sehrli ohangga mahliyo bo'libmi, surilib-surilib, asta-sekin ularga yaqinroq erga borib qolganimni sezmay ham qolibman. Sharifjon hojining g'ijjagi Hindistonda o'sadigan javz yong'oqning kosasidan tayyorlangan bo'lib, uning uchinchi, to'rtinchi torlari ikkitadan juft tor qilib tortilgan, ya'ni kvinta sozidagi "lya-mi" tori kabi edi.

Meni g'ijjak chalishga ishqim tushib qoldi. Uyga ham ketmay kunduzlari choyxonada sozandalarga choy tashib, kechalari Sharifjon akaning g'ijjaklarini bir burchakka borib o'zimcha chalib, tinimsiz mashq qilar edim. Bir kuni Sharifjon hoji menga g'ijjakda mashq qilayotganim dam olayotgan sozandalarga biroz malol kelayapti shekilli deb, "men uyga borganimda sizga mashq qilishingiz uchun g'ijjak olib kelib beraman, kunduzlari uyda bimalol mashq qilaverasiz"- dedilar. Ertasi kuni menga g'ijjakni olib kelib berdilar. Men choyxonada eshitgan kuylarni uyda chala boshladim. Sozandalar to'rt-beshta kuyni ijro qilishgach

hordiq chiqarib choyxo‘rlik qilardilar. Sharifjon hoji menga soz olib bergan bo‘lsalar-da ammo menining e‘tiborim ularning g‘ijjaklarida bo‘lardi. Buni ular sezganlar shekili, ba‘zan-ba‘zan mendan,-“Muxammadjon! G‘ijjaginga qarab qo‘ying joyida turibdimi”-deb so‘rab qo‘yardilar. Bu hol takrorlanavergach men ulardan buning sababini so‘radim. Shunda ular manashu g‘ijjak orqali muqaddas haj safariga borib kelganliklari haqida so‘zlab berdilar” [2.11-12 b].

Mahammadjonga ukasi Abduvali ham havas qilib, soz chalishni o‘rgangan edi. Choyxonada o‘tgan yillar davomida Mahammadjon kunduzlari choy tashib, kechalari soz chalib, ustozlar ijrosini puxta o‘rganib, ashula xirgoyi qilib yurar ekan, natijada etuk san‘atkor bo‘lib kamol topdi, el orasida mashhur bo‘ladi. Dutor, g‘ijjak, rubob sozlarini maromiga etkazib chertish, o‘z honishiga o‘zi jo‘r bo‘lish darajasiga etganligini anglagan xalq gap-gashtaklarga, to‘ylarga taklif qila boshlaydi. Sozanda va xonandalik tufayli nochor qolgan oilaning yashash sharoiti ham tobora yaxshilanib boradi. Mahammadjon san‘at borasidagi bilimlarini yanada chuqurroq egallash maqsadida 1934-yili o‘z zamonining mashhur sozandasi Usta Ro‘zimatxon Isaboyevga shogird bo‘lish istagi tug‘iladi. Usta Ro‘zimatxon Maxammadjonni shogirdlikka qabul qilgach, nafaqat sozandalik san‘atini puxta o‘zlashtiradi balki ustoz bilan xalqning to‘yu-tomoshalarida birgalikda xizmat qiladi. Yetarli bilim va malakaga ega bo‘lgan Maxammadjon ustozining taklifi bilan 1930-31 yil tashkil etilgan A.Navoiy teatriga ishga kiradi. Usta Ro‘zimatxon ushbu teatr jamoasida faoliyat olib borayotgan san‘atkorlarining bosh sarkori edi. Shu bois iste‘dodli yosh sozanda va xonandalarni ushbu teatrga jalb etib, ustoz-shogird an‘anasini ham shu dargohda davom ettiradilar. Ustadan Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlarini, bastakorlarning mumtoz asarlarini mukammal o‘rganib, sahnaga olib chiqilgan teatrlarda ijro etib tomoshabin shinavandalarga havola qiladilar.

Ma‘lumki, 1939-yil 1-avgustdan xalq xashari bilan Katta Farg‘ona kanalini qazish ishlari boshlab yuborilgan edi. Mahammadjon Dadaboyev ham mashhur hofizlar Muhammadjon Do‘stmuhammedov, Muhammadjon qori Ubaydullayevlar bilan birgalikda Farg‘ona kanalida ishlayotgan xasharchilarning madaniy dam olishlari yo‘lida o‘zlarining ijro dasturlari bilan 45 kun davomida ularga konsert berib boradilar. Bu davrning davlat rahbari Usmon Yusupov ularning ham san‘at yo‘lidagi xizmatlarini munosib taqdirlagan edi.

1941-yili 2-jahon urushi boshlangach voyaga etgan san‘atkor yigitlarni urushga jo‘natilishi natijasida teatrlarning faoliyatlari ham to‘xtab qoladi. Hukumat rahbarlari xalq kayfiyatini san‘at orqali ko‘tarish maqsadida teatrni qayta tashkil qilishga kirishadilar. 1943-yil boshida Mahammadjon Dadaboyevni Namangan Uychi tumani teatriga musiqa rahbari etib tayinlaydilar. Uychi teatri xodimlari musiqa rahbari yo‘qligi sababli tarqab ketish holatiga kelib qolgan edi.

Mahammadjon Dadaboyev va teatr jamosi birgalikda bir necha spektakllarni sahnalashtiradilar va konsert dasturlarini tayyorlab, tinglovchilarga namoyish etadilar. Teatrda 1948-yilga qadar ijodiy faoliyat yuritib, qator shogirdlarni tarbiyalashga erishadilar.

2-jahon urushi tugagach Mahammadjon Dadaboyev Uychi tumani teatridan oilasi davrasiga qaytib, 1948-yildan Namangan shahar ko'zi ojizlar jamiyatida ansambl tashkil etib, hasta ko'ngillarga soz chalish va ashula kuylashdan saboq beradi. Ansambl tez fursatda rivojlanib, ijro dasturlarini boyitib, birin-ketin konsertlar uyushtiradilar. Respublika miqyosida o'tkazilgan ko'zi ojizlar tanlovlarida bir necha bor qatnashib birinchi o'rin sohibi bo'lishga ham sazovor bo'ladilar. Mahammadjon Dadaboyev ushbu dargohdagi 23 yillik faoliyati davomida ansamblni butun respublikaga tanilishida samarali xizmat qiladi. Uning farzandi Mahmudjon Dadaboyev padari buzrukvori haqida shunday xotirlaydilar;-“Men otam bilan birga to'garakka borib, ularning ijrolarini kuzatar edim. Bir kuni dadam bir ko'zi ojiz bolaga kuy o'rgatayotgan edilar. O'rgatish ancha qiyin bo'ldi. U to'garakka yangi kelgan ekan. Uning qo'liga sozni ushlatib bir necha bor mashq qildirdilar. Mening yuragim siqilib ketdi-da, dadamga boshqa erda ishlashlari haqida gapirdim. Shunda dadam menga;-“ey o'g'lim sen buni tushunmaysan, hali yoshsanda. Men bu ishdan hech charchab tolmaganman. Shuni yaxshi eshitib ol! “Ojiz kishini 7 qadam etaklab joyiga olib borib qo'ygan odam jannati bo'ladi”-dedilar. Bu gapni mag'zini yillar davomida tushunib etdim. Men va ukam Tolibjonning san'at borasidagi ilk ustozimiz ham otamizdir. Bu borada erishgan barcha yutuqlarimizda albatta ularning xizmatlari beqiyosdir”.

“Mening san'at olamida erishgan barcha yutuqlarimda otamning hissalari katta. Qo'limga ilk bora cholg'uni tutqazgan hamda ashula kuylashni o'rgatgan bu dadamdirlar. Akam ikkimiz ota kasbini davomchisi sifatida yoshlarga saboq berib, ko'plab shogirdlar tarbiyalab kelmoqdamiz”-deydi Tolibjon Dadaboyev.

Mahammadjon Dadaboyev o'zining betinim izlanishlari, mehnatlari natijasi o'laroq o'z davrining mohir sozanda va hofizi sifatida Mahamadjon Mashshoq nomi bilan xalq nazariga tushdi. Ilmli va ma'naviyatli Karimaxon aya Hamidova bilan birgalikda 6 o'g'il va 1 qiz farzandni oqil va dono, bilimli va mehnatkash qilib tarbiyaladilar. Ota kasbiga bo'lgan mehr, san'atga oshufta qalb farzandlar Mahmudjon va Tolibjon Dadaboyevlarni ham o'z quchog'iga oldi. Ular ham otalari kabi el ardog'idagi etuk shoir, sozanda, xonanda va bastakor bo'lib kamol topdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Turkiston va birinchi jahon urushi. /O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. – T., 2016.
2. Yusupov N. Navozanda. – Farg'ona nashriyoti. 2009. 64 b.
3. 2011-yil Mahmudjon va Tolibjon Dadaboyevlar bilan bo'lgan suhbat.

Xolboyev Nuriddin Suyunovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası dotsent v.b.

Musiqqa va miya faoliyati o'rtasidagi aloqalar ko'plab neyropsixologik tadqiqotlar yordamida aniqlangan. Musiqqa o'rganish, ayniqsa, musiqqa asboblarni chalish yoki vokal mashqlarni bajarish miya faoliyatining bir nechta mintaqalarini faollashtiradi. Musiqqa bilan shug'ullanish miya bog'lanishlarini kuchaytiradi, xotira va diqqatni rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqqa o'rganish kognitiv ko'nikmalarni, masalan, mantiqiy fikrlash, til o'rganish va ijodkorlikni kuchaytiradi. Musiqqaning miya uchun foydali ta'siri, shuningdek, motivatsiyani oshirishga yordam beradi, bu esa o'quvchilarning umumiy o'qish natijalariga bevosita ta'sir qiladi.

3. Musiqqa va multidimensional talim: ta'limning boshqa sohalariga musiqqa o'rganishning ta'siri

Musiqqa ta'limi, shuningdek, boshqa sohalarda, masalan, sport, ijodiy faoliyat va ijtimoiy muloqotda ham kognitiv va hissiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Musiqqa o'rganish va sport o'rtasida o'xshashliklar bor, chunki ikkala faoliyat ham jismoniy va aqliy intizomni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqqa o'rganish sportchi va ijodkorlarga yaxshiroq diqqatni jamlashga va o'z imkoniyatlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Shuningdek, musiqqa o'rganish yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, chunki ular guruhlarda ishlashni, muloqot qilishni va boshqalar bilan kelishuvga erishishni o'rganadilar. Musiqqa ta'limi orqali kognitiv va hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish, yoshlarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

4. Kognitiv rivojlanishga bo'lgan musiqqa ta'limining gender asoslari

Musiqqa ta'limining kognitiv rivojlanishga bo'lgan ta'siri o'g'il va qizlar orasida qanday farq qiladi? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqqa o'rganishning kognitiv ta'siri jinsga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizlar musiqqa va san'atga ko'proq qiziqish bildiradilar, o'g'il bolalar esa musiqqa ta'limida ko'proq texnik va struktural aspektlarga e'tibor beradilar. Shu bilan birga, musiqqaning jinsiy farqlarga ta'siri yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirishda o'zgaradi. Musiqqaning ta'siri, shuningdek, gender stereotiplarini engishga yordam beradi va tenglikka bo'lgan yondashuvni kuchaytiradi.

5. Musiqqa ta'limi va innovatsion o'qitish usullari

Bugungi kunda musiqqa ta'limida innovatsion texnologiyalar va interaktiv o'qitish usullarining o'rni tobora ortib bormoqda. Kompyuter dasturlari, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida musiqqa o'rganishning samaradorligi oshmoqda. Musiqqiy dasturlar yordamida o'quvchilar musiqqa nazariyasini, notalarni o'rganishni va musiqqiy asboblarni chalishni interaktiv tarzda o'zlashtirishi mumkin. Bu innovatsion usullar o'quvchilarga individual va guruh bilan ishlashda ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, o'qitish jarayonida

texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va motivatsiyalarini oshirishga yordam beradi.

6. Musiqa ta'limining global tajribalari va o'zbekiston ta'lim tizimidagi roli

Xorijiy tajribalar asosida musiqa ta'limining dunyo miqyosida qanday rivojlanayotgani va O'zbekiston ta'lim tizimida qanday o'rni borligini tahlil qilish mumkin. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda musiqa ta'limi bolalar va yoshlar uchun asosiy o'quv fani sifatida qabul qilinadi. Masalan, Finlandiyada musiqa ta'limi dasturlari o'quvchilarga nafaqat musiqa nazariyasini o'rganishni, balki ijodiy va jamoaviy ishlarni rivojlantirishni ham taklif qiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida esa musiqa ta'limiga alohida e'tibor berilgan bo'lsa-da, bu sohaga yanada ko'proq yondashuvlarni joriy qilish lozim. O'zbekistonda musiqa ta'limining sifatini oshirish uchun innovatsion metodlarni joriy qilish, musiqiy dasturlarni ishlab chiqish va o'qituvchilarning malakasini oshirish zarur.

7. Musiqa ta'limi va o'qish sifatini oshirish: sinovlar va o'lchovlar

Musiqa o'rganishning akademik muvaffaqiyatlarga ta'siri haqida ilmiy tadqiqotlar ko'rsatmoqda. Musiqa ta'limining o'quvchilarning test natijalariga va akademik muvaffaqiyatlariga qanday ta'sir qilishini o'lchash orqali musiqa ta'limining samaradorligini ishonchli ravishda baholash mumkin. Musiqaning matematik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ta'siri, ayniqsa, dastlabki ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning umumiy bilim darajasini oshiradi. Bu o'lchovlar yordamida musiqa ta'limining o'quvchilarning umumiy intellektual rivojlanishiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Berkley, S. (2019). The Cognitive Benefits of Music Education. *Journal of Psychological Studies*, 25(4), 102-115. Ushbu maqolada musiqa ta'limining miya faoliyati va kognitiv rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

2. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books. Gardnerning ko'p qirralik aql nazariyasi musiqa ta'limining kognitiv rivojlanishga bo'lgan ta'sirini tushuntirishga yordam beradi.

3. Hallam, S. (2010). The Power of Music: Its Impact on the Intellectual, Social, and Personal Development of Children and Young People. *International Journal of Music Education*, 28(3), 307-318. Ushbu tadqiqot musiqa ta'limining yoshlar rivojlanishidagi psixologik, kognitiv va ijtimoiy ta'sirlarini ko'rib chiqadi.

4. Jellison, J. A. (2015). Music Education and the Emotional Development of Children. *Music Education Research*, 17(2), 140-152. Bu maqola musiqa ta'limining bolalarning hissiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

5. Laukka, P., & Saarikallio, S. (2014). Music and Emotion: From the Listener to the Performer. *Psychology of Music*, 42(3), 320-335.

Tadqiqot musiqa va hissiy holatlar orasidagi aloqalarni ko'rsatadi va musiqa ijro etishning hissiy ta'sirini tahlil qiladi.

6. Pelligrini, A., & Brook, J. (2012). *Music Education in the 21st Century: Current Issues and Future Directions*. Oxford University Press. Ushbu kitobda musiqa ta'limining hozirgi kun talablariga javob berish va innovatsion usullarni qo'llash bo'yicha fikrlar keltirilgan.

7. Schlaug, G., Norton, A., & Overy, K. (2005). Music Training as a Tool for Enhancing Brain Plasticity. In *Music and the Brain* (pp. 43-56). Springer, New York.

Musiqa ta'limining miya plastisitasiga ta'siri va kognitiv rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

8. Sims, J. M., & Siedel, L. P. (2017). Global Perspectives on Music Education: Challenges and Opportunities. *International Journal of Music Education*, 35(4), 532-546. Dunyo miqyosida musiqa ta'limi va uning global rivojlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

9. Stewart, A., & Green, L. (2018). The Role of Music in Promoting Social and Emotional Learning in Schools. *Journal of Education and Development*, 31(1), 45-58. Musiqa ta'limining o'quvchilarda ijtimoiy va emotsional rivojlanishni oshirishdagi rolini o'rganadi.

10. Williams, M. S. (2020). *Music Education and Social Change: How Music Shapes Society and Culture*. Routledge. Ushbu kitobda musiqa ta'limining ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga ta'siri tahlil qilinadi.

Rahimova Zamira Jalilovna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası jo‘rnovozi

O‘ZBEKISTONDA MUSIQA TA’LIMI TIZIMI: ZAMONAVIY TALABLARGA MOSLASHUV, MUAMMOLAR VA ISLOHOTLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “O‘zbekistonda musiqa ta’limi tizimining zamonaviy talablarga mosligi, asosiy kamchiliklari va islohot istiqbollari” tahlil qilinadi. Maktab, maxsus musiqa ta’lim muassasalari va qo‘shimcha ta’lim sohalaridagi holat o‘rganilib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari (Finlandiya, Yaponiya, Venesuela) tajribasi bilan solishtiriladi. Musiqa ta’limidagi nazariya va amaliyot o‘rtasidagi nomutanosiblik, texnologik qoloqlik, o‘qituvchilar malakasi va infratuzilma muammolari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, musiqa ta’limini rivojlantirish bo‘yicha aniq takliflar (dastur islohoti, raqamli texnologiyalarni joriy etish, hamjamiyatni jalb qilish) ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *Musiqa ta’limi, O‘zbekiston maktablari, an’anaviy va zamonaviy usullar, ta’lim infratuzilmasi, o‘qituvchilar malakasi, Finlandiya, Yaponiya, El Sistema tajribasi, musiqa ta’limidagi islohotlar, raqamli texnologiyalar, AI va musiqiy kreativlik, milliy musiqa strategiyasi.*

Abstract: *This article analyzes “The compliance of the music education system in Uzbekistan with modern requirements, main shortcomings and reform prospects”. The situation in schools, specialized music educational institutions and additional education is studied and compared with the experience of developed countries of the world (Finland, Japan, Venezuela). The imbalance between theory and practice in music education, technological backwardness, teacher qualifications and infrastructure problems are scientifically covered. Also, specific proposals for the development of music education (curriculum reform, introduction of digital technologies, community involvement) are put forward.*

Key Words: *Music education, Uzbek schools, traditional and modern methods, educational infrastructure, teacher qualifications, Finland, Japan, El Sistema experience, reforms in music education, digital technologies, AI and musical creativity, national music strategy.*

O‘zbekistonda musiqa ta’limi tizimi an’anaviy va zamonaviy usullarni uyg‘unlashtirgan holda rivojlanmoqda. Bu tizim O‘zbekiston Respublikasida uch bosqichda tashkil etilgan:

Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim – Musiqaga qiziqish uyg‘otish va dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablari

hamda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritadi. Respublika bo'ylab 300 dan ortiq bolalar musiqa va san'at maktablari mavjud.

O'rta maxsus musiqa ta'limi – Maxsus musiqa litseylari va kollejlarda olib boriladi. Ular professional musiqachilarni tayyorlashga qaratilgan chuqurlashtirilgan dasturlarni o'z ichiga oladi.

Oliy musiqa ta'limi – O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Har yili 200 dan ortiq talaba bakalavriat va magistratura bo'yicha tahsil oladi.

Bugungi kunda musiqa ta'limi quyidagi zamonaviy talablar asosida shakllanmoqda:

Raqamli texnologiyalarni joriy etish – Onlayn darslar, virtual o'quv qurollari va raqamli musiqiy asbob-uskunalaridan foydalanish tobora kengaymoqda.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – O'zbekiston davlat konservatoriyasi Rossiya, Turkiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning etakchi musiqa oliygohlari bilan hamkorlik o'rnatgan.

O'quv dasturlarini yangilash – So'nggi besh yilda 10 dan ortiq yangi dastur va o'quv materiallari ishlab chiqilgan.

Ijodiy tanlovlar va amaliy mashg'ulotlar – Har yili 5000 dan ortiq yosh musiqachilar uchun respublika va xalqaro miqyosdagi tanlovlar o'tkaziladi.

Rivjolanagan mamlakatlar misolida ham masalani batafsil ko'rib chiqamiz:

Finlandiya: Ushbu mamlakatda har bir maktabda musiqa ta'limi majburiy bo'lib, o'quvchilarga kreativ yondashuv asosida dars o'tiladi. Musiqa maktablari davlat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadi.

Yaponiya: An'anaviy va zamonaviy musiqa ta'limi uyg'unligi saqlanib, texnologik innovatsiyalar joriy qilingan. Har bir o'quvchi kamida bitta cholg'u asbobida chalishni o'rganishi majburiy.

Venesuela (El Sistema): Ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bolalar uchun maxsus musiqa ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning jamiyatga integratsiyasiga katta hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar milliy model yaratishda foydali bo'lishi mumkin.

Mavjud muammolar va ularning tahlili. Musiqa ta'limi tizimi rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

Moliya etishmovchiligi – Aksariyat musiqa maktablari zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan to'liq ta'minlanmagan. Ayniqsa, qishloq hududlarda infratuzilma va kadrlar etishmasligi hamon actual. Ko'pgina viloyat maktablarida

musiqi xonalari hamon kerakli jihozlar bilan jihozlanmagan. Malakali o'qituvchilar soni kam.

O'qituvchilar malakasini oshirish zarurati – Pedagoglarning 20-30 foizi qo'shimcha malaka oshirishga ehtiyoj sezadi.

Amaliyot va nazariyaning nomutanosibligi – Ko'plab o'quv dasturlari nazariyaga asoslangan bo'lib, amaliy mashg'ulotlar etarlicha emas. Ba'zi o'quv dasturlari zamonaviy musiqiy trendlar (elektron musiqa, prodyuserlik, studiya muhandisligi) ni qamrab olmaydi.

Innovatsion usullarning kamligi – G'arb mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan interaktiv va innovatsion musiqa ta'limi usullari O'zbekistonda hali to'liq joriy etilmagan.

Xususi ta'lim muassasalarining etarli emasligi: Rassomlik, dizayn sohalariga nisbatan musiqa bo'yicha xususi maktab va kurslar kamroq rivojlangan.

Kelajakda ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun takliflar:

Musiqa ta'limini raqamlashtirish: Onlayn darslar, virtual konservatoriya loyihalari, musiqiy dasturlar (Ableton, FL Studio) bo'yicha o'quv kurslari joriy etilishi.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Erasmus+, DAAD kabi dasturlar orqali talabalarni xorijiy konservatoriyalarga yuborish, chet el ustozlarini jalb qilish.

Qishloq joylarida musiqa ta'limini yaxshilash: Mobil musiqa studiyalari, ko'chma konsertlar, mahalliy mecenatlar hisobiga qo'shimcha resurslar ajratish.

Yangi yo'nalishlarni joriy etish: Musiqa prodyuserligi, film va o'yinlar uchun saundtrek yaratish, DJlik kabi zamonaviy kasblarni o'qitish.

An'anaviy musiqani qo'llab-quvvatlash: "Maqom akademiyasi", "Xalq cholg'ulari markazi" kabi maxsus tashkilotlar tarmog'ini kengaytirish.

Xulosa: Barqaror rivojlanish uchun izchillik zarur. O'zbekistonda musiqa ta'limi tizimi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki yangi avlod rassomlarini global miqyosda raqobatbardosh qilish vazifasini ham o'tashi kerak. Buning uchun davlat, xususi sektor va xalqaro tashkilotlar hamkorligida quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

Investitsiyalarni oshirish (musiqa maktablariga zamonaviy asboblari, studiyalar)

O'qituvchilarni qayta tayyorlash (zamonaviy pedagogika usullari bo'yicha)

Yoshlarni rag'batlantirish (grantlar, stipendiyalar, master-klaslar)

Madaniy diplomatiyani rivojlantirish (O'zbek musiqasini xorijda targ'ib qilish)

Agar ushbu yo‘nalishlarda izchil ishlar olib borilsa, O‘zbekiston musiqiy ta’lim sohasida nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham o‘zining munosib o‘rni egallashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy islohotlar to‘g‘risida”gi qonun” (2020) – Musiqa ta’limi tizimini takomillashtirish choralari. <https://lex.uz>
2. “San’at va madaniyatni rivojlantirish davlat dasturi” (2021-2025) – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. <https://gov.uz>
3. “Musiqa ta’limi metodikasi” – O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. <https://n.ziyouz.com>
4. “O‘zbek xalq cholg‘ulari: an’ana va zamonaviylik” – Toshkent davlat konservatoriyasi, 2020. <https://tdk.uz>
5. “O‘zbekistonda musiqa ta’limining zamonaviy tendensiyalari” – “San’at” jurnali, 2022. <https://sanat.uz>
6. “Musiqa maktablari: istiqbollar va muammolar” – Kun.uz maqolasi, 2023. <https://kun.uz/uz/news/2023/10/15/musiqa-maktablari-istiqbollar-va-muammolar>
7. “Maqom san’ati va uning o‘rni zamonaviy ta’limda” – Xalq so‘zi gazetasi, 2021. <https://xs.uz>
8. UNESCO: “Traditional Music and Modern Education” (2021) – O‘rta Osiyo mamlakatlarida an’anaviy musiqa ta’limi. <https://unesdoc.unesco.org>
9. “Comparative Analysis of Music Education in Central Asia” – International Journal of Arts Education, 2022. <https://www.researchgate.net>
10. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi hisoboti (2023) – Musiqa ta’limi muassasalarining holati. <https://madaniyat.uz>
11. “O‘zbekistonda ta’lim tizimi monitoring” – O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi, 2022. <https://stat.uz>

Mirhalilov Behzod Dilshodovich,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası jo‘rnavozi

MUSIQA TERAPIYASI VA PEDAGOGIK AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Annotatsiya: *Ushbu maqola musiqa terapiyasining ta’lim tizimiga integratsiyalashish istiqbollarini tahlil etadi. Musiqa terapiyasining insonning aqliy, hissiy va fiziologik holatiga ijobiy ta’siri, shuningdek, o‘quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashdagi o‘rni keltirilgan. Maqolada musiqa terapiyasining umumta’lim maktablarida va oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodik yondashuvlar, dunyo tajribasi va O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalishning rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari, musiqa terapiyasini ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional barqarorligi, stressni kamaytirish va kognitiv faoliyatni rivojlantirishga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa terapiyasi, ta’lim tizimi, ruhiy salomatlik, pedagogik yondashuv, integratsiya, stressni kamaytirish, kognitiv rivojlanish.*

Annotation: *This article analyzes the prospects of integrating music therapy into the education system. The positive impact of music therapy on mental, emotional, and physiological states, as well as its role in strengthening students' mental health, is discussed. The article presents possible methodological approaches to implementing music therapy in general education schools and higher education institutions, highlighting global experiences and providing recommendations for the development of this direction in Uzbekistan. The research findings demonstrate that integrating music therapy into the educational process can contribute to improving students' social-emotional stability, reducing stress, and enhancing cognitive development.*

Keywords: *music therapy, education system, mental health, pedagogical approach, integration, stress reduction, cognitive development.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida inson salomatligi, uning psixologik holati va emotsional muvozanati muhim pedagogik mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, stress, charchoq, psixoemotsional zo‘riqish kabi salbiy holatlarning yoshlar salomatligiga salbiy ta’siri borasidagi ilmiy tadqiqotlar musiqaning terapevtik xususiyatlariga bo‘lgan e’tiborni orttirgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil holatiga kelib yoshlar orasida ruhiy salomatlik muammolari 20 foizga ortgan bo‘lib, ayni paytda musiqiy

terapiya bu boradagi eng xavfsiz va samarali muqobil usullardan biri sifatida tavsiya etilmoqda. [WHO, 2023].

Musika terapiyasi — bu inson ruhiyati va fiziologiyasiga musiqaning maqsadli ta'sirini yo'naltirish orqali sog'lomlashtirishga qaratilgan ixtisoslashgan yondashuvdir. Bu metodika ilk bor XX asr o'rtalarida AQSh va Yevropa psixologiya maktablari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, hozirda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, musika orqali asab tizimini bo'shashtirish, konsentratsiyani oshirish, hissiy muvozanatni saqlash va o'zini ifoda qilishda erkinlik yaratish mumkin [Thoma et al., 2013; Koelsch, 2015].

O'zbekiston ta'lim tizimida esa musika fani asosan estetik tarbiya vositasi sifatida qaraladi. Biroq amaliyotda musika darslarining o'quvchilar ruhiy holatiga ijobiy ta'siri, ularning nutqiy faolligi, ijtimoiy muomalasi va hissiy barqarorligiga ko'rsatgan samarasi musiqiy terapiya imkoniyatlarini chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, musika fani o'qituvchisi bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki hissiy muvozanatni saqlovchi shaxsiy ta'sir kuchiga ega pedagog sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolada musika terapiyasining nazariy asoslari, uning pedagogik amaliyotdagi o'rni hamda musika fani o'qituvchisining real kuzatishlari asosida dars jarayonida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Maqsad — musika terapiyasining o'quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashdagi imkoniyatlarini ochib berish va ta'lim tizimiga integratsiyalash zaruratini asoslashdir.

Musika terapiyasi inson psixikasiga musiqaning maqsadli ta'siri orqali sog'lomlashtirishni nazarda tutuvchi multidisiplinar yondashuvdir. Uning asosida nevrologiya, psixologiya, pedagogika va estetik ta'limotlar uyg'unlashgan. Bu terapiya turli yoshdagi insonlarga, xususan, o'smirlar va talabalar singari emotsional o'zgarishlarga sezgir auditoriyaga nisbatan juda sezilarli terapevtik ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik yondashuv nuqtai nazaridan musika insonning limbik tizimiga – ya'ni emotsiyalarni boshqaruvchi miya markaziga bevosita ta'sir qiladi. Koelsch (2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, musika asarlarining turli xarakterdagi ritm, tembr va tonalliklari kayfiyatga mos ravishda quvonch, tinchlik yoki faollik hissinu uyg'otishi aniqlangan.

Shuningdek, amerikalik neyropsixolog D. Hodgesning fikricha, musika tinglash jarayonida miya gamma-to'lqinlarini faollashtiradi, bu esa kognitiv faoliyatni, diqqatni va motivatsiyani oshiradi [Hodges, 2016]. Bu holat ayniqsa o'quvchilarda mustaqil fikrlash va darsga tayyorlanish motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqaning organizmga fiziologik ta'siri ham keng tadqiq etilgan. Yengil ritmik kompozitsiyalar yurak urishini sekinlashtiradi, qon bosimini me'yorlashtiradi, nafas olishni muvozanatlaydi va mushaklarning bo'shashishiga olib keladi [Thoma et al., 2013]. Shu sababli musiqa terapevtik vosita sifatida ruhiy siqilish, bezovtalik, hatto uyqu buzilishlarini bartaraf etishda qo'llaniladi.

Bundan tashqari, musiqa og'riq sezgilari ustidan nazoratni kuchaytiradi. Kanada musiqa terapevti Bradt (2011) ning tadqiqotlarida musiqa tinglash travmatik jarohat olgan yoki surunkali kasallikdan aziyat chekayotgan bemorlarning og'riq darajasini sezilarli darajada kamaytirgani aniqlangan. Musiqa ijtimoiy o'zaro ta'sirni faollashtiruvchi vosita sifatida ham qaraladi. Ayniqsa, vokal ansambllar, xor ijrosi, guruh bo'lib musiqa yaratish jarayonlari o'quvchilarda bir-biriga mehr, hamkorlik, tinglash va tushunishga asoslangan ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Gollandiyalik pedagog J. Vanden Bosch musiqa orqali autizm spektri kasalligi bor bolalarda ham ijtimoiy muomala qobiliyati kuchayganini ta'kidlaydi [Bosch, 2019].

O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvlar hali keng tatbiq etilmagan bo'lsa-da, ayrim musiqa pedagoglari tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy tajribalar bu metodning pedagogik amaliyotda samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy, emotsional va sog'lomlashtiruvchi vazifalarni ham birlashtirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, musiqa terapiyasining o'quv jarayonlariga integratsiyasi ko'p jihatdan ijobiy natijalar berishi aniqlangan. Ayniqsa, musiqa fani o'qituvchisi tomonidan dars jarayonida musiqa terapiyasining elementlarini qo'llash, o'quvchilarning ruhiy holatini barqarorlashtirishda, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishda va umumiy o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Musiqa fani darslarida musiqa terapiyasining quyidagi usullari samarali qo'llanilishi mumkin:

Tinchlantiruvchi fon musiqasi – dars boshlanishida klassik asarlar yoki milliy kuylarning engil shakllarini fon musiqasi sifatida eshittirish orqali o'quvchilarning diqqatini jamlash, ichki holatini tinchlantirish mumkin.

Ritmli harakat mashqlari – ritmik qo'shiqlar ostida qo'l harakatlari yoki tana gimnastikasini bajarish orqali psixomotor holatni faollashtirishga erishiladi.

Ijodiy musiqiy ifoda – o'quvchilarga o'z kayfiyatini musiqa vositasida ifodalash, improvizatsiya qilish imkonini berish ularning emotsional erkinligiga xizmat qiladi. Bu kabi elementlarning qo'llanilishi musiqaning faqat estetik zavq beruvchi emas, balki psixologik engillik baxsh etuvchi omil sifatidagi salohiyatini namoyon etadi.

Musika o'qituvchisi an'anaviy ta'lim beruvchi roldan tashqari, ayni vaqtda o'quvchilarning hissiy muvozanatini kuzatuvchi va unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik agent sifatida qaraladi. Bu pedagogning tinglash, tushunish va zarurat tug'ilganda darsga terapevtik ohang kiritish qobiliyatiga ega bo'lishini talab etadi. Masalan, dars jarayonida muayyan o'quvchi tushkun yoki zo'riqqan holatda bo'lsa, o'qituvchi bu vaziyatni musiqa orqali engillashtira oladi. Bu holatlarda motivatsion qo'shiqlar, hayotiy mazmundagi milliy ashulalar yoki bolalarga tanish kuylar ijobiy muhitni tiklashga xizmat qiladi.

Shuningdek, guruh bo'lib kuylash, ansambl faoliyati orqali o'quvchilar o'zlarini jamiyatning faol a'zosi sifatida his qiladilar, bu esa ular orasidagi ijtimoiy ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi.

O'zbekistonning bir qancha umumta'lim maktablarida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, musiqa darslarida terapevtik elementlardan foydalanilgan hollarda o'quvchilarda darsga qiziqish, sinfdagi tinchlik va ijobiy muhit sezilarli darajada oshgan. Masalan, Toshkent shahridagi 165-maktabda 2024-yilda o'tkazilgan eksperimentda musiqa terapiyasi usullarining tatbiqi natijasida 6-sinf o'quvchilarining kayfiyat barqarorligi va sinf intizomi 30 foizga yaxshilangan [Mahmudova Z. 2024].

Musiqa terapiyasini ta'lim tizimiga samarali tarzda integratsiyalash zamonaviy pedagogic jarayonning ijtimoiy-psixologik, sog'lomlashtiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarini kuchaytiradi. Bugungi kunda jahon ta'lim amaliyotida bu yo'nalishga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonda uning tatbiqi hali boshlang'ich bosqichda turibdi. Shu bois, mavjud imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlarni tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlatlar, xususan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi mamlakatlar ta'lim tizimida musiqa terapiyasi maxsus mashg'ulotlar, sinf integratsiyasi va klinik yondashuvlar orqali faol qo'llanilmoqda. Masalan, Angliyada "Nordoff-Robbins Music Therapy" instituti maktablar bilan hamkorlikda autistik spektrdagi bolalar, emotsional rivojlanishida muammo bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda musiqiy terapevtik modullar ishlab chiqqan [Wigram, 2010].

Finlyandiyada esa umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun haftada bir marta "emotion support through music" mashg'ulotlari o'tkaziladi. Ushbu amaliyot o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional holatini barqarorlashtirish, stressni kamaytirish va ijobiy o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi (Ruud, 2016).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Milliy ta'lim dasturini joriy etish to'g'risida"gi PQ-456-sonli qarorida iqtidorli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni

shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangani, musiqa terapiyasining joriy etilishi uchun normativ-huquqiy asos bo'la oladi.

Bundan tashqari, umumta'lim maktablaridagi musiqa fani darslarini faqat nazariy o'rganish bilan cheklab qo'ymasdan, ularga terapiya elementlarini tatbiq etish orqali fanning foydali ta'sir doirasini kengaytirish mumkin. Shu jihatdan musiqa fani o'qituvchilari maxsus kasbiy malaka oshirish dasturlari orqali terapiya metodlarini o'rganishlari lozim.

Musiqa terapiyasini ta'lim tizimiga tatbiq etishda quyidagi yo'nalishlar samarali hisoblanadi:

O'qituvchilar malakasini oshirish – musiqa fani o'qituvchilari uchun musiqa terapiyasiga oid qisqa kurslar, vebinarlar va amaliy seminarlar tashkil etilishi kerak.

Musiqa-terapevtik dars modullarini yaratish – dars jarayonida ishlatiladigan maxsus metodik ko'rsatmalar va mashg'ulot namunalarini ishlab chiqish lozim.

Eksperimental maktablar tarmog'i – ba'zi tanlangan maktablarda pilot loyiha sifatida musiqa terapiyasiga oid elementlar sinovdan o'tkazilishi, bu boradagi natijalar monitoring qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy-tadqiqot ishlari – musiqa terapiyasining yoshlar ruhiy salomatligiga ta'siri yuzasidan psixopedagogik tadqiqotlar olib borilishi kerak.

Shu orqali musiqa fani o'quvchilarning faqat madaniy estetik dunyoqarashini rivojlantirish emas, balki ruhiy barqarorlik, sog'lom tafakkur va ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi ko'p qirrali fan sifatida o'z o'rnini topadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, musiqa terapiyasi insonning hissiy, aqliy va fiziologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'p qirrali vosita bo'lib, zamonaviy pedagogika va sog'liqni saqlash tizimida muhim o'rin tutmoqda. Ilmiy izlanishlar, xalqaro tajriba va eksperimental kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, musiqa orqali ruhiy holatni me'yorlashtirish, stress va xavotirni kamaytirish, kognitiv faoliyatni faollashtirish hamda ijtimoiy moslashuvchanlikni kuchaytirish mumkin. Bu esa, uni ayniqsa o'sib kelayotgan avlod – maktab o'quvchilari va talabalarning rivojlanishida samarali qo'llash imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida musiqa fani mavjud bo'lsa-da, musiqa terapiyasining pedagogik-amaliy ahamiyati hali to'liq ochib berilmagan. Mavjud imkoniyatlar, ijtimoiy buyurtma va normativ-huquqiy asoslar, bu yo'nalishni tizimli ravishda rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda. Shu bois, musiqa terapiyasini o'quv jarayoniga integratsiyalash quyidagilarni ta'minlaydi:

o'quvchilarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy-emotsional barqarorligini mustahkamlash;

ta'lim muhitining insonparvar, innovatsion va sog'lomlashtiruvchi xususiyatini kuchaytirish;

musiqa fanini zamonaviy, funksional va terapevtik jihatdan boyitish;
milliy va jahon tajribasi asosida yangi metodikalar ishlab chiqish.

Kelajakda musiqa fani o'qituvchilarining terapevtik kompetensiyalarini shakllantirish, maxsus mashg'ulot modullarini yaratish va ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali bu sohaga yangicha nafas berish, musiqaning tarbiyaviy, sog'lomlashtiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi kuchini to'liq namoyon qilish mumkin. Shubhasiz, bu esa inson kapitalini rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. American Music Therapy Association (AMTA).
2. Bruscia, K. E. (2014). *Defining Music Therapy*. Barcelona Publishers.
3. Hasanov, S. (2021). Musiqa terapiyasining psixologik asoslari. *Psixologiya va san'at jurnali*, 4(2), 45–51.
4. Nasriddinova, G. (2020). Ta'limda musiqiy terapiya yondashuvlari. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*, 3(1), 78–83.
5. Ruud, E. (2016). *Music Therapy: A Perspective from the Humanities*. Barcelona Publishers.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–456-son qarori, 2022-yil 21-dekabr. “Milliy ta'lim dasturini joriy etish to'g'risida”.
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi: “Psixologik xizmatlarni takomillashtirish to'g'risida”gi konseptual yondashuv, 2023.
8. Wigram, T., Pedersen, I. N., & Bonde, L. O. (2010). *A Comprehensive Guide to Music Therapy: Theory, Clinical Practice, Research and Training*. Jessica Kingsley Publishers.

Xurramov Abbos Baxramovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Teatr san'ati mutaxassisligi 2- bosqich magistranti,
"Mard o'g'lon" davlat mukofoti sovrindori

MUSIQA–TEATR RUHI: ZAMONAVIY SAHNA SAN'ATIDA MUSIQANING O'RNI VA TA'SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada teatr san'atida musiqaning badiiy, emotsional va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Musiqaning sahnadagi dramatik vaziyatlarni kuchaytirish, obrazlarning ichki dunyosini ochib berish hamda tomoshabin bilan hissiy aloqani kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy musiqali spektakllar orqali ijtimoiy mavzularni yoritish tajribalari tahlil etilib, musiqaning teatrdagi ko'p funktsiyali vosita sifatidagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *musiq, teatr, spektakl, drama, kompozitsiya, san'at, ritm, pyesa, repertuar, sahna.*

Annotation: *This scientific article analyzes the artistic, emotional and educational significance of music in theater. It highlights the role of music in enhancing dramatic situations on stage, revealing the inner world of characters, and strengthening emotional connection with the audience. It also analyzes the experiences of covering social issues through modern musical performances, revealing the role of music as a multifunctional tool in theater.*

Key words: *Music, theater, performance, drama, composition, art, rhythm, play, repertoire, stage.*

Teatr san'ati inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi eng qadimiy va ta'sirchan ijodiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa musiqali spektakllar tomoshabinning hissiyotiga chuqur kirib borishi, badiiy tafakkurini boyitishi va estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Musiq va sahna san'atining uyg'unligi orqali yaratilgan bunday asarlar auditoriyaga nafaqat badiiy zavq, balki chuqur ma'naviy-ma'rifiy mazmun etkazadi. So'nggi yillarda teatrdagi musiqali spektakllarga bo'lgan qiziqish ortib borayotgani, ayniqsa yoshlar orasida ushbu janrning ommalashuvi bu yo'nalishning tomoshabin ongiga ko'rsatgan ijobiy ta'sirini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu maqolada musiqali spektakllarning psixologik, estetik va tarbiyaviy jihatlari hamda ular orqali shakllanadigan madaniy ong xususida ilmiy tahlillar keltiriladi.

Zamonaviy teatr san'atida musiqali dramalar oilaviy muammolarni yoritishda kuchli badiiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Inson hayotining markazida turgan oila mavzusi – ajralishlar, avlodlararo ziddiyat, tushunmovchiliklar va mehr-oqibat kabi masalalar musiqali sahna asarlarida chuqur dramatik va emotsional yondashuv bilan ochib beriladi. Bunday dramalarda musiqa – ruhiy holatni ifoda etuvchi, dramatik keskinlikni kuchaytiruvchi hamda obrazlar ichki dunyosini ochib beruvchi asosiy vositaga aylanadi. Ayniqsa kuy va ohang orqali beriladigan his-tuyg'ular muammoga tomoshabinning ichki munosabatini shakllantiradi, uni voqealarga befarq bo'lmagan ishtirokchiga aylantiradi.

Musiqaaning ritmik tuzilmasi, tonal ohanglari va emotsional ko'lamini oilaviy mojarolarning dramatik ko'lamini kengaytiradi, shu orqali tomoshabinda ruhiy ta'sir va aks-sado uyg'otadi. Misol uchun, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi tushunmovchilik, turmushdagi ishonchsizlik yoki fidoyilik kabi mavzular musiqali dramatik ifoda orqali tomoshabinning ongida muammoga nisbatan chuqur tahliliy yondashuvni shakllantiradi. Shunday qilib, musiqali dramalar nafaqat estetik zavq beradi, balki jamiyatdagi real oilaviy muammolarni ko'rsatish va ular haqida jamoaviy fikr yuritishga zamin yaratadi.

Teatr – bu sahnadagi hayot, ammo sahnadagi hayotning o'zi hayotdan ham haqiqiyroq bo'lishi mumkin. Har bir ohang, har bir sukunat, har bir mimika – tomoshabinni yuragidan joy oladi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarni yorituvchi spektakllarda bu haqiqat yanada chuqur, yanada yurakga yaqin aks etadi.

Oila – bu hayotning ilk sahnasi. Bola ko'zini ochganidan boshlab birinchi roli aynan shu muqaddas maskanda ijro etiladi. Mehrni, sabrni, fidoyilikni, vijdonni – u avvalo ota-onasidan, oilasidan o'rganadi. Teatr esa mana shu o'zgaruvchan, murakkab va baribir muqaddas bo'lgan oilaviy tuzumning xaloskor tahlilchisi, jonsiz emas, jonli hayotga chorlovchi nidosidir.

Zamonaviy teatrda ham bu mavzu o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Bugungi sahna asarlari nafaqat muammoga ishora qiladi, balki uni echishga da'vat etadi. Teatr orqali jamiyat oilaning muqaddasligini angelaydi, yoshlar esa o'z mas'uliyatini his qiladi. Har bir spektakl – bu hayotning takroriy saboqlari, har bir rol – insoniy fazilatlarni uyg'otuvchi qudratdir. Oilaviy munosabatlarning dramaturgik yoritilishi – bu shunchaki bir sahna asari emas, balki jamiyatni tarbiyalovchi, qalblarni poklovchi, oilalarni mustahkamlovchi kuchdir. Teatr esa ana shu kuchning yuragi, hayotga boshqacha nigoz solishga chorlovchi sehrli ko'zgu bo'lib qolaveradi.

Bugungi kunda republikamizdagi barcha musiqali drama teatrlari repertuarida musiqali komediya asarlari mavjud. Ayniqsa Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatri o'zining uzoq yillik tarixi, mahoratli, professional

ijodkorlari bilan o'zbek teatr tarixida alohida sahifa yarata olgan. Ilmiy maqolamizda ushbu teatrdagi sahnalashtirilgan N.Abbosxonning "Jaydari kelin" (Bog') musiqali komediyasi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Pyesa aslida "Bog'" deb nomlangan. Muqimiy teatri uni "Jaydari kelin" nomi bilan sahnalashtirdi [1. 60]. Jaydari kelin o'zi kim? Soddagina, mehnatkash, samimiy bir dehqon qizi. Asarda ko'tarilgan masala oddiy. Ona kenja o'g'lini uylantirmoqchi. Uylantirganda ham dehqon qizga, jaydarisiga. Chunki boshqa hamma o'g'illari o'qigan va o'qimishli qizga uylanib, alohida chiqib ketishgan. Uy- ro'zg'or, bog', hovliga qarash onaning zimmasida. Lekin ona yoshi o'tib qolib, kuchdan qolayotgani uchun bog'iga qarashga yaramayapdi. Shu bois bog'ga mehr berib qaray oladigan, qo'li kosov, sochi supurgi kelin kerak. Biroq aspirant o'g'il bunga rozi bo'lmaydi. Ammo bo'sh kelmaydi, qaysarlik qilib hammani oyoqqa turg'izadi. Agar men aytgan qizga uylanmasang "oq qilaman" deydi. Bu gapdan so'ng o'g'li – Baxtiyor ko'nishga majbur bo'ladi. O'g'il uylanadi. Kelinning xurragidan butun oilaning uyqusi buzilib oyoqqa turadi. Ammo qaynona uning tarafini oladi. O'g'il bu qiz bilan yashamayman deb, har kuni janjal qiladi. Mehri uyiga ketishini aytadi. Biroq Mehri qo'pol ovozi va hatti-harakatlari bilan, chiqqan qizning uyiga qaytishi isnod ekanligini aytadi. Bunda dramaturg kulgu bilan o'zbek qizlarining ota-onasi sha'ni, obro'yi o'z g'ururidan ancha ustun turishini ifodalab bera olgan. Mehri nima qilsa ham eriga yoqmaydi. Chunki Baxtiyor o'qimishli, u nozikta'b, madaniyatli qizlar bilan muloqot qilib o'rgangan va xotinini ular bilan solishtiradi. Ammo Mehri erini yoqtirib qoladi. Eri uni uydin ketishini aytadi, haydaydi. Biroq qiz baribir ketmaydi. Baxtiyorning Mehriга "ket, teng-tengi bilan, sen ham o'zingga mosini top", degan gapidan ko'ngli qattiq ranjiydi va tugunchasini ko'tarib yo'lga chiqadi. Keyin sovchilikka o'rtağa tushgan tog'asi, opasining gapi bilan kelinni qaytarib keladi. Bundan kuyov bola bexabar. Shunda qaynona bir tadbir o'ylaydi. Ya'ni kelinga o'g'li xohlagandek nozik ovozda gapirishni, chiroyli yurishni o'rgatadi. Maqsad – oilani saqlab qolish, o'g'li va kelinni bir-birlariga isitish. Qaynona bu maqsadini amalga oshirishga jiddiy kirishadi. Har kuni kelini bilan mashq qiladi. Kelin ham qo'ni-qo'shni, ota-onasi oldida yuzi shuvut bo'lib yana uyiga qaytib borishni xohlamagani va erini yaxshi ko'rgani uchun ham qaynonasining har bir sabog'ini o'zlashtiradi. Asar qahramonining dil tuyg'ulari ariyalar orqali musiqiy ohangda yangraydi.

Asarda bu kabi tasvirlar hajv, kulguli hatti-harakatlar orqali ifodalanadi. Biroq bu kulguning ostida dunyocha mazmun, ulkan badiiy g'oya mujassam. Ayniqsa bugungi kunda oilalarning ajrashishi uchinchi shaxsning, xususan, qaynona va qaynotalarning aralashuvi bilan ko'plab oilalar buzilib ketayotgan bir paytda, dramaturg ko'targan mavzu har jihatdan dolzarb hisoblanadi. Asarda bosh

qahramonlardan biri Mehri o'zi to'pori, ilmsiz, dehqon qiz bo'lsa ham, oilaning muqaddasligini yaxshi anglaydi. Bu esa yillab ilm bilan shug'ullangan, fan doktori, hatto professor bo'la turib ham oilaning uningchalik qadrlay olmagan ba'zi tengdoshlarimizga, xoh u qiz bo'lsin, xohi o'g'il bola, har jihatdan o'rnakdir. Fikrimiz isbotini dramaturg yaratgan o'sha Baxtiyor hamda Mehri obrazlari orqali ham ko'rish mumkin. Ya'ni Baxtiyor ilmi bo'la turib, qurilgan oilani buzilishidan zarracha ham tashvish chekmaydi, xotini didiga mos emasligi, u xohlagan jihatlarga ega emasligi uchun undan shunchaki qutulmoqchi bo'ladi. Bunda u ota-onasi va hatto muqaddas nikohni ham hurmat qilmaydi.

Oila, turmush, er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga, afsuski ko'pchilik maishiy mavzu sifatida qaraydi. Biroq, bizningcha, jamiyatda mavjud bo'lgan ko'pgina yirik muammolar, davlat ahamiyatiga ega bo'ladigan darajadagi masalalarning ildizi, oila, undagi muhit, bolalar tarbiyasi va aynan ota va ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Asar qahramoni ona ham hozirgi ba'zi "zamonaviy qaynonalarga" xos fikrlab "qo'li kosov, sochi supurgi" bo'ladigan qizni hohladi va o'g'lining roziligisiz shunday qizga uylantirdi. Biroq, e'tirof etadigan jihati shundaki, u o'g'lining oilasi buzilishiga yo'l qo'ymaydi. Muammoni hal qilishi yo'lini topadi. Kelinni "ideal" darajada tarbiya qilib, o'g'lining Mehrini yoqtirib qolishiga erishadi.

"Jaydari kelin" pyesasi zamonaviy o'zbek dramaturgiyasida milliy qadriyatlarning o'ziga xos talqinini aks ettirgan asarlardan biridir. Asar jamiyatda mavjud bo'lgan urf-odatlar va zamonaviy hayot tarzi o'rtasidagi keskin ziddiyatlarni yoritadi. Pyesaning asosiy g'oyasi – an'anaviy oila tushunchasi, kelinlik odobi va jamiyatdagi ayolning o'рни haqidagi qarashlarning zamonaviy tendensiyalar bilan qanday to'qnash kelayotganini ko'rsatishdir.

Takliflar:

- Spektakllarda jonli ijrodagi musiqa (orkestr, folklor ansambllar) tajribasini kengaytirish.
- Musiqali spektakllarda milliy cholg'u asboblari va xalq og'zaki ijodi unsurlarini kengroq qo'llash amaliyoti joriy etish.
- Milliy musiqiy meros asosida yangi musiqali spektakllar yaratilishini rag'batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, "Jaydari kelin" pyesasi orqali milliy teatrimizda musiqali dramatik asarlarning oila va jamiyat hayotidagi muhim ijtimoiy masalalarni badiiy ifoda etishdagi o'рни yana bir bor namoyon bo'ladi. Asarda kulgi, hajv va musiqa vositalari orqali an'anaviy oila qadriyatlari, kelin-kuyov munosabatlari, yoshlarning hayotga bo'lgan qarashi chuqur yoritilgan. Ayniqsa, musiqaning dramatik holatlar bilan uyg'unligida sahna asarining ta'sirchanlik darajasi oshgan, obrazlarning ichki kechinmalari, qahramonlararo ziddiyatlar

emotsional boylik bilan etkazilgan. Spektakl davomida musiqiy ariyalar qahramonlarning ruhiy holatini tinglovchiga bevosita etkazadi, shu orqali tomoshabinda nafaqat tushuncha, balki chuqur hissiy hamdardlik ham shakllanadi.

Bugungi kunda teatr tomoshabin bilan muloqotga kirishishda yangi shakl va vositalarni izlamoda. Shunday sharoitda musiqali spektakllar o'zining hissiy ta'siri, ma'naviy-ma'rifiy yuki va badiiy ifoda vositalarining boyligi bilan dolzarb san'at turiga aylanmoqda. "Jaydari kelin" asarida musiqaning rol, faqatgina sahnani bezab turuvchi element emas, balki dramatik g'oyaning uzviy bir bo'lagi sifatida talqin etilgani diqqatga sazovor. Aynan shu jihat spektaklni zamonaviy teatr san'atining yorqin namunalaridan biriga aylantiradi.

Shu tariqa musiqali spektakllar bugungi o'zbek teatrining ijodiy salohiyatini namoyon etuvchi, ayni vaqtda jamiyatdagi dolzarb masalalarni targ'ib qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ular orqali tomoshabin nafaqat zavq oladi, balki chuqur ijtimoiy-axloqiy mulohazalarga chorlanadi, bu esa teatrning tarbiyaviy va ma'rifiy vazifasini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev Sardor - Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining janr xususiyatlari, dissertatsiya ishi. Toshkent – 2023
2. Yakubov B. Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini 1991-2016 yy., san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. T., 2019. 123-b.
3. Tursunov T. Sahna va zamon – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
4. To'laxo'jaeva M. Teatr tanqidchiligi. "San'at" jurnali nashriyoti, Toshkent, 2015.
5. ziyonet.uz
6. wikipedia.com

MILLIY BAYRAMLARIMIZDAGI URF-ODAT VA MAROSIMLAR

Annotatsiya: *Har bir millatning millat bo'lib shakllanishi va rivojlanishida albatta uning moddiy, ma'naviy va nomoddiy madaniy merosi muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada jamiyatning marosim urf-odat va bayramlari tarkibiga axloq-odob va farzand tarbiyasi bilan bog'liq urf odatlar, milliy omaviy miqiyosda o'tkaziladigan xalq sayllari, bayramlari, aynan Navro'z bayrami bilan bog'liq tushunchalar yoritilgan.*

Kalit so'z: *qadriyat, folklor, marosim, navro'z, ruhiyat, urf-odat, an'ana, milliy ong, jamiyat.*

Abstract: *In the formation and development of each nation, its material, spiritual and intangible cultural heritage certainly plays an important role. This article covers the concepts related to the ritual customs and holidays of society, including customs related to morality and child upbringing, folk festivals and holidays held on a national mass scale, and specifically the holiday of Navruz.*

Keywords: *value, folklore, ritual, Navruz, spirituality, customs, traditions, national identity, society.*

Barchamizga ma'lumki, avvalgi davrlardan buyon nishonlanib kelingan bayram va marosimlarimiz hozirgi kunga kelib ham turmush tarzimizda muhim ahamiyat kasb etib kelinmoqda. Bayramlar jamiyatning ma'naviy go'zalligini, xalqning yashash tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko'z-ko'z qiluvchi asosiy vositadir. Biror davlatda nishonlanayotgan milliy bayramlar yoki jahon miqiyosida o'tkazilayotgan tadbirlarni kuzatar ekanmiz, o'sha davlatning milliyligi, o'ziga xos urf-odatlarini o'rganamiz. Demakki, bayram hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko'zgu, jamiyatning kechasi, buguni, ertasi haqida dalolat beruvchi jonli manbadir. "Madomiki bayramlar millatning, jamiyatning moddiy va madaniy sohalardagi eng yaxshi tomonlarini ko'rsatib berar ekan, yurtimizda ham an'anaviy xalq pedagogikasi katta ahamiyatga ega bo'lib, insonlardagi bir-birlarini e'zozlash, kattalarni hurmat qilish, ezgulikga intilish, go'zallikni asrash, milliy qadriyatlarni qadrlash, ilm-fanga intilish, vatanni sevish kabi chuqur falsafiy g'oyalar ilgari surilib, tarbiyaning poydevori bo'lib xizmat qilgan" [2, 15].

Milliy va omaviy bayramlarimizning, ommabopligi shundaki, birinchi navbatda u, amaliy namoyish etilganda, o'zining chuqur ijtimoiy-psixologik va

tarbiyaviy ildizga ega ekanligi namoyon bo'lib, sahnalashtirish jarayonida tasodifiy hol va elementlarga yo'l qo'yilmaydi. Bayram insonlarning estetik kechinmalariga ta'sir qilib, shaxsning ma'naviy dunyosini boyitadigan vositadir. Milliy tomoshalar asosini esa milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat, ehtrom egallab insonlarga badiiylilik, san'at orqali estetik zavq bag'ishlashdek vazifalar ustuvor turadi.

Milliy bayramlarimizning aksariyati ochiq va keng maydonlarda xalq sayillari, ko'rgazmali chiqishlar, sirk tomoshalari, xalq og'zaki ijodini tarannum etadigan baxshilardan tortib, folklyor va milliy etnografik qadriyatlarimizni jahonga tanitadigan turli jamoa, ansambillarning bayramona chiqishlari bilan ko'taringki ruhda o'tadi. Ayniqsa go'zal va sohib jamol qizlarimizning qirq o'rilgan sochlari, milliy liboslari ko'tarinki ruh bag'ishlaydi.

Tarix sinovidan o'tgan bayram va tomoshalar kishilarning o'zaro ijtimoiy munosabatidagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil va ezgu qarashlarni, umum insoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Xususan, asrlar bo'yi shakllanib, ajdodlarimiz badiiy estetik tafakkurining eng mukammal jihatlarini o'zida singdirgan holda muttasil taraqqiy etib kelgan Navro'z bayrami ana shunday ulug'vor bayramlarimizdan biridir. Muhtaram birinchi yurtboshimiz I. A. Karimov takidlaganlaridek, "Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negzida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram, sharqona yangi yil bo'lmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudradi va cheksiz saxovatning, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, oily janob urf- odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda" [1, 14].

Milliy istiqlol sharofati bilan umum xalq shodiyonasi sifatida keng nishonlayotgan Navro'z bayrami g'oyat muhim ijtimoiy ma'naviy mohiyat kasb etishi bilan bir qatorda, an'anaviy xalq tomosha san'atining ham, noyob yodgorligidir. An'anaga ko'ra sayl sifatida nishonlanadigan bu bahoriy bayramda xalq o'yinlari, an'anaviy tomoshalar, qo'g'irchoqbozlik, askiyabozlik, qiziqchilik, xalq milliy qo'shiqchiligi, sozandalik, qandolatchilik, hunarmandchilik, folklorqadriyatlari, milliy o'yin folklori, bolalar folklori va nomoddiy madaniy merosning boshqa shu kabi nodir namunalari o'z aksini topadi.

Navro'zdagi oddiy xalqqa tegishli bo'lgan urf-odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlar bir-birlariga, hayotingiz shirin bo'lsin degan ma'noda, shirinliklar hadiya etishi, go'zal bo'ling ma'nosida gullar berishi, bu yil suv ko'p bo'lsin, hosilimiz mo'l bo'lsin degan ma'noda suv sepishlari kabi bir qancha odatlar shakllanib qolgan. Bayramga tayyorgarlik ko'rish odatlari orasida bug'doy yoki arpa donini yog'och idishga o'stirib bahor darakchisi sifatida

dasturxonning o'rtasiga qo'yishgan. Ushbu bayram asrlar davomida rivojlanib omaviy tus olib, bizning davrimizgacha yana yaxshi urf-odatlar bilan etib keldi. "Navro'zda tabiat jonlanibgina qolmay inson tabiati, ruhiyati ham uyg'onar edi", – deydi Sadriddin Ayniy [3, 199]. Ayniqsa "Sumalak sayli" navro'zning eng asosiy an'anasi hisoblanadi.

"Sumalak sayli" asosan ikki qismdan, sumalak tayyorlash va sumalak xo'rlikdan iborat bo'lgan. Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, tayyorlash jarayonida o'yin- kulgu, xursandchilik qilingan. Sumalak sayli qadimdan insonlarda birdamlik, ahillik hisini tarbiyalab kelgan. Sho'x shodon bolalarning kim o'zariga varrak uchirishlari ham an'anaga aylangan odatdir.

Tabiat bayramlaridan yana biri "Mehrijon" – kuz mavsumida nishonlanadigan bayramdir. "Mehrijon" so'zining ma'nosi birinchisi jon sevgisi, ikkinchisi quyosh demakdir. "Navro'z" bahorda kun bilan tunning barobar kelishida nishonlansa "Mehrijon" o'suvchi narsalarning chegarasiga etib, o'sish moddalarining undan uzilishi va hayvonlarning nasillanishidan to'xtashi sodir bo'lgan.

Marosim qo'shiqlari – musiqiy folklorining asosiy va qadimiy turlaridan sanaladi. Turli mehnat, oilaviy, diniy va boshqa marosimlar jarayonida ijro etiladigan qo'shiqlar mavsum-marosim qo'shiqlari sirasiga kiradi. Marosim qo'shiqlarining matni, asosan, xalq to'rtliklari va baytlaridan iborat bo'lib, shakli band yoki band-naqarot xususiyatlariga ega bo'ladi. Marosim qo'shiqlari har bir marosimning ichki g'oyasi va mazmunini she'r va kuy-ohanglarning mushtarakligida badiiy ifodalab, tadbir qatnashchilarining ruhiy holatiga ta'sir o'tkazadi. O'zbek xalq musiqa ijodida mavsum-marosim qo'shiqlaridan "Boychechak", "Sust xotin", "Lola", "Sumalak", "Qo'sh" va oilaviy marosim qo'shiqlaridan Alla, Yor-yor, O'lan, Marsiya kabilar; diniy aytimlardan "Kitobxonlik", "Zikr", "Ramazon"; tabobat qo'shiqlaridan "Ko'ch", "Dam solish" va boshqalar hozirgacha saqlanib qolgan. Marosim qo'shiqlari ko'pchilik blib ("Besh qarsak", "Naqsh", "Yor-yor"), yakka holda ("Alla", "Kelin salom") hamda aytishuv tarzida (lapar va boshqalar) ijro etiladi. Hozirgi davrda ba'zi marosim qo'shiqlari bolalar tomonidan davra o'yinlari sifatida ("Oq terakmi, ko'k terak", "Yomg'ir yog'aloq" kabilar) ham ijro etilmoqda [3, 199].

Xalqimiz tomonidan yaratilgan ulkan badiiy qadriyatlar jahon miqiyosida e'tirof etilayotganligi, xususan "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom", "Navro'z" va "Katta ashula" YUNESKOning dunyo xalqlari nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga kiritilganligi ham o'zbek xalqi ma'naviy merosi sharq xalqlari madaniy rivojida asosiy rol o'ynaganligidan dalolat beradi [5, 10]. Mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkazilib kelinayotgan turli xil folklor festivallari, ko'rik tanlovlari va bayram tadbirlarini teatrlashgan tomosha tarzida

o‘tkazish orqali an’anaviy qadriyatlarni yangicha badiiy estetik tamoyillar asosida takomillashtirishning katta imkoniyatlarini ochdi. Eng muhimi mazkur festivallar teatrlashgan tomosha tarzida o‘tkazilib, xalq ijodiyotini dunyo miqiyosida, keng ko‘lamda omalashtirishdek ezgu ishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shunday ekan milliyurf-odatlarimizni faqatgina bayram yoki festivallarda emas balki har hafta har kuni keng ko‘lamli yoshlar, jamiyat orasida ham talqin qila olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. 14-b.
2. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T.: “Aloqachi” 2008. 15-b.
3. Ayniy S. Asarlar. 8 tomlik. T., 1966, 7-tom. 199-b.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-2005-yil.
5. Sayfullayev B. Tomosha san’ati tarixi va nazariysi. Toshkent, 2014. 10-b.

CHOLG'U IJROCHILIGIDA TALABALARNING INDIVIDUALLIK XUSUIYATLARI BILAN ISHLASHISH PRAGMATIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada cholg'u ijrochiligida pedagogdan o'qitish jarayonida talabaning individuallik xusuiyatlariga ahamiyat qaratishning kerakligi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, har bir talaba o'z oldiga bir individdir. Bunda pedagog dars jarayonida faqat kasbiy nazariya emas, talabalar bilan ishlashish pragmatikasi ko'nikmasini ham egallashi zarur.

Kalit so'zlar: cholg'u ijrochiligi, individuallik, pedagogik mahorat, talaba, individual ta'lim.

Annotation: This article talks about the need to pay attention to the individual characteristics of the student in the process of teaching a teacher how to perform an instrument. Moreover, each student is individual. The teacher needs to master not only professional theory, but also pragmatic skills of working with students during the lesson.

Keywords: instrumental performance, individuality, pedagogical skill, student, individual education.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblari chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining etuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu erda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi [1, 581]. Buning natijasida professional cholg'u ijrochilari etishib chiqdi va o'z oldiga ijod maktablarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Milliy cholg'ularimiz hozirgi davrgacha amaliyotda o'z o'rnini egallaganligi va ijrochilik amaliyotida yuqori darajaga ko'tarilib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi [2, 198].

Musiqiy ifoda vositalari qatoridan joy egallaydigan musiqiy cholg'ular haqida nazariy va amaliy bilimlar ijodkor uchun juda muhim ahamiyatga ega. Yaxshi bastakor bo'lish uchun inson yoshlik chog'larida albatta biror-bir musiqiy sozni chalgan va uni mukammal o'zlashtirgan bo'lishi haqida ko'p bora fikr yuritganmiz. Zero, torli-kamonli cholg'ulardan birini puxta egallagan ijodkor torli-kamonli cholg'ular guruhiga kiruvchi boshqa cholg'ularni ham to'g'ri anglaydi.

Yog‘och damli yoki mis damli cholg‘ulardan birini puxta egallagan ijrochi damli cholg‘ular guruhini yaxshi tushunadigan bo‘ladi [3, 65].

O‘zbek milliy sozlarimiz o‘zining qadimiy, boy tarixiga ega. Bu cholg‘ular asrlar davomida shakllandi, rivojlandi. Cholg‘ular taraqqiyotida usta sozgarlar, mohir sozandalarning ulkan hissalar bor. Usta sozgar mashaqqatli, zargarona mehnati bilan sehrli ohang taratuvchi cholg‘u yaratadi. Har bir sozni bunyod etilishi uchun oylab, hatto yillab vaqt sarflanadi. Sozanda esa o‘zining mohirona ijro ijrosi bilan shu cholg‘uni “gapirtiradi”, unga go‘yo til ato etadi. Shu bilan birga, usta sozgar bilan hamkorlikda ishlab, sozni yanada takomiliga etkazishda o‘z hissasini qo‘shadi. O‘zbek milliy musiqa ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – undagi mavjud usullardir [4, 3]. Har bir o‘z ijrochilik pragmatikasi bilan ajralib turadi. Ularni yoshlarga o‘rgatish esa, hammasidan ahamiyatli jarayondir.

Cholg‘u ijrochiligida talabalarning individuallik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘rgatilmasa natija berishi ham samara ham ko‘ngildagidek bo‘lmasligi mumkin. Cholg‘u ijro qilishning mas’uliyati g‘oyatda yuqori. Sababi o‘lmas retro san’at asarlarimiz, yaxshi ijro qilingan ko‘ylar sabab yuzaga kelgan. O‘zi individuallik muayyan hodisa va narsa, shaxs va jonivorning o‘zigagina xos, betakror, xususiy belgilaridir. Shu bilan birga, inson ruhiyatining o‘ziga xosligi, betakrorligi hisoblanadi.

Individual ta’lim – o‘qituvchining o‘quvchiga yakka tartibda pedagogik ta’sirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biri, o‘qituvchining o‘quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan alohida faoliyati. Individual o‘qitish – o‘quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta’lim-tarbiya berish[5:28]. Musiqachi shaxsining serqirraligi haqida nemis dirijyori Bruno Valter shunday degan: “Faqat sozanda – bu har doim yarim sozanda”. Musiqachining mehnatsevarligi haqida P.I.Chaykovskiy: “Eng keragi, avvalo, mehnat, mehnat va yana mehnat... Men har kuni ertalab ijodga o‘tirib, to biror narsa chiqmaguncha ishlayveraman”, degan edi. Mashhur pianinochi va pedagog M.Klementi sakkiz, ba’zan o‘n ikki va hatto o‘n to‘rt soatlab mehnat qilgan [6, 14]. Bu bejiz emas, cholg‘u ijrochiligida talabalarning individuallik xususiyatlari har xildir.

Talabaning individuallik xususiyatini yaxshi o‘rgangan pedagog ishlashish pragmatikasini dars jarayonida mukammallashtirib boraveradi.

Individual ishlashning pedagogik va psixologik ahamiyati shundan iboratki, bu jarayonda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan alohida shug‘ullanish ularning eng avvalo bilim darajasini, erkin fikrlash va uni bayon eta olishini rivojlantiradi. Faol o‘quvchilar bilan individual ishlash esa ulardagi mavjud iqtidorni yanada rivojlantirish va o‘sha yo‘nalishda yaxshi natija ko‘rsatishda

katta ahamiyat kasb etadi. A. S. Granitskaya metodikasining o'ziga xosligi uning darsni muayyan g'ayriodatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

- birinchi qism – barchani o'qitish;
- ikkinchi qism – ikki parallel jarayon oluvchilarning mustaqil ishlari va o'qituvchining ayrim o'quvchilar bilan individual ishlashi, ya'ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o'qituvchi bo'lib ishlash, moslashuvchan ko'p qirrali vazifalar va boshqalar.

V.D.Shadrikov gipotezasiga ko'ra agar talabaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o'rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin talabaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o'quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi.

“Iste'dod egalari kamyob bo'lishadi, alohida-alohida olganda tanho, takrorlanmas deyish mumkin. Demak, iste'dod egasi noyob hodisa ekan, ularni avaylash va qadrlash zarur” [7, 53], – degan fikrlar bejizga aytilmagan.

Talaba o'z o'qituvchisining ko'rsatma va fikrlariga ko'rko'rona ergashib bo'ysunishi emas, balki biror masala yuzasidan o'zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildirib olishi kerak. O'qituvchi rahbarligida o'tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish o'quvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi, O'quvchining mustaqil mashg'ulotiga sarf bo'layotgan vaqtini bekor o'tkazmasligini o'rganib borish kerak. Buning uchun o'quvchiga mustaqil mashg'ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligini tushuntirish lozim.

Vaqtidan ratsional va umumli foydalanish mustaqil ishlash asosi prinsiplaridan biri bo'lishi zarur. Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg'ulotning muntazamligidir. Ijroni o'rgatishning dastlabki davridan boshlab o'quvchida muntazam mustaqil ishlashni ko'nikmasini hosil qilish zarur. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin bo'lsa ham, bunday mashg'ulotlar asta-sekin odat tusiga ko'rib borishi maqsadga muvofiqdir [8, 3].

Iqtidorli talabaning ba'zi bir salbiy xususiyatlari va ularning o'rganish qobiliyatlari shundaki, ular osonlikcha izdan chiqarib yuboriladi yoki mavzudan tashqarida bo'ladi – ular dars paytida osongina zerikib qolishlari mumkin, bu esa ularni boshqa talabalarga to'sqinlik qilishi va ular bundan bosh tortishlari mumkin. Zerikishlariga yo'l qo'ymaslik uchun ularni band qilib qo'yish kerak. Shunda ularni o'qitish ancha ravonroq ketadi [9, 302].

Musiqi ijrochiligidan ta'lim berish o'qituvchidan turli bilim, ko'nikma va qobiliyat talab etadigan ishdir. O'qituvchi uchun faqat sozanda bo'lishning o'zi etarli bo'lmay, undan pedagogik fikrlash, o'quvchining ichki dunyosiga ko'ra bilish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi sifatlarga ega bo'lish

ham talab etiladi. Cholg'u ijrochiligidan ta'lim beradigan o'qituvchi umumiy pedagogika va psixologiya sohalaridan ham xabardor bo'lishi kerak.

O'qituvchi xarakteridagi individual hususiyatlar tarbiya ishida katta ahamiyatga ega. O'qituvchilardan irodali bo'lish, maqsadga to'g'ri intilish, talabchanlik bilan har bir ishni o'z vaqtida oxiriga etkaza olish, qiyinchiliklarni engishda mardlik ko'rsata olish kabilar talab etiladi. Har bir o'quvchining tarbiyasi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, biri ikkinchisidan farq qiladi. O'quvchi mahoratining muhim taraflaridan biri har bir o'quvchidagi yaxshi xususiyatni vaqtida topib, o'nga e'tibor berishdir. O'quvchi o'quvchining diqqat-e'tiborini qadrlashi, uning shaxsga hurmat bilan qarash kerak [10, 73].

Cholg'u ijrochiligi fanlari o'z murakkabligi bilan ajralib turadi. Ijodiy fan nazariy bilan birga pragmatik tajribalarni ham talab qiladi. Pedagog talabalarning individuallik xususiyatlarini dars jarayonida kuzatib, o'rganib, tahlil qilib boradi.

Cholg'u ijrochiligida individuallikni shakllantirish zaruriy omilga aylanib bormoqda. Individual ishlashish pragmatikasining katta ijobiy tomoni – o'zlashtira olmaydigan darslarini o'zlashtirishda yaxshi samara beradi. individuallik xususiyatlari bilan ishlashish pragmatikasi – pedagogning dars tamoyiliga aylanishi kerak. Bugungi kunda biz pedagoglarning oldida katta mas'uliyatli vazifalar mujassam.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev: Bugungi shiddatli zamon oldimizga qanday murakkab vazifalarni qo'yayotganini barchamiz ko'rib, bilib turibmiz. Ularni hal etish va ezgu maqsadlarimizga etish, dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lish uchun xalqimizni, avvalambor, yoshlarimizni ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyat, taraqqiyot yutuqlari bilan qurollantirishimiz kerak. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, oliygohlarimizni ta'lim va ilm-fanning yirik markazlariga aylantirish bo'yicha boshlagan katta ishlarimizni jadal davom ettirishimiz lozim [11, 1], – degan edi.

Haqiqatan, barcha javhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Cholg'u ijrochiligida pedagog pragmatik tajribalarni oshirish orqali talabalarning ijobiy-ijodiy xususiyatlarni maksimal darajada rivojlantirib boradi. Talabaning rivojlanishi – uning darsga tayyorligi, bilim qobiliyatlari darajasi, kuzatish, e'tibor, xotira, nutq, fikrlash jarayonlari, cholg'uga qiziqishlarning yo'naltirish bilan xarakterlanadi.

Cholg'u ijrochiligida talabalarning individuallik xususiyatlari bilan ishlashish pragmatikasining ortishi orqali talaba qaysi jarnga, qaysi cholg'u asbobiga, qaysi san'atkorning ijro yo'llariga ko'proq qiziqishi borligini tahlil qilib boramiz. Individuallik xususiyatlari bilan ishlashish pragmatikasi talabaning mashg'ulotlarga munosabati, ularning yutuq va kamchiliklari, qiyinchiliklarni

english qobiliyatiga ta'sir qiluvchi salbiy muammolarni bartaraf etib borishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yesanov M. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Jur. //Oriental Art and Culture №3/ 1. – Farg'ona. O'zDSMIQF.
2. Abrueva M. O'zbek milliy cholg'ularining tarixi va ularni rekonstruksiya qilish xususida// jur. Analytical Journal of Education and Development. №02/1. – Toshkent, 2022
3. Abdullayeva O.O'. Cholg'ushunoslik. O'zDK. – Toshkent.: 2017. – 75-b.
4. D.Islomov. Maxsus cholg'u. – Toshkent: O'zDSMI, 2019. – 166-b.
5. Djurayev R.X., Tolipov O'.Q., Safarova R.G'. , To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent, elektron manba. 2008. – 132.
6. Qodirov R.G'. Musiqa psixologiyasi. – Toshkent.: Musiqa, 2005. – 80-bet.
7. Haydarov A. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish– Toshkent. “Kamalak” 2019. 192-b.
8. Rahimov SH.N., Yusupov SH.S. Cholg'u ijrochiligi. Musiqa. – Toshkent., 2011. – 88-b.
9. Xodjaeva D. Iqtidorli talabalarning individual-tipologik xususiyatlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil № 9). – Buxora. <http://interscience.uz>
10. Rahimov SH.N., Yusupov SH.S. Cholg'u ijrochiligi. Musiqa. – Toshkent., 2011. – 88-b.
11. Mirziyoyev SH. “O'zbekiston o'qituvchi va murabiylariga”// gaz. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, “Sharq”. 2021 yil, 1 oktabr. №40. (4647)

Mansurova Dilyora Shavkat qizi,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti fakulteti Ashula va raqs
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

YOSH AVLOD MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING TA'SIRI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: *Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirish jamiyatni rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda musiqa san'ati, uning hissiy holatlarga ta'siri, shaxsiyatni shakllantirishdagi roli va madaniyatni chuqur tushunishdagi ahamiyati alohida e'tiborga molik. Ushbu maqolada musiqa san'atining yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ularning ma'naviy qadriyatlarini oshirishdagi o'rni o'rganiladi. Klassik musiqa va zamonaviy musiqaning ta'siri, uning yoshlarning hissiy intellekti, ijodiy qobiliyatlari va axloqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Musiqa nafaqat san'at turi sifatida, balki yoshlarning xarakterini rivojlantirish, ularni ijtimoiy ongga olib chiqish va ma'naviy-axloqiy nuqtayi nazarini shakllantirishda muhim vosita sifatida o'zining o'rnini tasdiqlaydi. Tadqiqotda musiqa ta'limining yoshlarni rivojlantirishdagi ahamiyati va uni ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *yoshlarni rivojlantirish, tafakkur rivoji, ma'naviyat, musiqa ta'limi, axloqiy qadriyatlar, hissiy intellekt, madaniy ta'sir, shaxsiyatni rivojlantirish, ijodkorlik, san'atni ifoda.*

Annotation. *Developing the thinking of young people and increasing their spirituality is of great importance in the development of society. For this purpose, the art of music, its impact on emotional states, its role in the formation of personality, and its importance in a deep understanding of culture are of particular importance. This work studies the role of music in developing the thinking of young people and increasing their spiritual values. The influence of classical music and modern music, how it affects the formation of emotional intelligence, creative abilities, and moral skills of young people, is analyzed. Music confirms its place not only as a type of art, but also as an important tool for developing the character of young people, bringing them to social consciousness, and forming their spiritual and moral outlook. The study emphasizes the importance of music education in the development of young people and the need to integrate it into the education system.*

Key words: *youth development, intellectual development, spirituality, music education, moral values, emotional intelligence, cultural influence, personality development, creativity, artistic expression.*

Yoshlar tafakkuri va ma'naviyati jamiyatning kelajakda qanday rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bir nechta faktorlar ta'sir ko'rsatadi, jumladan ta'lim, ijtimoiy muhit va madaniyat. Bularning ichida musiqa san'ati alohida o'rin tutadi, chunki musiqa nafaqat hissiy holatni shakllantiradi, balki yoshlarni tafakkur qilishga, axloqiy qadriyatlarni anglashga va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa nafaqat estetik qadriyatlarni o'zida aks ettiradi, balki insonning ichki dunyosini boyitadi va uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiradi.

Musiqa san'ati yoshlarga nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va madaniy hayotga yanada chuqurroq kirishga yordam beradi. Ayniqsa, yoshlar o'z hissiyotlarini musiqada ifodalash orqali o'z ichki olamlarini tushunishga va bu orqali atrof-muhitga nisbatan yanada mukammal munosabatda bo'lishga erishadilar. Musiqa ta'limi orqali yoshlar axloqiy xulq-atvorni rivojlantiradi, adolat, samimiyat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni o'zlashtiradilar. Shuningdek, musiqa o'zaro hurmat, hamjihatlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqolada musiqa san'ati va uning yoshlar tafakkuri va ma'naviyatini oshirishdagi ahamiyati, shuningdek, musiqa ta'limining yoshlarni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Musiqa san'atining yoshlar uchun ahamiyati, uning ijodiy tafakkur va ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni tadqiqotda muhokama qilinadi [1, 45-50].

Muhokama va natijalar. Musiqa san'ati yoshlar tafakkuri va ma'naviyatini rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat musiqa tinglash yoki ijro etish bilan bog'liq, balki uning o'zaro ta'sir orqali insonning hissiy va axloqiy o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish ham zarur. Musiqa nafaqat estetik zavq bag'ishlash, balki yoshlarning tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiy ongini shakllantirishda katta ahamiyatga ega [2, 12-17].

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishda musiqa san'ati o'zining bir nechta jihatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, musiqa muloqot, tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa tinglash yoki ijro etish yoshlarni kognitiv jihatdan faol qiladi, chunki musiqa tinglaganda odamning miyasi ko'proq faoliyatga kiradi. Musiqa orqali yoshlar o'zlarini qanday his qilayotganlarini anglaydi, bu esa ularning hissiy intellektini oshiradi [3, 78-85].

Ikkinchidan, musiqa yoshlarning diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash va murakkab muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan vositalar sifatida ham yordam beradi. Musiqa kompozitsiyalarini o'rganish, ularni tushunish va tahlil

qilish orqali yoshlar nafaqat musiqiy bilimlarni, balki umumiy kognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Musiqqa san'ati nafaqat tafakkur, balki yoshlarning ma'naviy o'sishida ham muhim ahamiyatga ega. Musiqqa orqali yoshlar ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va insoniy fazilatlar haqida o'ylashadi. Musiqqa tinglashda yoshlar ko'pincha ruhiy va axloqiy qadriyatlarni anglashadi, bu esa ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi. Masalan, musiqqa orqali yoshlar muammolarga qanday munosabatda bo'lishni, samimiyatni, xushmuomalalikni, sabr-toqatni va mehnatsevarlikni o'rganadilar.

Musiqqa san'ati, ayniqsa, jamiyatdagi adolat va tenglik kabi masalalar bilan bog'liq mavzularni o'z ichiga olgan asarlar yoshlar ongida ma'naviy uyg'onishga sabab bo'lishi mumkin. Musiqqa ko'pincha milliy, madaniy va insoniy qadriyatlarni o'z ichiga olgan asarlarni targ'ib qiladi, bu esa yoshlarni o'z madaniyati va boshqa madaniyatlar bilan tanishtiradi va ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

Musiqqa ta'limi orqali yoshlar nafaqat musiqqa nazariyasi, balki ijodiy va axloqiy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar. Musiqqa ta'limi yoshlarning guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ular orasida hamjihatlik, o'zaro hurmat va jamoaviy ishlarni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqqa ta'limi o'quvchilarda muloqot qilish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy o'zaro aloqalarni mustahkamlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi [4, 31-37].

Yoshlar orasida musiqqa ta'limining samaradorligini o'rganish uchun o'tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko'rsatdiki, musiqqa darslari nafaqat ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ular o'zlarini ma'naviy va hissiy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi. Musiqqa ta'limi bilan shug'ullangan yoshlar o'z ma'naviy qadriyatlariga ko'proq e'tibor berishadi va o'zlarining dunyoqarashlarini kengaytiradilar.

Yuqoridagi tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, musiqqa san'ati yoshlar tafakkuri va ma'naviyatini rivojlantirishda juda muhim vosita hisoblanadi. Musiqqa nafaqat hissiy va kognitiv rivojlanishga, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqqa ta'limi yoshlarni o'zining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ularning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ham yordam beradi.

Shuningdek, musiqqa orqali yoshlar o'zlarining hissiyotlarini boshqarishni, boshqalar bilan hamjihatlikda ishlashni va dunyoqarashlarini kengaytirishni o'rganadilar. Bu esa ularning shaxsiy o'sishlariga va jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi.

Natijada musiqqa san'ati va musiqqa ta'limi yoshlar uchun faqat estetik qiziqishlarni qondirishdan tashqari ularni intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishga olib boradigan kuchli vosita sifatida xizmat qiladi [5, 117-175].

Xulosa. Musiqa san'ati yoshlarning tafakkuri va ma'naviyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Musiqa nafaqat hissiy dunyoni boyitib, yoshlarning tafakkurini kengaytirishga yordam beradi, balki ular orasida axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va hamjihatlikni shakllantiradi. Musiqa ta'limi yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni hissiy intellekt va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishga ham yo'naltiradi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, musiqa orqali yoshlar muloqot, diqqatni jamlash va murakkab masalalarni hal qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Shuningdek, musiqa ta'limi orqali ular o'zlarini va atrof-muhitni chuqurroq tushunishga erishadilar. Musiqa san'ati shaxsiyatni shakllantirishda, ijtimoiy va madaniy ongni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Shu o'rinda musiqa san'ati va ta'limining yoshlar uchun nafaqat estetik, balki ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini tan olish zarur. Musiqa ta'limining ta'lim tizimiga yanada kengroq integratsiyasi yoshlarni yanada ma'naviy va intellektual rivojlantirishga yordam beradi. Kelajakda musiqa ta'limi va san'ati orqali yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topishga, o'z hayotini yanada to'liqroq va ma'noli qilib yaratishga qodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva D. "Musiqa ta'limining yoshlar ruhiyatiga ta'siri. Toshkent davlat konservatoriyasi ilmiy axboroti. 2015. 3(1), 45-50-b.
2. G'ofurov M. Musiqa san'ati va uning ma'naviyatni shakllantirishdagi roli. "Madaniyatshunoslik va san'at" jurnali, 2018. 4(2), 12-17-b.
3. Jalilov, B. "Yoshlar tafakkuri va musiqa ta'limining o'zaro aloqasi." O'zbekiston musiqiy pedagogikasi" jurnali, 2020. 5(3), 78-85-b.
4. Mavlonov S. "Musiqa san'atining ijtimoiy va ma'naviy ta'sirlari." Ijtimoiy fanlar va madaniyat" jurnali, 2019. 2(4), 31-37-b.
5. Palincsar A. S., & Brown, A. L. "Reciprocal teaching of comprehension-fostering and comprehension-monitoring activities." Cognition and Instruction". 1984. 1(2), 117-175.

Qudratova Nozliya Ilhom qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San'atshunoslik fakulteti Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

MUSIQA TERAPIYASI VA UNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya: *ushbu maqola musiqaning hissiy va psixologik salomatlikdagi rolini o'rganib, turli tadqiqotlar, misollar, amaliy dasturlarni qamrab oladi. Musiqa terapiyasining stress, depressiya kabi ruhiy holatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi. Musiqa inson his-tuyg'ularini ifoda etadi, xotiralarni eslash va ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish kabi ko'plab hissiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada musiqa terapiyasi tekshirilayotgan sog'liq muammolari, muayyan usullar, amaliy ko'rsatmalar ham tavsiya etilgan. Muammo va echimlar orasidagi bog'lanish musiqaning inson ruhiyatiga chuqur ta'sirini ko'rsatadi va ushbu sohada imkoniyatlarni kengaytiradi.*

Kalit so'zlar: *terapiya, ko'rsatma, his-tuyg'u, madaniyat, musiqa, san'at, ijtimoiy.*

Annotation: *This article explores the emotional and psychological role of music in mental health, covering various studies, examples, and practical programs. It explains the positive effects of music therapy on mental states such as stress and depression. Music expresses human emotions, helps recall memories, and enhances social interactions, encompassing many emotional aspects. Additionally, the article discusses specific methods, practical recommendations, and how music therapy is suggested for addressing health issues. The connection between problems and solutions shows how deeply music can influence the human psyche and expands opportunities in this field.*

Keywords: *therapy, instruction, emotion, culture, music, art, social.*

Musiqa barcha davr va har bir madaniyatda muhim o'rin tutgan san'at turidir. U insonlarning his-tuyg'ularini ifoda etishda, ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishda, ruhiy holatni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Musiqa terapiyasining tarixi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Dastlab u shifobaxsh kuchga ega bo'lgan ma'rifat sifatida qabul qilinib, Gobiylar, misrliklar va yunonlar o'z mohiyatida musiqani kasalliklarni davolashda hamda ruhiy holatni yaxshilashda, muayyan xulq-atvorlarni tartibga solishda ishlatganlar. Bugungi kunda musiqa terapiyasi turli sog'liq muassasalarida qo'llanilib, ruhiy va jismoniy muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Musiqa terapiyasining ikki turi mavjud: reaktiv va proaktiv.

Reaktiv terapiya odamning ruhiy holatini o'rganish uchun ishlatiladi. Terapevt mijozning qiziqishlariga mos musiqa tanlaydi va ularni muhokama qiladi.

Proaktiv terapiya esa odamlarni musiqaga jalb qilish, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish hamda yaratuvchanlikni oshirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar musiqa terapiyasining ko'plab ijobiy ta'sirlarini ko'p marta isbotlashgan. Masalan, departamentlararo tadqiqotlar, musiqa terapiyasi orqali davolangan insonlarda depressiya, tashvish sezilarli darajada pasayish kuzatilganini ko'rsatadi. Musiqa, serotonin va endorfin ishlab chiqarishni oshirish orqali ruhiy holatni yaxshilashi kuzatilgan. Shuningdek, nuqsonli xotira nafaqat, diqqat qilish qobiliyatini rivojlantirishda ham musiqa terapiyasi samarali ekanligi isbotlangan. Musiqa terapiyasining eng qiziqarli jihatlaridan biri shundaki, u individual va guruh shaklida amalga oshiriladi. Guruh shaklida insonlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, o'zaro muloqot rivojlanadi, yangi ijtimoiy ko'nikmalar o'zlashtiriladi. Individual tarzda esa inson o'z hissiyotlari va ichki tajribalarini tushunishga yordam beradigan shaxsiy tajribalarni olishi mumkin.

Musiqa terapiyasi – bu musiqaning terapevtik ta'siri orqali inson ruhiyatini, hissiyotlarini hamda umumiy holatini yaxshilashda qo'llaniladigan usul bo'lib, quyidagi foydalar bilan bog'liq:

- stressni kamaytirish;
- kayfiyatni yaxshilash;
- ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish;
- og'riqni engillashtirish;
- uyquni yaxshilash.

Musiqa terapiyasida ishlatiladigan asosiy usullar:

– Musiqa tinglash: tinchlantiruvchi, ijobiy hissiyotlarni yaratish uchun musiqalar tanlanadi.

– Instrumentlar bilan ishlash: gitara, pianino va boshqa asboblarni yordamida musiqa yaratish.

– Qo'shiq aytish: qo'shiqlar orqali his-tuyg'u, nafaqat fikrlarni ifoda etish.

– Ijodiy yozuv: kompozitsiyalar yaratish.

Musiqa terapiyasi turli sohalarda, jumladan, psixologiya, tibbiyot, ta'limda qo'llanilishi mumkin. Boshqa terapiyalarga nisbatan jozibadorligi shundaki, musiqaning hissiy ta'siri insonlarni birlashtiradi va yangi nazariyalarni ochishga yordam beradi. Musiqa terapiyasi ijodiy jarayonlarni rag'batlantirib, sog'liqni saqlash tizimida muhim o'rin egallaydi. Musiqa terapiyasi inson ruhiyatiga ta'siri keng va qiziqarli jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu usul ruhiy salomatlikni yaxshilash, stressni kamaytirish, depressiya bilan kurashishda, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Musiqa ruhiy holatni yaxshilaydi. Musiqa

tinglash jarayonidamiyaning ijobiy emotsiyalarni boshqaradigan qismlari faol bo'lib, ushbu jarayon serotonin va endorfin, ya'ni "baxt gormonalari" ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa terapiyasi insonlarning xotira faoliyatini yaxshilab, diqqatni oshirishga ham yordam beradi. Musiqa tinglash yoki ijro etish jarayoni miya faoliyatini faollashtirib, kognitiv ko'nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Musiqa terapiyasi inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kuchli vosita hisoblanib, bu metod sog'liqni saqlash sohasida yangi imkoniyatlarni ochib berishga yordam beradi. Shuningdek, u stress, tashvish va depressiya kabi ruhiy muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga egadir. Musiqa, nafaqat xursandchilik, balki shifo beruvchi vosita sifatida ham tan olingan. Hozirgi kunda bunday usullarni qo'llash nafaqat terapevtik kontekstdagi odamlar uchun, balki keng jamiyat uchun ham qo'llaniladi. Musiqaning shifobaxsh kuchini tan olish va uni hayotimizga tatbiq etish, ruhiy va jismoniy salomatlikni yaxshilashda muhim qadam hisoblanadi. Musiqa, shuningdek, stressni kamaytirish, ruhiy kasalliklar bilan kurashishda zaruriy vosita sifatida qo'llaniladi. Stressli vaziyatlarda musiqani tinglash yoki ijro etish ruhiy holatni yaxshilaydigan vosita bo'lib, insonning xavotirlik hamda asabiylikdan qochishiga yordam beradi. Guruh shaklida o'tkaziladigan musiqa terapiyasi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Musiqa terapiyasi jismoniy rehabilitatsiya jarayonida ham qo'llaniladi. U insonlarni o'zlariga bo'lgan ishonchlarini qaytarishga yordam beradi. Musiqa insonning jismoniy faolligini oshirishi hamda qiyin sharoitlarda motivatsiyani kuchaytirishi, jismoniy salomatlikni mustahkamlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, musiqa terapiyasi inson ruhiyatini tabiiy va samimiy usullar bilan qo'llab-quvvatlaydi. Ruhiy salomatlikni mustahkamlashga yordam berib, shaxsiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Har bir inson uchun musiqaning ahamiyatini anglash, uning shifobaxsh kuchini to'liq his etishiga, hayot sifatini yaxshilashiga xizmat qiladi. Musiqa orqali o'z-o'zini ifoda etish va ruhiyatni uyg'unlash orqali kuchli hayotiy tajribalarga ega bo'lish ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musiqa terapiya —
Wikipedi.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Musiqa_terapiya
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Musiqa_terapiya.
2. San'atning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati. International journal of science and technology. 2025.04.16.

3. Abduvahhobov A. Musiqiy terapiyaning tendensiyalari va inson salomatligiga ta'siri.

4. Ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni tadbiq etish afzalliklari. Muallim. 6-son, dekabr 2024.

5. O'zbekiston ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi: islohotlar, muammolar va istiqbollar. O'z.Res.Jamoat xavfsizligi universiteti. 73-76-b. 2025. 27-mart.

MUNDARIJA

Nodirbek Baxtiyorovich Sayfullayev, Kirish soʻzi.....	3
Mavrulov Abduxalil. Madaniyat, ijtimoiy hamkorlik va jamiyat birdamligi ..	5
Safarov Orol Abdumannonovich. Yoshlarning ruhiy va emotsional salomatligiga erishishda musiqa terapiyasining oʻrni	17
Tajadinova Guljaxan Nizamatdinovna. Qoraqalpoq kino saʼnatida milliy musiqaning oʻziga xosligi.....	22
Lutfullayev Xayrulla Asatullayevich. Yoshlar tafakkurini rivojlantirishda va maʼnaviyatini oshirishda musiqa sanʼatining oʻrni.....	26
Dustmurodov Beknazar. Katta ashulani yoshlar orasida ommalashtirish muammolari va ularni hal qilish yoʻllari.....	30
Ermatov Mashrab Ergashovich. Oʻzbek qoʻshiqchiligining xalqaro tajribasi va globalizatsiya jarayonlari.....	35
Isroilova Huriyat Samiyevna. Dutor va ovoz.....	41
Dadayev Ahmadjon Shokarimovich. Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va maʼnaviyatini oshirishda musiqa sanʼatining oʻrni.....	44
Toʻrayev Qahramon Fayzullayevich. Inson kamolotida musiqa sanʼatining oʻrni.....	51
Alimov Abdumuxtor Odilovich. Orifxon Xotamov ijodi: yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirishda gibe-baho meros.....	55
Xudayarova Zaynab Rajabovna. Xalqqa manzur “HALIMA”.....	59
Mardonov Zafar Muzaffarovich. Milliy musiqa orqali yoshlar orasida ijtimoiy birdamlik va vatanparvarlik ruhini shakllantirish masalalari.....	66
Jabborov Alisher Toʻraqulovich. Maqomlarni yoshlar tarbiyasidagi oʻrnini yanada rivojlantirish va vatanparvarlik-tuygʻusini oshirishdagi oʻrni.....	71
Matyaqubov Quvandiq Matrasulovich. Musiqa sanʼatining yoshlar ongini yanada rivojlantirish va vatanga mexrini oshirishdagi oʻrni.....	76
Muxtorova Mohlaroyim Aripdjanovna. Musiqa sanʼati va yoshlarning maʼnaviy rivojlanishi	81
Sattorov Mirzobek Joʻrabek oʻgʻli, Jumanazarov Zohidjon Eldor oʻgʻli. Bolalik davri manaviyatining shakllanishida musiqa sanʼatining oʻrni... ..	87
Hasanov Gʻulomjon Gʻanijon oʻgʻli. Milliy musiqa sanʼatining qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashdagi oʻrni.....	93
Shukurov Joʻraqul Tilauvovich. Ashula va raqs ansambllarini tashkil etish va jamoaga yosh ishtirokchilarni jalb etish masalalari.....	97
Mirzayev Komiljon Gʻulomovich. Milliy cholgʻularning ommalashuvi va ularning zamonaviy talqini.....	101

Niyozov Soyibjon Navruzovich. O'zbek milliy musiqa merosining tarixiy-sistemali tahlili: an'ana va innovatsiya dialektikasi.....	105
Norqo'ziyev Murod Madaminovich. Milliy cholg'ular asosida yosh musiqachilarni tarbiyalashda innovatsion pedagogik yondashuvlar.....	111
Tojiboyeva Sharofat Ergashevna. Musiqa yoshlarni ijtimoiy faollikka undovchi kuch sifatida: milliy va global tajribalar	106
Matyakubov Shavkat Botirovich. Maqomlarni o'rgatishda ustoz-shogird an'analarining muhim jihatlari.....	120
Arzimurodova Nigora Samarovna. Milliy maqom san'atini yoshlar qalbiga singdirish hamda buborada olib borilayotgan ishlar.....	125
Xayrullaev Nodirbek Xayrullaevich. Musiqa: yoshlar ruhiyatini boyitishning kuchli vositasi sifatida.....	130
Mo'minova Lobar Raxmonjonovna. Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarning ro'li va innovatsion pedagogik yondashuvlar	136
Asadullayeva Mastura Abduvahobovna, Ismailova Sevdaxon Muzaffar qizi. Inklyuziv ta'limda o'smir yoshdagi o'quvchilar rivojlanishida musiqaning ahamiyati.....	141
Umarova Gulshan Omonovna. Musiqiy savodxonlik darajasining pasayishi: sabablar va pedagogik yechimlar.....	145
Xudoynazarov Otanazar Matnazarovich. An'anaviy sozandalar ansambllarining rivojlanish tendensiyalari va zamonaviy ijrochilik uslublari .	149
Umarov Baxtiyor Shovkatovich. Kamonli cholg'ular.....	153
To'raboyeva Bashorat Raxmatjanovna. Dutor sozining an'anaviy cholg'uchilikdagi ahamiyati, tarixi hamda ijro maktablari.....	159
Turatov Javohir G'anisherovich. O'zbek milliy cholg'ularini takomillashtirish jarayoni.....	164
Abduazimova Dilorom Hasanboyevna. San'atimiz gultoji bo'lmish milliy maqom san'atini yoshlar ongiga singdirish hamda targ'ib qilish.....	168
Sayidov Bahodir Qodir o'g'li. Ashula va qo'shiq janrining o'ziga xos xususiyati va farqlari.....	173
Abdusalimova Nigina Vositxonovna. Musiqa ta'limini raqamli texnologiyalar va sun'iy intellect asosida takomillashtirish.....	177
Yusupov Asliddin Baxodirovich. Milliy mumtoz musiqa targ'ibotining professional ta'lim va o'rta ta'limdagi o'rni.....	182
Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi. Musiqa va tasviriy san'at o'rtasidagi integratsiya.....	187
Oljabayeva Nurgul Tulebay qizi. Dombra va dutor: turkiy xalqlarning milliy musiqiy asboblari taqqoslash.....	191

Usmonov Farrux Qaxramon o'g'li. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar va musiqa madaniyati: tiktok misolida san'atning raqamli iste'moli.....	196
Baratov Bahodir Salim o'g'li. Musiqa va ilm-fanning birligi: yoshlar yaratgan yangi yondashuvlar.....	203
Madiyev Sobir Xayitulovich. Yosh ijodkorlar iste'dodini rag'batlantirishda musiqiy tanlov va festivallarning o'rni.....	207
Fayziyeva Feruza Xojimurodovna. Musiqaning film dramaturgiyasiga ta'siri.....	214
Axmedova Mavluda Toshpo'latovna. XX asr boshlarida milliy musiqa madaniyati.....	217
Dadayev Shomurod Shokarimovich. Milliy qo'shiqlardagi tarixiy, axloqiy va badiiy motivlarning yosh avlodga tarbiyaviy ta'siri.....	227
Qoraboyev Shuxrat Erkinovich. Milliy musiqa namunalarining turizm va madaniyat industriyasidagi o'rni.....	226
Shonazarova Mahbuba Abdunabi qizi. Musiqa terapiyasi hamda musiqa psixologiyasining inson ruhiyatiga ta'siri.....	231
Turg'unova Nasiba Mamatovna. Mahammadjon mashshoq.....	237
Xolboyev Nuriddin Suyunovich. Musiqa san'atining kreativ industriyalarga qo'shayotgan hisssasi va kelajak istiqbollari.....	242
Xusanov Husniddin Urinovich. O'zbek milliy musiqa san'atining yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni.....	246
Мадияров Бахтияр Сметович. Қарақалпақстан кино өнерираўажланыў басқышлары.....	249
Sobirov Navro'zbek Hakimjon o'g'li. Musiqa terapiyasi va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi.....	252
Eminov Nurillo Qosim o'g'li. Baxshilar va xalfalar san'atiga ayrim chizgilar.....	256
Sobirov Samandar Sobir o'g'li. Musiqa va kognitiv rivojlanish: yoshlarning aqliy faoliyatini rivojlantirishda musiqa san'atini o'rganishning ahamiyati	259
Rahimova Zamira Jalilovna. O'zbekistonda musiqa ta'limi tizimi: zamonaviy talablarga moslashuv, muammolar va islohotlar.....	265
Mirxalilov Bekzod Dilshodovich. Musiqa terapiyasi va pedagogik amaliyot integratsiyasi.....	269
Xurramov Abbos Baxramovich. "Musiqa–teatr ruhi: zamonaviy sahna san'atida musiqaning o'rni va ta'siri".....	275
Ulug'ova Nozima Baxtiyorovna. Milliy bayramlarimizdagi urf-odat va marosimlar.....	280
Abdullayev Ma'mur Mamat o'g'li. Cholg'u ijrochiligida talabalarning individuallik xusuiyatlari bilan ishlashish pragmatikasi.....	284

Mansurova Dilyora Shavkat qizi. Yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda musiqaning ta'siri va ahamiyati.....	289
Qudratova Nozliya Ilhom qizi. Musiqa terapiyasi va uning inson ruhiyatiga ta'siri.....	293

“YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI”

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman
TO'PLAMI

GANJINA – 2025
Yunusobod 11. 2.4

Muharrir: R.X. Babaxodjayev
Dizayner: M.S. Xudoyberdiyev
Sahifalovchi: M.X. Tashbayeva

Nashriyot litsenziyasi AANº0039, 2019-10-12.
Bosishga ruxsat etildi 05.05. 2025y. Bichimi 60x84 1/8
Shartli bosma tabog'i 37.150 Adadi 200 nusxa.
Buyurtma Nº18

“Elnur-print” MЧЖ bosmaxonasi, Toshkent sh., Navoiy 30.